

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI***


**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT
INSTITUTI**

NEFT VA GAZ FAKULTETI

“NEFT VA GAZ QATLAM FIZIKASI”

FANIDAN

MA'RUZALAR MATNI



QARSHI – 2022 yil

Tuzuvchi:

**“Neft va gaz ishi” kafedrası katta
o’qituvchisi H.M.Muhammadiyev**

Taqrizchilar:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti dotsenti A.X.Qarshiyev**

**“Neft va gaz ishi” kafedrası dotsenti,
t.f.n. P.E.Allaqulov**

Ushbu ma’ruzalar matni 5311900 –“Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish” yo’nalishi talabalariga mo’ljallangan bo’lib “Neft va gaz qatlami fizikasi” fanining namunaviy dasturi asosida tuzilgan. Ma’ruza darslari talabalarni nazariy bilimlarini oshirish, mustahkamlash maqsadida tog’ jinslari haqida ma’lumot, uglevodorodlarning fizik-kimyoviy xossalari, g’ovakli muhitdan neft va gazni siqib chiqarishning fizik asoslari, neft va gazni qatlamdan siqib chiqarishni ilmiy tajribalar orqali o’rganish va konlarni o’rganishda modellashtirishni nazariy jihatdan o’rganadilar.

“Neft va gaz qatlami fizikasi” fanidan ma’ruzalar matni “Neft va gaz ishi” kafedrasining 2021 yil “___” _____dagi ___-sonli, “Neft va gaz” fakulteti Uslubiy kengashining 2022 yil “___” _____dagi ___-sonli, Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil “___” _____dagi ___-sonli yig’ilishlarida ko‘rib chiqilib tasdiqlangan.

©Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Mundarija

1	Kirish.....	5
	Fanning asosiy maqsad va vazifalari. Tog` jinslarining xossalari.....	6
2	Tog` jinslarining g`ovakligi, yoriqligi va kovakliligi.....	12
3	O`tkazuvchanlikning g`ovaklik va g`ovak kanallari bilan bog`liqligi.....	23
4	Tog` jinslarining mexanik xossalari.....	33
5	Tog` jinslarining issiqlik xossalari va ularning akustik xususiyatlari.....	37
6	Gaz, kondensat, neft va qatlam suvlarining fizik - kimyoviy xossalari.....	41
7	Tabiiy gaz va gaz, kondensat konlaridagi gazlarning tarkibi.....	47
8	Tabiiy gazlarning asosiy fizik xossalari.....	50
9	Gazlarning holat tenglamalari, ularning kritik va keltirilgan parametrlari..	54
10	Gazlarning qovushqoqligi va uni aniqlash usullari.....	60
11	Kristallogidratlar va ularning hosil bo`lish sharoitlari.....	72
12	Kondensatlarning fizik xossalari va uni tadqiq qilish.....	75
13	Neft tarkibi va tasnifi.....	79
14	Neft xossalarini o`rganishning fotokalorimetriya usuli.....	88
15	Qatlam suvlarning fizik - kimyoviy xossalari.....	95
16	Qatlam suvlari tarkibini o`zgarishi.....	99
17	Uglevodorod sistemalarining fazoviy holatlari.....	103
18	Ko`p komponentli uglevodorod aralashmalarining kritik xususiyatlari.....	108
19	Gaz kondensat konlarining xarakteristikasi.....	111
20	Qatlam – suv - neft - gaz tizimining sirt - molekulyar xossalari.....	116
21	Ho`llash, adgeziya ishi, ho`llash burchagi va ho`llash issiqligi.....	119
22	Sirt taranglik kuchini tajribaxonada aniqlash usullari.....	122
23	G`ovakli muhitdan neft va gazni siqib chiqarishning fizik asoslari.....	127
24	Qatlamlarning neft, gaz, kondensat beraolishlik qobilyatini har xil omillarga bog`liqligi.....	131
25	Neft va gazni qatlamdan siqib chiqarishni ilmiy tajribalar orqali o`rganish.....	134
26	Konlarni o`rganishda modellashtirish.....	138
27	Modellashtirishda o`xshashlik qonunlari.....	138
	Foydalanilgan adabiyotlar	141

“Neft va gaz qatlam fizikasi” maʼruzalar toʻplami 5311900 – Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish yoʻnalishi talabalariga moʻljallangan. Ushbu toʻplamda qatlam suyuqligi gazlar va togʻ jinslarining xossalari oʻrganishning nazariy va laboratoriya usullari bilan tanishtirishdan iborat. Shu bilan birga chizmalar, grafiklar, asosiy formulalar, hisoblar va jadvallar keltirilgan.

В сборнике лекции по предмету: «Физика нефтяного и газового пласта» свещены вопросы свойство горных пород, жидкости пластов, свойство газов, нефтей и тд. В нём ознокомляют теории и методы лаборатории. Приводятся основные формулы, расчётные материалы, графики, чертежи и таблицы. Сборник лекций предназначен для студентов учащихся в 5311900 – «Разработка и эксплуатация нефтяных и газовых месторождений» специалистам по нефти и газу, а также магистрантам.

In the collection of lectures on the subject: "Physics of oil and gas formation", the questions of the property of rocks, reservoir fluids, the property of gases, oils, and so on are highlighted. In it, the theories and methods of the laboratory are chilling. The basic formulas, calculation materials, graphs, drawings and tables are given. The collection of lectures is intended for students studying in 5311900 – "Development and operation of oil and gas fields" to specialists in oil and gas, as well as undergraduates.

Kirish

Neft va gaz sanoati xalq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi mamlakatimiz iqtisodiy potensialini belgilaydigan sohalardan biridir.

2008 yilda boshlangan va 2009 yilda jahonning ko'plab mamlakatlari iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz salbiy ta'sir oqibatlarining oldini olish turli darajalardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishda o'ziga xos izchillikni, xatti-harakatlarning har tomonlama o'ylanganligi va asoslanganligini, tub islohotlarni amalga oshirishning bosqichma-bosqichligini, reja va maqsadlarga tomon harakatdagi sobitqadamlikni taqozo etadi. Mamlakatimizda chuqurlashgan jahon-moliyaviy inqirozi sharoitida barqaror o'sish sur'atlarining saqlanib qolishi esa tanlangan mustaqil taraqqiyot yo'limiz va unga muvofiq amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatimizning nechog'liq to'g'ri ekanligini yana bir bor tasdiqlamoqda.

O'zbekiston Respublikasining neft va gaz sanoati 100 yildan ortiq boy tarixga ega. Chuqurligi bir necha metr bo'lgan quduqlardan chelaklar bilan neft olishdan tortib, zamonaviy eng ilg'or usullar yordamida neft va gaz qazib chiqarishgacha bo'lgan davrda Respublikamizning neft va gaz sohasidagi fani va texnikasi katta yo'lni bosib o'tdi.

Bu yuksalish yo'lini bosib o'tishda hamda neft va gaz sohasining yanada rivojlanishida "Neft va gaz qatlam fizikasi" fani alohida o'rin tutadi. Bunda qatlamlarning tuzilishi, ularning asosiy fizik xossalari, qatlamlarni to'yintirib turgan gaz va suyuqliklarning fizik-kimyoviy xossalari, ularning harakatlanish davrida yuz beradigan jarayonlar qatlamlaridagi bosim va harorati o'zgarishi natijasida fazaviy o'tish jarayonlari, sirt taranglik kuchlarining suyuqliklarning harakatlanishiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, konlarni ishlash davrida hosil bo'ladigan ishlatish usullari haqida umumiy tushunchalar, qatlamlarning neft va gaz bera olishlik koeffitsientini oshirish yo'llari haqidagi umumiy yo'nalishlar, hamda konlarni ishlatishda turli moddalardan foydalanish to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

Ko'rinib turibdiki, qatlam fizikasi neft va gaz sohasiga tegishli barcha masalalarni qamrab olib, boshqa maxsus fanlar uchun asos bo'lar ekan. O'z navbatida esa umumtexnika fanlari - "Oliy matematika", "Fizika", "Kolloid kimyo" hamda maxsus fanlar - "Neft - gaz konlari geologiyasi", "Umumiy geologiya" kabi fanlar bilan uzviy bog'lanib ketgan.

1 – Ma'ruza.

Mavzu: Fanning asosiy maqsad va vazifalari. Tog` jinslarining xossalari

Reja:

1. Tog` jinslarining paydo bo`lishi bo`yicha tasnifi.
2. Tog` jinslarining donadorlik tarkibi.
3. Donadorlikni elash usuli orqali aniqlashni o`rganish

Adabiyotlar (1;2;3;6;7)

Tayanch so`zlar: Otqindi (magmatik), cho`kindi va metamorfik tog` jinslari, metasomatik jarayon, donador (granulyar), yoriq va aralash kollektorlar, kollektorlarning fizik, mexanik va kimyoviy xususiyatlari, elash va sedimentatsiya usullari.

1.1. Tog` jinslarining paydo bo`lishi bo`yicha tasnifi.

Tabiatda uchraydigan hamma tog` jinslari paydo bo`lishiga qarab uchta katta guruhga bo`linadi: otqindi (magmatik), cho`kindi va metamorfik.

Otqindi tog` jinslari asosan vulqonlar otilganida yer yuzasiga chiqadigan magma yoki yer ostidan yuqoriga katta bosim ostida sirqib chiqqan suyuq moddalarning qotishidan hosil bo`ladi. Otqindi tog` jinslarining hosil bo`lishida yuqori harorat va kuchli bosim alohida ahamiyatga egadir. Vulqon harakatining natijasi - magma, ba'zan yer yo`ziga chiqmasdan yer osti yoriqlari, yoki ba'zi bo`shliqlarga kirib asta - sekin qotishdan hosil bo`lgan tog` jinslari ham otqindi tog` jinslariga kiradi.

Cho`kindi tog` jinslari yer yuzasidagi jinslarning suvda erib cho`kishi, havo, shamol va muzliklar harakatidan yemirilib to`planishidan hosil bo`ladi. Cho`kish jarayoni bir vaqtning o`zida mexanik, kimyoviy va biogen o`zgarishlar bilan birgalikda bo`ladi. Shunday qilib, cho`kindi tog` jinslari litosferaning fizik, kimyoviy va biogen ta'sirlari ostida yemirilgan va qayta to`plangan mahsulotdir. Bu jinslar quruqlikda ham, suv havzalari ostida ham to`planadi.

Metamorfik tog` jinslari cho`kindi yoki otqindi tog` jinslarining harorat, bosim va kimyoviy reaksiyalar ta'sirida qaytadan hosil bo`lishidan kelib chiqadi. Odatda bunday o`zgarish jarayonlarida tog` jinslarining mineralogik tarkibi, tashqi kurinishi va to`zilishi tubdan o`zgarib ketadi. Bu o`zgarishlarda bir xil mineral tarkibdagi tog` jinslarining boshqa bir turdagi mineral tarkibga o`zgarishi metasomatik jarayon deyiladi.

Tabiatda hozirgacha aniqlangan neft va gaz konlarining 99 foizi cho`kindi tog` jinslariga va faqat bir foizi otqindi tog` jinslariga mansubdir. Shuning uchun cho`kindi tog` jinslari haqida mufassal to`xtalib o`tamiz.

Cho`kindi tog` jinslari qanday tog` jinslardan tashkil topganligiga qarab uch turga bo`linadi: donador (granulyar), yoriq va aralash kollektorlar. Neft yoki gaz yig`ilishi yoki paydo bo`lishi mumkin bo`lgan tog` jinslari - kollektorlar deyiladi.

Granulyar kollektorlar asosan qum, qumtosh va qum - alevrit kabi tog` jinslaridan tashkil topgan bo`ladi. Bunday kollektorlarda neft va gaz jinslarining mayda zarrachalar orasidagi bo`shliqlar, g`ovaklar ichida yig`iladi. Demak, granulyar kollektorlardagi foydali bo`shliqlar, ya'ni neft yoki gaz yig`ilishi mumkin bo`lgan bo`shliqlar, asosan zarrachalar orasidagi bo`shliqlar - g`ovaklardan iborat ekan.

Yoriq kollektorlarga ohaktosh, dolomitlar kiradi. Bunday tog` jinslarida foydali bo`shliqlar har xil yoriqlar sistemasidan iboratdir. Bo`shliqlar faqat yoriqlar emas, balki juda mayda mikrokarst va kovaklardan ham tashkil topgan bo`lishi mumkin. Yoriqlar sistemasi gorizont va tik yo`nalishlarda rivojlangan bo`lib, odatda ular o`zaro bir-birlarini kesib o`tadi. Neft va gaz ana shu yoriqlarda hosil bo`lishi yoki yig`ilishi mumkin, ularning harakati ham faqat shu yoriqlar orqali bo`ladi.

Aralash kollektorlar esa granulyar va yoriq kollektorlarning aralash holatda uchraydigan turidir. Odatda bunday kollektorlarda foydali bo`shliqlar tog` jinslari zarrachalari orasidagi bo`shliqlar g`ovaklar, yoriqlar, mikrokarst bo`shliqlar va kovaklardan iborat bo`ladi. Bunday

kollektorlarga qum, qumtosh va alevritlarning bir konning o'zida aralash qatlam hosil qilgan yollari kiradi.

Kollektorlarning fizik, mexanik va kimyoviy xususiyatlarini o'rganish neft va gaz konlarini to'g'ri ishlatishda asosiy omillardan biridir. Shuning uchun bu xossalar nimalardan iboratligi, ularning neft va gaz qazib olishdagi roli, o'zaro munosabatlarini mukammal o'rganmasdan turib, konlarni ishlatib bo'lmaydi. Kollektorlardan neft va gaz qazib olinayotganda ularning suyuqlik o'tkazish va sirqish qonuniyatlari qanday o'zgarishi, ularga ta'sir qilish usullari ham kollektorlarning mexanik va kimyoviy xossalariga uzviy bog'liqdir. Bu xossalar quyidagilardan iborat:

- 1) tog' jinslarining donadorlik tarkibi;
- 2) g'ovakligi, kovakligi va yoriqligi;
- 3) o'tkazuvchanligi;
- 4) kapillyarlik xossalari;
- 5) solishtirma yuzasi;
- 6) mexanik va issiqlik xossalari;
- 7) tog' jinslarining neft, gaz va suv bilan to'yinganligi.

Tog' jinslari zarrachalarining shakli va katta - kichikligi, zarrachalarning qay holda joylashganligi zarrachalarning joylashish xususiyati (tekstura) deyiladi.

Zarrachalarning to'zilishiga qarab tog' jinslari quyidagi to'rt guruhga bo'linadi.

- 1) zarrachalarning diametri 2 mm dan katta bo'lgan yirik bo'lakli jinslar - psefitlar;
- 2) zarrachalarning diametri 2 mm dan 0,1 mm gacha bo'lgan jinslar - psammitlar;
- 3) zarrachalarning diametri 0,1 mm dan 0,01 mm gacha bo'lgan jinslar - alevritlar;
- 4) zarrachalarning diametri 0,01 mm dan kichik bo'lgan jinslar - pelitlar.

Tog' jinslarining joylashish xususiyatlari asosan qat - qatligi, joylashish harakteri, zarrachalarning o'zaro bog'liqligi, ular orasidagi sementlovchi moddalarning miqdori kabilar bilan harakterlanadi.

1.2. Tog' jinslarining donadorlik tarkibi.

Tog' jinslarining donadorligi deb, ularning har xil kattalikdagi zarrachalardan qanday miqdorda tashkil topganligiga aytiladi.

Tog' jinslari turli kattalikdagi donador zarrachalardan tashkil topgan bo'ladi. Jinslarning donadorligi, ularning qay darajada mayda zarrachalardan tashkil topganligi hamda bu zarrachalarning o'lchamlari asosan mikroskop ostida ana shu tog' jinslaridan yasalgan shliflarda o'rganiladi. Agar o'rganilayotgan tog' jinslari o'ta qattiq, ya'ni sementlashgan bo'lsa, ularning tarkibini shliflar orqali o'rganish qulay bo'ladi. Lekin tog' jinslari o'ta qattiq bo'lmasa yoki kam sementlashgan bo'lsa, u holda ularning tarkibini o'rganish uchun granulometrik (donadorlik) usuldan foydalaniladi.

Tog' jinslarini tashkil qiluvchi minerallar qanchalik maydalanganligiga qarab jinslarning sig'im - o'tkazuvchanlik xossalari (g'ovakligi, o'tkazuvchanligi, solishtirma yuzasi, kapillyarlik xossalari va b.) ham tubdan o'zgarishi mumkin.

Tog' jinslarining donadorlik tarkibiga ularning geologik kelib chiqishi, qatlamlarning hosil bo'lishiga qarab ana shu geologik davrlarda bo'lib o'tgan jarayonlar xususida ma'lumotlar olish mumkin. Shuning uchun ham donadorlikni o'rganish geologik izlanishlarning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi.

Tog' jinslarini tashkil qilgan zarrachalarning katta - kichikligiga qarab ana shu zarrachalar bilan neft orasidagi bog'lanish yuzasi har xil kattaliklarni tashkil qilish mumkin. Zarrachalar qanchalik mayda bo'lsa, shunchalik ular bilan neftning umumiy bog'lanish yuzasi katta bo'ladi. Demak, bunday tog' jinslaridan neft olinayotganda mana shu mayda zarrachalarning yuzasini juda yupqa neft pardasi qoplab oladi va natijada ana shu parda holatidagi neft yer ostida qolib ketib, olib bo'lmas yo'qotishga sabab bo'ladi. Neftning parda holatida qolib ketishiga sabab, jinslarning juda mayda zarrachalardan tashkil topganligi, neft ana shu zarrachalarni o'rab olib

ularning molekulari bilan neft molekulari o'rtasidagi uzviy bog'lanishlar, hamda suyuqlikning kapillyarlik xossalaridir.

Shuning uchun ham ana shu yo'qotishlarni iloji boricha kamaytirish maqsadida avvalo tog` jinslari zarrachalarining qanday kattaliklardan tashkil topganligini, ularning umumiy (yoki solishtirma) yuzasi qanday kattalikni tashkil qilishini va nihoyat, neftning kapillyarlik xossalarini aniqlab olish kerak.

Bundan tashqari, ko'pincha neft va gaz qatlamlarini ishlatishda ar va suv bilan birgalikda quduqlar ostiga tog` jinslaridan ajralib chiqqan mayda zarrachalar ham kelib to'planib qolishi mumkin. Ana shunday uolatlarda bunday tog` jinslaridan paydo bo'lgan qatlamlarda quduq osti atrofini mustaukamlash uchun maxsus qotiruvchi moddalar haydaladi yoki shu mayda zarrachalar quduq ichiga o'tmasligi uchun alohida filtr (sizgich) o'rnatiladi.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, tog` jinslarining tarkibi juda mayda-kolloid holatdagi zarrachalardan tortib, to kattaligi tosh bo'lakchalarigacha bo'lar ekan. Lekin asosiy qismini 1,0 - 0,01 mm dagi zarrachalar tashkil etadi.

Shuni aytish kerakki, juda mayda kolloid zarrachalar asosan loyli, argillit va alevrolitdan tashkil topgan qatlamlarda ko'proq uchraydi. Bunday zarrachalarni miqdoriga qarab ana shu tog` jinslarining nam ta'sirida bo'rtish qobiliyati ham har xil bo'ladi.

Tog` jinslarining donadorligini o'rganish natijasida ularni harakterlovchi yana bir muhim xossa - tarkibiy har xillik (turlilik) koeffitsienti ham aniqlanadi. Bu koeffitsient konlarni ishlash usullarini tanlashda, ularning matematik va geologik modellarini to'zishda, har xil matematik hisoblashlarda ishlatiladi.

Tog` jinslarining donadorlik tarkibini o'rganishning ikki xil usuli bor: elash va sedimentatsiya.

Elash usuli o'zining soddaligi va tez bajarilishi bilan juda keng tarqalgan. Usul asosan tog` jinslarini tashkil qiluvchi zarrachalarning kattaligi 0,05 mm dan kam bo'lmagan hollarda ishlatiladi. Ustma-ust qo'yilgan elaklar komplektiga 50 g tog` jinsi solinadi. Elaklar turining kattaligi yuqoridan pastga qarab quyidagichadir: 10; 7; 5; 3; 2; 1; 0,5 va 0,25 mm. Elaklar komplekti 15 minut davomida tebratiladi va har bir elakda qolgan zarrachalarning og'irligi o'lchanadi. Olingan ma'lumotlar maxsus jadvalga yoziladi.

1.3. Donadorlikni elash usuli orqali aniqlashni o'rganish

1.1 - jadval

Tajriba №	Tog` jinsi nomi	Olingan joyi	Donadorlik, mm								
			10	7-10	5-7	3-5	2-3	1-2	0,5-1	0,25-0,5	0,25-0,25

Sedimentatsiya usuli ba'zan gidravlik usul deb ham ataladi. Bu zarrachalarning suyuqlikda har xil tezlik bilan cho'kishi natijasida ularning donadorligini aniqlashning bir necha turlari mavjud;


1. Turg'un holatdagi suyuqlikda aniqlash (Stoks, Fadeyev - Vilyams, Sabanin, Osborn va AzNII usullari);
2. Oqar holatdagi suyuqlikda aniqlash (Konetskiy, Shyone, Gil'gard usullari);
3. Uzluksiz ravishda har xil chuqurlikdan namunalar olib, ularning og'irligini, gidrostatik bosimini aniqlash usuli.

Bu usullar ichida keng tarqalgani turg'un holatdagi suyuqlikdagi donadorlikni aniqlash usullaridir.

Bu usulni birinchi marta ingliz olimi Stoks qo'llagan. Zarrachalarning cho'kish tezligi Stoks tenglamasi orqali quyidagicha aniqlanadi:

$$v = \frac{g * d^2}{18 * \nu} \left(\frac{\rho_{\text{d.a.}}}{\rho_{\text{ii}}} - 1 \right) \quad (1.1)$$

Bu yerda: ν - zarrachalarning cho'kish tezligi, mG`s;
 g - erkin tushish tezlanishi, m2G`s;
 d - zarrachalarning diametri, mkm;
 ν - suyuqlikning turg'unlik qovushqoqligi, Pa*s;
 $\rho_{m,j}$ - tog` jinsining zichligi, g/sm³;
 ρ_c - suyuqlikning zichligi, g/sm³;




1.1.- rasm. Donadorlik tarkibini elash

(a) va sedimentatsiya (b) usulida aniqlash 1 - shisha tayoqcha; 2 - ip; 3 - silindrik idish; 4 – shisha lappak (disk); 5 – o'lchov mikroskopi.


Sedimentatsiya usuli bilan aniqlash uchun juda ko'p turdagi asboblar bor. Bo'lar ichida eng soddasi Figurovskiy tarozisidir (1.1 - rasm). Figurovskiy tarozisi shisha tayoqcha (1), ipga (2) osilgan shisha lappak (disk) (4), silindrik idish (3) va o'lchov mikroskopidan (5) iborat. Silindrik idishga (3) yaxshilab aralashtirilgan suspenziya holatidagi suyuqlik qo'yiladi. Suspenziyada kattaligi 1 mkm dan 50 mkm gacha bo'lgan tog` jinsi zarrachalari erkin holda so'zib yuradi. Suspenziya silindrik idishga quyilishidan oldin og'irligi o'lchanadi. Suspenziyada biroz vaqt o'tgach avval kattaroq, so'ngra esa maydaroq zarrachalar asta sekin cho'ka boshlaydi. Ularning og'irligi ortib borib, ipning (2) tortilish tarangligi ortadi va shisha tayoqcha (1) egilishi mikroskop o'lchagichda (5) qayd qilinadi.

Tayoqchanning egilishida vaqt va og'irlik qayd qilinib borilishi natijasida olingan ma'lumotlar tahlil etilib, tog` jinsining donadorligi aniqlanadi.

Olingan ma'lumotlar jadval yoki grafik holda tahlil qilinishi mumkin. Tog` jinsning umumiy zarrachalari og'irligini, ularning diametri orqali bog'liqligini yarim logarifmik tasvirga tushirilsa, grafikda uchta harakterli nuqta ko'zga tashlanadi (1.3 - rasm).



1.2. - rasm. Donadorlik tarkibi gistogrammasi



1.3. - rasm. Donadorlik tarkibining yarim logarifmik tasviri

Bu grafikda ordinata o'qida zarrachalar og'irligining umumiy og'irligiga nisbati foiz hisobida, absissa o'qida esa zarrachalar diametrining logarifmi qo'yiladi.

Bu yerdagi ikkinchi nuqta d60, tog` jinsi tarkibida zarrachalarning diametri sifrdan shu diametrgacha bo'lgan miqdori umumiy massaning 60% ni tashkil qiluvchi nuqtani bildiradi. Birinchi d90 va uchinchi d10 nuqtalar esa mos ravishda xuddi ana shunday diametrlarning 90 va 10% massasini tashkil qiluvchi nuqtalardir. Sedimentatsiya usuli bilan tog` jinslarining tarkibini o'rganish ko'proq ular zarrachalarining diametri 0,1 - 50 mkm gacha bo'lganda qo'llaniladi.

Masalan, sedimentatsiya usuli bilan tog` jinsining tarkibi aniqlanganda quyidagi natijalar olingan bo'lsin:

1.2-jadval

№	Zarrachalar diametri, mkm	Zarrachalar og'irligi,	Zarrachalar og'irligining umumiy massaga nisbati, %	Umumiy og'irligi, %
1	0-0,1	1	0,67	0,67
2	0,1-1,0	2	1,33	2,0
3	1,0-10,0	12	8,00	10,00
4	10,0-20,0	28	18,67	28,67
5	20,0-30,0	47	31,33	60,00
6	30,0-40,0	45	30,00	90,00
7	40,0-50,0	15	10,00	100,00
	Jami	150	100,00	

Bu tajribada d10 - diametri 10 mkm bilan tugagan nuqtaga, d60 - diametri 30 mkm bilan tugagan nuqtaga va d90 - diametri 40 mkm bilan tugagan nuqtaga to'g'ri keladi.

Tog` jinslarining har turliligini harakterlash uchun odatda d60 - va d10 nuqtalarning nisbati olinadi.

$$\text{Ya'ni: } n = \frac{d_{60}}{d_{10}} \quad (1.2)$$

Bu yerda n - tog` jinslarining tarkibi har xilligini ko'rsatuvchi koeffitsient. Odatda neft va gaz qatlamlari uchun nq1,1dan - 20 gacha o'zgarishi mumkin.

Ana shu koeffitsientning katta-kichikligiga qarab quduqlar ostiga o'rnatiladigan filtrlar (sizgich) tanlanadi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Cho'kindi tog' jinslari.
2. Tog' jinslarining donadorlik tarkibi.
3. Tog' jinslarining donadorlik tarkibini elash usuli orqali aniqlash.
4. Tog' jinslarining donadorlik tarkibini sedementatsiya usuli orqali aniqlash.
5. Tog' jinslarining xossalari.

Glossariy

Otqindi tog` jinslari - asosan vulqonlar otilganida yer yuzasiga chiqadigan magma yoki yer ostidan yuqoriga katta bosim ostida sirqib chiqqan suyuq moddalarning qotishidan hosil bo'ladi. Otqindi tog` jinslarining hosil bo'lishida yuqori harorat va kuchli bosim alohida ahamiyatga egadir. Vulqon harakatining natijasi - magma, ba'zan yer yo'ziga chiqmasdan yer osti yoriqlari, yoki ba'zi bo'shliqlarga kirib asta - sekin qotishdan hosil bo'lgan tog` jinslari ham otqindi tog` jinslariga kiradi.

Cho'kindi tog` jinslari - yer yuzasidagi jinslarning suvda erib cho'kishi, havo, shamol va muzliklar harakatidan yemirilib to'planishidan hosil bo'ladi. Cho'kish jarayoni bir vaqtning o'zida mexanik, kimyoviy va biogen o'zgarishlar bilan birgalikda bo'ladi. Shunday qilib, cho'kindi tog` jinslari litosferaning fizik, kimyoviy va biogen ta'sirlari ostida yemirilgan va qayta to'plangan mahsulotdir. Bu jinslar quruqlikda ham, suv havzalari ostida ham to'planadi.

Metamorfik tog` jinslari - cho'kindi yoki otqindi tog` jinslarining harorat, bosim va kimyoviy reaksiyalar ta'sirida qaytadan hosil bo'lishidan kelib chiqadi.

Metasomatik jarayon - odatda bunday o'zgarish jarayonlarida tog` jinslarining mineralogik tarkibi, tashqi kurinishi va to'zilishi tubdan o'zgarib ketadi. Bu o'zgarishlarda bir xil mineral tarkibdagi tog` jinslarining boshqa bir turdagi mineral tarkibga o'zgarishi ko'zatiladi.

Granulyar kollektorlar - asosan qum, qumtosh va qum - alevrit kabi tog` jinslaridan tashkil topgan bo'ladi. Bunday kollektorlarda neft va gaz jinslarining mayda zarrachalar orasidagi bo'shliqlar, g'ovaklar ichida yig'iladi. Demak, granulyar kollektorlardagi foydali bo'shliqlar, ya'ni neft yoki gaz yig'ilishi mumkin bo'lgan bo'shliqlar, asosan zarrachalar orasidagi bo'shliqlar - g'ovaklardan iborat ekan.

Yoriq kollektorlarga - ohaktosh, dolomitlar kiradi. Bunday tog` jinslarida foydali bo'shliqlar har xil yoriqlar sistemasidan iboratdir. Bo'shliqlar faqat yoriqlar emas, balki juda mayda mikrokarst va kovaklardan ham tashkil topgan bo'lishi mumkin. Yoriqlar sistemasi gorizont va tik yo'nalishlarda rivojlangan bo'lib, odatda ular o'zaro bir-birlarini kesib o'tadi. Neft va gaz ana shu yoriqlarda hosil bo'lishi yoki yig'ilishi mumkin, ularning harakati ham faqat shu yoriqlar orqali bo'ladi.

Aralash kollektorlar - granulyar va yoriq kollektorlarning aralash holatda uchraydigan turidir. Odatda bunday kollektorlarda foydali bo'shliqlar tog` jinslari zarrachalari orasidagi bo'shliqlar g'ovaklar, yoriqlar, mikrokarst bo'shliqlar va kovaklardan iborat bo'ladi. Bunday kollektorlarga qum, qumtosh va alevritlarning bir konning o'zida aralash qatlam hosil qilgan yo'llari kiradi.

Tekstura bu - tog` jinslari zarrachalarining shakli va katta - kichikligi, zarrachalarning qay holda joylashganligi zarrachalarning joylashish xususiyati deyiladi.

Tog` jinslarining donadorligi bu - ularning har xil kattalikdagi zarrachalardan qanday miqdorda tashkil topganligiga aytiladi.

Nazorat savollari.

1. Tabiatda uchraydigan hamma tog' jinslari paydo bo'lishiga qarab nechta katta guruhga bo'linadi?
2. Tabiatda hozirgacha aniqlangan neft va gaz konlarining 99 foizi qanday tog` jinslariga mansubdir.
3. Donadorlikni elash usuli orqali aniqlashni o'rganish
4. Cho'kindi tog` jinslari qanday tog` jinslardan tashkil topganligiga qarab necha turga bo'linadi?

5. Kollektor nima?
6. Granulyar kollektorlar bu ...
7. Zarrachalarning to'zilishiga qarab tog` jinslari necha guruhga bo'linadi?
8. Tog` jinslarining donadorligi deb, qanday turdagi tog` jinslariga aytiladi?
9. Tog` jinslarining donadorlik tarkibini o'rganish usullari.
10. Sedimentatsiya usuli deb qanday usulga aytiladi.

2 – MA'RUZA

Mavzu: Tog` jinslarining g`ovakligi, yoriqligi va kovakliligi

Reja:

1. Tog` jinslarining g`ovaklilik xossalari
2. Yoriq kollektorlarning yoriqlik intensivligi, ochiqligi va g`ovakligi.
3. Tog` jinslarining o'tkazuvchanligi
4. Qatlamlardagi fazalar harakati.

Adabiyotlar (1;2;3;6;7)

Tayanch so'zlar: g`ovaklik, statik foydali hajm, dinamik foydali hajm, Preobrajenskiy usuli, Mel'cher usuli, yoriqlilik intensivligi, ochilganlik, yoriqlilik zichligi, o'tkazuvchanlik, mutlaq, fazaviy, nisbiy o'tkazuvchanlik, Darsi.

2.1. Tog` jinslarining g`ovaklilik xossalari

Tog` jinslari ichidagi bo'shliqlar ularning g`ovakligini bildiradi. g`ovaklik esa uz navbatida g`ovaklilik koeffitsienti bilan harakterlanadi.

Tog` jinsi ichidagi hamma bo'shliqlar hajmining ($V_{\delta ym}$) umumiy tog` jinsi hajmiga (V_y) bo'lgan nisbati to'liq (yoki mutlaq) g`ovaklik koeffitsienti deyiladi.

$$m = \frac{V_{\delta ym}}{V_y} \quad (2.1.)$$

Bu yerda: m – g`ovaklik koeffitsienti;

$V_{\delta ym}$ – tog` jinsidan yasalgan namuna ichidagi, bo'shliqlarning umumiy hajmi;

V_y – namunaning umumiy hajmi.

G`ovaklik koeffitsienti foizda yoki o'nli birlikda o'lchanadi. Tog` jinsidagi bo'shliqlar hosil bo'lish jarayoniga qarab ikki turli bo'ladi - birlamchi va ikkilamchi bo'shliqlar. Birlamchi bo'shliqlarga zarrachalar; qatlamchalar orasidagi bo'shliqlar va uzoq geologik davrlarda yotqiziqning paydo bo'lish vaqtida hosil bo'lgan bo'shliqlar kiradi. Ikkilamchi bo'shliqlarga esa har xil tektonik harakatlar oqibatida yangidan paydo bo'lgan katta darzliklar, tog` jinslarining maydalanishidan, erishidan va h.k.lardan paydo bo'lgan bo'shliqlar kiradi.

Tog` jinslari bo'shliqlarining to'zilishi ularning donadorligiga, shakliga, katta - kichikligiga, kimyoviy tarkibiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, katta va kichik g`ovaklarning nisbatiga qarab, tog` jinslarining bo'shliqlari turli - tuman bo'ladi. Ko'pincha bu g`ovaklar va bo'shliqlar o'zaro birlashib, tog` jinslarining kanallarini tashkil qiladi.

G`ovaklik kanallari o'zlarining kattaligiga qarab neft va gaz qatlamlarida uch turda bo'ladi:

1. Yirik kapillyar kanalchalar - diametri 0,5 mm dan yuqori;
2. Kapillyar kanalchalar - diametri 0,5 dan 0,0002 mm gacha;
3. O'ta mayda kapillyar kanalchalar - diametri 0,0002 mm dan kichik.

Birinchi tur kanalchalaridan neft, suv va gaz bemalol harakatlanadi, ikkinchi tur kanalchalarda esa kapillyar kuchlar natijasida harakatlanish bo'ladi. O'ta mayda kapillyar kanalchalarida umuman harakat bo'lmaydi.

Tog` jinslarining g`ovakliligini ta'riflashda to'liq g`ovaklilik koeffitsienti hamda tog` jinslarining statik yoki dinamik holatini harakterlovchi statik foydali hajm va dinamik hajm tushunchalari ham mavjud.

Tog` jinslarining ochiq g`ovaklilik koeffitsienti m_0 deb, o'zaro birlashgan ochiq g`ovak bo'shliqlari umumiy hajmning (V_0), namuna hajmiga (V_n) bo'lgan nisbatiga aytiladi.

Kollektorlarning statik foydali hajmi P_{cm} deb, neft va gaz yig'ilishi mumkin bo'lgan bo'shliqqa aytiladi. Kollektorning dinamik foydali hajmi P_{din} deb, neft va gaz harakatlanishi mumkin bo'lgan bo'shliqlarga aytiladi.


Statik foydali hajm P_{cm} ochiq g`ovaklilik koeffitsienti (m_0) bilan g`ovaklarni qoldiq suv to'ldirgan bo'shliqlar (m_c) ayirmasi orqali aniqlanadi.

$$P_{cm} = m_0 - m_c \quad (2.2.)$$

Dinamik foydali hajmi P_{din} boshlang'ich suv to'yinganligi ($S_{c.b}$) va qoldiq suv to'yinganligi ($S_{c.q}$) ayirmasini ochiq g`ovaklilik koeffitsientiga ko'paytmasidan kelib chiqadi:


$$P_{din} = (S_{c.q} - S_{c.b}) * m_0 \quad (2.3.)$$

G`ovaklik to'zilishini o'rganish uchun birinchi bor Slixter tomonidan soxta va ideal tuproq modeli yaratildi.



2.1. - rasm. Soxta tuproq modeli.

Soxta tuproq modeli bir xil kattalikdagi sharsimon zarrachalar (masalan, metall sharchalardan) to'ldirilgan idishdan iboratdir. Agar stakanni bir xil kattalikdagi sharchalar bilan to'latsak, soxta tuproqdagi g`ovaklik (rasmda bo'yalgan) faqat sharchalarning o'zaro joylashuviga bog'liq bo'lar ekan. Soxta tuproqda sharchalar asosan ikki xilda joylashishi mumkin (1.4 a rasm) va ikkinchi usul uchburchak usulida (1.4 b rasm) bo'lishi mumkin.



2.2. - rasm. Ideal tuproq modeli

Slixter soxta tuproq g`ovakligini quyidagicha aniqlagan:

$$m = 1 - \frac{\pi}{6(1 - \cos\varphi)\sqrt{1 + 2\cos\varphi}} \quad (2.4.)$$

Bu yerda: φ - sharlarning joylashish burchagi $60^0 - 90^0$ gacha o`zgarishi mumkin.

Soxta tuproq g`ovakligi joylashish burchagiga qarab 0,26 dan 0,48 gacha o`zgaradi.

Ideal tuproq modeli bir xil kattalikdagi silindrsimon tayoqchalar bilan to`ldirilgan idishdan iboratdir.

Ideal va soxta tuproqlar faqat tajriba usulida tadqiqotlar olib borish tajriba uchun ishlatilishi mumkin.

Tog` jinslari g`ovakligini aniqlashning bir necha usullari bor.

1. Tog` jinsi namunasini kukun holiga keltirish.
2. Namunani to`yintirish (Preobrajenskiy) usuli.
3. Namunani parafinlash (Mel'cher) usuli.
4. O`lchash asbobi (porozimetr) yordamida aniqlash.

Neft va gaz qatlamlari qanday tog` jinslaridan tashkil topganligiga qarab g`ovaklik keng ko`lamda o`zgarishi mumkin. Masalan: qumtoshlarda 8 - 10 % dan 22 - 25 % gacha, ohaktoshlarda 1 - 2 % dan 10 - 12 % gacha va u.k.

Tog` jinslarining g`ovakligi donadorlik, zarrachalarning qanday joylashganligi bilan bir qatorda qatlam bosimi va haroratiga ham bog`liq. qatlam bosimining ortishi g`ovaklikni kamaytirib, haroratning ortishi esa g`ovaklikni birmuncha oshishiga olib keladi.

2.2. Yoriq kollektorlarning yoriqlilik intensivligi, ochiqliligi va g`ovakligi

Yoriq kollektorlarni mukammal o`rganish natijasida ularning foydali bo`shliqlarini harakterlovchi asosiy omillar - yoriqlilik intensivligi, ochilganlik va g`ovaklik ekanligi aniqlanadi. Bu omillarning miqdoriga qarab yoriq kollektorlarni ishlatish, ularga ta'sir ko`rsatish va quduqlar ostki qismini maxsus moslamalar bilan jihozlash usullari tanlanadi. Shuning uchun ham yoriq kollektorlar uchun bu omillar alohida ahamiyatga egadir.

Yoriq kollektorlarning yoriqlilik intensivligi hajm (T) va yuza (R) yoriqlilari bilan belgilanadi.

Kollektorlarning hajm yoriqliligi intensivligi, tog` jinsining bir hajm birligiga to`g`ri keladigan yoriqlar yuzasining yarmi bilan o`lchanadi:

$$T = \frac{S}{V} \quad (2.5.)$$

Bu yerda: S - hamma yoriqlar yuzasining yarmi,

V - tog` jinsining hajmi.

Tog` jinsining bir yuza birligiga to`g`ri keladigan yoriqlarning umumiy uzunligiga yoriqlilik intensivligi deyiladi:

$$P = \frac{L}{F} \quad (2.6.)$$


Bu yerda: L - hamma yoriqlarning umumiy uzunligi:

F - yoriqlar joylashgan yuza.

Yoriq kollektorlarni o`rganishda yoriqlarning zichligidan ham foydalaniladi (2.3 - rasm)

Yoriqlilik zichligi deb, yoriqlar sonining (Δn) shu yoriqlar uzunligi (ΔL) da nisbatiga aytiladi.

$$\Gamma = \frac{\Delta n}{\Delta L} \quad (2.7.)$$



2.3 - rasm. Yoriqlik zichligi tasviri

Agar yoriqli kollektor bir xil yoriqlikka ega bo`lsa, yoriqlarning zichligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Gamma = \frac{1}{L}$$

(2.8.)

Bu yerda: L - yoriqlar orasidagi masofa.

Yoriq kollektorlarni harakterlovchi bu ko`rsatkichlar o`zaro quyidagicha bog`liq:

$$T = \sum_{i=1}^N \Gamma_i ; \quad T = \sum_{i=1}^N \frac{P_i}{\cos \alpha_i} ; \quad P = \sum_{i=1}^N \Gamma_i \cos \alpha_i \quad (2.9.)$$

Bu yerda: N - yoriqlar tizimining soni;

α_i - yoriqlar tizimi bilan yuza orasidagi burchak (2.3 - rasm)

Yoriqlar zichligi va ochilganligining $b_i * \Gamma_i$ ko`paytmasi yoriq kollektorlarning g`ovakliligini beradi:

$$m_i = b_i * \Gamma_i \quad (2.10)$$

Yoriq tizimlar uchun yoriq g`ovakliligi quyidagicha aniqlanadi:

$$m_{\text{JI}} = \sum_{i=1}^N m_{i\text{JI}} = \sum_{i=1}^N b_i * \partial_i \quad (2.11)$$

Yoriqlar ochiqligi uzgarmas bo`lganda ()

$$m_{\text{ë}} = b * T \quad (2.12)$$

Yoriq kollektorlarning bu xususiyatlari mikroskop orqali maxsus tayyorlangan shliflarda o`rganiladi. Kollektorlarning o`tkazuvchanligi va yoriq g`ovaklilik bog`lanishi Bussineks tenglamasi orqali aniqlanadi. Bu tenglamadan yoriqlar tizimidagi bitta yoriqdan oqib o`tgan suyuqlik quyidagicha ifodalanadi:

$$q = \frac{b^2}{12\mu} * \frac{\partial P}{\partial x} \quad (2.13)$$

Bu yerda: q - bitta yoriqdan o`tayotgan suyuqlik miqdori;
 μ - suyuqlikning dinamik qovushqoqligi;

$\frac{\partial P}{\partial x}$ - bosim gradienti.

Agar (2.13) tenglamani suyuqlik oqib o`tayotgan hamma yoriqlar tizimiga va uning yuzasiga nisbatan yozadigan bo`lsak, u holda

$$\theta = \frac{F * m_{\text{ë}} * b^2}{12\mu} * \frac{\partial P}{\partial x} \text{ bo'ladi.} \quad (2.14)$$

Darsi tenglamasi bo`yicha tog` jinsidan oqib o`tayotgan suyuqlik quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = \frac{K_{\text{ë}} * F * \partial P}{\mu * \partial x} \quad (2.15)$$

Har ikki tenglama (2.14, 2.15) birgalikda o`tkazuvchanlikka nisbatan yechilsa, yoriq kollektorlarning o`tkazuvchanligi aniqlanadi:

$$K_{\text{ë}} = 85000 * b^2 * m_{\text{ë}} \quad (2.16)$$

Bu yerda: b - yoriqlarning ochilganligi;

$m_{y\sigma}$ - yoriq g`ovakliligi;

$K_{y\sigma}$ - yoriq o`tkazuvchanligi.

Yoriq kollektorlar hanuzgacha batafsil o`rganilmagan. Ayniqsa, ularda uch fazali flyuidlar (gaz Q+ neft Q+ suv) oqishidagi fazaviy o`zgarishlar, sirt taranglik kuchlar va fazaviy o`tkazuvchanlik to`la o`rganilmagan.

2.3. Tog` jinslarining o`tkazuvchanligi

Tog` jinslarining bosimlar ayirmasi mavjudligida o`zidan suyuqlik yoki gaz o`tkazish qobiliyatiga o`tkazuvchanlik (K) deyiladi. Tabiatda umuman hech narsa o`tkazmaydigan jismlar yo`q. Shuningdek tog` jinslaridan ba'zilari juda yaxshi o`tkazuvchan (qum, qumtosh), ba'zilari juda ham kam o`tkazuvchan (loy, slanets va b.) bo`ladi.

Tajribalarning ko`rsatishicha, tog` jinslarining o`tkazuvchanligi gaz, suv va neft uchun har xil bo`lar ekan.

Xaqiqatan ham, neft va gaz konlarini ishlatishda bu narsa tasdiqlandi. Tog` jinsi o`tkazuvchanligini harakterlash uchun mutlaq (K_a), fazaviy (K_n , K_g , K_s) va nisbiy ($K's$, $K'g$, $K'n$) o`tkazuvchanlik tushunchalari kiritilgan.

Mutlaq o`tkazuvchanlik deb, tog` jinsidan faqat qandaydir bir faza (masalan, gaz) harakatlanayotganligidagi o`tkazuvchanlikka aytiladi. Odatda mutlaq o`tkazuvchanlik tog` jinsidan havo yoki gaz o`tkazib aniqlanadi. Suyuqlik o`tkazilganda esa o`tkazuvchanlikka ana shu suyuqlikning fizik - kimyoviy xossalari ham ta'sir etadi.

Fazaviy o`tkazuvchanlik deb, tog` jinslarining ichida ko`p fazali harakat davomida faqat bir faza (masalan, neft) uchun aniqlangan o`tkazuvchanlikka aytiladi. Fazaviy o`tkazuvchanlikka tog` jinsining u yoki bu faza bilan qanchalik to`yinganligi, bu fazalarning fizik - kimyoviy xossalari katta ta'sir ko`rsatadi.

Nisbiy o`tkazuvchanlik deb fazaviy o`tkazuvchanlikning mutlaq o`tkazuvchanlikka nisbati aytiladi:

$$K_H = \frac{K_H}{K} ; \quad K_\Gamma = \frac{K_\Gamma}{K} ; \quad K_C = \frac{K_C}{K} ; \quad (2.17)$$

Bu yerda: K_n , K_g , K_c - mos ravishda neft, gaz va suvning fazaviy o`tkazuvchanlik koeffitsienti; K- mutlaq o`tkazuvchanlik koeffitsienti.

Tog` jinsining o`tkazuvchanligi Darsining to`g`ri chiziqli sirqish qonunlari orqali aniqlanadi. Masalan, qandaydir tog` jinsidan tayyorlangan namuna orqali biror suyuqlik o`tkazuvchanligi (1.7 - rasm). Bunda namunadan o`tayotgan suyuqlik tezligi ikki usulda aniqlanishi mumkin:

$$V = \kappa * \frac{1}{\mu} * \frac{\Delta P}{L} \quad va \quad V = \frac{Q}{F} \quad (2.18)$$

Bu yerda: V - to`g`ri chiziqli sirqish tezligi;


Q - vaqt birligida o`tgan suyuqlik hajmi;

μ - suyuqlikning dinamik qovushqoqligi;

F - namunaning kesim yuzasi;

$\Delta P = P_1 - P_2$ - bosimlar ayirmasi;

L - namuna uzunligi.



2.4 - rasm. Namunada o'tkazuvchanlikni o'rganish.

Har ikkala tenglama o'tkazuvchanlikka nisbatan yechilsa, u holda

$$K_c = \frac{Q_c * \mu_c * L}{\Delta P * F} \quad \text{bo'ladi.} \quad (2.19)$$

Bu tenglama faqat suyuqliklarga nisbatan ishlatiladi. Namunadan gaz o'tkazilganda o'tkazuvchanlik quyidagicha aniqlanadi:


$$K_{\Gamma} = \frac{2Q_{\Gamma} * P_0 * \mu_{\Gamma} * L}{(P_1^2 - P_2^2) * F} \quad \text{bo'ladi.} \quad (2.20)$$

Bu yerda: Q_g - vaqt birligida o'tgan gaz hajmi;

P_0 - atmosfera bosimi;

μ_{Γ} - gazning dinamik qovushqoqligi.

Yuqoridagi tenglamalar faqat to'g'ri chiziqli sirqishga taalluqlidir. Lekin ba'zan suyuqlik va gazlarning egri chiziqli (ya'ni radial) harakati uchun ham o'tkazuvchanlik aniqlanishi kerak bo'ladi. Bunday hollarda neft va gazlar qatlamlardan sirqib kelib quduq ostiga yaqinlashganda ro'y beradi (2.5 - rasm). Bunday hollarda o'tkazuvchanlik quyidagicha aniqlanadi.



2.5 - rasm. Radial oqimda o'tkazuvchanlikni aniqlash

Suyuqliklar uchun:

$$\hat{E} = \frac{\mu_c * Q_c * \ln \frac{2T}{2n}}{2\pi h * (P_T - P_n)} \quad (2.21)$$

Gazlar uchun:

$$\hat{E}_{\bar{a}} = \frac{\mu_{\bar{a}} * Q_{\bar{a}} * \ln \frac{2T}{2n}}{\pi h * (P_T^2 - P_n^2)} \quad \text{bo'ladi.} \quad (2.22)$$

Xalqaro birliklar sistemasida o'tkazuvchanlik o'lchovi miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$[Q] = \text{m}^3 / \text{c}; \quad [\mu] = \text{Pa} * \text{c}; \quad [L] = \text{m}; \quad [P] = \text{Pa}; \quad [F] = \text{m}^2.$$

(2.19) tenglamaga muvofiq

$$K = \frac{\text{M}^3 / \text{cek} * \text{Pa} * \text{cek} * \text{M}}{\text{Pa} * \text{M}^2} = \text{M}^2 \quad \text{bo'ladi.}$$

Xalqaro o'lchamlar tizimida uzunligi 1 m, yuzasi 1 m² bo'lgan tog` jinsidan 1 Pa L ga teng bosimlar ayirmasida sekundiga 1 m³ hajmdagi qovushqoqligi 1 Pa*s bo'lgan suyuqlik o'tgandagi o'tkazuvchanlik 1 m² ga teng deb hisoblanadi.

O'tkazuvchanlikni o'lchov birligidan uning fizik ma'nosi - yuza kelib chiqadi. Xaqiqatan ham, tog` jinslarining o'tkazuvchanligi sirqish yuzasini bildiradi.

O'tkazuvchanlik ko'pincha amaliy ishlarda Darsi (ingliz olimi Darsiga atalgan) bilan ham o'lchanadi.

Har ikki o'lchov birliklari orasida quyidagi bog`lanishlar bor:

$$1 \text{ m}^2 = 10^{12} \text{ d}; \quad 1 \text{ d} = 10^{-12} \text{ m}^2 = 1 \text{ mkm}^2;$$

2.4. Qatlamdagi fazalar harakati

Neft va gaz konlarida qatlamlar faqat neft yoki gazning o'zi bilan emas, balki suv bilan to'yingan bo'ladi, ya'ni bir vaqtning o'zida neft, gaz va suv birgalikda harakatlanishi mumkin. Bunday uch faza harakatlanayotganida tog` jinsining absolyut o'tkazuvchanligi qandaydir bir faza uchun shu absolyut o'tkazuvchanlikdan kichik bo'ladi.

Ilmiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, fazaviy va nisbiy o'tkazuvchanliklar asosan tog` jinsi u yoki bu faza bilan qanchalik to'yinganligiga bog`liq ekan.

Qatlamlarda bir vaqtning o'zida ikki fazali - "neft+Qsuv", "neftQ+gaz", "gazQsuv" harakati hamda uch fazali "neftQ+gazQ+suv+" harakati bo'lishi mumkin. Bunday hollarda har bir faza uchun o'tkazuvchanlik miqdori juda muhim ahamiyatga ega bo'lib qoladi. Har bir faza uchun aniqlangan o'tkazuvchanlik suyuqlik va gazlarning sirqish qonunlarini o'rganishda keng qo'llaniladi. Bundan tashqari, bu kursatkichlarga asoslanib quduqlarning mahsuldorligi, qatlamlardagi o'zgarishlar va h.k. aniqlanadi.

Fazaviy va nisbiy o'tkazuvchanlikning har xil muvitlarda o'zgarishini ko'rib chiqaylik.

Ikki fazali harakat

a) Neft va suv aralashmasining qatlamdagi harakati .

Ma'lumki, o'tkazuvchanlik qatlamning u yoki bu faza bilan qanchalik to'yinganligiga bog`liq.

Tog` jinslarining to'yinganligi (neft,gaz,suv bilan) deb, biror faza bilan to'yingan bo'shliqlar hajmining umumiy bo'shliqlar hajmiga nisbatiga aytiladi.


$$S_n = \frac{V'_n}{V_n}; \quad S_g = \frac{V'_g}{V_g}; \quad S_s = \frac{V'_s}{V_s} \quad (2.23)$$

Bu yerda: S_n, S_g, S_s - mos ravishda tog' jinslarining neft gaz va suv bilan to'yinganligi;

V_n, V_g, V_s - mos ravishda bo'shliqlarning neft, gaz va suv bilan to'yingan hajmi;

V - tog' jinslarining umumiy bo'shliqlari hajmi

2.6 - rasmda laboratoriya sharoitida o'tkazilgan tajribalar natijasida neft va suv uchun nisbiy o'tkazuvchanlik (suv bilan to'yinganlik hisobga olingan holda) grafik usulida ko'rsatilgan.



2.6 - rasm. Gaz va suyuqlik harakatida nisbiy o'tkazuvchanlikni suv bilan to'yinganligiga bogliqligi.

a) qumlarda b) qumtoshlarda v) ohaktosh va dolomitlarda

Rasmdan ko'rinib turibdiki, agar tog' jinsi (masalan, qumtosh) 20% suv bilan to'yingan bo'lsa, demak qolgan 80% neft bo'lishi mumkin, u holda suv uchun qumtoshning nisbiy o'tkazuvchanligi nolga teng, ya'ni suv harakati bo'lmaydi.

Neft uchun esa nisbiy o'tkazuvchanlik 0,60-0,65 ga teng bo'ladi. Bunga asosiy sabab, tog' jinsi suv bilan kam to'yinganida (20% gacha) juda mayda va boshi berk kanalchalarda, suv turib qoladi. Tog' jinslarining eng mayda zarrachalari atrofini suv yupqa sirt bilan o'rab oladi va kapillyarlik kuchlar ta'sirida harakatsiz bo'lib qoladi.

Ammo, tog' jinsining suv bilan to'yinganligi sal ortishi bilan neft uchun nisbiy o'tkazuvchanlik keskin pasayadi.

Masalan, suv bilan to'yinganlik 40% ni tashkil qilganida (2.6-rasmga qaralsin) suv uchun nisbiy o'tkazuvchanlik 0,1 ni, neft uchun esa 0,3 ni tashkil qiladi. Suv bilan to'yinganlik oshib borgan sari neft uchun nisbiy o'tkazuvchanlik tubdan kamayib boradi. Tog' jinslarida suv bilan to'yinganlik 70% va undan oshgandan keyin neft uchun nisbiy o'tkazuvchanlik deyarli nolga yaqinlashib qoladi.

Bu keltirilgan misollardan quyidagi xulosa kelib chiqadi.

Konlarda suv bilan to'yinganlik ortishi neftning quduqlarga yetib kelishiga keskin to'sqinlik qilib, amalda neft harakatining to'xtashiga olib keladi. Shuning uchun ham neft quduqlarini muddatidan oldin suv bosishining oldini olish kerak bo'ladi. Buning uchun avvalo quduqlarni burgulash vaqtida neft va gazli qatlamlarga burgulash suyuqligi kirib borishining oldini olish kerak, quduqar mahsulotida suv paydo bo'lgandan keyin uning miqdori oshib ketmasdan oldin suv kelishini kamaytirish choralarini ko'rish lozim. Hozirgi paytda suv yo'llarini to'sish uchun har xil kimyoviy moddalardan qo'llaniladi, suv bosgan qatlamlarni neft qatlamlaridan ajratish uchun quduqlarda sementli tusiklar o'rnatiladi. Xuddi shu maqsadlarda qatlamlarni bir-biridan ajratuvchi maxsus moslama pakerlardan ham foydalanish mumkin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, suyuqliklarning sirt taranglik kuchi kamaygan sari nisbiy o'tkazuvchanlik ortar ekan. Sirt taranglikni esa SAM (sirt aktiv moddalar) ta'sirida kamaytirish mumkin.

Fazaviy va nisbiy o'tkazuvchanlik uchun tog' jinsini to'yintirgan suyuqliklar qovushqoqlik nisbati ham katta ahamiyatga ega. Umuman olganda, tog' jinslarining o'tkazuvchanligiga shu tog' jinsining donadorligidan tashqari, suyuqlik va gazlarning fizik-kimyoviy xossalari, ular orasidagi uzviy bog'lanishlar va sirt taranglik kuchlari ta'sir ko'rsatadi.

b) Suyuqlik va gazlar harakati

Tog' jinslarida suyuqlik va gaz harakat qilayotganda ham ular uchun nisbiy o'tkazuvchanlik tog' jinsining suv bilan to'yinganligiga bogliq .

2.6 - b,v rasmda ko'rsatilganidek, tog' jinslarining nisbiy o'tkazuvchanligi xuddi neft va suv harakatidek, gaz va suyuqlik harakatida ham suv bilan to'yinganlik ortib borishi nisbiy o'tkazuvchanlikni gazlar uchun keskin kamayib va aksincha, suv bilan to'yinganlik 20-25%ni tashkil qilganida gazlar uchun nisbiy o'tkazuvchanlik juda katta miqdorni (0,8-0,9) tashkil qilar ekan, suv esa bu vaqtda amalda harakatsiz bo'ladi. Lekin, suv bilan to'yinganlik 60% bo'lganda gazlar uchun nisbiy o'tkazuvchanlik atigi 0,2ni tashkil qilar ekan. Qumtosh, ohaktosh va dolomitlar uchun ham yuqoridagi qonuniyatlar aniqlangan.

Shuni ham aytish kerakki, gaz bilan to'yinganlik qum va qumtoshlar uchun 10-15% ni va ohaktoshlar uchun 25-30% ni tashkil qilganda gaz harakatsiz bo'ladi (rasmga qaralsin). Shu bilan birga suyuqliklar uchun nisbiy o'tkazuvchanlik ham biroz kamayadi.

Demak, kollektorlarda harakatlanayotgan neftdan erigan gaz ajralib chiqsa, neftning harakati susayar ekan. Bunga sabab ajralib chiqqan sof holdagi gaz eng mayda bo'shliqlar, juda tor go'vak va kanalchalarni egallab olib, neft harakatiga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ham neft konlari ishlayotganida iloji boricha qatlamlar ichida gazning neftdan ajralib chiqishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

2.6 - rasmda keltirilgan suv bilan to'yinganlik bilan nisbiy o'tkazuvchanlik juda ko'p muhim omillarga bogliq bo'lganligi uchun amalda faqat shu konning qatlamlariga tegishli bog'liqliklar to'zilishi kerak. Ana shundagina konni ishlatishda eng yaxshi natija beradigan ish jarayonini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Uch fazali harakat

Qatlamda ikki va uch fazali harakatlar qanday sodir bo'lishini aniqlash uchun laboratoriya sharoitlarida ko'plab tajribalar o'tkazilgan. Tajribalardan aniqlandiki, tog' jinsining nisbiy o'tkazuvchanlik miqdori uning qaysi bir faza (neft, gaz, suv) bilan to'yinganligiga bogliq ekan. Natijada ikki yoki uch fazali harakat qaysi hollarda ruy berishi aniqlanadi.


2.7 - rasmdagi diagrammani uchta asosiy chiziq kesib o'tgan. Bu chiziqlar bir, ikki va uch fazali harakat oqimida 5% suv, qolgan 95% neft va gaz har xil nisbatda bo'lgan nuqtalarni birlashtirgan, 2-chiziq oqimida 5% neft, qolgan 95% suv va gaz har xil munosabatda bo'lgan nuqtalarni birlashtirgan, 3-chiziq 5% gaz, qolgan 95% neft va suv har xil nisbatda bo'lgan nuqtalarni birlashtirgan. Bu diagrammadan tog' jinsi bir, ikki va uch fazali flyuidlar bilan qanday to'yinganlikda bo'lishini aytish mumkin:

I. Bir fazali harakat chegaralari:

a) gaz harakati - suv bilan to'yinganlik 45% dan, neft bilan to'yinganlik 27% dan kam bo'lganda;

b) neft harakati - suv bilan to'yinganlik 33% dan, gaz bilan to'yinganlik 18% dan kam bo'lganda;

v) suv harakati - gaz bilan to'yinganlik 10% dan, neft bilan to'yinganlik 20% dan kam bo'lganda.



2.7 – rasm. Uch fazali harakat tasviri.

II. Ikki fazali harakat chegarasi:

a) neft va gaz harakati - gaz bilan to'yinganlik 18-33%ni, neft bilan to'yinganlik 28-50%ni tashkil qilganda;

b) neft va suv harakati - neft bilan to'yinganlik 20-85%ni, suv bilan to'yinganlik 15-75% ni tashkil qilganda;

v) gaz va suv harakati - gaz bilan to'yinganlik 10-33%ni, suv bilan to'yinganlik 45-90%ni tashkil qilganda bo'lishish mumkin.

III. Uch fazali harakat chegaralari:

Gaz, neft va suv baravariga bir oqim bo'lib harakatlanishi, gaz bilan to'yinganlik 14 dan 30% gacha, neft bilan to'yinganlik 20 dan 50% gacha va suv to'yinganlik 33 dan 64% gacha bo'lganda mavjud bo'ladi.

2.7 - rasmda keltirilgan ma'lumotlar tajriba asosida olingan bo'lib, amalda esa bu sonlar biroz boshqacha bo'lishi mumkin. Shuning uchun har bir kon uchun, shu kondan olingan namunalardan neft, gaz va suv o'tkazish yo'li bilan to'yinganlik va fazaviy harakatlar chegarasi aniqlanishi kerak. Olingan natijalar konni ishlatishda tatbiq qilinadi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Tog` jinslarining g'ovaklilik xossalari.
2. O'tkazuvchanlikning g'ovaklik va g'ovak kanallari bilan bog'liqligi o'rganish.
3. G'ovakli muhitdan neft va gazni siqib chiqarishning fizik asoslari.
4. Tog` jinslarining o'tkazuvchanligi.
5. Qatlamlardagi fazalar harakati.

Glossariy

G'ovaklik bu - tog` jinslarining ichidagi bo'shliqlardir. g'ovaklik esa o'z navbatida g'ovaklilik koeffitsienti bilan karakterlanadi.

G'ovaklik koeffitsienti bu - tog` jinsi ichidagi hamma bo'shliqlar hajmining ($V_{\text{бум}}$) umumiy tog` jinsi hajmiga (V_y) bo'lgan nisbatiga aytiladi.

Birlamchi bo'shliqlarga – zarrachalar, qatlamchalar orasidagi bo'shliqlar va uzoq geologik davrlarda yotqiziqqlarning paydo bo'lish vaqtida hosil bo'lgan bo'shliqlar kiradi.

Ikkilamchi bo'shliqlarga - har xil tektonik harakatlar oqibatida yangidan paydo bo'lgan katta darzliklar, tog` jinslarining maydalanishidan, erishidan va h.k.lardan paydo bo'lgan bo'shliqlar kiradi.

Tog` jinslari bo'shliqlarining to'zilishi - ularning donadorligiga, shakliga, katta - kichikligiga, kimyoviy tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Tog` jinslarining ochiq g`ovaklilik koefitsienti bu - o`zaro birlashgan ochiq g`ovak bo`shliqlari umumiy hajmning (V_0), namuna hajmiga (V_n) bo`lgan nisbatiga aytiladi.

O`tkazuvchanlik bu - tog` jinslarining bosimlar ayirmasi mavjudligida o`zidan suyuqlik yoki gaz o`tkazish qobiliyatiga o`tkazuvchanlik (K) deyiladi.

Mutlaq o`tkazuvchanlik deb - tog` jinsidan faqat qandaydir bir faza (masalan, gaz) harakatlanayotganligidagi o`tkazuvchanlikka aytiladi. Odatda mutlaq o`tkazuvchanlik tog` jinsidan havo yoki gaz o`tkazib aniqlanadi. Suyuqlik o`tkazilganda esa o`tkazuvchanlikka ana shu suyuqlikning fizik - kimyoviy xossalari ham ta'sir etadi.

Fazaviy o`tkazuvchanlik deb - tog` jinslarining ichida ko`p fazali harakat davomida faqat bir faza (masalan, neft) uchun aniqlangan o`tkazuvchanlikka aytiladi. Fazaviy o`tkazuvchanlikka tog` jinsining u yoki bu faza bilan qanchalik to`yinganligi, bu fazalarning fizik - kimyoviy xossalari katta ta'sir ko`rsatadi.

Nisbiy o`tkazuvchanlik deb - fazaviy o`tkazuvchanlikning mutlaq o`tkazuvchanlikka nisbatiga aytiladi.

Nazorat savollari.

1. Tog` jinslarining g`ovakligi nimaga aytiladi?
2. Tog` jinslarining g`ovaklilik koefitsienti deb nimaga aytiladi?
3. Tog` jinsidagi bo`shliqlar hosil bo`lish jarayoniga qarab necha xil bo`ladi?
4. G`ovaklik kanallari o`zlarining kattaligiga qarab neft va gaz qatlamlarida necha turda bo`ladi?
5. Tog` jinslari g`ovaklilikini aniqlashning qanday usullari bor?
6. Yoriqli kollektorlarning foydali hajmi necha xil ko`rinishdagi bo`shliqlardan iborat bo`ladi?
7. Kovaksimon kollektor nima?
8. Yoriqsimon kollektor nima?
9. Aralash kollektor nima?
10. Neft uchun nisbiy o`tkazuvchanlik nechaga teng bo`ladi?

3-MA`RUZA

Mavzu: O`tkazuvchanlikning g`ovaklik va g`ovak kanallari bilan bog`liqligi.

Reja:

1. O`tkazuvchanlikning g`ovak kanallari bilan bog`liqligi.
2. G`ovaklar miqdorini aniqlash usullari.
3. Tog` jinslarining solishtirma yuzasi.
4. Tog` jinslarining turliligini o`rganish.

Adabiyotlar (1;2;3;6;7)

Tayanch so`zlar: Darsi va Puazeyl' qonunlari, simobning kapillyar bosimi, sirt taranglik kuchi, sirt taranglik burchagi, g`ovaklar radiusi, tog` jinslarining solishtirma yuzasi, gidrofil va gidrofob jarayonlar, yotiq yo`nalishdagi o`tkazuvchanlik, tik yo`nalishdagi o`tkazuvchanlik.

3.1. O`tkazuvchanlikning g`ovaklik va g`ovak kanallari bilan bog`liqligi.

O`tkazuvchanlik bilan g`ovaklik orasida bevosita bog`lanish yo`q. Tabiatda g`ovakligi juda katta, ammo o`tkazuvchanligi juda kichik bo`lgan tog` jinslari ham uchraydi. Bo`larga misol tariqasida loy yotqiziqlarini ko`rsatish mumkin. Loyning g`ovakligi 40-50% gacha va undan ham ortiq bo`lishi mumkin, ammo o`tkazuvchanligi nihoyatda kichikdir, amalda o`tkazmas desak ham bo`ladi.

Bu o'rinda O'rta Osiyo respublikalarida uy tomlarini loy-suvoq bilan yopishni misol tariqasida qo'rish mumkin. Yomgir suvlari bunday tomlardan o'tmaydi.

Ammo buning aksi sifatida, g'ovakligi juda kichik bo'lib, o'tkazuvchanligi katta bo'lgan ohaktoshni ko'rsatish mumkin. Odatda ohaktoshlarda g'ovaklik 4-8% ni tashkil qilsada, o'tkazuvchanligi ancha kattadir (100 mkm²).

Bu misollardan ko'rinib turibdiki, g'ovaklik bilan o'tkazuvchanlik orasida bilvosita bog'liqlik bor. Bu bogliqlik. Darsi va Puazeyl' qonunlari taxlilidan kelib chiqadi. Puazeyl' qonuni bo'yicha g'ovakli muhitdan sirqib o'tayotgan suyuqlik miqdori quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$Q = \frac{n\pi R^4 F \Delta P}{8\mu L} \quad (3.1)$$

Darsi qonuni bo'yicha esa xuddi ana shu suyuqlik miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = \frac{kF\Delta P}{\mu L} \quad (3.2)$$

G'ovaklik tenglamasidan (1.3) quyidagi natijani olish mumkin:

$$m = \frac{V_{\text{буш}}}{V_H} = \frac{nF\pi R^2 L}{FL} = n\pi R^2 \quad (3.3)$$

Bu tenglamalarda:

n - yuza birligidagi g'ovaklar soni (oqim aynan shu g'ovaklardan o'tadi)

R - g'ovak kanalchalarining radiusi (yoki g'ovaklarning o'rtacha radiusi)

F - oqim o'tayotgan yuza

ΔP - bosimlar ayirmasi

L - g'ovakli namuna uzunligi

μ - suyuqlikning dinamik qovushqoqligi.

Endi 3.3 tenglamani (3.1) ga qo'yib (3.2) orqali R -ni topamiz:

$$\frac{mR^2 F \Delta P}{8\mu L} = \frac{kF\Delta P}{\mu L} \quad (3.4)$$

Bu yerda

$$k = \frac{mR^2}{8}, \quad (3.5)$$

(3.6)

yoki
$$R = \sqrt{\frac{8k}{m}}.$$

Agar o'tkazuvchanlikni mkm² da o'lchasak, u holda

$$R = 2,86 \sqrt{\frac{k}{m}} \text{ bo'ladi.} \quad (3.7)$$

Shuni aytish kerakki, 1.33 - tenglamadagi R faqat soxta tuproqqa (yoki ideal tuproq) taalluqlidir. Tabiiy tog' jinslarida esa bo'shliq kanalchalari egri-bugri va har xil kattalikda bo'ladi. Tog' jinslari uchun bu munosabatga ma'lum tulating koeffitsienti kiritib foydalanish mumkin. Rus olimi F.I.Kotyaxov tomonidan ana shunday koeffitsient kiritilib, 1.33 - tenglama quyidagi shaklga keltirildi:

$$R = \frac{2}{7 * 10^5} \sqrt{\frac{8kY}{m}}. \quad (3.8)$$

Bu yerda: Y - haqiqiy tog' jinslarining g'ovakli muhitini harakterlovchi koeffitsient
Uz navbatida:

$$Y = \frac{0,5035}{m^{1,1}}$$

(3.9)

empirik tenglama bilan aniqlanadi. Uning miqdori

$$R = 2 * 10^{-6} \sqrt{\frac{kY}{m^{1,1}}}.$$


(3.10)

Bu tenglama o'tkazuvchanlikning g'ovaklik bilan bogliqligini g'ovak radiuslari orqali ifodalovchi yakuniy tenglamadir.

3.2. G'ovaklar miqdorini aniqlash usullari.

G'ovaklar va g'ovak kanalchalarining miqdori tog' jinsi bo'shliqlari to'zilishini o'rganishda kerak bo'ladi. Bu kattaliklarni simob to'yintirish va yarim o'tkazgich usuli bilan aniqlash mumkin.

Simob to'yintirish usuli bilan g'ovaklar kattaligini aniqlash uchun katta bosimga chidaydigan, hamda havo o'tkazmaydigan qilib ishlagan kamera (1), vakuum va bosimni o'lchaydigan o'lchagichlardan (2,4) iborat bo'lgan maxsus moslamadan foydalaniladi. Bu moslamaning ishlash sxemasi 3.1 - rasmda ko'rsatilgan.



3.1- rasm. Simob to'yintirish usuli bilan g'ovaklar kattaligini aniqlash moslamasi

1- bosqon; 2,10 - bosim o'lchagichlar; 3 - vakuum nasos; 4- vacuum o'lchagich; 5- ochqich-bekitgichlar; 6,11 – ventillar; 7 – kamera; 8- namuna; 9-namuna tutqichlar.

Kameraga (7) toza quritilgan tog' jinsi namunasi (8) o'rnatilgan. Vakuum nasos (3) ishga tushirilib, kameradan havo so'rib olinadi. Shundan keyin simobli bosqon (1) orqali kamera

simobga to'ldiriladi. Kamera simobga to'lgach, simob yana bir oz kattaroq bosim orqali haydaladi va bosim qanday o'zgarganligi qayd qilinadi. Biroz vaqt o'tgandan so'ng, kamera ichidagi bosim ostida turgan simob namuna g'ovaklari ichiga sirqib kira boshlaydi va bosim pasayadi. Demak, simob namunadagi katta g'ovaklarni egallaydi. Simobning g'ovaklarni egallashida kapillyar bosim asosiy rol o'ynaydi. Kapillyar bosim o'z navbatida simobning sirt taranglik burchagiga bog'liq bo'lib, quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$P_k = \frac{2\delta \cos\theta}{R} \quad (3.11)$$

Bu yerda: P_k - simobning kapillyar bosimi

δ - sirt taranglik kuchi (simob uchun 480mNG`m)

θ - sirt taranglik burchagi (simob uchun q140o)

R - g'ovaklar radiusi.

Keltirilgan tenglamadan g'ovaklar radiusi aniqlanadi

$$R = \frac{2\delta \cos\theta}{P_k}$$


(3.12)

Moslamadagi bosim yana oshirilib, simob haydaladi va bu jarayon bir necha marta qaytarilib, namuna ichidagi bo'shliqlar simobga to'ldiriladi. O'z-o'zidan ma'lumki, bo'shliqlar orasiga simob kirishi bosimni R_1 dan R_2 gacha oshirilganda ro'y beradi. Demak, bu holda, simob kirgan bo'shliqlar radiusi

$$R_1 = \frac{2\delta \cos\theta}{P_1} \text{ dan } R_2 = \frac{2\delta \cos\theta}{P_2} \text{ gacha bo'ladi.}$$

Xuddi shuningdek R_3 , R_4 va u.k.radiuslar orqali, namunadagi g'ovaklar miqdori aniqlanadi.

Yarim o'tkazgich usuli bilan g'ovaklarning kattaliklarini aniqlashda 3.2 - rasmda keltirilgan moslamadan foydalaniladi.



3.2 rasm. Yarim o'tkazgich usulida g'ovaklikni aniqlash

Bu moslama namuna o'rnatilgan kamera (4), yarim o'tkazgich tuzilma (6), U - simon bosim o'lchagich (1) va darajalangan (8) suyuqlik yig'iladigan idishdan (7) iborat. Kameradagi yarim o'tkazgich to'siq o'zidan suyuqlikni o'tkazib, gazni o'tqazmaydi. Namuna suyuqlik (kerosin) bilan to'yintirilib, kameraga o'rnatiladi va qimirlab ketmasligi uchun prujina (3) bilan qisib qo'yiladi. Kameraga havo (yoki azot) haydab, namuna ichidagi suyuqlik siqib chiqariladi.

Suyuqlik yarim o'tkazgichdan o'tib, darajalangan idishda yig'ila boshlaydi. Havo bosimini o'zgartirib turib, bosimning bir necha qiymatlari aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar (1.38) tenglamasiga quyilib, namuna bo'shliqlari radiuslari aniqlanadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, suyuqlik harakati g'ovaklarning radiuslari 5- 30 mkm bo'lgan bo'shliqlarda bo'lar ekan. Olingan ma'lumotlar differensial egri chiziq ko'rinishida tasvirlanadi. Bunda absissa o'qi bo'yicha g'ovak radiuslari mikrometrdagi, ordinata o'qi bo'yicha esa g'ovak bo'shliqlar hajmi, ya'ni.

$$F(R) = \frac{dV}{dR}.$$

G'ovaklarning kattaligini sentrifuga usuli bilan ham aniqlash mumkin. Bu usulda suyuqlikka to'yintirilgan namuna sentrifugada katta aylanma tezlik bilan aylantiriladi. Aylanma harakat markazdan qochma kuchlar hosil qilishi natijasida, namunadan suyuqlik sirqib chiqadi. Ma'lum tezlikda qancha suyuqlik sirqib chiqqaniga qarab ham g'ovaklar radiusi aniqlanishi mumkin.

3.3. Tog' jinslarining solishtirma yuzasi.

Tog' jinslarining solishtirma yuzasi deb, birlik hajmdagi tog' jinslari zarrachalari sirtining umumiy yuzasiga aytiladi. Ba'zan tog' jinslarining solishtirma yuzasi deb, birlik hajmdagi tog' jinsi bo'shliqlari (g'ovak, kovak va yoriqlari) umumiy yuzasi, deb ham qaraladi.

Tog' jinsi qanchalik mayda zarrachalardan tashkil topgan bo'lsa va bu zarrachalar qanchalik zich joylashgan bo'lsa, tog' jinslarining solishtirma yuzasi shunchalik katta bo'ladi.

Umumiy holda tog' jinsining solishtirma yuzasi quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$S_{c.\text{ю}} = \frac{6(1-m)}{d} \quad (3.13)$$

Bu yerda: $S_{c.\text{ю}}$ - tog' jinsining solishtirma yuzasi, m^2/m^3

m - tog' jinsining g'ovaklik koeffitsienti;

d - zarrachalar diametri, m .

Bu tenglama soxta tuproq uchun yaroqlidir, haqiqiy tog' jinslarining solishtirma yuzasini aniqlash uchun donadorlik tarkibini o'rganish usullaridan foydalanib, har bir o'lchanadigan yuzani hisoblab chiqib, tog' jinsi zarrachalarning umumiy solishtirma yuzasi aniqlanadi:

$$S_{c.\text{ю}} = \frac{6(1-m)}{P} \sum_{i=1}^N \frac{P_i}{d_i} \quad (3.14)$$

Bu yerda: R - tog' jinsining massasi, kg ;

R_i - ma'lum bir o'lchamdagi tog' jinsi massasi;

N - elaklar soni;

d_i - ma'lum bir o'lchamdagi tog' jinsi zarrachalarining o'rtacha diametri. Bu diametr quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{1}{d_i} = \frac{1}{2} \left(\frac{1}{d_i'} + \frac{1}{d_i''} \right)$$

(3.15)

Bu yerda d_i' , d_i'' - donadorlik tarkibini aniqlashda ishlatilgan elaklar teshikchalarining diametri. Keltirilgan tenglamadan ko'rinib turibdiki, tog' jinsining solishtirma yuzasi shu tog' jinsi zarrachalarining katta - kichikligi va g'ovakligiga bog'liq ekan.

Endi tog' jinsi solishtirma yuzasining neft va gaz konlarini ishlatishga qanday aloqasi borligini ko'rib chiqamiz. Neft konidagi qatlamlarda neft harakatini ko'z oldimizga keltirsak, u o'z harakatida juda mayda g'ovak kanalchalardan sirqib o'tayotganini ko'ramiz. Zarrachalari mayda bo'lgan tog' jinsining g'ovak kanalchalari ham juda kichik bo'ladi. Demak, neft harakatlanayotganida haddan tashqari ko'p zarrachalarni ho'llab*) o'tish va bir vaqtning o'zida bu ho'llanish natijasida hosil bo'ladigan kapillyar bosim va sirt taranglik kuchlarini yengib o'tishi kerak.

Buning uchun esa ko'proq energiya sarflanishi kerak (qatlamdagi energiyalar haqida biz keyingi boblarda to'xtab o'tamiz), bu esa qatlam energiyasining behuda sarf bo'lishiga olib keladi.

Xo'sh, ho'llanish natijasida qanday jarayonlar yuzaga keladiki, energiya sarflanishi keskin ortib ketadi? Bunday jarayonlar avvalo suyuqlik molekulari o'rtasidagi o'zaro harakat natijasida yuzaga keladi. Bu hodisalar, ayniqsa, juda kichik g'ovaklik kanalchalarda keskin ravishda kuchayib ketadi. Buning asosiy sababi, tog' jinsi molekulari bilan o'zaro bog'liq bo'layotgan suyuqlik (bu yerda neft) molekularining sonini, tog' jinsi molekulari bilan bog'liq bo'lmayotgan suyuqlik molekulari soniga nisbatan ortib ketishidir.

Bu hodisa 3.3 - rasmda yaqqol ko'rinib turibdi. Tog' jinsi zarrachalari (1) orasidagi juda tor kanalchadan (2) harakat qilayotgan suyuqlik molekularining ko'proq qismi (3) tog' jinsi molekulari bilan o'zaro bog'liq bo'lsa, juda oz qismi (4) tog' jinsi molekulari bilan bog'liq bo'lmayapti (3.3 a - rasm).


*) Agar suyuqlik qattiq jismni ho'llasa, bunday jarayon gidrofil deyiladi, bordiyu ho'llamasa, gidrofob jarayon deyiladi.

Suyuqlik kattaroq kanalchalarda harakatlanayotganda, buning aksi bo'lib, suyuqlik molekulari ozroq tog' jinsi zarrachalari sirti bilan o'zaro bog'liq bo'ladi (3.3 b - rasm).

Shuning uchun ham, o'zaro molekular harakati natijasida sirt taranglik kuchi hamda kapillyar bosim ortib ketadi va suyuqlik harakati uchun ko'proq energiya sarf bo'ladi.

Demak, konlarni ishlatishda tog' jinsining solishtirma yuzasini aniq bilish konlarni to'g'ri ishlatish uchun kerak bo'ladigan omillardan biri ekan.

Tog' jinsining solishtirma yuzasi orqali g'ovaklilik va o'tkazuvchanlik orasidagi bilvosita bog'lanishni ham aniqlash mumkin.



3.3 - rasm. Suyuqlik harakatida tog' jinsi va suyuqlik molekularining o'zaro ta'siri.

- 1 - tog' jinsi,
- 2 - tog' jinsidagi kanalchalar,
- 3 - suyuqlik molekulari,

4 - tog` jinsi molekulari.

Tog` jinslari orasidagi juda tor bo`lgan suyuqlik kanalchalar katta-kichikligini gidravlik radiusi orqali ifodalash mumkin:

$$S = \frac{md}{6(1-m)} \quad (3.16)$$

Agar 1.42 tenglamani 1.39 ga qo`ysak u holda

$$S_{c.io} = \frac{m}{8} \quad (3.17)$$

O`z navbatida gidravlik radius g`ovaklik kanalchasing kesim yuzasi uning perimetriga nisbati bilan ham aniqlanishi mumkin.

$$S = \frac{\pi R^2}{2\pi R} = \frac{R}{2}$$

(3.18)

U holda

$$S = \frac{m}{\frac{R}{2}} = \frac{2m}{R}$$

(3.19)

Agar 3.19 tenglamaga R ning qiymatini avval keltirib chiqargan 3.4 tenglamadan qo`ysak,

$$S = \frac{2m}{R} = \frac{m\sqrt{m}}{\sqrt{2k}}$$

(3.20)

holga keladi. Oxirgi keltirib chiqargan tenglama Kozeni - Karman tenglamasining xususiy holdagi ko`rinishi deyiladi.

Kozeni - Karman tenglamasining umumiy holdagi ko`rinishi

$$R = \frac{m^3}{\gamma S_{c.io}^2 T^2}$$

(3.21)

Bu yerda: γ - g`ovaklik kanallari shaklining o`zgarishini hisobga oluvchi koeffitsienti;

T - g`ovaklik kanallarining egri - bugarligi;

Odatda namuna ichidagi g`ovaklik kanallarining o`rtacha uzunligini bo`lgan nisbat T ning qiymatini beradi.

$$T = \frac{\ell_{yp}}{L} \quad (3.22)$$

Bu yerda: ℓ_{yp} - namuna kanallarining o`rtacha uzunligi;

L - namuna uzunligi.

Kozeni - Karman tenglamasi (3.21) o`tkazuvchanlikni g`ovaklik, solishtirma yuza g`ovaklikning to`zilishi bilan murakkab bog`lanishni bilvosita kurinishda ifodalaydi.

3.4. Tog' jinslarining turliligini o'rganish.

Tog' jinslari, shu jumladan neft va gaz yig'ilishi mumkin bo'lgan kollektorlar donadorligi, g'ovakliligi, tik va yotiq yoriqlar, darzliklari, o'tkazuvchanligi va boshqa shu kabi omillarga qarab, turlilik yoki har xillik xususiyatiga ega. Donadorligi bo'yicha turliligi 1.2 - paragrafdan tushuntirilgan edi. Endi boshqa asosiy omillar bo'yicha tog' jinsining turliligi bilan tanishib chiqaylik.

Turlilikni xarakterlovchi asosiy omillardan biri o'tkazuvchanlikdir. O'tkazuvchanlik tog' jinslarining yotiq va tik yo'nalishlarida har xil bo'ladi, chunki uzoq geologik davrlarda hosil bo'lgan yotqiziqlar yotiq yo'nalishda yuqoriroq o'tkazuvchanlikka ega bo'lib, tik yo'nalishdagi o'tkazuvchanligi pastroq bo'ladi. Yotiq yo'nalishdagi o'tkazuvchanlikka bo'lgan nisbati tog' jinsining turlilik koeffitsienti bo'ladi. Ya'ni:

$$\chi = \frac{K_{\text{yotiq}}}{K_{\text{tik}}} \quad (3.23)$$

Bu yerda: χ - tog' jinsining o'tkazuvchanlik bo'yicha turlilik koeffitsienti;

K_{yotiq} - yotiq yo'nalishdagi o'tkazuvchanlik;

K_{tik} - tik yo'nalishdagi o'tkazuvchanlik;

Ba'zan bu koeffitsientni tog' jinsining anizotropik*) koeffitsienti deb ham yuritiladi.

O'tkazuvchanlikning qatlam ichida va qatlamlararo o'zgarishini statistik tahlil asosida o'rganish ham keng qo'llaniladi. Statistik qonuniyatlar asosida o'tkazuvchanlikning qiymatlari oddiy, oddiy - logarifmik, gamma - tarqalish, Maksvell tarqalishi, M.M.Sattarov tarqalishi, B.T.Baishev tarqalishi kabi tarqalishlar bilan harakterlanishi mumkinligi aniqlandi. Bu tarqalishlar ehtimollik nazariyasiga va statistik qonuniyatlarga asoslangan bo'lib, o'tkazuvchanlikning qatlam yuzasi va kesmi bo'ylab qay tarzda o'zgarishini harakterlaydi.

Yuqorida aytib o'tgan koeffitsientlarimizdan tashqari, neft - gaz konchilik geologiyasida qatlamlarning turliligini harakterlovchi yana uchta koeffitsient kiritilgan. Bo'lar kollektorlarning tarqalganlik, maydalanganlik va qumdorlik koeffitsientlaridir. Bu ko'rsatkichlar qatlamning asosiy xossalarning o'zgarish darajasi va ishlatish masalalarini yechishda keng qo'llaniladi. Ayniqsa, tog' jinslarining qat - qatligini, maydon bo'yicha xossalarning o'zgarishini, yuza va kesim bo'yicha nomo'tanosibligini o'rganishda bu koeffitsientlar juda qo'l keladi.

Kollektorlarning tarqalganlik koeffitsienti deb, kollektorlar tarqalgan umumiy maydonni neft va gaz umumiy maydoniga bo'lgan nisbatiga aytiladi. Ya'ni:

$$K_T = \frac{S_{\text{yM}} - S_{\text{HK}}}{S_{\text{yM}}} = \frac{S_{\text{KOЛ}}}{S_{\text{yM}}}$$

(3.24)

Bu yerda: K_m - kollektorlarning tarqalganlik koeffitsienti;

S_{yM} - neft uyumining umumiy maydoni;

S_{HK} - nokollektorlarning umumiy maydoni;

$S_{\text{KOЛ}}$ - kollektorlarning umumiy maydoni.


Kollektorlarning tarqalganlik koeffitsientini yaqqolroq tushunish uchun 3.4- rasmga murojaat qilaylik.

3.4 - rasmda neft uyumining umumiy maydoni Γ bo'lsin. Shu umumiy maydonda beshta kichik - kichik maydonchalarda nokollektorlar, ya'ni kollektor bo'lmagan tog' jinslari mavjudligi aniqlangan bo'lib, ularning umumiy maydoni $S_{nk} = S_1 + S_2 + \dots + S_5$ ga teng bo'ladi.

*) anizotropiya - jismning xossalari har xil yo'nalishda turlicha bo'lishini bildiradigan atama.

U holda kollektorlarning tarqalganlik koeffitsienti quyidagicha ifodalanadi;

$$K_{\square} = \frac{S_{\square} - S_1 + S_2 + \dots + S_5}{S_{\square}} = \frac{S_{\square} - S_{nk}}{S_{\square}}$$



3.4 - rasm. Kollektorlarning tarqalganlik koeffitsientiga doir tasvir.

- nokollektorlar;

- kollektorlar.

Kollektorlarning maydalanganlik koeffitsienti deb, neft (yoki gaz) uyumiga burg'ilangan quduqlarda qirqib o'tilgan neftli qatlamlarning umumiy sonini burg'ilangan quduqlarning umumiy soniga nisbatiga aytiladi. Ya'ni:

$$K = \frac{\sum_{i=1}^n m_i}{N} \quad (3.25)$$

Bu yerda: K_m - kollektorlarning maydalanganlik koeffitsienti;

m_i - quduq qirqib o'tgan i - qatlamcha;

N - konda burg'ilangan quduqlarning umumiy soni.


3.5 - rasmda kollektorlarning maydalanganlik koeffitsientini tushinishga doir tasvir berilgan. Bu rasmda neft konidagi bir katta qatlamning kesimi berilgan bo'lib, bu qatlamda beshta quduq qazilgan bo'lsin. Endi har bir quduqning katta qatlamda kollektor bo'lgan qancha mayda qatlamchalardan o'tganligini sanab ko'ramiz:

1 - quduqda 1 ta kollektor qatlamchasi bor;

2 - quduqda 4 ta; 3 - quduqda 4 ta; 4 - quduqda 4 ta;

5 - quduqda 2 ta kollektor qatlamchalari bor ekan.

Umumiy 5 ta quduqda qirqib o'tilgan mayda qatlamchalar soni 15 ta ekan.



3.5 - rasm. Kollektorlarning maydalanganlik koeffitsientiga doir tasvir:
 - nokollektorlar; - kollektorlar;

Demak, bu katta qatlam uchun kollektorning maydalanganlik koeffitsienti

$$K_M = \frac{1 + 4 + 4 + 2 + 4}{5} = 3,0$$

ga teng ekan.

Kollektorlarning qumdorlik koeffitsienti deb, qatlamning neft bilan to'yingan samarali qatlami qalinligini (yoki balandligini) qatlamning umumiy qalinligiga bo'lgan nisbatiga aytiladi. Ya'ni:

$$K_K = \frac{h_c}{H} \quad (3.26)$$

Bu yerda: K_K - kollektorlarning qumdorlik koeffitsienti;

h_c - samarali qatlam qalinligi;

H - qatlamning umumiy qalinligi.

Kollektorlarning qumdorlik koeffitsientini tushunish uchun yana 3.5 - rasmga murojaat etamiz. Rasmda keltirilgan qatlamning umumiy qalinligi 50 m bo'lsin. Har bir samarali qatlamchani qalinligi o'rtacha 5 m dan bo'lsin. U holda 3 - quduq misolida samarali qatlamchalarining umumiy qalinligi $4 \times 5 = 20$ m bo'lar ekan. Demak, bu qatlamning qumdorlik koeffitsienti

$$K_K = \frac{20}{50} = 0,4$$

ga teng ekan.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. O'tkazuvchanlikning g'ovak kanallari bilan bog'liqligi.
2. G'ovaklar miqdorini aniqlash usullari.
3. Tog' jinslarining solishtirma yuzasi.
4. Tog' jinslarining turliligini o'rganish.

Glossariy

Loy - g'ovakligi yuqori o'tkazuvchanligi past bo'lgan tog' jinsi.

Ohaktosh - o'tkazuvchanligi yuqori g'ovakligi past bo'lgan tog' jinsi.

Tog' jinslarining solishtirma yuzasi - birlik hajmdagi tog' jinslari zarrachalari sirtining umumiy yuzasiga aytiladi.

Gidrofilyarayon deb - agar suyuqlik qattiq jismni ho'llasa.

Gidrofobiyarayon deb - agar suyuqlik qattiq jismni ho'llamas.

Tog' jinsining turlilik ko'effitsiyenti deb – yotiq yo'nalishdagi o'tkazuvchanlikni tik yo'nalishdagi o'tkazuvchanlikka bo'lgan nisbati.

Anizotropiya – jismning xossalari har xil yo'nalishda turlicha bo'lishini bildiradigan atama.

Kollektorlarning tarqalganlik ko'effitsiyenti deb – kollektorlar tarqalgan umumiy maydonni neft va gaz uyumining umumiy maydoniga bo'lgan nisbati.

Kollektorlarning maydalanganlik ko'effitsiyenti deb – neft (yoki gaz) uyumiga burg'ilangan quduqlarda qirqib o'tilgan neftli qatlamlarning umumiy sonini burg'ilangan quduqlarning umumiy soniga nisbati.

Kollektorlarning qumdorlik ko'effitsiyenti deb – qatlamning neft bilan to'yingan samarali qatlami qalinligini qatlamning umumiy qalinligiga bo'lgan nisbati.

Nazorat savollari.

1. O'tkazuvchanlikning g'ovaklik va g'ovak kanallari bilan bogliqligi.
2. Simob to'yintirish va yarim o'tkazgich usuli bilan qanday kattaliklarni aniqlash mumkin?
3. Simob to'yintirish usuli bilan g'ovaklar kattaligini aniqlash moslamasi qanday qismlardan iborat.
4. Yarim o'tkazgich usulida g'ovaklikni aniqlash usuli haqida.
5. Suyuqlik harakati g'ovaklarning radiuslari necha mkm bo'lgan bo'shliqlarda bo'lar ekan.
6. Tog' jinslarining solishtirma yuzasi deb nimaga aytiladi?
7. Umumiy holda tog' jinsining solishtirma yuzasi qanday tenglama bilan aniqlanadi?
8. Gidrofil jarayon bu . . .
9. Gidrofob jarayon bu . . .
10. Tog' jinslari qanday omillariga qarab turlilik yoki har xillik xususiyatiga ega.

4-MA'RUZA

Mavzu: Tog' jinslarining mexanik xossalari

Reja:

1. Tog' jinslarining asosiy mexanik xossalari.
2. Tog' jinslarining deformatsiya xossalari o'rganish
3. Tog' jinslarining mustahkamlik xossalari o'rganish.
4. Tog' jinslarining taranglik xususiyatlari.

Adabiyotlar (1;2;3;6;7)

Tayanch so'zlar: Zichlik, deformatsiya, siqilish, egilish va o'zilishga qarshi mustahkamlik, plastiklik, neft taranglik zaxirasi, hajm tarangligi ko'effitsiyenti, deformatsiya, Guk qonuni, Yung moduli, reologik xususiyatlar, Krip hodisasi, mustahkamlik, taranglik.

4.1. Tog' jinslarining asosiy mexanik xossalari.

Neft va gaz konlarini burg'ilash va ishga tushirish jarayonlari tog' jinslarining quyidagi mexanik xossalari bog'liq: taranglik, zichlik, deformatsiya, siqilish, egilish va o'zilishga qarshi mustahkamlik, plastiklik va boshqalar. Jumladan, konlarda qatlam bosimining o'zgarishi (qatlam maydonidagi taqsimoti) tog' jinslarining tarangligi, suyuqlik va gazlarning siqiluvchanligiga bog'liq.

Qatlam bosimi kamaygan sari kavaklardagi suyuqlik (neft va gaz) kengayadi, kovaklar, esa qatlamdan yer yuzasigacha bo'lgan tog' jinslarining og'irligi, ya'ni tog' bosimi natijasida torayadi. Bu mexanizm ta'sirida qatlamdan quduqlarga anchagina neft sirqib chiqadi. (Bu qo'shimcha olinadigan neft taranglik zaxirasi deb ham ataladi). Tog' jinsi va suyuqliklarning taranglik miqdori (siqiluvchanlik ko'effitsiyenti) alohida bir birlik hajm uchun kichik bo'lgani bilan konlardagi qatlamlar katta hajm egallaganligi uchun, ularda bu ko'effitsiyent ta'siri sezilarli darajada bilinadi. Bu haqda keyingi boblarda batafsil tushuncha beriladi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, quduqlar ish jarayonining o'zgarishi natijasida qatlamda bosim bir zumda o'zgarmay, sekin - tushirish yoki to'xtatish bilan bog'liq.

Qatlamda bosim o'zgarish tezligi hajm tarangligi koeffitsienti orqali aniqlanadi.

Tog` jinslarining zichligi deb, bir birlik hajmdagi qattiq jismning massasiga aytiladi (bunda kovaklik nolga teng deb olingan).

$$\rho = \frac{M}{V}; \quad \frac{\Gamma}{\text{cm}^3}; \quad \frac{\text{kg}}{\text{m}^3}; \quad \frac{\text{T}}{\text{M}^3} \quad (4.1)$$

Bu yerda: M - tog` jinsi massasi;

V - tog` jinsining bir birlik hajmi.

Zichlik tog` jinsini tashkil etgan minerallar va ularning o'zaro munosabatlariga bog`liq. Tog` jinslarini tashkil etgan minerallar zichligi 1850 kg/m³ dan (allofan) 5200 kg/m³ gacha (magnetit) o'zgaradi.

Tog` jinslarining mustahkamligi deb, ularning tashqi kuchlar ta'sirida yemirilishiga aytiladi. Mustahkamlik asosan siqilishdagi yemirilishga qarshilik ko'rsatadi. Jumladan, bir o'qli siqilishda o'zilish mustahkamligi 2 - 18 %, siljish mustahkamligi 5 - 20 % ni tashkil etadi.

Plastik deb, tog` jinslarining suv bilan to'yinganligi oshib ketishi natijasida oquvchanlik xususiyatiga ega bo'lishiga aytiladi. Bunday holatlar neft va gaz konlarida uchramay, asosan shaxtalar, metro tunellarida qazish ishlari olib borilganda uchrashi mumkin.

Quduqlar mahsuldorligini oshirish maqsadida o'tkaziladigan bir qator tuzatish va ta'mirlash ishlarining samaradorligi (qatlam ostki qismini torpedalash, suyuqlik ta'sirida qatlamlarni yorish va boshqalar) tog` jinslarining mustahkamligi va taranglik koeffitsientiga bog`liqdir.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, neft olish texnologiyasi tog` jinslarining asosiy mexanik xossalari uzviy ravishda bog`liq ekan, degan xulosaga kelish mumkin.

4.2. Tog` jinslarining deformatsiya va mustahkamlik xossalari o'rganish.

Deformatsiya - bu jismning massasi o'zgarmagan holda tashqi kuchlar ta'sirida hajm va shaklning o'zgarishidir. Tog` jinslari shartli ravishda mustahkam, plastik va sochiluvchan turlarga bo'linadi.

Guk qonuniga muvofiq jismning nisbiy deformatsiyasi kuchlanishga (σ) to'g'ri mo'tanosib, va taranglik koeffitsienti yoki Yung moduli (E) ga teskari mo'tanosib, ya'ni

$$\varepsilon = \frac{\sigma}{E} \quad (4.2)$$

Aksariyat tog` jinslari katta diapazonli kuchlanishlarda Guk qonuniga bo'ysunadi. Siqilish kuchlanishi oshgan sari deformatsiya kuchayadi. Kuchlanish va deformatsiya orasidagi bog`lanish tog` jinsiga bo'lgan kuchlanish muddatiga qarab o'zgaradi.

Uzoq kuchlanish ta'sirida tog` jinslarining mexanik xossalari o'zgarishi ularning reologik xususiyatlari deb ataladi.

Tog` jinslarining geologik xossalari deb, ularning mexanik karakteristikalarining doimiy ta'sir qiluvchi kuchlar ostida o'zgarishiga aytiladi. Bu o'zgarish Krip hodisasi bilan karakterlanadi. Krip hodisasi deb, deformatsiyaning asta - sekin oshishi natijasida tog` jinsining oqish xususiyatiga ega bo'lishiga aytiladi. Tog` jinslarining mexanik yemirilishiga qarshilik ko'rsatish ularning mustahkamligi bilan bog`liq.

Mustahkamlik tog` jinslarida, ayniqsa, ohaktoshlarda loy zarrachalarining soni oshgan sari ularning siqilishga qarshi mustahkamligi sezilarli darajada kamayadi. Mustahkamlik jinslarning donadorlik tarkibiga ham bog`liq. Mayda zarrachali tog` jinslari yirik zarrachali tog` jinslariga nisbatan yuqori mustahkamlikka ega.

Mustahkamlik tog` jinslarining tarkibidagi suv miqdoriga boqliq. Masalan, qumtosh va ohaktosh suv bilan to'yinganda ularning mustahkamligi 25 - 45 % gacha kamayadi.

4.3. Tog` jinslarining taranglik xususiyatlari

Qatlam bosimi pasayishi jarayonida qatlamda neft, suv va gaz kengayadi, tog` bosimi (qatlamdan yer yo`zigacha bo`lgan tog` jinslarining og`irligi) ta'sirida kovak kanallari qisqaradi.

Suyuqlik va qatlamning tarangligi kichik miqdorga ega bo`lsa ham, V.N.Shelkachev tadqiqotlariga muvofiq katta, hajmli qatlamlarda yuqori bosim ta'sirida quduqlardan ancha miqdorda suyuqlik olinadi. Shuning uchun neft konlarini loyihalashda tog` jinsi va suyuqlik tarangligi hisobga olinishi lozim.

Taranglik xususiyati - siqiluvchanlik koeffitsienti (β) orqali belgilanadi.

$$\beta_{T.Ж} = -\frac{1}{V} * \frac{dV}{dP} \quad (4.3)$$

$$\beta_c = -\frac{1}{V} * \frac{dV}{dP} \quad (4.4)$$

Bu yerda: dP - bosimga muvofiq hajm dV ;

$\beta_{T.Ж}, \beta_c$ - mos ravishda tog` jinsi va suyuqlikning siqiluvchanlik koeffitsienti.

D.A.Antonovning tekshirishlari bo`yicha suyuqlik va tog` jinslarining siqiluvchanlik koeffitsienti

$$\beta_c = (3.7 + 5.0) * 10^{-10} \frac{1}{\text{Па}} \quad \text{va} \quad \beta_{T.Ж} = (0.86 + 1.26) * 10^{-9} \frac{1}{\text{Па}} \quad \text{orasida}$$

o`zgarishi mumkin.

Hisoblashlarni osonlashtirish uchun ko`pincha tog` jinsi va suyuqlik taranglik koeffitsientining umumiy kattaligidan foydalaniladi:

$$\beta^* = m * \beta_{\square} + \beta_{\square c} \quad (4.5)$$


Bu yerda: m - g`ovaklilik koeffitsienti.

Ba`zan β^* Shelkachev V.N. koeffitsienti deb ham ataladi.

4.4. Tog` jinslarining mexanik xossalarini aniqlash usullari

Tog` jinslarining siqiluvchanlik koeffitsientini aniqlashda p`ezometr degan moslamadan foydalaniladi. 4.1 - rasmda p`ezometrning sxemasi berilgan. Bu moslama ikki (2 va 3) kameradan iborat bo`lib, tashqi (2) kamera 20 mPa bosimga mo`ljallangan. Uning qopqog`iga uchta klemma (7) va ikkita salnik o`rnatilgan. Salnik orqali 4 va 5 mikrometrik vintlarning o`qi o`tadi.

Ichki kamera (3) tashqi kameraning qopqog`iga ulanadi. Ichki kamera qopqoqli po`lat stakandan iborat bo`lib, halqa (6) bilan kertik orqali ulanadi. Qopqoqqa ikkita klema (7), kameralarni press bilan ulaydigan naycha (8) va silindrda (9) siljiydigan porshen (10) ulangan.



4.1 - rasm. Tog' jinslarining siqiluvchanlik koeffitsientini aniqlovchi asbob (p'ezometr).

1 - p'ezometrik idish; 2, 3 - tashqi va ichki kameralar; 4 va 5 - mikrometrik vintlar; 6 - halqa; 7 - klemma; 8 - lovchi naycha; 9 - silindr; 10 va 12 - porshen; 11 - naycha; 13 - namuna.

P'ezometrik idish (1) chap va o'ng kertik orqali ichki kameraning qopqog'iga ulanadi. Idishning pastki qismiga naycha (11) orqali silindr ulanadi. Silindrda porshen (12) erkin harakat qiladi.

Sinaladigan namuna (13) qo'rg'oshin qoplamida p'ezometrik idishga shunday joylashtiriladiki, namunadagi kovaklar silindr bo'shlig'i bilan bog'langan bo'lsin.

Bu moslamada suyuqlik va tog' jinsining siqiluvchanlik koeffitsienti ($\beta_{cBa}\beta_{T.Ж}$) va hajm taranglik koeffitsienti aniqlanadi.

Tog' jinsining siqiluvchanlik koeffitsientini aniqlash uchun namuna suyuqlik bilan to'yintiriladi, qo'rg'oshin qoplamaga joylashtirilib p'ezometrik idishning qopqog'iga mustahkamlanadi. So'ngra porshen bilan silindrda namunaning tashqi tomonidan qatlam bosimiga teng bosim saqlanib turiladi. Tashqi bosim ta'sirida namunadan suv siqib chiqariladi va kovaklar hajmi kichrayadi. Shu vaqtning o'zida porshen yuqoriga harakat qiladi. Namunaning tashqi tomonidagi bosimi ma'lum bo'lgan holda va porshen harakatini inobatga olib hisoblanadi:

$$\beta_{\square.c} = \frac{\Delta h * S}{V_0 * \Delta P} \quad (4.6)$$

Bu yerda: Δh - porshenning harakati;

S - porshenning kesim yuzasi;

V_0 - namunaning boshlang'ich hajmi;

ΔP - namuna qoplamasida bosimning o'zgarishi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Tog' jinslarining asosiy mexanik xossalari.
2. Tog' jinslarining deformatsiya xossalarini o'rganish
3. Tog' jinslarining mustahkamlik xossalarini o'rganish.
4. Tog' jinslarining taranglik xususiyatlari.

Glossariy

Tog' jinslarining zichligi deb – bir birlik hajmdagi qattiq jismning massasiga aytiladi.

Tog' jinslarining mustahkamligi deb – ularning tashqi kuchlar ta'sirida emirilishiga aytiladi.

Plastiklik deb – tog' jinslarining suv bilan to'yinganligi oshib ketishi natijasida tog' jinslari oquvchanlik xususiyatiga ega bo'lishiga aytiladi.

Deformatsiya bu – jismning massasi o'zgarmagan holda tashqi kuchlar ta'sirida hajm va shaklining o'zgarishidir.

Tog' jinslari shartli ravishda – mustahkam, plastik va sochiluvchan turlarga bo'linadi.

Tog' jinslarining reologik xossalari deb – ularning mexanik xarakteristikalarining doimiy ta'sir qiluvchi kuchlar ostida o'zgarishiga aytiladi.

Krip hodisasi deb – deformatsiyaning asta-sekin oshishi natijasida tog' jinsining oqish xususiyatiga ega bo'lishiga aytiladi.

P'ezometr – tog' jinslarining siqiluvchanlik koeffitsiyentini aniqlovchi asbob.

Nazorat savollari.

1. Tog' jinsning zichlik deb nimaga aytiladi.
2. Tog' jinsning deformatsiyasi bu . . .
3. Tog' jinsning siqilishi bu . . .
4. Tog' jinsning egilish va o'zilishga qarshi mustahkamlik bu . . .
5. Tog' jinsning plastiklik bu . . .
6. Neftning taranglik zaxirasi deb nimaga aytiladi?
7. Hajm tarangligi koeffitsienti bu . . .
8. Guk qonuni
9. Yung moduli.
10. Tog' jinsning reologik xususiyati bu . . .

5-MA'RUZA

Mavzu: Tog' jinslarining issiqlik xossalari va ularning akustik xususiyatlari.

Reja:

1. Tog' jinslarining issiqlik xossalari.
2. Tog' jinslari, neft va suvning issiqlik xossalari.
3. Tog' jinslarining issiqlik xossalarini aniqlash usullari.
4. Tog' jinslarining akustik xususiyatlari.

Adabiyotlar (1;2;3;6;7)

Tayanch so'zlar: solishtirma issiqlik sig'mi, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti, harorat o'tkazuvchanlik koeffitsienti, issiq va sovuq quduqlar, chiziqli kengayish koeffitsienti, Rubinshteyn asbobi, akustik xususiyatlari, ultratovush, oddiy tovush, infratovush, Yung moduli, Tarangli tebranish amplitudasi, solishtirma to'lqinli qarshilik.

5.1. Tog' jinslarining issiqlik xossalari.

Neft va gaz konlarini ishlash jarayonida qator termometrik tekshirishlar o'tkaziladi. Bu tadqiqotlar tog' jinslarining issiqlik xossalariga asoslangan.

Tog' jinslarining issiqlik xossalari solishtirma issiqlik sig'imi S , issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti α va harorat o'tkazuvchanlik koeffitsienti λ orqali xarakterlanadi.

Solishtirma issiqlik sig'imi S bir birlikdagi tog' jinsi massasini bir darajaga isitish uchun sarflanadigan issiqlik miqdorini belgilaydi:

$$C = \frac{1}{M} * \frac{dQ}{dT} \quad (5.1)$$

Bu yerda: M - tog' jinsi massasi;

$\frac{dQ}{dT}$ - issiqlik ta'sirida harorat oshishi.

Harorat o'tkazuvchanlik koeffitsienti λ , issiqlik gradienti $(\frac{\Delta T}{\Delta x})$ birga teng bo'lganda, bir vaqt birligida, bir birlik tog' jinsi yyuzasidan (S) o'tadigan issiqlik dQ miqdorini bildiradi.

$$dQ = \lambda \frac{\Delta T}{\Delta x} * S * dt \quad (5.2)$$

Issqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti α tog' jinslarining isitish tezligini bildiradi. Tog' jinslari isitilganda kengayadi. Bu xususiyat chiziqli kengayish α_L va hajm issiqlik kengayish α_V koeffitsientlari orqali belgilanadi:

$$\alpha_L = \frac{1}{L} * \frac{dL}{dT} \quad (5.3) \quad \alpha_V = \frac{1}{V} * \frac{dV}{dT} \quad (5.4)$$

Bu yerda: L va V - tog' jinsi namunasining boshlang'ich uzunligi va hajmi;
dL, dV - harorat dT ga oshgani natijasida uzunlik va hajmning oshishi.

Tog' jinslarining issiqlik sig'imi ularning mineralogik tarkibga bog'liq. Namlik va harorat oshgani sari solishtirma issiqlik sig'imi ham oshadi. Tog' jinslarining issiqlik o'tkazuvchanligi metallarga nisbatan juda kam (0,1 - 7 VT/m*K), shuning uchun qatlamlar haroratini quduq atrofida 2 - 3 m gacha bo'lgan masofada 10 - 15⁰ C ga ko'tarish uchun quduqqa tushiriladigan qizdiruvchi elektr asboblarni bir necha kunlab ishlatishga to'g'ri keladi.

Neft va gaz qatlamini tashkil etgan asosiy minerallardan biri-kvars nisbatan yuqori solishtirma issiqlik sig'imiga ega (7 - 12 VT/m*K).

Neft va suv joylashgan tog' jinslarining issiqlik o'tkazuvchanligi suyuqlik muhitida konvektiv o'tkazish orqali oshadi. Bir xil sharoitda tog' jinslari katta zarrachalarining kichik zarrachalariga nisbatan issiqlik natijasida kengayish darajasi yuqori bo'ladi.

Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti tog' jinslarining boshqa issiqlik xossalari bilan quyidagicha ifodalanadi:

$$\alpha = \frac{\lambda}{c * \rho} \quad (5.5)$$

Bu yerda: α - issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti, m/s;

λ - harorat o'tkazuvchanlik koeffitsienti, Vt/m*K;

s - solishtirma issiqlik sig'imi Dj/kG*K;

ρ - tog' jinsi zichligi, kG/m³.

Tog' jinslarining issiqlik xususiyatlaridan quduqlarni burg'ilashda, ularning mahsuldorligini oshirishda va umuman konlarni ishlatishda foydalaniladi. Masalan, quduqlarni burg'ilashda geofizik tadqiqotlar olib boriladi. Bu tadqiqotlar, asosan, tog' jinslarining o'zidan issiqlik, harorat va radioaktiv nurlarini o'tkazishiga asoslangan. Quduqqa tushirilgan quvurlar birikmasi sementlangandan uning qotishi ana shu issiqlik xususiyatlariga bog'liq. Quduqlar, quduq tubi haroratiga qarab, "issiq" (agar quduq tubi harorati + 50⁰ C dan yuqori) va "sovuq" (agar harorati + 50⁰ C dan past bo'lsa) quduqlarga bo'linadi.

Neft quduqlarining mahsuldorligini oshirishda ham issiqlik xususiyatlari katta ahamiyatga ega. Ba'zan quduq atrofida va uning ostida neftdan ajralib chiqqan parafin va mum moddalari cho'kishi natijasida quduqning mahsuldorligi keskin kamayib ketadi. Ana shunday hollarda, quduq ostiga elektr isitgichlar o'rnatilib, qattiq qizdiriladi. Bu qizdirish quduq osti va quduq atrofidagi hamma qotib qolgan uglevodorodarni eritadi, neftning qovushqoqligini kamaytirib, siljish xususiyatini oshiradi, natijada quduq mahsuldorligi oshadi.

Konlarni ishlatishda, agar neftli qatlamlar ohaktoshlardan tashkil topgan bo'lsa, issiqlik hosil qiluvchi kislotalar ta'sirida qatlamlarning o'tkazuvchanligi oshiriladi. Ba'zi hollarda, qatlam bosimini saqlash hamda neftni siqib chiqarish jarayonlarini yaxshilash maqsadida issiq suv yoki bug' quduqlar orqali qatlamlarga haydaladi.

Issiq suv yoki bug' haydalganda qatlam haroratining oshishi va haroratning qatlam bo'yicha tarqalishi issiqlik o'tkazuvchanlik va harorat o'tkazuvchanlikka bog'liq. Bunday

hollarda konlarning umumiy neft berish qobiliyati keskin oshadi. 5.1 - jadvalda ba'zi tog' jinslari, neft va suvning issiqlik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Shuningdek, tog' jinslarining issiqlik xususiyatlaridan ilmiy tekshirish ishlarida ham foydalaniladi.


5.2. Tog' jinslari, neft va suvning issiqlik xossalari.

5.1-jadval

Tog' jinsi nomi	Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti VT/m K	Solishtirma issiqlik sig'imi kj/kg K	Harorat o'tkazish koeffitsienti m ² /s	Chiziqli kengayish koeffitsienti 1/K
Loy	0,99	0,755	0,97	-
Loyli slanets	154-218	0,772	0,97	0,9
Kristallashgan ohaktosh	2,18	1,1	0,5-1,2	0,5-0,8
Dolomitlash-gan ohaktosh	1,51			
Tosh tuzi	7,2	0,853	0,89	-
Kvars	2,49	0,692	1,36	1,37
Mergel	0,915-2,18	-	-	-
Qum	0,348	0,8	0,2	-
Zichlashgan qumtosh	1,27-3,01	0,838	1,39	0,5
Neft	0,139	2,1	0,069-086	-
Suv	0,682	4,15	0,14	

5.3. Tog' jinslarining issiqlik xossalarini aniqlash usullari.

Tog' jinslarining issiqlik o'tkazuvchanligi A.N.Rubinshteyn tomonidan ishlatilgan asbob (5.1 - rasm) orqali aniqlanadi.



5.1. – rasm. Tog' jinslarining issiqlik o'tkazuvchanligini aniqlash asbobi chizmasi

1-namuna; 2-saqlagich halqalar; 3 va 4-bimetall bo'lakchalari; 5 va 6-termojuftlar; 7 va 10-nosimmetrik vintlar; 8 va 9-isitgichlar.

Issiqlik o'tkazuvchanlikni o'rganish uchun balandligi 20 mm va diametri 20 mm bo'lgan ikkita silindrik shakldagi tog' jinsi namunasi tayyorlanadi. Bu namunalar (1) yuzasida elektr isitgich (8) qotiriladi, 3 va 4 miskonstantali bimetall bo'lakchalari orqali isitgich ta'sirida tog' jinsi namunalaridagi harorat farqi aniqlanadi. Issiqlikni yo'qotmaslik uchun moslamada pleksiglasdan qilingan saqlagich halqalar (2) bor. Saqlagich halqalar orasiga isitgich (9) qotirilgan. Isitilish jarayonini tekshirish uchun 5 va 6 differensial termojuftlar o'rnatilgan. Moslamaning hamma qismlari 7 va 10 nosimmetrik vint bilan siqilib turadi.

Tog' jinsi namunalarining kattaligi sarflangan issiqlik miqdori va namuna uchlaridagi harorat farqini bilib, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsientini qo'yidagicha aniqlash mumkin:

$$\lambda = \frac{Q * L}{\Delta t * S * \Delta \tau} \quad (5.6)$$

Bu yerda: Q - vaqt orasida tog' jinsi namunasi orqali o'tgan issiqlik miqdori;

L - namuna uzunligi;

S - namuna yuzasi;

$\Delta \tau$ - namuna uchlaridagi harorat farqi.

Shuni ham aytish kerakki, Rubinshteyn asbobi eng sodda bo'lib, oddiy tajribaxonalarda ishlatiladi. Bundan tashqari, tog' jinslarining issiqlik xossalarini aniqlash uchun zamonaviy EHMga ulangan juda murakkab asboblardan ham mavjud.

5.4. Tog' jinslarining akustik xususiyatlari

Hozirgi paytda neft quduqlari mahsuldorligini oshirish maqsadida quduqlar ostki qismiga bosim to'liqlari ta'sir etadigan gidravlik va akustik tebratgichlar ham qo'llanilmoqda. Bu texnologik jarayon ta'sirida qatlamlarda yangi yoriqlar paydo bo'ladi, tabiiy yoriqlar kengayadi, natijada quduq mahsuldorligi oshadi.

Shuningdek, mahsuldor qatlam isitilishi ultratovush ta'sirida o'tkazilsa quduqlarni mum, parafin va neftning boshqa og'ir tarkibiy qismlaridan tozalash osonlashadi.

Tog' jinslarining tarangligi to'liqlarning o'tkazish qobiliyati, to'liq qarshiligi, to'liqlarni sindirish va qaytarishi ularning akustik xususiyatlarini xarakterlaydi. Tajribada quyidagi har xil chastotali taranglik to'liqlari uchraydi: ultratovushli 20000 Gs, oddiy tovushli 20 - 20000 Gs va infratovushli 20 Gs gacha.

Quduqlarda ishlayotgan tebratgichlar ta'sirida qatlamda uzunlik va ko'ndalang taranglik to'liqlari tarqaladi. Tarangli to'liqlar tarqalish tezligi ularning chastotasiga bog'liq emas. Yung moduli oshgani sari uzunlik va ko'ndalang to'liqlar tezligi kuchayadi. Shuning uchun ham g'ovakli tog' jinlarida zich tog' jinlariga nisbatan tarangli to'liqlar tarqalish tezligi pastdir.

Tarangli tebranish amplitudasi tebratgich manbaidan to'liq o'tgan masofaga nisbatan eksponensial qoidaga muvofiq so'nadi.

$$A = A_0 * e^{-\theta L} \quad (5.7)$$

Bu yerda: A - jarayondagi tebranish amplitudasi;

A_0 - boshlang'ich tebranish amplitudasi;

- to'liq so'nish koeffitsienti;

L - nurlanish manbaigacha bo'lgan masofa.

Solishtirma to'liqlik qarshilik Z tog' jinlari zichligi bilan tarangli to'liq tezligi ϑ ko'paytmasi orqali aniqlanadi:

$$Z = \rho * \vartheta \quad (5.8)$$

Tarangli to'liqning suyuqlik muhitidan qatlamga o'tish jarayoni to'liqlarning sinish va qaytarilishi bilan bog'liq.

To'liq qaytarilishi koeffitsienti tarqalgan (E_t) va qaytarilgan to'liq (E_q) nisbati bilan aniqlanadi:

$$K = \frac{\partial E_t}{\partial E_q} \quad (5.9)$$

Tovushli to'liqin suyuqlikdan (neft yoki suvdan) tog' jinsiga o'tishida to'liqin energiyasi 80 - 85 % gacha qaytadi. Tarangli to'liqinlar qaytishi optika qonuniga bo'ysunadi.

Qatlam mahsuldorligini oshirishda tog' jinslarining akustik xususiyatlaridan keng foydalaniladi. Masalan, quduqqa tebratgich moslama tushirilib, bu moslama orqali kislotalar eritmalari yoki boshqa suyuqliklar haydalishi natijasida quduq mahsuldorligi anchaga oshadi.

Keyingi vaqtlarda O'zbekistondagi neft konlarida akustik tebratgichlardan foydalanib, quduqlar mahsuldorligini oshirish keng ko'lamda qo'llanila boshlandi. Bunday usulni qo'llash, ayniqsa yuqori qovushqoqli parafin va mum moddalar ko'p bo'lgan og'ir neftli konlarda yaxshi natijalar bermoqda.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Tog' jinslarining issiqlik xossalari.
2. Tog' jinslari, neft va suvning issiqlik xossalari.
3. Tog' jinslarining issiqlik xossalarini aniqlash usullari.
4. Tog' jinslarining akustik xususiyatlari.

Glossariy

Solishtirma issiqlik sig'imi deb – bir birlikdagi tog' jinsi massasini bir darajaga isitish uchun sarflanadigan issiqlik miqdoriga aytiladi.

Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti – tog' jinslarini isitish tezligini bildiradi.

Issiq quduqlar - quduq tubi harorati 50⁰ C dan yuqori bo'lsa.

Sovuq quduqlar - quduq tubi harorati 50⁰ C dan past bo'lsa.

Ultratovush – 20000 Gs

Oddiy tovush – 20 – 20000 Gs

Infratovush – 20 Gs

Nazorat savollari.

1. Issiqlik sig'mi deb nimaga aytiladi?
2. Issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti deb nimaga aytiladi?
3. Harorat o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti deb nimaga aytiladi?
4. Issiq va sovuq quduqlar deb qanday quduqlarga aytiladi?
5. Chiziqli kengayish koeffitsiyenti bu . . .
6. Rubinshteyn asbobi,
7. Akustiklik xususiyatlari bu . . .
8. Ultratovush, oddiy tovush, infratovushlarning bir-biridan farqi.
9. Yung moduli
10. Solishtirma to'liqinli qarshilik qanday aniqlanadi.

6-MA'RUZA

Mavzu: Gaz, kondensat, neft va qatlam suvlarining fizik - kimyoviy xossalari.

Reja:

1. Uglevodorodlarning qatlamda to'planishiga qarab neft va gaz konlarining turlari.
2. Tabiiy gaz va gaz, kondensat konlaridagi gazlarning tarkibi.
3. Tabiiy gazlar tasnifini o'rganish.
4. O'zbekistondagi konlardan olinadigan gazlar tarkibi.

Adabiyotlar: (1;2;3;6;7)

Tayanch so'zlar: Sof gaz konlari, gaz - kondensat konlari, neftli gaz konlari, V.N.Samarsev tasnifi, gazli neft (ya'ni gazi bor neft) konlari, gaz do'ppili neft konlari, neft - gaz-kondensat konlari, neft - gaz - kondensat konlari, sof neft konlari, gazogidrat konlar, merkaptanlar, standart sharoit, vodorod sulfid.

6.1. Uglevodorodlarning qatlamda to'planishiga qarab neft va gaz konlarining turlari.

Ma'lumki, neft va gazning asosiy tarkibiy qismini uglevodorodlar tashkil qiladi. Qatlamlarda hosil bo'lgan neft, gaz va kondensat suyuqlik, gaz va aralash holatlarda uchrashi mumkin. Bu holatlar qatlamlarning bosimi va haroratiga, hamda uglevodorodlarning fizik - kimyoviy xossalari bog'liq. Odatda qatlamning yuqori qismida, ya'ni gumbazi va gumbaz atrofida, gaz holatidagi eng yengil uglevodorodlar joylashadi, qatlamning o'rta qismida esa gaz va kondensat aralashma holatida joylashadi, qatlamning pastki qismida yuqori zichlikdagi uglevodorodlar, ya'ni neft joylashadi. Ko'p hollarda uglevodorod konlarining ostki qismini suv egallagan bo'ladi.

Albatta, har bir kon uchun keltirilgan uglevodorodlarning joylashish sxemasi bajarilishi shart emas. Masalan, qatlam bosimi juda katta bo'lsa, gaz holatidagi uglevodorodlar suyuq holatdagi uglevodorodlar tarkibida to'liq erigan holatda bo'lishi mumkin, va aksincha. Umuman olganda uglevodorodlar qatlam ichidagi zichliklarga va fizik holatlarga ko'ra, konlar qo'yidagi turlarga bo'linadi (6.1- rasm).

1. Sof gaz konlari. Bunday konlarning qatlamlarida faqat sof gaz holatidagi uglevodorodlar to'planadi (6.1 a - rasm)

2. Gaz - kondensat konlari. Bunday konlarda gaz holatidagi uglevodorodlarda erigan holda eng yengil suyuq uglevodorodlar kondensatlar to'plami ham bo'ladi (6.1- b rasm).


3. Neftli gaz konlari. Bunday konlarning qatlamlaridagi uglevodorodlarning ko'proq qismi sof gaz holatida va ozroq qismi neft holatida uchraydi (6.1- v rasm).

V.N.Samarsev tasnifi bo'yicha agar:

$$V=0,50 + 0,75$$

bo'lsa, bunday konlarni neftli gaz konlariga kiritish kerak

$$\frac{V_{\Gamma}}{V_{\Gamma} + V_{H}} = V \quad (6.1)$$



6.1. – rasm. Uglevodorod konlarining joylashish turlari

- gaz - kondensat - neft - suv

Bu yerda: V_g - qatlamda gaz holatidagi uglevodorodlarning hajmi;

V_n - qatlamda neft holatidagi uglevodorodlarning hajmi.

4. Gazli neft (ya'ni gazi bor neft) konlari. Bunday konlarda ozroq miqdorda sof gaz holatidagi uglevodorodlar ko'proq miqdordagi neft bilan birga uchraydi. Bu konlarda $V=0,25+0,50$ nisbatda bo'ladi (6.1 g - rasm).

5. Gaz do'ppili neft konlari. Bunday konlarda sof gaz holatidagi uglevodorodlar umumiy uglevodorodlar hajmining $\frac{1}{4}$ qismidan kamrog'ini tashkil qiladi, ya'ni $V<0,25$ bo'ladi (6.1- d rasm).

6. Neft - gaz - kondensat konlari. Bunday konlarda sof gaz holatidagi uglevodorodlar umumiy uglevodorodlar hajmining $\frac{3}{4}$ qismidan ko'prog'ini tashkil qiladi, ya'ni $V<0,75$ bo'ladi (6.1- e rasm).

7. Neft - gaz - kondensat konlari. Bunday konlarda uglevodorodlarning uch turi - gaz, kondensat va neft har xil miqdordagi nisbatlarida uchrashi mumkin (6.1- j rasm).

8. Sof neft konlari. Bunday konlarda faqat og'ir uglevodorodlar neft holatida uchraydi. (6.1- z rasm).

Uglevodorodlarning holatiga qarab, yuqoridagi konlardan tashqari, yana bir turdagi uglevodorod konlari uchraydi. Bu - gazogidrat konlaridir. Bunday konlarda yengil uglevodorodlar ma'lum bir sabablarga ko'ra gaz holda emas, balki qattiq kristall holda uchraydi.

Bunday konlar juda kam tarqalganidan umumiy konlar tasnifiga kiritilmagan. Ular haqidagi batafsil ma'lumotlar keyinroq beriladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, uglevodorodlarning joylashish holatiga qarab konlarning ko'rinish har xil bo'lar ekan. Demak, ularni loyihalash va ishlatish jarayonlari ham har xil bo'ladi. Shuning uchun uglevodorod konlari topilganidan keyin, eng avvalo bu kon qaysi turkumdagi konga taalluqli ekanligi aniqlanadi.

Avval aytilganidek, odatda konlardagi gaz yoki neft ostida qatlam suvlari ham mavjud bo'ladi. Qatlam suvlari uglevodorod kolarini ma'lum bosim ostida siqib turadi.

Demak, gaz va neft konlarini mukammal o'rganish uchun bu qatlamlardagi uglevodorodlar bilan birga qatlam suvlarini ham o'rganish zarur ekan.

6. 2, 3. Tabiiy gaz va gaz - kondensat konlaridagi gazlarning tarkibi. Tabiiy gazlar tasnifini o'rganish.

Tabiiy gazlar - uglevodorodlar va nouglevodorodlar birikmasidan tashkil topgan aralashmadir. Ular qatlamlarda gaz holatidagi fazada yoki neft va suvda erigan holatda uchraydi, standart sharoitda faqat gaz holatda bo'ladi.

Tabiiy gaz va gaz - kondensat konlaridan olinadigan gazlarning umumiy ko'rinishi C_nH_{2n+2} ifodasi bilan aniqlanib, metan gomologlari qatoridan tashkil topadi. Tarkibida uglevodorodlardan tashqari nouglevodorodlar - azot (N_2), uglerod (IV) oksidi (CO_2), vodorod sulfid (H_2S), inert gazlar - argon (Ar), geliy (Ne), kripton (Kr), ksenon (Xe) va merkaptanlar (RSH) bo'lishi mumkin. Merkaptanlar (ba'zan tiospirtlar deyiladi) juda o'tkir, o'ziga xos hidi bilan ajralib turadi.

Sof gaz konlaridan chiqadigan gazlar tarkibining 90 - 98 % ni metan tashkil qiladi. Tabiiy gazlar tarkibida to'yingan uglevodorodlardan tashqari, to'yinmagan uglevodorodlar ham bo'lishi mumkin.

Uglevodorodlar molekulasida C_nH_{2n+2} ifodasidagi $n=1+56$ gacha bo'lishi mumkin. $n=1+4$ gacha bo'lsa, bunday uglevodorodlar (CH_4 , C_2H_6 , C_3H_8 , C_4H_{10}) standart sharoitda gaz holatida bo'ladi. $n=1+17$ gacha bo'lsa, uglevodorodlar suyuq holatda bo'ladi. Demak, tabiiy gazlar tarkibiga uglevodorodlarning $n=1+4$ gacha bo'lganlari kirar ekan, $n=1+7$ gacha bo'lganda kondensat holatida bo'ladi. Tabiiy gazlar qanday konlardan olinayotganiga qarab, tasnifi qo'yidagicha:

1. Sof gaz konlaridan olinadigan tabiiy gazlar. Bu gazlarda hech qanday suyuq holatdagi uglevodorodlar bo'lmaydi (yoki juda ham kam miqdorda bo'lishi mumkin) va ular quruq gazlar hisoblanadi.

Standart sharoit - bosim 101325 Pa (1 atm. yoki 760 mm.sm.us.) va harorat $20^{\circ}C$ bo'lgandagi sharoit.

2. Neft bilan birga olinadigan yo'ldosh gazlar. Yo'ldosh gazlar tarkibida metan miqdori kamroq, lekin etan, propan, butan va yuqori uglevodorodlar ko'p bo'ladi.

Neft bilan birga olinadigan gazlar quruq, yarim yog'li va yog'li guruhlariga ham bo'linadi. 1 m^3 quruq gazlarning nisbiy zichligi (havoga nisbatan) 0,75 atrofida bo'ladi. Yarim yog'li gazlar tarkibida benzin miqdori 75+150 g ni tashkil etadi. Nisbiy zichligi 0,9-1,0 bo'lgan yog'li gazlar tarkibida benzin miqdori 150 g dan yuqori bo'ladi va nisbiy zichligi 1,15 - 1,40 gacha yetishi mumkin.

3. Gaz - kondensat konlaridan olinadigan gazlar. Bu gazlar quruq gazlar bilan suyuq holatdagi kondensatlar aralashmasidan iborat bo'ladi.

Har uch guruhdagi gazlar asosan metan - butan komponentlarining miqdori bilan farq qiladi. Misol tariqasida 6.1 - jadvalda har uchchala guruhga tegishli konlardan olinadigan gazlarning kimyoviy tarkibi berilgan.

Avval aytib o'tganimizdek, gazlar tarkibida vodorod sulfid bo'ladi. Vodorod sulfid H_2S - palag'da tuxum hidi keladigan juda zaharli gazdir. Odatda tarkibida vodorod sulfid bo'lgan gaz

konlarini ishlatish ancha murakkablashadi, bunga asosiy sabab vodorod sulfid juda o'tkir yemiruvchi moddadir. Shuning uchun ham olinayotgan tabiiy gaz tarkibida qancha vodorod sulfid bor ekanligini oldindan bilish shart.

Tabiiy gazlar vodorod sulfid bo'yicha ham o'z tasnifiga ega, faqat bu tasnif vodorod sulfid bo'yicha aytilmasdan, balki oltingugurt miqdori bo'yicha yoritiladi:

1. Oltingugurtsiz tabiiy gazlar, bunda vodorod sulfid 0,001% hajmgacha bo'lishi mumkin;
2. Kam oltingugurtli gazlar, tarkibida 0,001 dan 0,3 % gacha vodorod sulfid bo'lishi mumkin;
3. O'rtacha miqdordagi oltingugurtli gazlar - tarkibida 0,3 dan 1,0 % gacha vodorod sulfid bo'lgan gazlar;
4. Yuqori miqdordagi oltingugurtli gazlar - tarkibida 1,00 % vodorod sulfidi bo'lgan gazlar.

Bu tasnifga qarab konlardagi gaz tayyorlash inshootlari ham har xil bo'ladi. Oltingugurtsiz va kam oltingugurtli gaz konlarida oltingugurtli tozalovchi qurilma va inshootlar bo'lmaydi. Qolgan hollarda oltingugurtdan tozalovchi inshootlar qurilib, tabiiy gaz oltingugurtdan to'la tozalanadi va sof holdagi oltingugurt ajratib olinishi mumkin. Agar tabiiy gaz tarkibida oltingugurt qolsa va iste'molchilarga shu holda yetkazilsa, zaharlanish mumkin yoki hatto portlash hodisalari yuz berishi mumkin.

O'zbekistondagi Qultog', Pomuq, Zevardi, Sho'rtan, Olot kabi konlar o'rtacha miqdordagi oltingugurtli konlarga va O'rtabuloq, Dengizko'l kabi konlar o'ta oltingugurtli konlarga kiradi. Ulardan olinayotgan tabiiy gazlardan Muborak shahri yonida joylashgan Muborak gazni qayta ishlash zavodida sof oltingugurt ajratib olinmoqda.

6.4. O'zbekistondagi konlardan olinadigan gazlar tarkibi.

Kon nomi	Gaz tarkibi								Solishtir ma zichligi
	CH ₄	C ₂ H ₆	C ₃ H ₈	C ₄ H ₁₀	C ₅ H ₁₀₊	CO ₂	H ₂ S	H _{2+i}	
1. Sof gaz konlaridan olinadigan gazlar									
Gazli, XI	93,49	4,18	0,97	0,38	0,16	0,42	-	0,40	0,588
Uchqir, XIV	94,05	3,42	0,74	0,30	0,49	0,50	-	0,50	0,604
Sho'rchi, XIII	94,21	2,06	0,12	0,01	0,20	1,22	-	2,18	0,587
Oqjar, XII	93,97	1,71	0,21	0,10	0,21	0,50	-	3,30	0,589
Jarqoq, XII	95,34	1,86	0,16	0,16	0,27	0,17	-	2,04	0,580
Xartum, VII	74,2	11,85	4,95	-	4,95	0,17	0,02	3,40	0,759
Jan.Rish- ton, XXIV	81,36	10,40	2,40	0,96	0,81	0,06	-	4,00	0,681
2. Neft konidan olinadigan yo'ldosh gazlar									
Gazli, XIII	93,45	2,45	0,60	0,25	0,50	0,45	-	2,30	0,598
Qorxitoy, XIII	95,40	0,25	0,09	0,05	izlari	0,60	-	3,60	0,577
Jarqoq, XV	92,15	4,10	0,96		0,73	1,60	0,06	0,40	0,612
Sho'rtepa, XIII	87,75	5,00	2,30	0,80	0,60	0,15	-	3,40	0,640

Sharq.Xar tum, III	45,06	22,55	13,47	2,26	5,87	0,25		7,46	0,792
Bo'ston, III	70,87	12,26	8,27	2,09	0,57	0,63	izlari	3,02	0,850
Variq, VIII	66,99	14,87	9,38	0,88	0,99	0,74	0,45	1,94	0,886
3. Gaz-kondensat konlaridan olinadigan gazlar									
Jan.Mubo- rak,XII	90,70	3,20	0,90	0,40	0,90	0,40	-	3,50	0,628
Sho'rtepa, XII	90,70	3,20	0,90	0,40	0,90	0,40		3,50	0,628
Sho'rtepa. XII	87,00	5,10	1,50	0,60	0,70	0,33		4,70	0,654
Uchqir, XIV	94,40	3,00	0,90	0,40	0,35	0,45	-	0,50	0,599
Yangi- qozg'on, XIII	89,80	2,10	0,50	0,40	1,20	0,70	-	5,30	0,637
Toshli,XV I	83,70	8,45	1,66	0,75	0,46	1,45		3,55	0,652
Hoji- Xayram, XV	89,45	4,62	1,27	0,13	0,28	0,48	0,48	0,06	3,70

Tabiiy gazlar tarkibida 0,05 % dan yuqori miqdorda geliy bo'lsa, u ham ajratib olinishi shart. Chunki geliy xalq xo'jaligining juda ko'p tarmoqlari uchun asosiy xomashyo sifatida ishlatiladi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Uglevodorodlarning qatlamda to'planishiga qarab neft va gaz konlarining turlari.
2. Tabiiy gaz va gaz, kondensat konlaridagi gazlarning tarkibi.
3. Tabiiy gazlar tasnifini o'rganish.
4. O'zbekistondagi konlardan olinadigan gazlar tarkibi.

Glossariy

Sof gaz konlari – bunday konlarning qatlamlarida faqat sof gaz holatidagi uglevodorodlar to'planadi.

Gaz - kondensat konlari - bunday konlarda gaz holatidagi uglevodorodlarda erigan holda eng yengil suyuq uglevodorodlar kondensatlar to'plami ham bo'ladi.

Neftli gaz konlari - bunday konlarning qatlamlaridagi uglevodorodlarning ko'proq qismi sof gaz holatida va ozroq qismi neft holatida uchraydi.

Gazli neft (ya'ni gazi bor neft) konlari - bunday konlarda ozroq miqdorda sof gaz holatidagi uglevodorodlar ko'proq miqdordagi neft bilan birga uchraydi.

Gaz do'ppili neft konlari - bunday konlarda sof gaz holatidagi uglevodorodlar umumiy uglevodorodlar hajmining $\frac{1}{4}$ qismidan kamrog'ini tashkil qiladi, ya'ni $V < 0,25$ bo'ladi.

Neft - gaz - kondensat konlari - bunday konlarda sof gaz holatidagi uglevodorodlar umumiy uglevodorodlar hajmining $\frac{3}{4}$ qismidan ko'prog'ini tashkil qiladi, ya'ni $V < 0,75$ bo'ladi.

Neft - gaz - kondensat konlari - bunday konlarda uglevodorodlarning uch turi - gaz, kondensat va neft har xil miqdordagi nisbatlarida uchrashi mumkin.

Sof neft konlari - bunday konlarda faqat og'ir uglevodorodlar neft holatida uchraydi.

Gazogidrat konlari – bunday konlarda yengil uglevodorodlar qattiq kristall holda uchraydi.

Nazorat savollari.

1. Sof gaz konlari deb qanday konlarga aytiladi?
2. Gaz - kondensat konlari deb qanday konlarga aytiladi?
3. Neftli gaz konlari deb qanday konlarga aytiladi?
4. Gazli neft konlari deb qanday konlarga aytiladi?
5. Gaz do'ppili neft konlari deb qanday konlarga aytiladi?
6. Neft – gaz - kondensat konlari deb qanday konlarga aytiladi?
7. Sof neft konlari deb qanday konlarga aytiladi?
8. Gazogidrat konlari deb qanday konlarga aytiladi?
9. Oltinugurt miqdori bo'yicha vodorod sulfid qanday yoritiladi?
10. O'zbekistondagi konlardan olinadigan gazlar tarkibi?

7-MA'RUZA

Mavzu: Tabiiy gaz va gaz, kondensat konlaridagi gazlarning tarkibi.

Reja:

1. Tabiiy gazlarning tarkibi va tasnifini o'rganish.
2. O'zbekistondagi konlaridan olinadigan gazlar tarkibi.

Adabiyotlar: (1;2;3;6;7)

Tayanch so'zlar: Standart sharoit, merkaptanlar, azot, vodorod sulfid, inert gazlar, Sof gaz konlari, standart sharoitdagi uglevodorodlarning gaz, suyuq, kondensat holatlari, quruq gazlar, yo'ldosh gazlar, Gaz - kondensat konlari, oltinugurt.

7.1. Tabiiy gaz va gaz - kondensat konlaridagi gazlarning tarkibi va tasnifini o'rganish.

Tabiiy gazlar - uglevodorodlar va nouglevodorodlar birikmasidan tashkil topgan aralashmadir. Ular qatlamlarda gaz holatidagi fazada yoki neft va suvda erigan holatda uchraydi, standart sharoitda faqat gaz holatda bo'ladi.

Tabiiy gaz va gaz - kondensat konlaridan olinadigan gazlarning umumiy ko'rinishi C_nH_{2n+2} ifodasi bilan aniqlanib, metan gomologlari qatoridan tashkil topadi. Tarkibida uglevodorodlardan tashqari nouglevodorodlar - azot (N_2), uglerod (IV) oksidi (CO_2), vodorod sulfid (H_2S), inert gazlar - argon (Ar), geliy (Ne), kripton (Kr), ksenon (Xe) va merkaptanlar (RSH) bo'lishi mumkin. Merkaptanlar (ba'zan tiospirtlar deyiladi) juda o'tkir, o'ziga xos hidi bilan ajralib turadi.

Sof gaz konlaridan chiqadigan gazlar tarkibining 90 - 98 % ni metan tashkil qiladi. Tabiiy gazlar tarkibida to'yingan uglevodorodlardan tashqari, to'yinmagan uglevodorodlar ham bo'lishi mumkin.

Uglevodorodlar molekulasida C_nH_{2n+2} ifodasidagi $n=1+56$ gacha bo'lishi mumkin. $n=1+4$ gacha bo'lsa, bunday uglevodorodlar (CH_4 , C_2H_6 , C_3H_8 , C_4H_{10}) standart sharoitda gaz holatida bo'ladi. $n=1+17$ gacha bo'lsa, uglevodorodlar suyuq holatda bo'ladi. Demak, tabiiy gazlar tarkibiga uglevodorodlarning $n=1+4$ gacha bo'lganlari kirar ekan, $n=1+7$ gacha bo'lganda kondensat holatida bo'ladi. Tabiiy gazlar qanday konlardan olinayotganiga qarab, tasnifi quyidagicha:

1. Sof gaz konlaridan olinadigan tabiiy gazlar. Bu gazlarda hech qanday suyuq holatdagi uglevodorodlar bo'lmaydi (yoki juda ham kam miqdorda bo'lishi mumkin) va ular quruq gazlar hisoblanadi.

Standart sharoit - bosim 101325 Pa (1 at yoki 760 mm.s.u.) va harorat 20^0 S bo'lgandagi sharoit.

2. Neft bilan birga olinadigan yo'ldosh gazlar. Yo'ldosh gazlar tarkibida metan miqdori kamroq, lekin etan, propan, butan va yuqori uglevodorodlar ko'p bo'ladi.

Neft bilan birga olinadigan gazlar quruq, yarim yog'li va yog'li guruhlariga ham bo'linadi. 1 m³ quruq gazlarning nisbiy zichligi (havoga nisbatan) 0,75 atrofida bo'ladi. Yarim yog'li gazlar tarkibida benzin miqdori 75+150 g ni tashkil etadi. Nisbiy zichligi 0,9-1,0 bo'lgan yog'li gazlar tarkibida benzin miqdori 150 g dan yuqori bo'ladi va nisbiy zichligi 1,15 - 1,40 gacha yetishi mumkin.

3. Gaz - kondensat konlaridan olinadigan gazlar. Bu gazlar quruq gazlar bilan suyuq holatdagi kondensatlar aralashmasidan iborat bo'ladi.

Har uch guruhdagi gazlar asosan metan - butan komponentlarining miqdori bilan farq qiladi. Misol tariqasida 7.1 - jadvalda har uchchala guruhga tegishli konlardan olinadigan gazlarning kimyoviy tarkibi berilgan.

Avval aytib o'tganimizdek, gazlar tarkibida vodorod sulfid bo'ladi. Vodorod sulfid H₂S - palag'da tuxum hidi keladigan juda zaharli gazdir. Odatda tarkibida vodorod sulfid bo'lgan gaz konlarini ishlatish ancha murakkablashadi, bunga asosiy sabab vodorod sulfid juda o'tkir yemiruvchi moddadir. Shuning uchun ham olinayotgan tabiiy gaz tarkibida qancha vodorod sulfid bor ekanligini oldindan bilish shart.

Tabiiy gazlar vodorod sulfid bo'yicha ham o'z tasnifiga ega, faqat bu tasnif vodorod sulfid bo'yicha aytilmasdan, balki oltingugurt miqdori bo'yicha yoritiladi:

1. Oltingugurtsiz tabiiy gazlar, bunda vodorod sulfid 0,001% hajmgacha bo'lishi mumkin;

2. Kam oltingugurtli gazlar, tarkibida 0,001 dan 0,3 % gacha vodorod sulfid bo'lishi mumkin;

3. O'rtacha miqdordagi oltingugurtli gazlar - tarkibida 0,3 dan 1,0 % gacha vodorod sulfid bo'lgan gazlar;

4. Yuqori miqdordagi oltingugurtli gazlar - tarkibida 1,00 % vodorod sulfidi bo'lgan gazlar.

Bu tasnifga qarab konlardagi gaz tayyorlash inshootlari ham har xil bo'ladi. Oltingugurtsiz va kam oltingugurtli gaz konlarida oltingugurtni tozalovchi qurilma va inshootlar bo'lmaydi. Qolgan hollarda oltingugurtdan tozalovchi inshootlar qurilib, tabiiy gaz oltingugurtdan to'la tozalanadi va sof holdagi oltingugurt ajratib olinishi mumkin. Agar tabiiy gaz tarkibida oltingugurt qolsa va iste'molchilarga shu holda yetkazilsa, zaharlanish mumkin yoki hatto portlash hodisalari yuz berishi mumkin.

O'zbekistondagi Qultog', Pomuq, Zevardi, Sho'rtan, Olot kabi konlar o'rtacha miqdordagi oltingugurtli konlarga va O'rtabuloq, Dengizko'l kabi konlar o'ta oltingugurtli konlarga kiradi. Ulardan olinayotgan tabiiy gazlardan Muborak shahri yonida joylashgan Muborak gazni qayta ishlash zavodida sof oltingugurt ajratib olinmoqda.

7.2. O'zbekistondagi konlardan olinadigan gazlar tarkibi

7.1 - jadval

Kon nomi	Gaz tarkibi								Solishtir ma zichligi
	CH ₄	C ₂ H ₆	C ₃ H ₈	C ₄ H ₁₀	C ₅ H ₁₀	CO ₂	H ₂ S	N _{2+i}	
1. Sof gaz konlaridan olinadigan gazlar									
Gazli, XI	93,49	4,18	0,97	0,38	0,16	0,42	-	0,40	0,588
Uchqir, XIV	94,05	3,42	0,74	0,30	0,49	0,50	-	0,50	0,604
Sho'rchi, XIII	94,21	2,06	0,12	0,01	0,20	1,22	-	2,18	0,587
Oqjar, XII	93,97	1,71	0,21	0,10	0,21	0,50	-	3,30	0,589
Jarqoq, XII	95,34	1,86	0,16	0,16	0,27	0,17	-	2,04	0,580
Xartum, VII	74,2	11,85	4,95	-	4,95	0,17	0,02	3,40	0,759
Jan.Rish-ton, XXIV	81,36	10,40	2,40	0,96	0,81	0,06	-	4,00	0,681
2. Neft konidan olinadigan yo'ldosh gazlar									
Gazli, XIII	93,45	2,45	0,60	0,25	0,50	0,45	-	2,30	0,598
Qorxitoy, XIII	95,40	0,25	0,09	0,05	izlari	0,60	-	3,60	0,577
Jarqoq, XV	92,15	4,10	0,96		0,73	1,60	0,06	0,40	0,612
Sho'rtepa, XIII	87,75	5,00	2,30	0,80	0,60	0,15	-	3,40	0,640
Sharq.Xar-tum, III	45,06	22,55	13,47	2,26	5,87	0,25		7,46	0,792
Bo'ston, III	70,87	12,26	8,27	2,09	0,57	0,63	izlari	3,02	0,850
Variq, VIII	66,99	14,87	9,38	0,88	0,99	0,74	0,45	1,94	0,886
3. Gaz-kondensat konlaridan olinadigan gazlar									
Jan.Muborak, XII	90,70	3,20	0,90	0,40	0,90	0,40	-	3,50	0,628
Sho'rtepa, XII	90,70	3,20	0,90	0,40	0,90	0,40		3,50	0,628
Sho'rtepa, XII	87,00	5,10	1,50	0,60	0,70	0,33		4,70	0,654
Uchqir, XIV	94,40	3,00	0,90	0,40	0,35	0,45	-	0,50	0,599
Yangi-qozg'on, XIII	89,80	2,10	0,50	0,40	1,20	0,70	-	5,30	0,637
Toshli, XVI	83,70	8,45	1,66	0,75	0,46	1,45		3,55	0,652
Hoji-Xayram, XV	89,45	4,62	1,27	0,13	0,28	0,48	0,48	0,06	3,70

Tabiiy gazlar tarkibida 0,05 % dan yuqori miqdorda geliy bo'lsa, u ham ajratib olinishi shart. Chunki geliy xalq xo'jaligining juda ko'p tarmoqlari uchun asosiy xomashyo sifatida ishlatiladi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Tabiiy gazlarning tarkibi va tasnifini o'rganish.
2. O'zbekistondagi konlaridan olinadigan gazlar tarkibi.

Glossariy

Tabiiy gazlar - uglevodorodlar va nouglevodorodlar birikmasidan tashkil topgan aralashmadir.

Sof gaz konlari - bu gazlarda hech qanday suyuq holatdagi uglevodorodlar bo'lmaydi (yoki juda ham kam miqdorda bo'lishi mumkin) va ular quruq gazlar hisoblanadi.

Standart sharoit - bosim 101325 Pa (1 at yoki 760 mm.s.u.) va harorat 20⁰ C bo'lgandagi sharoit.

Yo'ldosh gazlar - tarkibida metan miqdori kamroq, lekin etan, propan, butan va yuqori uglevodorodlar ko'p bo'ladi.

Neft bilan birga olinadigan gazlar - quruq, yarim yog'li va yog'li guruhlarga ham bo'linadi.

Quruq gazlar - 1 m³ quruq gazlar tarkibida benzin miqdori 75 g atrofida bo'ladi.

Yarim yog'li gazlar - tarkibida benzin miqdori 75+150 g ni tashkil etadi.

Yog'li gazlar - tarkibida benzin miqdori 150 g dan yuqori bo'ladi va nisbiy zichligi 1,15 - 1,40 gacha yetishi mumkin.

Gaz - kondensat konlaridan olinadigan gazlar - bu gazlar quruq gazlar bilan suyuq holatdagi kondensatlar aralashmasidan iborat bo'ladi.

Oltinugurtsiz tabiiy gazlar - bunda vodorod sulfid 0,001% hajmgacha bo'lishi mumkin;

Kam oltingugurtli gazlar - tarkibida 0,001 dan 0,3 % gacha vodorod sulfid bo'lishi mumkin;

O'rtacha miqdordagi oltingugurtli gazlar - tarkibida 0,3 dan 1,0 % gacha vodorod sulfid bo'lgan gazlar;

Yuqori miqdordagi oltingugurtli gazlar - tarkibida 1,00 % vodorod sulfidi bo'lgan gazlar.

Tabiiy gazlar tarkibida - 0,05 % dan yuqori miqdorda geliy bo'lsa, u ham ajratib olinishi shart. Chunki geliy xalq xo'jaligining juda ko'p tarmoqlari uchun asosiy xomashyo sifatida ishlatiladi.

Nazorat savollari.

1. Tabiiy gaz va gaz - kondensat konlaridan olinadigan gazlarning umumiy ko'rinishi va ularning tarkibi.
2. Uglevodorodlarning gaz kondensat holati.
3. Uglevodorodlarning suyuq holati.
4. Uglevodorodlarning kondensat holati.
5. Tabiiy gazlarning oltingugurt miqdori bo'yicha tasnifi.
6. O'zbekistondagi o'rtacha miqdordagi oltingugurtli konlar haqida.
7. O'zbekistondagi o'ta oltingugurtli konlar haqida.

8-MA'RUZA

Mavzu: Tabiiy gazlarning asosiy fizik xossalari.

Reja:

1. Tabiiy gaz tarkibidagi asosiy komponentlarning fizik va kimyoviy xossalari o'rganish.
2. Gaz va gaz aralashmalarining zichligi va molekulyar massasi.

Adabiyotlar: (1;2;3;6;7)

Tayanch so'zlar: Bosim, harorat, hajm. Tabiiy gaz tarkibidagi asosiy komponentlarning: molekulyar massa, zichlik, qovushqoqlik, kritik parametrlar, uglerod miqdori, gaz doimiysi, erish harorati, qaynash harorati.

8.1. Tabiiy gaz tarkibidagi asosiy komponentlarning fizik va kimyoviy xosalarini o'rganish.

Tabiiy gazlarning fizik xosalarini aniq bilish, shu gaz konlarini loyihalash va ishlatishda kerak bo'ladi. Kondan olingan gaz namlikdan tozalanib iste'molchilarga yetkazib beruvchi tashkilotlarga topshiriladi. Ana shu topshirishda har ikki tomondan to'ziladigan topshirish -

qabul qilish hujjatlarida gazning asosiy fizik va kimyoviy xossalari qayd qilinadi, o'zaro hisoblashlarda gazning xossalari inobatga olinadi.

Shuni yana aytib o'tish kerakki, gazning holati (bosim, harorat va hajm) o'zgarishi bilan gazning fizik xossalari ham birmuncha o'zgaradi. Demak, gazning fizik xossalarini muntazam ravishda nazorat qilib turish zarur.

Tabiiy gazlarning asosiy fizik xossalariga molekulyar massasi, zichligi, qovushqoqligi, kritik parametrlari kiradi. Tabiiy gazlarning asosiy fizik va kimyoviy xossalari 8.2 - jadvalda berilgan.

Tabiiy gaz tarkibidagi asosiy komponentlarning fizik va kimyoviy xossalari

8.2-jadval

Ko'rsatkichlar	Metan	Etan	Propan	Izobutan	Norma 1 butan	Izopen-tan	Norma l-pentan	Geksa n	Uglerod /IV/-oksid	Vodorod sulfid	Azot	Suv bug'i
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10		12	13
Kimyoviy formulasi	CH ₄	C ₂ H ₆	C ₃ H ₈	iC ₄ H ₁₀	nC ₄ H ₁₀	iC ₅ H ₁₂	nC ₅ H ₁₂	C ₆ H ₁₄	CO ₂	H ₂ S	N ₂	H ₂ O
molekulyar massasi	16,043	30,07	44,097	58,124	58,124	72,151	72,151	86,178	44,011	34,082	28,016	18,016
Uglerod miqdori, % massa birl.	74,87	79,96	81,80	82,66	82,66	83,23	83,23	83,62	27,29	-	-	-
Gaz doimiysi, j/k G°K	521	278	189	143	143	115	115	96	189	245	297	463
Erish harorati °S, 760mm.s.u. b.o	-182,5	-172,5	-187,5	-145,0	-135,0	-160,6	-129,7	-95,5	-56,6	-82,9	-209,9	0
Qaynash harorati °S, 760mm.s.u. b.o	-161,3	-88,6	-42,2	-10,1	-0,5	28,0	36,2	69,0	78,5	-61,0	-195,8	100
Kritik parametrlari, harorat °K	190,5	206,0	369,6	404,0	420,0	460,8	470,2	507,8	304,5	373,5	126,0	647,3
Mutlaq bosim	4,7	4,9	4,3	3,7	3,8	3,3	3,4	3,9	7,5	9,2	3,5	22,5
Gazning zichligi °S, 760mm.s.u. b.o, kg/m ³	0,717	1,344	1,967	2,598	2,598	3,220	3,220	3,880	1,977	1,539	1,251	0,805
Havoga nisbatan nisbiy zichligi	0,554	1,038	1,523	2,007	2,007	2,488	2,488	2,972	1,520	1,191	0,970	0,622
Solishtirma hajmi °S, 760mm.s.u. b.o va o°S da /m ³ / kg	1,400	0,746	0,510	0,385	0,385	0,321	0,321	0,258	0,506	0,650	0,799	1,248
Suyuq holatdagi zichligi /760mm.s.u. b.o va qaynash haroratida /m ³ / kg	416	546	585	600	625	637	664	925	950	634	634	1,0
Solishtirma issiqlik sig'imi /760mm.s.u. b.o va o°S da j-kG°K o'zgarma bosimda Sr	2220	1729	1560	1490	1490	1450	1450	1410	842	1060	14	200
O'zgarma hajmda	1690	1430	1350	1315	1315	1290	1290	1272	652	802	743	1500
Solishtirma	1,310	1,198	1,161	1,144	1,144	1,121	1,121	1,113	1,291	1,322	1,400	1,333

Issiqlik sig'irlari nisbati Sr/Sv												
Bug'lanish issiqligi /760mm. s.u.b.o /kJ/kg	570	490	427	362	394	357	341	341	83	132	48	539
Issiqlik o'tkazuvchanligi °Sda, kJ/m°S soat	0,108	0,065	0,053	0,049	0,049	0,046	0,046		0,012	0,010	0,020	-
Kritik siqiluvchanlik koefitsienti, Z _{kr}	0,290	0,285	0,277	0,283	0,274	0,268	0,269	0,264	0,274	0,268	0,291	0,230
Kritik molyar hajmi, V _{kr} sm ³ /mole	99,5	148,0	200,0	263,0	255,0	308,0	311,0	368,0	94,0	95,0	90,1	56,0
Dinamik qovushqoqligi /760mm.s.u. b.o va o°S da /mmPa s	10,3	8,3	7,5	6,9	6,2	6,2	6,2	5,9	13,8	11,7	16,6	12,8
Nomarkaziy belgisi,	0,013	0,105	0,152	0,192	0,201	0,208	0,252	0,290	0,420	0,100	0,040	0,348

8.2. Gaz va gaz aralashmalarining zichligi va molekulyar massasi.

Zichlik yoki hajm massasi deb moddaning tinch holatdagi massasini uning hajmiga bo'lgan nisbatiga aytiladi. Oddiy fizik sharoitda gazning zichligini uning molekulyar massasi orqali aniqlash mumkin. Ya'ni,

$$\rho_0 = \frac{M}{22,41}, \text{kg} / \text{m}^3 \quad (8.1)$$

Bu yerda: M - gazning molekulyar massasi;

22,41 - har qanday bir kg gazning fizik sharoitdagi hajmi, m³.

Lekin gazning zichligi normal sharoit uchun berilgan bo'lsa, u holda har qanday boshqa bosim uchun uning zichligi quyidagicha topiladi:

$$\rho = \frac{\rho_0 * P}{1,033} \quad (8.2)$$

Bu erda: P - zichlik aniqlanadigan bosim;

1,033 - atmosfera bosimi.

Ammo, ko'pincha, hisoblashlarda gazning nisbiy zichligi ishlatiladi. Gazning nisbiy zichligi deb, shu gaz zichligining havo zichligiga bo'lgan nisbatiga aytiladi:

$$\Delta_0 = \frac{\rho_0}{1,293} \quad (8.3)$$

Bu yerda: 1,293- havo zichligi.

Gaz aralashmalari (xuddi shuningdek bug' va suyuqlik aralashmalari) ularning tarkibiy qismiga kiruvchi moddalarning massasi va molyar konsentrasiyalari bilan xarakterlanadi. Gaz aralashmasining hajmi tarkibiy qismi uning molyar qismi bilan taxminan bir xildir. Chunki, Avogadro qonuni bo'yicha, 1 kmol ideal gaz bir xil fizik sharoitda bir xil hajmni egallaydi. Masalan, 0°C da va 760 mm s.u.b.o. da kmol ideal gaz 22,41 m³ hajmni egallaydi.

Gaz aralashmalarining xususiyatlarini bilish uchun uning molekulyar massasini, o'rtacha zichligini va nisbiy zichligini bilish zarur.

Agar gaz aralashmasining tarkibiy qismi molyar (ya'ni hajm) hisobida berilgan bo'lsa, u holda aralashmaning molekulyar massasi quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{ap} = \frac{Y_1 M_1 + Y_2 M_2 + \dots + Y_n M_n}{100} \quad (8.4)$$

Oddiy fizik yoki normal sharoit - bosim 101325 Pa (0,101 MPa) va harorat 0° C bo'lgandagi sharoitga aytiladi.

Bu yerda: Y_1, Y_2, \dots, Y_n - aralashma tarkibidagi komponentlarning molyar (hajm) miqdori %;

M_1, M_2, \dots, M_n - komponentlarning molekulyar massalari.

Agar gaz aralashmasining tarkibiy qismi massa hisobida berilgan bo'lsa, u holda aralashmaning molekulyar massasi quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{ap} = \frac{100}{\frac{m_1}{M_1} + \frac{m_2}{M_2} + \dots + \frac{m_n}{M_n}} \quad (8.5)$$

Bu yerda: m_1, m_2, \dots, m_n - aralashma tarkibidagi komponentlarning massa miqdori, %.

Aralashmaning molekulyar massasi aniq bo'lsa, uning zichligi xuddi gazning zichligi kabi aniqlanadi. Ya'ni:

$$\rho_{ap} = \frac{M_{ap}}{22,41}, \text{ (kg/m}^3\text{)} \quad (8.6)$$

Gaz aralashmasining nisbiy zichligi esa:

$$\Delta_{ap} = \frac{\rho}{1,293} \quad (8.7)$$

Tabiiy gazlarga to'liq tavsif berilganda ularning tarkibidagi og'ir uglevodorodlar miqdorini ham aniqlash zarurdir. Odatda tabiiy gazlardagi og'ir uglevodorodlar uch xil turkumda bo'ladi - propan, butan va gaz benzini. Gaz benzini o'z navbatida 33 % butan va 67 % pentandan iborat deb qabul qilingan.

Demak, gaz aralashmasining tarkibiy qismi ma'lum bo'lsa, u holda bu aralashmadagi og'ir uglevodorodlar miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$\sigma_i = 10m_i \rho_{ap} = 10y_i \rho_{ap} \quad (8.8)$$

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Tabiiy gaz tarkibidagi asosiy komponentlarning fizik va kimyoviy xossalari o'rganish.
2. Gaz va gaz aralashmalarining zichligi va molekulyar massasi.

Glossariy

Tabiiy gazlarning asosiy fizik xossalari - molekulyar massasi, zichligi, qovushqoqligi, kritik parametrlari kiradi.

Zichlik yoki hajm massasi deb - moddaning tinch holatdagi massasini uning hajmiga bo'lgan nisbatiga aytiladi. Oddiy fizik sharoitda gazning zichligini uning molekulyar massasi orqali aniqlash mumkin

22,41 - har qanday bir kg gazning fizik sharoitdagi hajmi, m³.

1,033 - atmosfera bosimi.

Gazning nisbiy zichligi deb - shu gaz zichligining havo zichligiga bo'lgan nisbatiga aytiladi:

1,293- havo zichligi.

Oddiy fizik yoki normal sharoit - bosim 101325 Pa (0,101 MPa) va harorat 0⁰ C bo'lgandagi sharoitga aytiladi.

Nazorat savollari.

1. Bosim, harorat, hajm nima?
2. Tabiiy gaz tarkibidagi asosiy komponentlar qaysilar.
3. Boyle - Mariott qonuniga ta'rif bering.
4. Gey - Lyussak qonuniga ta'rif bering.
5. Mendeleev - Klayperon tenglamasini ta'riflang.
6. Gaz aralashmasining nisbiy zichligi qanday aniqlanadi?
7. Og'ir uglevodorodlar miqdori qanday aniqlanadi?

9-MA'RUZA

Mavzu: Gazlarning holat tenglamalari, ularning kritik va keltirilgan parametrlari.

Reja:

1. Gazlarning holat tenglamalari.
2. Tabiiy gazlarning kritik va keltirilgan parametrlari

Adabiyotlar: (1;2;3;6;7)

Tayanch so'zlar: kritik parametrlari, dinamik qovushqoqligi, Boyle - Mariott qonuni, Gey - Lyussak qonuni, Mendeleev - Klayperon tenglamasi.

9.1. Gazlarning holat tenglamalari.

Gazlarning fizik xossalarini o'rganish uchun gaz holati tenglamalaridan foydalaniladi. Gaz holatini aniqlovchi ko'rsatkichlarga bosim, harorat, hajm, massa kabilar kiradi. Tajribalarda bu ko'rsatkichlar baravariga o'zgarsa, u holda gaz holatini xarakterlovchi qonuniyatlarni keltirib chiqarish qiyin bo'ldi. Shuning uchun ham bu ko'rsatkichlarning birortasini o'zgartirmay, qolganlarini o'zgartirib gaz holatini xarakterlovchi tenglamalar chiqarilgan.

Boyle - Mariott qonuni. Bu qonun bo'yicha harorat o'zgarmas bo'lgan holatda bosim bilan hajm orasidagi munosabat aniqlangan. Harorat o'zgartirilmasdan turib olib borilgan jarayonlar izotermik jarayonlar deyiladi. Umumiy holda Boyle - Mariott qonuni quyidagicha yoziladi:

$$P_1 V_1 = P_2 V_2 \quad (9.1)$$

Bundan kelib chiqadigan bosim va hajm ko'paytmasi, harorat o'zgarmagan holda, o'zgarmas miqdor ekan. Ya'ni,

$$PV = \text{const}$$

Gey - Lyussak qonuni. Bu qonun bo'yicha gaz bosimi o'zgarmas bo'lgan holdagi (izobarik) jarayonlar ko'riladi. Umumiy holda Gey - Lyussak qonuni quyidagicha ko'rinishdadir:

$$\frac{V - V_0}{V} = dt \quad (9.2)$$

Bu yerda: V_0 - harorat t_0 bo'lganidagi gaz hajmi;
 V - harorat t ga ko'tarilgandagi gaz hajmi;
 α - hajm kengayishining harorat koeffitsienti.
 (9.2) tenglama V ga nisbatan yechilsa, quyidagi ko'rinishga keladi:

$$V = V_0(1 + \alpha t) \quad (9.3)$$

Gey - Lyussak qonuniga muvofiq gazni bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tishini quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{V_1}{V_2} = \frac{T_1}{T_2} \quad (9.4.)$$

Mendeleyev - Klayperon tenglamasi ideal gazlar uchun keltirib chiqarilgan bo'lib, umumiy ko'rinishda quyidagicha yoziladi:

$$PV = \sigma RT \quad (9.5)$$

Bu yerda: R - gaz doimiysi;
 σ - gaz massasi.

Sharl qonuni. Bu qonun bo'yicha gaz hajmi o'zgarmas bo'lgan holda bosim bilan harorat orasidagi bog'liqlik ko'rib chiqilgan. Umumiy holda Sharl qonuni quyidagicha ko'rinishga ega:

$$\frac{P_1}{P_2} = \frac{T_1}{T_2} \quad (9.6)$$

Sharl qonuni ta'riflaydigan jarayon izoxorik jarayon deb yuritiladi.

Gazlarning holat tenglamalari orqali ularning kritik va keltirilgan parametrlari, o'ta siqiluvchanlik koeffitsientlari aniqlanadi.

Holat tenglamalaridan foydalanib, gazlarning issiqlik sig'imi va issiqlik o'tkazuvchanliklarini ham aniqlash mumkin.

Gazlarning keltirilgan holat tenglamalari real, ya'ni tabiiy gazlarning hamma ko'rsatkichlarini o'z ichiga olmagan. Chunki yer osti qatlamlarida gazlarning harakatiga juda ko'p tenglamalar mavjuddir.

Bu haqda keyingi boblarda aytib o'tilgan.

9.2. Tabiiy gazlarning kritik va keltirilgan parametrlari

Gaz holati tenglamalaridan biri Mendeleyev - Klayperon tenglamasi ideal gazlar uchun chiqarilgan. Ideal gaz deb, molekulalarda ichki ishqalanish bo'lmagan gazlarga aytiladi. Termodinamik nazariyaga ko'ra ideal gazlar uchun quyidagi tenglik mavjud:

$$\left(\frac{\partial E}{\partial V} \right)_T = 0 \quad (9.7)$$

Bu yerda: E - bug'lanishning ichki energiyasi; j/mol.
 Agar (3.14) tenglamani birga teng qilib olsak, u quyidagi ko'rinishga keladi.

$$\frac{PV}{\sigma RT} = 1 = z \quad (9.8)$$

Bu yerda: Z - real gazlarning ideal gazlar qonuniyatidan boshqacha ekanligini bildiruvchi koeffitsientdir. Bu koeffitsient tabiiy gazlarning o'ta siqiluvchanlik koeffitsienti deyiladi.

Gaz holatini har xil jarayonlarda (izoxorik, izobarik va izotermik) tajriba qilib ko'rib, (9.5) tenglama real gazlar uchun mos emasligi aniqlandi.

Birinchi bo'lib golland fizigi Van - der - Vaal's 1879 yilda (9.5) tenglamaga tabiiy gazlar uchun ularning molekulyar hajmi va molekularning o'zaro tortishish kuchini kiritdi. Van - der - Vaal's (9.5) tenglamaga ikkita yangi koeffitsientlar kiritib, quyidagi holga keltirdi.

$$\left(P + \frac{a}{V^2} \right) (V - b) = RT \quad (9.9)$$

Bu yerda: V - gazning solishtirma hajmi;

$\frac{a}{V^2}$ - molekulyar bog'lanishni belgilovchi o'zgarmas miqdori, kG/sm²/l;


b - molekulyar hajmga kiritilgan tuzatma.

(9.10) tenglamadagi $\frac{a}{V^2}$ ifoda molekularning ichki bosimini ifodalasa, V - shu molekularning hajmini to'rt baravar ko'paytirilgan miqdoriga teng.

Bu tuzatmalar kiritilishiga qaramasdan, keyinchalik (9.9) tenglama tabiiy gazlar uchun hali ham aniq emasligi ma'lum bo'lib qoldi. Bu yerdagi a va b koeffitsientlar gazning kritik holati tenglamalaridan keltirib chiqariladigan murakkab kattaliklar ekan. Bu koeffitsientlar kritik bosim va kritik haroratga bog'liq bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

$$a = \frac{27 * T_{kr}^2 * R^2}{64 * R_{kr}^2}; \quad b = \frac{R * T_{kr}}{8 * P_{kr}} \quad (9.10)$$

(9.11) tenglamalardagi kritik harorat va kritik bosim gaz holatini kritik xususiyatlarini xarakterlovchi kattaliklardir.



9.1 - rasm. Gazning bosim va haroratga bog'liqlik tasviri

Gazning kritik harorati (T_{kr}) deb, shunday maksimal haroratga aytiladiki, bu haroratda modda bir vaqtning o'zida gaz va suyuq holatidagi tenglikda bo'ladi (9.1 - rasm).

Kritik harorat uchun yana bir ta'rif bor. Ya'ni, kritik haroratda gazning o'rtacha molekulyar kinetik energiyasi molekullarning tortilish potensial energiyasiga teng bo'ladi.

Bu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, kritik haroratda ham gazsimon, ham suyuq holatdagi aralash ikki komponentli faza mavjud ekan. Kritik haroratdan yuqoriroq haroratlarda T- suyuq faza yo'qolib, faqat bir turdagi gazsimon faza mavjud bo'ladi.

Kritik haroratga mos bo'lgan bosim kritik bosim (P_{kr}) deyiladi.

Tabiiy gazlarning holat tenglamalarini aniq to'zish uchun juda ko'p tajribalar va ilmiy ishlar bajarilgan. Buning natijasida real gaz holati tenglamasini aniqlanish, shu real gaz xossalari hisobga oladigan yangidan - yangi o'zgarma kattaliklar kiritish bilan bog'liq bo'ldi. Gazlarning holat tenglamasiga Z koeffitsienti kiritilib,

$$PV = Z\sigma RT \quad (9.11)$$

holiga keldi. Bu yerda Z koeffitsienti gazlarning keltirilgan harorat va keltirilgan bosimiga bog'liq ekan, ya'ni

$$Z = f(P_{kel}, T_{kel})$$

Gaz tarkibiy qismini tashkil qiluvchi komponentlarning keltirilgan parametrlari, xuddi shu parametrlarning kritik parametrlardan qanchalik kichik yoki kattaligini ko'rsatuvchi, o'lchov birligisiz kattalikdir.

$$P_{kel} = \frac{P}{P_{kp}}; \quad T_{kel} = \frac{T}{T_{kp}}; \quad V_{kel} = \frac{V}{V_{kp}}$$

$$\rho_{kel} = \frac{\rho}{\rho_{kp}}; \quad Z_{kel} = \frac{Z}{Z_{kp}}$$

Bu yerda: P, T, V, ρ , Z - o'lchangan kattaliklar (mos holda bosim, harorat, hajm, zichlik va o'ta siqiluvchanlik) koeffitsienti;

P_{kr} , T_{kr} , V_{kr} , ρ_{kp} , Z_{kr} - o'lchangan kattaliklar kritik miqdorlari;

P_{kel} , T_{kel} , V_{kel} , ρ_{kel} , Z_{kel} - keltirilgan parametrlar.

Real tabiiy gazlar juda ko'p uglevodorod komponentlar aralashmasidan iborat. Bu aralashmada oddiy va murakkab komponentlar mavjud. Oddiy gazlar (metan, geliy, argon, kripton, ksenon va b.)molekulalar sharsimon bo'lsa, murakkab gazlarning (butan, pentan, uglerod /IV/ oksidi va h.k.) molekulalari sharsimon bo'lmaydi. Oddiy gazlarda molekulalar tortishish (yoki itarilish) kuchi, shu sharsimon molekulalarning markazlarigacha bo'lgan masofani oltinchi darajasiga to'g'ri mutanosibdir. Lekin, murakkab gazlardagi molekulalarining tortishish (yoki itarilish) kuchi faqat molekulalarning markazlarigacha bo'lgan masofaga bog'liq bo'lmay, balki molekulalarning sharsimon emasligiga ham bog'liq ekan. Chunki bunday hollarda molekula og'irlik markazi molekula sirtidan har xil masofada bo'ladi.

Shuning uchun real gazlarning holatini aniqlovchi (9.12) tenglamadagi Z koeffitsienti faqat keltirilgan bosim va keltirilgan haroratga bog'liq bo'lmay, balki yana bir kattalik - molekular nomarkaziy belgisiga ω ham bog'liq, ya'ni $Z=f(P_{kel}, T_{kel}, \omega)$ nisbati mavjud.

Endi keltirilgan parametrlardan Z koeffitsientini aniqlash ustida to'xtalib o'tamiz.

Bu koeffitsientni ikki xil usul bilan aniqlash mumkin:

- 1) grafik usul;
- 2) Seyrim dasturi bo'yicha hisoblash usuli.

Grafik bo'yicha Z 9.2 - rasmdan aniqlanadi. Bu grafik Braun - Kats grafigi deb yuritiladi. Buning uchun keltirilgan bosim R_{kel} va keltirilgan harorat T_{kel} ma'lum bo'lsa yetarli. Aniqlash usuli 9.2 - rasmda strelkalar orqali ko'rsatilgan. Seyrim dasturi bo'yicha hisoblash uchun elektron tez hisoblash mashinalarida qu'yidagi tenglama yechiladi:


$$Z = \sum_{i=1}^6 \sum_{j=1}^6 A_{ij} P_i(x) P_j(y) \quad (9.11)$$

Bu yerda: A_{ij} - 36 ta sonli gazlarning turli xususiyatlarini hisobga oluvchi koeffitsientlar;

- $R_i(x)$ va $R_j(y)$ qu'yidagi argumentlarda olingan polinomlar

$$x = \frac{2P_{kel} - 15}{14,8}; \quad y = \frac{2T_{kel} - 4}{1,9} \quad (9.12)$$

Grafik va hisoblash usullari bilan aniqlangan Z koeffitsientida xatolik 5 % dan oshmaydi.



9.2 – rasm. Tabiiy gazning o'ta siqiluvchanlik koeffitsientining keltirilgan bosim R_k va keltirilgan harorat T_k bilan bog'liqligi.

Real gazlarning holat tenglamasiga birinchi bo'lib Van - der - Waals yangi koeffitsientlar kiritib, uni 9.10 tenglama holiga keltirgan bo'lsa, keyinchalik beshta o'zgarma kattalikka ega bo'lgan Bitti - Brijmen tenglamasi, shu tenglamaning xususiy holi sifatida keltirib

chiqarilgan Redlix - Kvong tenglamasi, Soava tenglamasi va ko'plab shu kabi yangi tenglamalar vujudga keldi.

Bu tenglamalarni keltirib chiqarish "Gaz konlarini ishlatish nazariyasi" fanidan mufassal berilganligi uchun, biz faqat yakuniy tenglamalar bilan tanishib chiqamiz:

Bitti - Brijmen tenglamasi:

$$Z = \frac{\left(1 - \frac{C}{VT^2}\right) \left(V + B_0 - \frac{bB_0}{V}\right)}{V} - A_0 \left(1 - \frac{a}{V}\right) \quad (9.13)$$

Redlix - Kvong tenglamasi:

$$P = \frac{RT}{V - b} - \frac{a}{\sqrt{T} * V(V + b)} \quad (9.14)$$

ko'rinishga ega bo'ladi, bu tenglamalarga kiruvchi a , v , s , V_0 kabi kattaliklar o'z navbatida gazlarning real xususiyatlarini o'z ichiga olgan fizik ma'noga ega bo'lgan miqdorlardir.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Gazlarning holat tenglamalari.
2. Tabiiy gazlarning kritik va keltirilgan parametrlari

Glossariy

Gaz holatini aniqlovchi ko'rsatkichlarga - bosim, harorat, hajm, massa kabilar kiradi.

Izotermik jarayonlar - bu harorat o'zgartirilmadan turib olib borilgan jarayonlar.

Izobarik jarayonlar - gaz bosimi o'zgarmas bo'lgan holda ko'riladi.

Sharl qonuni ta'riflaydigan jarayon - izoxorik jarayon deb yuritiladi.

Gazlarning holat tenglamalari orqali - ularning kritik va keltirilgan parametrlari, o'ta siqiluvchanlik koeffitsientlari aniqlanadi.

Ideal gaz deb - molekullarda ichki ishqalanish bo'lmagan gazlarga aytiladi.

Gazning kritik harorati deb - shunday maksimal haroratga aytiladiki, bu haroratda modda bir vaqtning o'zida gaz va suyuq holatidagi tenglikda bo'ladi.

Kritik bosim deb - kritik haroratga mos bo'lgan bosimga aytiladi.

Nazorat savollari.

1. Bosim, harorat, hajm nima?
2. Tabiiy gaz tarkibidagi asosiy komponentlar qaysilar.
3. Boyl - Mariott qonuniga ta'rif bering.
4. Gey - Lyussak qonuniga ta'rif bering.
5. Mendeleyev - Klayperon tenglamasini ta'riflang.
6. Gaz aralashmasining nisbiy zichligi qanday aniqlanadi?
7. Og'ir uglevodorodlar miqdori qanday aniqlanadi?
8. Tabiiy gazlarning kritik va keltirilgan parametrlarini izohlang.
9. Ideal gaz deb qanday gazlarga aytiladi?
10. Kritik harorat va bosim kritik bosim nima.

10-MA'RUZA

Mavzu: Gazlarning qovushqoqligi va uni aniqlash usullari.

Reja:

1. Gazlarning qovushqoqligini aniqlash usullarini o'rganish.

2. Gazlarning namlik miqdorini aniqlash.
3. Tabiiy gazlarning issiqlik xossalari.
4. To'yingan bug'ning tarangligi.

Adabiyotlar: (1;2;3;6;7)

Tayanch so'zlar: qovushqoqlik, dinamik qovushqoqlik, geliy, havo, azot, uglevodorod (IV) oksidi, vodorod sulfid, metan, izobutan, mo'tadil, butan, pentan, geksan, benzol, gazlar nisbiy qovushqoqligi, kinematik qovushqoqlik, gazlarning namlik miqdori, mutlaq namlik, Tabiiy gazlarning mutlaq namligini aniqlash nomogrammasi, izobarik va izoxorik issiqlik sig'imi, entropiya, entalpiya, Joul - Tomson koeffitsienti.

1. Gazlarning qovushqoqligini aniqlash usullarini o'rganish.

Gazlar va suyuqliklarning qovushqoqligi deb, ularning ichki qatlamlarining bir - birining siljishiga nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyatiga aytiladi. Gazlar uchun qovushqoqlik quyidagicha aniqlanadi.

$$\mu_r = \frac{\rho v \lambda}{3}, [\text{Па} * \text{с}] \quad (10.1)$$

Bu yerda: μ_r - gazlarning dinamik qovushqoqligi;

ρ - gaz zichligi;

v - molekularning o'rtacha tezligi;

λ - molekularning o'rtacha erkin harakatlanish masofasi.

Qovushqoqlik harorat va bosimga bevosita bog'liqdir. Bosim ortib borishi bilan gazning zichligi ortadi, o'z navbatida zichlik molekularning erkin harakati masofasini qisqartiradi, molekular harakat tezligi esa deyarli o'zgarmay qoladi. Shuning uchun bosim oshishi bilan boshlang'ich davrda qovushqoqlik deyarli o'zgarmaydi, keyinchalik esa oshib boradi.

Qovushqoqlik (9.13) o'zgarishi haroratga ham bog'liq. Harorat oshganda gazlarning qovushqoqligi ortadi. Qovushqoqlikning haroratga nisbatan o'zgarishi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:


$$\mu_r = \mu_0 \frac{273 + C}{T + C} \frac{T}{273}^{3/2} \quad (10.2)$$

Bu yerda: μ_r - gazning T haroratdagi mutlaq qovushqoqligi;


μ_0 - gazning T=0⁰ C dagi qovushqoqligi Pa s;

C - gaz xossalari bog'liq bo'lgan o'zgarmas kattalik (masalan, CH₄ uchun C=170, C₂H₆ uchun C=280, C₃H₈ uchun C=318, CO uchun C=240, N₂ uchun C=110, havo uchun C=124).

Ba'zi bir uglevodorodlarning qovushqoqligini har xil haroratlar va atmosfera bosimida qanday miqdorda bo'lishi 10.1 va 10.2 - rasmlarda keltirilgan. Shuni ham aytish kerakki, agar tabiiy gazlar tarkibida yemiruvchi gazlar (ya'ni N₂, CO₂, H₂S) bo'lsa, bunday hollarda tabiiy gazlarning qovushqoqligiga biroz tuzatma kiritish kerak bo'ladi. Bu tuzatma 10.2 - rasmdagi uchta kichik bog'lanishlar orqali aniqlanadi. 10.1 - rasm. Ba'zi gazlarning atmosfera bosimida dinamik qovushqoqlikning o'zgarish tasviri. 1 - geliy; 2 - havo; 3 - azot; 4 - uglevodorod (IV) oksidi; 5 - vodorod sulfid; 6 - metan; 7 - izobutan; 8 - mo'tadil, butan; 9 - pentan; 10 - geksan; 11 - benzol.



10.1- rasm. Gazlarning atmosfera bosimida dinamik qovushqoqlikning o'zgarish tasviri.



10.2 – rasm. Uglevodorod gazlarning atmosfera bosimida va 200°C gacha bo'lgan haroratda dinamik qovushqoqligining molekulyar massasiga bog'liqlik tasviri.

Agar tabiiy gaz tarkibida azotning miqdori 5 % dan oshiq bo'lsa, gazning dinamik qovushqoqligini quyidagi tenglamadan ham aniqlash mumkin:

$$\mu_r = y_a * \mu_a + (1 - y_a) * \mu_y \quad (10.3)$$

Bu yerda: μ_r - tabiiy gaz va azot aralashmasining o'rtacha dinamik qovushqoqligi;


μ_a va μ_y - mos ravishda azot va uglevodorod gazlarning dinamik qovushqoqligi;

y_a - azotning tabiiy gaz tarkibidagi molyar miqdori.


Gaz konlarini loyihalash jarayonidagi hisoblashlarda ba'zan dinamik qovushqoqlik o'rniga nisbiy qovushqoqlik va kinematik qovushqoqlik ham ishlatiladi.

Gazlarning nisbiy qovushqoqligi ρ_r / μ_a deb, odatda shu gazning qovushqoqligini atmosfera holatida aniqlangan qovushqoqlikka bo'lgan nisbatiga aytiladi. 10.3 - rasmda nisbiy qovushqoqlikni keltirilgan bosim orqali aniqlash grafigi berilgan bo'lsa, 10.4 - rasmda nisbiy qovushqoqlikni keltirilgan harorat orqali aniqlash grafigi berilgan. Hisoblashlarda o'lchov birligisiz nisbiy qovushqoqlikni ishlatish bir muncha yengilliklar beradi va shuning uchun ham nisbiy qovushqoqlik dinamik va kinematik qovushqoqlikka nisbatan ko'proq ishlatiladi.

Kinematik qovushqoqlik deb, gazning dinamik qovushqoqligini uning zichligiga bo'lgan nisbatiga aytiladi:



10.3 – rasm. Gazlar nisbiy qovushqoqligining keltirilgan bosimga bog'liqligi




10.4 – rasm. Gazlar nisbiy qovushqoqligining keltirilgan haroratga bog'liqligi.

$$v_r = \frac{\mu_y}{\rho_r} \quad (10.4)$$

Kinematik qovushqoqlikning o'lchov birligi m^2/s yoki mm^2/s deb qabul qilingan. Agar hisoblashlarda, dinamik qovushqoqlikdan kinematik qovushqoqlikka o'tish kerak bo'lib qolsa, gazning zichligini shu gaz holatini aks ettiruvchi harorat va bosimdagi miqdori olinadi. Qovushqoqlikni aniqlash usullari juda xilma - xildir. Bu usullar ichida eng asosiysi gaz muhitida tushayotgan sharchaning tezligini aniqlashga asoslangan. Bundan tashqari, gaz muhitida osib qo'yilgan silindr yoki disklar aylanma tezligining o'zgarishini qayd qilish usullari ham mavjuddir. Bu usullar haqida batafsil ma'lumotlarni maxsus qo'llanmalardan olish mumkin.

Gazlarining dinamik qovushqoqligini grafik usul bilan ham aniqlash mumkin. Buning uchun 10.5 - rasmda keltirilgan S.G.Ibrohimov nomogrammasidan foydalanish mumkin.



10.5 – rasm. Gazlarning dinamik qovushqoqligini aniqlash

Bu nomogrammadan dinamik qovushqoqlikni aniqlash strelkalar bilan ko'rsatilgan bo'lib, hisoblash ketma - ketligi quyidagicha:

$$T \rightarrow \Delta_{ap} \rightarrow P_{кел} \rightarrow \mu; \quad T \rightarrow \Delta_{ap} \rightarrow \mu$$

10.2. Gazlarning namlik miqdorini aniqlash.

Neft va gaz kollektorlaridagi neft va tabiiy gaz to'plamlari ostida qatlam osti va qatlam cheti suvlari, oraliq suvlar, hamda qoldiq suvlar bo'lishi mumkin. Bu suvlar haqida batafsil ma'lumotlar keyinroq beriladi. Hozir esa shu qatlamdagi suvlar va tabiiy gaz o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida to'xtab o'tamiz.

Qatlamda tabiiy gaz va suv o'zaro bog'liq bo'lgani uchun tabiiy gazning tarkibida ma'lum miqdorda suv bug'lari bo'lishi mumkin. Bunga asosiy sabab qatlamdagi suvning va tabiiy gazning harorati anchagina yuqori bo'lishidir. Yuqori harorat natijasida suvning ma'lum bir qismi bug'lanib, gaz tarkibiga aralashib qoladi. Bu esa gazning namlanishiga olib keladi.

Gazlarning namlik miqdorini aniq bilish juda muhim ahamiyatga ega. Chunki gaz konlarini ishlatayotgan korxonalar olinayotgan gazni davlat standartlariga mos qilib iste'molchilarga yetkazib berishi kerak. Bu standartlarda gaz tarkibida yemiruvchi tarkiblar (CO_2 , N_2 , H_2S), shuningdek suv bug'lari bo'lmasligi ko'rsatib o'tilgan. Demak, gazning namlik miqdoriga qarab, gaz konida tabiiy gazni suv bug'laridan tozalaydigan maxsus qurilma va gaz quritgichlar o'rnatilishi zarur. Bu moslamalar esa sanoatimizda har xil unumdorlikka mo'ljallangan holda bir necha turlarda ishlab chiqariladi. Shuning uchun gazning namligini aniq bilib, shu namlikka mos bo'lgan gaz quritgich moslamalari tanlanishi kerak.

Gazlardagi namlik miqdori uglevodorodlarning bosimi va haroratiga bog'liq. Masalan, qandaydir bir bosim va haroratda hajm birligidagi tabiiy gazda eng maksimal suv bug'lari bo'lsin, u holda bunday gaz, suv bug'lariga to'liq to'yingan bo'ladi. Lekin harorat oshirilsa, ana shu hajm birligidagi tabiiy gaz suv bug'iga to'yinmagan holatga o'tadi. Bunday gazni yana to'yintirish uchun yoki haroratni pasaytirish kerak, yoki yana qo'shimcha suv bug'i berish kerak bo'ladi.

Gazlarning namlik miqdori ikki xil namlik bilan o'lchanadi - mutlaq va nisbiy namlik.

Gazning mutlaq namlik miqdori deb, hajm birligidagi tabiiy gaz tarkibidagi suv bug'lari massasiga aytiladi. Mutlaq namlik g/m^3 yoki g/kG da o'lchanadi.

Gazning nisbiy namligi deb, gazning ma'lum bir holatdagi suv bug'larining miqdorini xuddi shu holatda gaz to'liq to'yingandagi maksimal suv bug'larining miqdoriga bo'lgan nisbatiga aytiladi.

Mutlaq namlik:

$$H = \frac{Q_c}{V_r} \text{ (g/sm}^3\text{)} \quad (10.5)$$

tenglama bilan aniqlansa, nisbiy namlik miqdori:

$$H = \frac{H}{H_{max}} * 100\% \quad (10.6.)$$

tenglama bilan aniqlanadi.


Bu yerda: H - tabiiy gazning mutlaq namlik miqdori;

Q_c - $1 m^3$ hajmdagi (V_g) tabiiy gaz tarkibidagi suv bug'lari miqdori, g;

H_H - tabiiy gazning nisbiy namligi % da;

H_{max} - tabiiy gazning ma'lum bir sharoitdagi maksimal mutlaq namlik miqdori.

Gazlarning namlanishi ham boshqa fizik xossalariга o'xshab, qatlam bosimi va haroratiga bog'liq. Odatda harorat oshishi namlanishni oshirsa, bosim oshishi namlanish miqdorini kamaytirishga olib keladi. Buni 10.6 - rasmda keltirilgan nomogrammadan ham ko'rish mumkin.



10.6 – rasm. Tabiiy gazlarning mutlaq namligini aniqlash nomogrammasi.

Agar suv bug'larida erigan tuz moddalari bo'lsa, u holda namlanish miqdoriga tuzatma kiritish kerak bo'ladi, chunki erigan tuzlar miqdori oshishi natijasida gazning namlanish miqdori kamayib ketadi. Shuningdek gazning molekulyar massasi yoki zichligi ortib borishi ham namlanishga ta'sir ko'rsatadi. Gaz zichligining oz miqdorda (3 - 5 % gacha) ortishi namlanish miqdorini kamaytiradi, demak, gazlar zichligining o'zgarishiga ham namlanish miqdori uchun tuzatma kiritish zarur. 10.6 - rasmda keltirilgan nomogrammada bu tuzatmalar alohida berilgan, namlanish miqdorini aniqlash esa strelkalar bo'yicha ko'rsatilgandir.

10.3. Tabiiy gazlarning issiqlik xossalari.

Tog' jinslari kabi tabiiy gazlar ham issiqlik xossalariга ega. Termodinamika qonunlari uglevodorodlar xossalariini o'rganishda keng qo'llaniladi. Tabiiy gazlarning issiqlik xossalariга issiqlik sig'imi, entropiya, entalpiya, yonish issiqligi, alanganlanish chegaralari kiradi.

Tabiiy gazlarning issiqlik sig'imi deb, hajm yoki massa birligidagi gaz haroratini 1° C ga ko'tarish uchun sarf bo'ladigan issiqlik miqdoriga aytiladi. Issiqlik sig'imi uning bajargan ishi va energiyasi bilan o'lchanadi.

Gazlar uchun ikki xil issiqlik sig'imi mavjuddir - izobarik C_p va izoxorik C_v . Izobarik C_p issiqlik sig'imi - gaz haroratini oshirganda, uning hajmi bosim o'zgarmagan holda cheksiz ortib borishini ko'rsatadi. Izoxorik issiqlik C_v sig'imi - gaz haroratini oshirganda, gazga berilayotgan energiya gazning hajmi o'zgarmagan holda uning ichki energiyasi ortib borishini ko'rsatadi. Ya'ni:

$$C_p = \left(\frac{\partial Q}{\partial T} \right)_p ; \quad C_v = \left(\frac{\partial Q}{\partial T} \right)_v \quad (10.7)$$

Real gazlar uchun issiqlik sig'imi shu gazlarning bosimi va haroratiga bog'liq. Izobarlik molyar issiqlik sig'imini harorat o'zgarishi bilan quyidagi tenglamadan aniqlash mumkin:

$$C_{p,i} = 0,523(8,36 + 0,00892t)M_i^{\frac{3}{4}}, \text{кЖ / кмоль} \cdot \text{К} \quad (10.8)$$

Bu yerda: m_i - uglevodorodlarning (metandan, geptangacha) molekulyar massasi;
 t - qayd qilingan harorat, $^{\circ}\text{K}$.

Bu tenglama bo'yicha hisoblangan izobarik molyar issiqlik sig'imi miqdoridagi xatolik 40°C dan 120°C gacha bo'lgan oraliqda.

CH_4 - C_5H_{12} uglevodorodlar uchun 10 % dan oshmaydi.

Gazlar aralashmasi uchun issiqlik sig'imi, gaz tarkibiga kiruvchi har bir komponentlarning issiqlik sig'imi yig'indisiga tengdir. Ya'ni:

$$C = C_1X_1 + C_2X_2 + C_3X_3 + \dots + CX \quad (10.9)$$

Bu yerda: S_1, S_2, \dots, S - gaz tarkibidagi alohida komponent-larning issiqlik sig'imi;
 X_1, X_2, \dots, X - komponentlarning miqdori.

Izobarik issiqlik sig'imini izoxor issiqlik sig'imiga bo'lgan nisbati adibata ko'rsatkichi deb ataladi:

$$n = \frac{C_p}{C_v} \quad (10.10)$$

10.7 - rasmda uglevodorod gazlarning solishtirma issiqlik sig'imining haroratga nisbatan o'zgarishi atmosfera bosimi holati uchun keltirilgan.

Gazlarning entropiyasi¹⁾ deb, shu gazlarga tashqaridan berilgan

Entropiya - grekcha burilish, o'zgarish degan ma'noni bildiradi.


Issiqlik miqdorini ΔQ mutlaq haroratga T bo'lgan nisbatiga aytiladi:

$$\Delta S = \frac{\Delta Q}{T} \left[\frac{c}{^{\circ}\text{K}} \right] \quad (10.11)$$

Solishtirma entropiya esa, tabiiy gaz tarkibidagi har bir komponentning entropiyasini (ΔS) uning massasiga (m) nisbati bilan aniqlanadi:

$$S = \frac{\Delta S}{m} \quad (10.12)$$

Entropiya gaz holatini xarakterlovchi kattalik bo'lib, issiqlik almashinishi qaysi yo'nalish bo'ylab kelayotganini bildiradi.



10.7 – rasm. Uglevodorod gazlarining solishtirma issiqlik sig'imining atmosfera bosimida harorat o'zgarishi bilan bog'liqligi.

Gazning haroratini oshirish uchun qanday miqdorda issiqlik kerakligini xarakterlovchi kattalikka entalpiya^{*)} deyiladi, yoki boshqacha qilib aytganda gazning issiqlik miqdoriga entalpiya deyiladi. Ya'ni: Entropiya gaz holatini xarakterlovchi kattalik bo'lib, issiqlik almashinishi qaysi yo'nalish bo'ylab kelayotganini bildiradi.

^{*)} Entalpiya - grekcha isitaman degan ma'noni beradi.

$$H = Q + PV \quad (10.13)$$

Bu yerda: N - gaz entalpiyasi;

Q - bir birlik gaz massaning ichki energiyasi yoki issiqlik miqdori;

R - bosim;

V - solishtirma hajm.

Entalpiyaning haroratga nisbatan bir fazali modda uchun o'zgarishi solishtirma issiqlik sig'imi orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$C_p = \left(\frac{\partial H}{\partial T} \right)_p \quad (10.14)$$

Entalpiyaga bosim ta'siri esa:


$$\left(\frac{\partial H}{\partial P} \right)_T = V - T \left(\frac{\partial V}{\partial T} \right)_p \quad (10.15)$$

tenglama bilan ifodalanadi. Bu yerda: V - gaz hajmi.

Gaz va gazkondensat konlarini loyihalash va ishlatish jarayonida gazlarning issiqlik xossalari xarakterlovchi kattaliklar deyarli hamma hisoblashlarda ishlatiladi. Shuning uchun gaz holati tenglamalari ichida ko'pincha ishlatiladigan Penge - Robinson tenglamasi entalpiya o'zgarishlarini o'z ichiga olgan. Bu hisoblashlar juda murakkab bo'lib, hozirgi vaqtda asosan elektron hisoblash mashinalarida olib boriladi.

Gazlar o'z harakatida biror to'siqdan o'tgach, o'z haroratini o'zgartirar ekan. Bunday holni drossel (nemischadan - bo'g'ish, qisqartirish) hodisasi deyiladi. Buni birinchi bo'lib Joule va Tompon aniqlaganlar.

Joule - Tompon tajribasida (10.9 - rasm) diametrlari har xil bo'lgan trubkadan gaz harakatlantirilgan. Bu tajribani diametri bir xil bo'lgan trubkada ham o'tkazish mumkin, faqat trubkaning biror joyida gaz yo'liga qandaydir to'siq qo'yish kerak bo'ladi.



10.9 – rasm. Joule-Tomson effektiga tegishli gaz harakati tasviri.

Gaz o'z harakatida d_1 diametrdagi trubkadan d_2 diametrdagi (bunda $d_1 < d_2$) trubkaga o'tganda gaz holati tenglamasidagi deyarli barcha kattaliklar o'zgargan, shu hisobdan harorat ham bir muncha pasaygan. Bunday holatni Joule - Tomson yoki drossel effekti deb yuritiladi.

Joule - Tomson effekti - real gazlarning ichki energiyasi va harorati gazlar kengayishi natijasida yuz beradi. Bunday hollarda gaz harorati pasaysa, effekt manfiy deb hisoblanadi.

Bosim 0,1 MPa ga pasayganda gaz haroratining o'zgarishi Joule - Tomson koeffitsienti deb yuritiladi. Bu koeffitsient manfiy yoki musbat bo'lishi mumkin.

Joule - Tomson koeffitsienti hajm va haroratga nisbatan o'zgarishi quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$\mu_i = \left(\frac{\partial T}{\partial P} \right)_i = \frac{T \left(\frac{\partial V}{\partial T} \right)_P - V}{C_p} \quad (10.16)$$

Bu yerda: μ_i - tabiiy gaz komponenti uchun Joule - Tomson koeffitsienti.

Joule - Tomson koeffitsienti gaz xarakterining “qatlam - quduq - gaz quvuri” tizimini hisoblashda ishlatiladi.

Gazlarning yonish issiqligi deb, hajm birligidagi issiqlik miqdoriga aytiladi. Tabiiy gazlarda yonish issiqligi 7000 dan 11000 j/m³ gacha o'zgaradi.

Gazlar havo bilan aralashganda alangalanish jarayoni hosil bo'lishi mumkin. Gaz miqdori havo bilan aralashishi jarayonida pastki alangalanish chegarasidan yuqori alangalanish chegarasigacha bo'lgan oraliqda o't olish yoki portlash xavfi tug'iladi. Bu chegaralar har bir gaz uchun alohida bo'lib, metan uchun molyar miqdori bo'yicha pastki chegara 5 % va yuqori chegara 15 % ni tashkil qiladi.

10.4. To'yingan bug'ning tarangligi.

Avvalgi paragraflarimizdan ma'lum bo'ldiki, qatlamda gazlar qatlam suvlari bilan o'zaro bog'liq bo'lar ekan. Demak, yuqori harorat tufayli ma'lum bir miqdorda suv bug'lari gazda erigan bo'lishi mumkin.

Gaz suv bug'i bilan to'yingan bo'lsa, u holda gaz va suv bug'idan iborat bo'lgan ikki fazali holat mavjud bo'ladi. Harorat va bosim o'zgarishidan bug'ning miqdori ($0 \leq X \leq 1$) noldan birgacha bo'lgan kattalikda o'zgaradi. Bu yerda X- bug' miqdori.

Agar uglevodorodlar aralashma holatida bo'lsa, u holda umumiy bosim har bir komponent bug'larining tarangligiga ta'sir ko'rsatadi. Umumiy bosim oshib borishi, o'z navbatida alohida komponentlarning tarangligini oshishiga olib keladi.

10.10 - rasmda to'yingan uglevodorodlarning bug' tarangligi o'zgarishi keltirilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, bosim va harorat oshishi bug' tarangligini oshirar ekan. Bunda molekulyar massasi og'irroq bo'lgan uglevodorodlarning bug' tarangligi bosimning kichik miqdorlarida oshsa, yengil uglevodorodlarning bug' tarangligi oshishi bosimning katta miqdorida bo'lar ekan.


Tajribalar shuni ko'rsatdiki, alohida bir uglevodorodni bug' tarangligi faqat haroratga bog'liq bo'lib, $Q = f(t)$ funksiya bilan xarakterlanadi.

Biror to'yingan uglevodorodning (suyuq va bug' holatdagi), bosim R va hajm V o'zgarishida o'zini qanday to'tishini ko'rib chiqamiz. Masalan, propan izotermik o'zgarish jarayonini ko'raylik (10.11 a - rasm). M nuqtada propan suyuq va bug' holatda turibdi. Agar bosimni oshirsak, u holda A nuqtagacha siqilish bo'lib, bu yerda faqat to'yingan bug' holati mavjud bo'ladi. MA oraliqdagi R va V kattaliklar ko'paytmasi o'zgarmas holatga o'tadi va bosimni oshirish natijasida to'yingan bug'ni suyuq holatga o'tishiga olib keladi. A nuqtadan V nuqtagacha bo'lgan masofada bosim o'zgarmagan holda hajm kamayib boradi, chunki katta hajmni egallab turgan bug' sekin - asta suyuq holatga o'ta boshlaydi. Bu jarayon V nuqtada batamom tugaydi va ikki fazali (bug' va suyuqlik) bo'lgan propan bir fazaga - suyuq holatga o'tib bo'ladi. V nuqtadan keyin hajm deyarli o'zgarmay faqat bosim o'zgaradi. Odatda bunday tajribalar bir necha xil haroratda olib boriladi. 10.11 a - rasmda o'zgarishlar harorat 0^0 , 20^0 , 30^0 , 40^0 va 50^0 C bo'lganda olingan.


Agar tajribalar natijasini "bosim - harorat" bog'lanishida grafigi chizilsa (10.11b - rasm), olingan egri chiziq shu modda uchun bug' taranglik egri chizig'ini beradi.

Tabiiy gaz aralashmasi holati faqat haroratga bog'liq bo'lmay, balki bosimga ham bog'liq, ya'ni $Q_{ap} = f(P)$, mavjud.

Molekulyar fizikadan Dalton qonuni bo'yicha gazlar aralashmasining bosimi shu aralashmadagi gazlarning parsial bosimlari yig'indisiga teng ekanligi ma'lum. Ana shu komponentlarning parsial bosimi o'z navbatida komponentning molyar miqdorini uning bug' tarangligi ko'paytmasiga teng bo'lar ekan.



10.10 – rasm. Sof uglevodorodlar to'yingan bug' tarangligining «bosim-harorat»da bog'liqligi



10.11 – rasm. Propan gazining izotermik o'zgarish jarayoni tasviri:
a) bosim-hajm bog'liqligi; b) bosim-harorat bog'liqligi.

Gazlarning bug' tarangligi ularning fazaviy o'zgarishlariga ta'sir qilib, odatda bir muncha kattaroq bo'lgan bosim qiymatlarida fazaviy o'tishlar boshlanadi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Gazlarning qovushqoqligini aniqlash usullarini o'rganish.
2. Gazlarning namlik miqdorini aniqlash.
3. Tabiiy gazlarning issiqlik xossalari.
4. To'yingan bug'ning tarangligi.

Glossariy

Gazlar va suyuqliklarning qovushqoqligi deb - ularning ichki qatlamlarining bir - birining siljishiga nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyatiga aytiladi.

Harorat oshganda gazlarning qovushqoqligi ortadi.

Gazlarning nisbiy qovushqoqligi deb - odatda shu gazning qovushqoqligini atmosfera holatida aniqlangan qovushqoqlikka bo'lgan nisbatiga aytiladi.

Kinematik qovushqoqlik deb - gazning dinamik qovushqoqligini uning zichligiga bo'lgan nisbatiga aytiladi.

Gazlarning namlik miqdori ikki xil namlik bilan o'lchanadi - mutlaq va nisbiy namlik.

Gazning mutlaq namlik miqdori deb - hajm birligidagi tabiiy gaz tarkibidagi suv bug'lari massasiga aytiladi.

Gazning nisbiy namligi deb - gazning ma'lum bir holatdagi suv bug'larining miqdorini xuddi shu holatda gaz to'liq to'yingandagi maksimal suv bug'larining miqdoriga bo'lgan nisbatiga aytiladi.

Tabiiy gazlarning issiqlik sig'imi deb - hajm yoki massa birligidagi gaz haroratini 1°C ga ko'tarish uchun sarf bo'ladigan issiqlik miqdoriga aytiladi. Issiqlik sig'imi uning bajargan ishi va energiyasi bilan o'lchanadi.

Gazlar uchun ikki xil issiqlik sig'imi mavjuddir - izobarik C_r va izoxorik C_v .

Izobarik C_r issiqlik sig'imi - gaz haroratini oshirganda, uning hajmi bosim o'zgarmagan holda cheksiz ortib borishini ko'rsatadi.

Izoxorik issiqlik C sig'imi - gaz haroratini oshirganda, gazga berilayotgan energiya gazning hajmi o'zgarmagan holda uning ichki energiyasi ortib borishini ko'rsatadi

Adibata ko'rsatkichi deb - izobarik issiqlik sig'imini izoxor issiqlik sig'imiga bo'lgan nisbatiga ataladi.

Gazlarning entropiyasi deb - shu gazlarga tashqaridan berilgan issiqlik miqdorini mutlaq haroratga bo'lgan nisbatiga aytiladi:

Entropiya - grekcha burilish, o'zgarish degan ma'noni bildiradi.

Nazorat savollari.

1. Gazlarning qovushqoqligini aniqlash usullarini o'rganish.
2. Gazlarning namlik miqdorini aniqlash.
3. Tabiiy gazlarning issiqlik xossalari.
4. To'yingan bug'ning tarangligi.
5. Gazning dinamik qovushqoqligini aniqlash.
6. Gazlar nisbiy qovushqoqligini aniqlash.
7. Gazning kinematik qovushqoqligini aniqlash.
8. Gazlarning namlik miqdori va mutlaq namligini aniqlash.
9. Izobarik va izoxorik issiqlik sig'imi.
10. Entropiya va entalpiya so'zini ma'nosi.

11-MA'RUZA

Mavzu: Kristallogidratlar va ularning hosil bo'lish sharoitlari.

Reja:

1. Kristallogidratlar va ularning hosil bo'lish sharoitlarini o'rganish.
2. Gaz-gidrat konlar xarakteristikasi.

Adabiyotlar: (1;2;3;6;7)

Tayanch so'zlar: Kristallogidratlar, gidratlar, geterogen tizimlar, ingibitorlar, katalizator, termokimyoviy va elektrotovush usullar, Van - der - Waals kuchlari.


11.1. Kristallogidratlar va ularning hosil bo'lish sharoitlarini o'rganish.

Gaz va gazokondensat konlarini sovuq iqlim sharoitlarida ishlatishda gazlar tarkibida kristallogidratlar hosil bo'lish hodisalari uchrab turadi. Gaz quvuri ichida ham qattiq modda - kristallogidrat hosil bo'lishi, quvurning bo'zilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun

ayniqsa, keyingi vaqtlarda Sibir va Chekka shimol rayonlaridagi konlarni ishlatish munosabati bilan kristallogidratlarni to'zilishi, ularni hosil bo'lishiga qarshi kurash yo'llarini o'rganish muhim vazifa bo'lib qoldi.

Kristallogidratlar (bundan buyog'iga faqat gidratlar deb aytamiz) - tashqi ko'rinishdan oq kristall modda bo'lib, muz yoki qattiq qorga o'xshaydi. Gidratlarning asosiy tarkibi suv molekularining uglevodorod molekulari bilan birlashishidan hosil bo'ladi.

Agar gidratlarning kristall panjarasini tekshirib ko'rsak, bu panjarada bir modda molekulari (mas.suv) orasida boshqa bir modda (uglevodorod) molekulari joylashib olganini ko'rishimiz mumkin. Bunday joylashish va molekular orasidagi tortishish Van - der - Vaals kuchlari yordamida vujudga keladi. Bu kuchlar natijasida gidratlar ikki turda hosil bo'lishi mumkin (11.1 - rasm.)




11.1 – rasm. Gidratlarning 1 (a) va 2 (b) turdagi to'zilish kristall panjaralari.

Birinchi turdagi gidratlar (11.1 a - rasm) hosil bo'lishida suvning 46 molekulasini 8 ta uglevodorod molekulasini bilan kristall panjara yasaydi va bu panjara ikki xil - katta va kichik bo'shliqlarni hosil qiladi. Kichik bo'shliqlar ikkita bo'lib, ularning diametri 0,52 nm.ga teng bo'ladi. Katta bo'shliqlar soni oltita bo'lib, ularning diametri 0,59 nm.ga teng bo'ladi. Bu bo'shliqlarning hammasi gidrat hosil qiluvchi moddalar bilan to'lganda, bunday gidratlar 8 M 46 H₂O yoki M 5,75 H₂O ko'rinishda yoziladi.

Ikkinchi turdagi gidratlar (11.1 b - rasm) hosil bo'lishida suvning 136 ta molekulasini 8 ta uglevodorod molekulasini bilan kristall panjara yasaydi. Bu panjaralar 16 ta bo'lib, diametri 0,48 nm.ga teng, katta bo'shliqlar 8 ta bo'lib, diametri 0,69 nm.ga teng. Bu kichik va katta bo'shliqlarning hammasi gidrat hosil qiluvchi moddalar bilan to'lganda, bunday gidratlar 8 M 136 H₂O yoki M 17 H₂O ko'rinishda yoziladi.

Gidratlar hosil bo'lish jarayoni juda murakkab bo'lib, buning uchun bir vaqtning o'zida suv, gaz, suyuq gidrat hosil qiluvchi modda va muz o'rtasida bosim bilan harorat o'zgarishi natijasida geterogen*) tizimlarning muvozanat holatlari mavjud bo'lishi kerak. Bu holatlarni 11.2 - rasmdagi diagrammadan yaqqol ko'rish mumkin.



11.2 – rasm. Gidratlar hosil bo'lish fazaviy diagrammasi.

*) Geterogen tizimlar - (getero - grekcha “har xil” makroskopik bir xil bo'lmagan fizik - kimyoviy sistema, har xil xossalarga suyuq, qattiq, gaz) ega bo'lgan bo'laklardan iboratdir.

Bu yerda: I - gazsimon gidrat hosil qiluvchi uglevodorod, II - gidrat hosil qiluvchi suyuq eritma, III - suv eritmasi gidrat hosil qiluvchi modda holatida, IV - muz holatlar.

11.2 - rasmdagi “S” nuqtada to'rt xil xususiyatga ega bo'lgan modda mavjud, ya'ni uglevodorod, gidrat hosil qiluvchi suyuq eritma, suv va gidrat moddalari bor bo'lgan murakkab geterogen sistemasi bor. Xuddi shuningdek V nuqtada, uch xil xususiyatga ega bo'lgan geterogen sistemasi mavjud. Bu sistemalarni parchalash uchun harorat yoki bosimni birozgina o'zgartirish kifoya, shunda geterogen sistemasi parchalanib, alohida bir turkumdagi moddalarga aylanadi.

Gazlarning gidratlanishini oldini olish uchun avvalo, yer ostidan olingan gaz maxsus qurilmalarda namlikdan tozalanadi, quritiladi. Quritish shu darajada olib boriladiki, to gazni quvurlardan haydash normal (ya'ni halokat yoki gidratsiz) sharoitlarda bo'lishi ta'minlanadi. Ba'zan gaz yig'uvchi shahobchalarga yoki uzoqqa gaz uzatuvchi quvurlarga antigidrat, ya'ni gidrat hosil qilishni oldini oluvchi maxsus moddalar - ingibitorlar ham qo'shib haydaladi.

Shuningdek, gidrat hosil bo'lishdan paydo bo'lgan to'siqlarni yo'qotish uchun ham ingibitorlardan foydalaniladi, ba'zan esa quvur ichidagi gaz bosimini o'zgartirish (ko'pincha pasaytirish) yoki haroratini oshirish natijasida ham gidratlar yo'q qilinadi.

11.2. Gaz-gidrat konlar xarakteristikasi.

Olimlar o'z tadqiqotlari asosida tabiatda gaz - gidrat konlari (GGK) ham bo'lishi mumkinligini oldindan aytib berdilar. Keyinchalik bunday konlar yer qatlamining doimiy muzlangan joylarida, Tinch okeani, Shimoliy muz okeani havzalarida topildi. Bu yerlarda qatlamlarning chuqur joylashganligiga qaramasdan, harorat nihoyatda pastligi (ayniqsa, qatlam ichidagi suvning harorat pastligi) va bosimning yuqori ekanligi natijasida GGK vujudga keladi.

GGK o'ziga xos bir qancha xususiyatlarga ega. Bunday konlardagi bir birlik hajmdagi gidratda bo'lgan gaz, gazning tarkibiga bog'liq emas ekan, qatlamlarning gidratlar bilan to'yinganligi faqat qatlam bosimi, harorati hamda gidrat hosil qiluvchi suv va uglevodorodga bog'liq GGK uglevodorodlar bilan to'yinmagan qatlam suvlari mavjud bo'lgan hollarda ham hosil bo'lishi mumkin. Gidratli konlar hosil bo'lishi uchun litologik to'siqlar bo'lishi shart emas, chunki bunday konlarning o'zi litologik to'siq vazifasini o'tashi mumkin va bunday konlar ostida uglevodorodlar sof holda to'planishi mumkin.

GGKlar ham xuddi oddiy konlar kabi, qatlam chekka suvlari yoki qatlam osti suvlari bilan chegaralanishi mumkin. Ba'zan gazogidrat to'plami ustida erkin holda gaz va shu to'plam ostida esa gazokondensat yoki neft to'plami uchrashishi mumkin.

GGKlarni topishda asosan gidrat bilan to'yingan qatlamlarning elektro'tkazuvchanligi, tovush to'lqinlarining o'tish tezligi hamda qatlam haroratining nomutanosibligi kabi

ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Umuman, GGKlarni topishda geofizik usullarning qaysi birlari qo'llanilishi haqida "Dala geofizikasi" fanida batafsil ma'lumotlar beriladi.

GGKlarni ishlatish ham oddiy gaz konlarini ishlatishga nisbatan birmuncha murakkabroqdir. Buning uchun avvalo, kondagi gidrat holdagi gazni oddiy holga o'tkazish kerak, ya'ni gidrat holdagi fazadan gaz holdagi fazaga o'tkazish kerak bo'ladi. Ana shu maqsadlarda, gidratlar fazasini o'zgartirish uchun 11.2 - rasmning IV holatidagi harorat yoki bosim o'zgartiriladi. Asosan harorat o'zgarishi osonroq bo'lgani uchun shu usul qo'llaniladi, ya'ni gidratlarning parchalanish jarayonini tezlashtirish uchun har xil katalizatorlar qo'shib haydash ham mumkin.

Xuddi shu maqsadda termokimyoviy (ya'ni issiqlik chiqaruvchi kimyoviy usullar), elektrotovush usullar yoki gidratlar parchalanishi mumkin bo'lgan pastroq bosim hosil qilinib ham GGKlarni oddiy gaz koniga aylantirish mumkin. GGKlardagi gidratlar parchalangandan so'ng oddiy gaz konidek ishga tushiriladi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Kristallogidratlar va ularning hosil bo'lish sharoitlarini o'rganish.
2. Gaz-gidrat konlar xarakteristikasi.

Glossariy

Kristallogidratlar - tashqi ko'rinishdan oq kristall modda bo'lib, muz yoki qattiq qorga o'xshaydi. Gidratlarning asosiy tarkibi suv molekularining uglevodorod molekulari bilan birlashishidan hosil bo'ladi.

Geterogen tizimlar - (getero - grekcha "har xil" makroskopik bir xil bo'lmagan fizik - kimyoviy sistema, har xil xossalarga suyuq, qattiq, gaz) ega bo'lgan bo'laklardan iboratdir.

Nazorat savollari.

1. Kristallogidratlar va ularning hosil bo'lish sharoitlarini o'rganish.
2. Molekular orasidagi tortishish qanday kuchlar ostida vijidga keladi.
3. Bu kuchlar natijasida gidratlar necha turda hosil bo'lishi mumkin.
4. Geterogen tizimlar bu . . .
5. Gaz-gidrat konlar xarakteristikasi.

12-MA'RUZA

Mavzu: Kondensatlarning fizik xossalari va uni tadqiq qilish.

Reja:

1. Kondensatning fizik xossalari va tarkibini aniqlash.
2. Kondensatlarni tadqiq qilish natijalari.

Adabiyotlar: (1,2,3,5,6,7)

Tayanch so'zlar: Beqaror va barqaror kondensatlar, zichlik, qovushqoqlik va molekulyar massa, parafin - serezin moddalari, Xresh tenglamasi, kondensatning zichligi, Empirik tenglamalar.

12.1. Kondensatning fizik xossalari va tarkibini aniqlash.

Avval aytib o'tganimizdek, kondensatlar tarkibiga tabiiy holatda qatlamda suyuq bo'lgan eng yengil uglevodorodlar kiradi. Bularga pentan (normal va izomer holda), geksan, heptan kabi yengil uglevodorodlar kiradi. Kondensatlar gazokondensat konlarida tabiiy gaz tarkibida erigan holda uchraydi.

Kondensatlar qanday holatda ekanligiga qarab, beqaror va barqaror kondensatlarga bo'linadi. Beqaror kondensat - qatlamdagi yoki kondensatlarni ajratib oladigan asbob - uskunalargacha bo'lgan harakatdagi gazlarda erigan kondensatlarga aytiladi. Barqaror kondensatlar deb, maxsus kondensat ajratib oluvchi asbob - uskunalarda ajratib olingan tayyor holdagi mahsulotga aytiladi.

Shuni ham aytish kerakki, qatlam ichida boshlangan gazkondensat harakati, to u kondensat ajratuvchi asbob - uskunalarga borguncha juda murakkab jarayonlardan o'tadi. Bu jarayonlarda erigan holdagi kondensat, boshlang'ich termodinamik (P_{bosh} , T_{bosh}) holatlar o'zgarishi natijasida gazdan ajralib chiqib, qatlam g'ovaklarida cho'kib qoladi, ayniqsa, bunday ajralishlar quduq ostida yoki quduq atrofida ko'plab yuz berishi mumkin. Natijada, bu ajralish va cho'kib qolishlar kondensatning ma'lum bir qismini qatlam ichida qolib ketishga, ya'ni olib bo'lmas yo'qotishlarga olib keladi.

Kondensatlarning yo'qotilishiga termodinamik holatlar o'zgarishidan tashqari yana juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, gaz - kondensat aralashmaning qatlam ichidagi va quduqdan ko'tarilishidagi harakat tezligi bosimlar va haroratlar ayirmasi, gazkondensat ajratib oluvchi asbob - uskunalar qanchalik yaxshi ishlashi kabi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Odatda qatlam holatida aniqlangan beqaror kondensatdan 60 - 85 % gacha barqaror kondensat olish mumkin.

Gazkondensat koni ochilgandan so'ng, quduq ostiga namuna oladigan maxsus asbob (namuna olgich PD - ZM) tushirilib, qatlamdan chiqayotgan uglevodorodlar aralashmasidan yoki quduqning og'zidan chiqayotgan aralashmadan namuna olinib, laboratoriyalarda o'rganiladi. Bu tadqiqotlar natijasida qatlam ichidagi gazkondensat aralashmasida kondensatning potensial miqdori aniqlanadi. Odatda kondensatning potensial miqdori, bir birlik gaz hajmida qancha kondensat borligini bildiradi va kg/m^3 g/sm^3 larda o'lchanadi.

Har qanday suyuqlik kabi kondensatlar ham ma'lum fizik xossalarga egadir. Bulardan asosiylari zichlik, qovushqoqlik va molekulyar massa.

Moddaning zichligi deb, tinch holatdagi bir hajm birlikdagi massasiga aytiladi:

$$\rho = \frac{M}{V} \quad kg/m^3, g/sm^3 \quad (12.1)$$

Kondensatlarning zichligi haqida so'z yuritilganda, odatda ko'proq barqaror kondensat ko'zda tutiladi. Chunki beqaror kondensatlardagi zichlik doimo o'zgarib turadi. Barqaror kondensatning (C_{5+10})^d zichligini bevosita areometr orqali o'lchab aniqlash mumkin. Shuningdek, kondensat zichligini maxsus hisoblashlar orqali ham aniqlash mumkin. Buning uchun kondensatning tarkibi, molekulyar massasi M_k yoki yorug'lik sindirish koeffitsienti n_d ma'lum bo'lganda Kreg tenglamasi orqali aniqlanadi:

$$\rho_{C_{5+10}} = \frac{1,03M_k}{M_k}, \quad g/sm^2 \quad (12.2)$$

$$\rho_{C_{5+10}} = 1,90646n_d - 1,96283 \quad g/sm^3 \quad (12.3)$$

Kondensat molekulyar massasini Xresh tenglamasi orqali aniqlash mumkin:

$$\lg M_{C_{5+10}} = 1,939436 + 0,0019764t_k + \lg(2,1500 - n_d) \quad (12.4)$$

Bu yerda: t_k - kondensatning o'rtacha qaynash harorati, $^{\circ}C$

Yuqoridagi tenglamalar bo'yicha anaqlangan kondensat zichligi, kondensatning tarkibiy qismi va molekulyar massasiga qarab aniqlangan zichlikka nisbatan biroz xatolik bilan aniqlanishi mumkin.

Barqaror kondensatning zichligini bosim va haroratga nisbatan o'zgarishi quyidagi empirik²⁾ tenglamadan ko'rinib turibdi.

$$\rho_{C_{5+10}} = \left[0,762 + 0,76^{-4} \left(\frac{P}{P_{ar}} - 1 \right) \right] * \left[1 - 6,64^{-4} (t - 50) \right] \quad (12.5)$$

^{1/} C₅₊₁₀ degan ifoda o'z ichiga pentan /C₅/ va undan yuqori bo'lgan eng yengil suyuq uglevodorodlar yig'indisini oladi.

^{2/} Empirik tenglamalar laboratoriya tajribalari natijasida keltirib chiqariladi.

Bu yerda: t_q=30+200⁰C, P=1+50 MPa.

Kondensatning zichligini Kats va Stending grafoanalitik usuli bilan ham aniqlash mumkin.


Kondensatning qovushqoqligi ham bevosita maxsus asbob - qovushqoqlik o'lchagichi /viskozimetr/ orqali o'lchanishi yoki ma'lum hisoblashlar orqali aniqlanishi mumkin.

Barqaror kondensatning dinamik qovushqoqligi bosim va harorat o'zgarganda qanday o'zgarishi quyidagi empirik tenglamadan aniqlanishi mumkin.

$$\mu_{C_{5+10}} = \left(\frac{100}{t}\right)^{0,75} * \left(0,34 + 4 * 10^{-4} \frac{P}{P_{at}}\right) M * \Pi a * c \quad (12.6)$$

Bu yerda: t = 30 + 200⁰ C, P = 1 + 50 MPa

Barqaror kondensatning dinamik qovushqoqligini atmosfera bosimida harorat va molekulyar massaga qarab qanday o'zgarishi 12.1 - rasmda keltirilgan.



12.1 – rasm. Suyuq uglevodorodlarning dinamik qovushqoqligini harorat va molekulyar massaga bog'liqliligi

12.2. Kondensatlarni tadqiq qilish natijalari.

Kondensatlarni tajriba xonasida har xil usullar bilan tadqiq qilish mumkin. Bu tadqiqotlar natijasida kondensatning asosiy fizik xossalari bilan bir qatorda uning qaynash harorati, qotishi harorati, undan uglevodorodlarni ajralib chiqishi va h.k.larni aniqlash mumkin.

Tadqiqotlar maxsus tajriba asbob - uskunalarida olib boriladi. Bu tadqiqotlarda kondensat harorati asta - sekin pasaytirilib yoki oshirilib boriladi va shu jarayonida kondensatda bulayotgan o'zgarishlar qayd qilib boriladi.

Kondensatning harorati pasayishi natijasida uning tarkibidan parafin, serezin moddalari ajralib chiqib boshlaydi. Oddiy suyuqliklarning harorati pasaytirilganda, ma'lum bir sharoitda

suyuq holatdan qattiq holatga o'tadi. Masalan, 0⁰ C da suv suyuq holatdan qattiq - muz holatiga o'tadi. Lekin kondensat yoki boshqa neft mahsulotlarining harorati pasaytirilganda, qattiq holatga o'tish birdaniga ma'lum bir haroratda o'tmay, balki sekin - asta o'tishi mumkin. Bu holda kondensatning avval rangi xiralashadi va sekin - asta qotadi.

Xiralanish boshlangan harorat kondensatning xiralanish harorati deyiladi. Odatda xiralanish jarayoni kondensat tarkibidan kristalsimon parafin moddalarining ajralib chiqishidan boshlanadi.

Parafin - serezin moddalarining ko'plab ajralib chiqishi kondensat tarkibida kristallanish holatiga olib keladi. Sekin - asta kondensat tarkibida kristallar ko'payib, oxiri qotish holatiga yetib keladi.

Kondensatning kristallanish boshlangan harorati uning kristallanish harorati deb, kondensatning qotish boshlangan harorati esa kondensat qotish harorati deyiladi.

Xuddi shuningdek, kondensat harorati oshganda qaynash boshlangan harorati kondensatning qaynash harorati deyiladi.

Shunday qilib, kondensatni qaynashidan to qotishigacha bo'lgan oraliqda xiralanish va kristallanish holatlari ham bo'ladi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Kondensatning fizik xossalari va tarkibini aniqlash.
2. Kondensatlarni tadqiq qilish natijalari.

Glossariy

Kondensatlar qanday holatda ekanligiga qarab - beqaror va barqaror kondensatlarga bo'linadi.

Beqaror kondensat - qatlamdagi yoki kondensatlarni ajratib oladigan asbob - uskunalargacha bo'lgan harakatdagi gazlarda erigan kondensatlarga aytiladi.

Barqaror kondensatlar deb - maxsus kondensat ajratib oluvchi asbob - uskunalarda ajratib olingan tayyor holdagi mahsulotga aytiladi.

Moddaning zichligi deb - tinch holatdagi bir hajm birlikdagi massasiga aytiladi.

Empirik tenglamalar - laboratoriya tajribalari natijasida keltirib chiqariladi.

Kondensatning qovushqoqligi - viskozimetr orqali o'lchanadi.

Kondensatning harorati pasayishi natijasida - uning tarkibidan parafin, serezin moddalari ajralib chiqib boshlaydi.

Xiralanish boshlangan harorat - kondensatning xiralanish harorati deyiladi.

Kondensatning kristallanish boshlangan harorati uning kristallanish harorati deb - kondensatning qotish boshlangan harorati esa kondensat qotish harorati deyiladi.

Kondensat harorati oshganda qaynash boshlangan harorati - kondensatning qaynash harorati deyiladi.

Nazorat savollari.

1. Kondensatning fizik xossalari va tarkibini aniqlash.
2. Kondensatlarni tadqiq qilish natijalari.
3. Geterogen tizimlar tushunchasi.
4. Xresh tenglamasini izohlang.
5. Kondensatning zichligi qanday topiladi.
6. Kondensatning asosiy fizik xossalari qaysilar?
7. Kondensatning xiralanish harorati deb nimaga aytiladi?
8. Kondensatning kristallanish boshlangan harorati nima deb ataladi.

13-MA'RUZA

Mavzu: Neft tarkibi va tasnifi.

Reja:

1. Neft tarkibi va tasnifini o'rganish.
2. Neftning asosiy fizik xossalari.

3. Gazlarning neft va suvda erishi
4. Neft xossalari to'plam ichida o'zgarishi.

Adabiyotlar: (1,2,3,5,6,7)

Tayanch so'zlar: Parafin - serezin moddalari, merkaptanlar mum va asfalten moddalari, oltingugurtli, kam oltingugurtli, kam mumli, mumli, ko'p mumli, parafin, kam parafinli, alkanlar, polimetilen yoki naftenli uglevodorodlar, neft zichligi, neft qovushqoqligi, neftning siqiluvchanligi, neftning hajm koeffitsienti, neft kirishishi, neft to'yinganligi bosimi, Genri qonuni.

13.1. Neft tarkibi va tasnifi o'rganish.

Neft tabiiy aralashma bo'lib, asosan uglevodorodlardan tashkil topgan bo'ladi. Uning tarkibida karbon 84 - 86 %, vodorod 11 - 14 % ni tashkil qilishi mumkin. Bu asosiy ikki elementdan tashqari neft tarkibida kislorod, oltingugurt, azot bo'lishi mumkin. Shuningdek, juda oz miqdorda (mikrokomponent holatda) xlor, yod, fosfor, margumush, kaliy, natriy, kalsiy, magniy ham bo'lishi mumkin.

Umumiy holda neft tarkibidagi uglevodorodlar C_nH_{2n+2} ifoda orqali aniqlanadigan metan gomologlari qatoridan iborat. Neftning tarkibidagi uglevodorodlar uchta katta sinfga bo'linadi: alkanlar (C_nH_{2n+2}), polimetilen yoki naftenli uglevodorodlar (C_nH_{2n}) va aromatik uglevodorodlar. Neft tarkibiga kiruvchi uglevodorodlardan C_8H_{18} dan $C_{17}H_{36}$ gachasi suyuq holatda va $C_{18}H_{38}$ dan $C_{56}H_{114}$ gachasi qattiq holatda bo'ladi. Qattiq holatdagi uglevodorodlarni asosan parafin - serezin moddalari tashkil qiladi.

Uglevodorod bo'lmagan moddalar neft tarkibida kislorod, oltingugurt, azot birikmalari (oksid) holida yoki metalloorganik birikmalar holida uchrashi mumkin.

Neft tarkibida yuqorida aytib o'tilgan moddalar yoki birikmalardan tashqari merkaptanlar mum va asfalten moddalari ham mavjud.

Merkaptanlar (R-SH) to'zilishi va tarkibiga qarab spirtlarga o'xshash. Merkaptanlarning asosiysi etilmerkaptan va uning gomologlari neft tarkibida oddiy sharoitlarda suyuq holda, metilmerkaptan CH_3CH esa gaz holda bo'ladi. Qatlam suvlari tarkibidagi ishqorlar yoki oksidlar bilan merkaptanlar reaksiyaga kirishib, juda o'tkir va tez zanglatuvchi merkaptidlarni hosil qiladi.

Asfalt - mum aralashmalar ba'zan neft tarkibining 40% ini tashkil qilishi mumkin. Kimyoviy tarkibi bo'yicha bu moddalar yuqori molekulyar organik birikmalardan iborat bo'lib, tarkibida uglerod, vodorod, kislorod, oltingugurt va azotdan tashkil topgan. Bu aralashmalar ko'proq neytral mumlardan tashkil topgan bo'lib, oddiy holatda suyuq yoki yarim suyuq holatda bo'ladi. Rangi to'q sariqdan jigarrangacha o'zgarib, zichligi 1000 - 1070 kg/m^3 tashkil qiladi. Rangining to'q bo'lishi asosan neytral mumlar ko'pligidan dalolat berib turadi. Neytral mumlar juda yaxshi adsorbsiyalanadi va natijada asfalten holatiga keladi.

Parafinlarga uglevodorodlarning $C_{18}H_{38}$ dan $C_{35}H_{72}$ gacha bo'lgan qismi kiradi. Ularning erish harorati 27 - 71⁰ C tashkil etadi. Parafinlar neft harakatlanayotgan vaqtda, termodinamik sharoitlar o'zgarishi natijasida, mayda plastiksimon kristall holdagi tasmachalar hosil qiladi. Bu tasmachalar o'zaro birlashib har xil tugunchalar hosil qilishi mumkin. Bu jarayonlar natijasida parafin moddalari neftdan ajralib chiqib boshlaydi. Ayniqsa, ajralib chiqish jarayon neft qudug'i ichida yoki yig'uvchi quvurlar ichida kuchayadi va natijada quvurlarning ichki yuzasiga parafin moddalari yopishib qolib, neft harakatini qiyinlashtirib, oqibat natijada, umuman to'xtatib qo'yishi mumkin. Parafinlar neft tarkibida 1,5 - 2,0 % bo'lsa, quvurlar ichida ajralib chiqishi boshlanadi, ayniqsa bu jarayon neft haroratining pasayishi va undan erigan gazlarning ajralib chiqishi bilan keskin tezlashadi.

Neft tarkibidagi serezinlarga uglevodorod qatoridagi eng og'ir birikmalar, ya'ni $C_{36}H_{74}$ dan yuqoridagilari kiradi. Serezinlarning erish harorati 65 - 88⁰ C ni tashkil qiladi. Parafinlarga nisbatan serezinlarning zichligi va qovushqoqligi ancha kattaroq. Serezinlarning kristallanish jarayoni juda kichik ignasimon kristall zanjirlardan boshlanadi. Ammo bu ignasimon kristallar

bir - biri bilan o'zaro birlashmaganligi tufayli, qotib qoluvchi moddalar hosil qilmaydi va neft harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Neftning tarkibida, qatlam holatda albatta qandaydir miqdorda erigan gaz bo'ladi. Neft harakatga kelgandan keyin va ayniqsa, quduq ichiga kirgandan keyin, erigan gaz ajralib chiqib boshlaydi.

Neft tarkibidagi oltingugurt, mum va parafin miqdoriga qarab, quyidagi tasnifga ega:

a) oltingugurt bo'yicha:

- kam oltingugurtli, bunda oltingugurt miqdori (hajm bo'yicha) 0,5 % gacha bo'lishi mumkin;

- oltingugurtli, bunda oltingugurt miqdori 0,5 + 2,0 % gacha bo'lishi mumkin;

- ko'p oltingugurtli, bunda oltingugurt miqdori 2,0 % dan undagi bo'lishi mumkin.

b) mum miqdori bo'yicha:

- kam mumli, bunda mum miqdori (hajm bo'yicha) 5 % gacha bo'lishi mumkin;

- mumli, bunda mum miqdori 5 - 15 % gacha bo'lishi mumkin;

- ko'p mumli, bunda mum miqdori 15 % dan yuqori bo'lishi mumkin.

v) parafin bo'yicha

- kam parafinli, bunda parafin miqdori (hajm bo'yicha) 1,5 % gacha bo'lishi mumkin;

- parafinli, bunda parafin miqdori 1,5 - 6,0 % gacha bo'lishi mumkin;

- ko'p parafinli, bunda parafin miqdori 6 % dan yuqori bo'lishi mumkin;

Neftning bu tasnifidan tashqari davlat standartlari bo'yicha

uch xil turqumi (kategoriya) mavjud. Bu turqumlar neft tarkibida suv, mexanik aralashmalar miqdoriga qarab ajratilgan.

Konlardagi neftni tayyorlash, tozalash, tindirish va uzoqqa jo'natish asbob - uskunalarning quvvati, ularning soni, shuningdek, kerakli bo'lgan har xil kimyoviy moddalar yuqorida keltirilgan tasnif bo'yicha davlat tomonidan ajratib beriladi. Bu asbob - uskunalar quvvatiga qarab, katta mablag' talab qiladi (ba'zan esa chet ellardan valuta hisobiga sotib olinadi), shuning uchun kondagi neft tarkibini puxta o'rganib, keltirilgan tasnif bo'yicha aniq bilib, faqat shundan so'ng kerakli asbob - uskunalar tanlanadi.

13.2. Neftning asosiy fizik xossalari.


Qatlam holatidagi neft bilan yer yuziga olib chiqilgan neft o'zining fizik xossalari bilan sezilarli darajada farq qiladi. Bunga asosiy sabab, qatlam holatidagi neft katta bosim va yuqori harorat ostida bo'lib, tarkibida qandaydir miqdorda erigan gaz bo'ladi. Yer yuziga olib chiqilgan neft esa oddiy sharoitda bo'lib, tarkibida erigan gazlar deyarli qolmaydi. Shuning uchun ham qatlam holatidagi va yer yuzidagi neft o'rtasida kattagina farq bor. Neftning asosiy fizik xossalari uning zichligi, qovushqoqligi, siqilishi, sirt taranglik kuchlari, issiqlik xossalari, elektrik va optik xususiyatlari va boshqalar kiradi.

Quyida ana shu xossalarni qisqacha tahlil qilib chiqamiz.

Neft zichligi - bir hajm birlikdagi neft massasiga aytilib, g/cm^3 va t/m^3 da o'lchanadi. Qatlam holatidagi neft zichligi, erigan gaz mavjudligi tufayli yer yuzidagi neft zichligidan biroz kichik bo'ladi. Bosim oshishi natijasida neftning zichligi kamayib boradi, lekin bosim neftning gaz bilan to'yinganlik bosimidan oshgandan keyin zichlik ham osha boshlaydi (13.1 - rasm).


Agar neft tarkibida ko'p miqdorda azot yoki karbonat angidrid (IV) oksidi erigan bo'lsa, u holda bosim oshishi natijasida neft zichligi ham oshishi mumkin.

Neft qovushqoqligi deb, suyuqlik ichidagi bir qatlamning ikkinchi bir qatlamga nisbatan siljishiga qarshilik ko'rsatish qobiliyatiga aytiladi. Qovushqoqlikning dinamik (harakatdagi holat uchun) va kinematik (tinch holat uchun) turlari bo'ladi. Qatlamdagi neft qovushqoqligi bilan oddiy sharoitdagi neft qovushqoqligi o'rtasida katta farq mavjud bo'lib, erigan gaz miqdori ko'payishi, haroratning oshishi qovushqoqlikni keskin kamaytirsa, bosimning oshishi qovushqoqlikning biroz oshishiga olib keladi.



13.1 – rasm. Neft zichligini bosim o'zgarishi bilan bog'liqligi.
 P_T – neftning gaz bilan to'yinganlik bosimi.

Neftning qovushqoqligi shuningdek, erigan gaz tarkibi va qanday gazlar erigan bo'lsa, qovushqoqlik ortadi va uglevodorod gazlar ko'p erigan bo'lsa qovushqoqlik kamayadi.



13.2 – rasm. Neft qovushqoqligining neftda gaz eriganligiga (α), haroratga (T) va bosimga (P) nisbatan o'zgarishi. P_T – neftni gaz bilan to'yinganlik bosimi.

Shuni ham aytish kerakki, bosim kamayishi bilan neftning qovushqoqligi biroz kamayadi. Bosim neftning gaz bilan to'yinganlik bosimidan ham o'tib kamayishi davom etsa, qovushqoqlik orta boshlaydi.

Neftning siqiluvchanligi deb, uning tashqi muhit ta'siri ostida o'z hajmini o'zgartirishiga aytiladi. Bu xossa siqiluvchanlik koeffitsienti bilan xarakterlanadi, ya'ni

$$\beta_H = -\frac{1}{V} * \frac{\Delta V}{\Delta P} [\text{Па}^{-1}] \quad (13.1)$$

Bu yerda: V - neftning boshlang'ich hajmi;

ΔV - o'zgarilgan hajm;


ΔP - o'zgarilgan bosim.

Siqiluvchanlik koeffitsienti deb, bosim bir birlikka (ΔP) o'zgarganda neft hajmining qancha o'zgarishini (ΔV) ko'rsatuvchi kattalikka aytiladi.

Siqiluvchanlik koeffitsienti, shuningdek, neftning taranglik xususiyatlarini ham o'z ichiga olgan. Bu koeffitsientga, ayniqsa, neftda erigan gaz miqdori uqori ta'sir ko'rsatadi. Agar neftda yengil uglevodorod gazlar ko'proq erigan bo'lsa siqiluvchanlik koeffitsienti juda katta

qiymatga ega bo'ladi ($1,4 \cdot 10^{-2} \text{ MPa}^{-1}$) va neftda erigan gazlar juda kam bo'lsa, siqiluvchanlik koeffitsienti juda kichik ($4 \cdot 10^{-4} \text{ MPa}^{-1}$) bo'ladi.

Siqiluvchanlik koeffitsienti haroratga to'g'ri va bosimga teskari proporsionaldir (13.3 - rasm).



13.3 – rasm. Neftning siqiluvchanlik koeffitsientining harorat (a) va bosim (b) o'zgarishiga bog'liqliligi.

Neftning hajm koeffitsienti qatlam ichidagi va yer yuzidagi neft hajmlarning nisbati bilan aniqlanadi.

$$b = \frac{V_{k.H}}{V_{e.yo}} \quad (13.2)$$

Bu yerda: $V_{k.i}$ - qatlam ichidagi neft hajmi;

$V_{e.u}$ - yer yuzidagi erigan gazdan xolis bo'lgan neft hajmi.

Qatlam holatidagi neft hajmi yer yuzidagi erigan gazdan xolis bo'lgan neft hajmidan katta, shuning uchun ham neftning hajm koeffitsienti birdan katta bo'ladi.

Neft kirishishi neftning qatlam ichidan yer yuziga olib chiqqanda qanchalik o'zgarishini foiz hisobida ko'rsatadi, ya'ni

$$U = \frac{b-1}{b} * 100 \quad (13.3)$$

Odatda neftning kirishishi laboratoriya usullari bilan aniqlanadi. Neft kirishishi 10 - 40 % larni tashkil qilishi mumkin.

Neft to'yinganligi bosimi deb, izotermik kengayish jarayonida neftdan erigan gaz ajralib chiqishi boshlangan maksimal bosimga aytiladi. To'yingan bosimi (R_t); asosan neft va erigan gaz hajmlari nisbati, gaz tarkibi va qatlam harorati bilan bog'liq. Gaz tarkibidagi neftda yomon eriydigan moddalarning ko'payishi, to'yinganlik bosimining ortishiga olib keladi.

Haroratning oshishi to'yinganlik bosimi oshirishga olib keladi.

Qatlam sharoitida to'yinganlik bosimi qatlam bosimiga teng yoki undan kichik bo'lishi mumkin. Agar to'yinganlik bosimi qatlam bosimi bilan teng bo'lsa, u holda qatlamdagi neft gaz bilan to'liq to'yingan bo'ladi, ya'ni shu sharoitlarda neftda bundan ortiq boshqa gaz erimaydi. Agar to'yingan bosim qatlam bosimidan kichik bo'lsa, neft gaz bilan to'la to'yingan bo'ladi. Bunday hollarda neftda erigan gaz qatlam bosimi to'yingan bosim bilan tenglashganda yoki undan kichik bo'lgandagina ajralib chiqib boshlaydi.

Shuni aytib o'tish kerakki, to'yingan bosim kattaligiga qarab konlarni qanday ishlatish kerakligi tanlanadi.

Qatlam bosimi to'yingan bosimga nisbatan pastroq bo'lganda konlarni ishlatish bir oz qiyinlashadi, chunki bu hollarda qatlamda harakat qilayotgan neftdan uzluksiz ravishda gaz ajralib chiqib boshlaydi va neft harakatiga biroz qiyinchiliklar keltirishi mumkin

13.3. Gazlarning neft va suvda erishi.

Avvalgi paragraflardan ma'lum bo'lishicha, neftdagi erigan gaz miqdoriga qarab neftning asosiy fizik xossalari keskin o'zgarar ekan. SHuning uchun qatlamdagi neftda boshlang'ich holatda qancha gaz erigan ekanligini aniq bilish muhim ahamiyatga ega.

Neft tarkibining juda turli - tumanligi, qatlamda bosim va haroratning keng o'zgarishi boshlang'ich erigan gaz miqdorini hisoblash yo'li bilan aniqlashni biroz qiyinlashtiradi. Gaz eruvchanligi tajribalarda bosim va haroratni o'zgartirish orqali aniqlanadi.

Neftda gazning erishi kichik bosimlarda Genri qonuniga bo'ysunadi, ya'ni

$$V_r = d * P * V_n \quad (13.4)$$

$$\alpha = \frac{V_r}{P * V_n} \quad (13.5)$$

Bu erda: V_g - neftda erigan gaz miqdori;
 α - gaz eruvchanlik koeffitsienti;
 R - bosim;
 V_n - neft hajmi.

13.5 - tenglamadan ko'rinib turibdiki, gaz eriganlik koeffitsienti bosim bir birlikka oshganda neftda qancha gaz erishi mumkinligini ko'rsatadi. Gaz eruvchanlik koeffitsienti bir xil kattalikka ega bo'lmay, doimo o'zgarib turadi. Bunga neft tarkibi, bosimi, harorati va bir qancha boshqa omillarning o'zgarib turishi sabab bo'ladi.

Neft tarkibidagi alohida moddalar har xil gaz erituvchanlik qobiliyatiga ega, bu moddalarning molekulyar massasi oshgan sari gaz eritish qobiliyati ham ortib boradi. SHuni ham aytish kerakki, neftda uglevodorod gazlarining erish qobiliyati nouglevodorod gazlarga (masalan, azot) nisbatan ancha yuqori.

Neft tarkibida parafin moddasi ko'p bo'lsa, gaz erish koeffitsienti ham yuqori bo'ladi va aksincha, agar aromatik moddalar ko'p bo'lsa, gazning neftda erishi ancha qiyinlashadi.

Erigan gazga boy bo'lgan neftning bosimini sekin - asta kamaytirilsa, darrov gaz ajralib chiqib boshlaydi. Bir birlik hajmdagi neftdan bosim bir birlikka kamayganda ajralib chiqqan gaz miqdoriga gazsizlanish koeffitsienti deyiladi.

Gazlarning suvda erishi neftda erishiga nisbatan birmuncha farqlidir. Uglevodorod gazlarning suvda erishi uncha katta miqdorda bo'lmaydi, lekin tabiiy gaz konlarida gaz bilan suvning tutash yuzalari juda katta maydonni tashkil qilganligi tufayli, umumiy erigan gaz miqdori anchagina katta miqdorni tashkil qilishi mumkin. Shuning uchun gazlarning suvda ham erish miqdorini aniq bilish zarur.

Odatda tabiiy gazning suvda qanday miqdorda erishi, gaz tarkibidagi har bir alohida gaz tarkibiy qismining suvda erishiga bog'liq. Bunda har bir komponentning molekularini suvda qancha eriganligini bilish kerak bo'ladi. Umumiy holda, tabiiy gazlarning suvda erishini quyidagi tenglamalardan aniqlash mumkin.

$$N_i = \frac{n_i}{\sum n_i + n_c} \quad (13.6)$$

$$b_i = \frac{V_i}{\sigma} \quad (13.7)$$

$$C_i = \frac{V_i}{V_c} \quad (13.8)$$

Bu yerda: N_i - suvda erigan tabiiy gazning molyar birlikdagi miqdori;
 n_i, n_c - mos ravishda i - komponentning suvdagi molyar miqdori va suvning molyar miqdori;

b_i - suvda erigan gazning bir birlik massadagi miqdori;

s_i - suvda erigan gazning bir birlik hajmdagi miqdori;

V_i - oddiy sharoitga keltirilgan gaz komponentining hajmi;

V_c - suv hajmi.

Yuqorida keltirilgan tenglamalardagi N_i va b_i kattaliklarni orasida quyidagi munosabat mavjud, ya'ni

$$N_i = \frac{b_i}{\sum b_i + \frac{22416}{18,016}} = \frac{b_i}{\sum b_i + 1244} \quad (13.9)$$

Bu yerda: 22,416 - oddiy sharoitdagi ideal gazning molyar hajmi;

18,016 - suvning molekulyar massasi.

Gazlarning suvda erish miqdorini baravarlik o'zgarimas kattaliklar orqali ham ifodalash mumkin.

$$K_i = \frac{N_i^{\circ\circ}}{N_i^{\circ}} \quad (13.20)$$

Bu yerda: $N_i^{\circ\circ}$ va N_i° - mos ravishda gaz va suv fazalaridagi komponentlarning molyar miqdori.

Gazlarning suvda erishi harorat ortishi bilan avvaliga biroz kamayadi, lekin keyinchalik ortadi. Bunga misol tariqasida 3.21 - rasmda bosim va harorat o'zgarishi bilan etan gazining suvda erishi bog'liqligi keltirilgan.


Aytib o'tganimizdek, uglevodorod gazlarining suvda erishi biroz qiyin. Agar suvda erigan tuzlar bo'lsa, gazning erishi yanada qiyinlashadi. Masalan, toza suv bilan sho'r suvda (NaClning eritmasi) gazning erishi 13.4 - rasmdan ko'rinib turibdiki, bir xil bosimli toza suvda erigan gaz miqdori sho'r suvdagiga nisbatan deyarli ikki baravar katta ekan.

Suvda erigan tuzlar bo'lsa, tabiiy gazlarning suvda erishiga ta'siri Sechenov tenglamasi bilan ifodalanadi.

$$N_i = N_{i_1} \cdot 10^{-a_i \cdot n} \quad \text{yoki} \quad b_i = b_{i_1}^{-a_i \cdot n}$$

Bu yerda: a_i - Sechenov koeffitsienti. Bu koeffitsient, erigan tuz, gazning i - komponentining suvda erishga ta'sirini xarakterlaydi;

n - suvda erigan tuzlarning konsentrasiyasi, g, ekv/l.



13.4 – rasm. Bosim (a) va harorat (b) o'zgarishiga tabiiy gazlarda suv erishining bog'liqligi.

1,2 – distillangan suv; 3,4 – NaCl eritmasi.


13.4. Neft xossalari to'plam ichida o'zgarishi.

Neft tarkibida ko'p miqdorda erigan uglevodorod gazlarining mavjudligi, uning fizik - kimyoviy xususiyatlarini tubdan o'zgartirib yuborishini uqoridagi paragraflarda ko'rib chiqdik.

Neft tarkibini, uning xossalari o'zgarishi faqatgina erigan gazga boqliq bo'lmay, balki qatlamdagi boshlang'ich termodinamik - shart sharoitlarga ham bog'liq ekan. Ayniqsa, qatlam bosimining o'zgarishi neftning ko'pgina fizik xossalari o'zgartirib yuboradi.

Bundan tashqari, qatlam holatidagi neftning xossalari qatlamni o'zida ham har xil bo'lishi mumkin ekan. Buni misol bilan tushuntirib o'tamiz.

Masalan, neft konidagi qatlam juda ham katta bo'lsa, ya'ni uning balandligi deydik 200 m, neftga to'yingan yuzasi 100 km² bo'lsin (13.5 - rasm). Bunday katta qatlamda uning gumbazi va gumbaz atrofi bilan chekkasi va tagi atrofida har xil bosim va harorat mavjud bo'ladi. Bunda har ikki nuqtadagi (rasmda A va V nuqtalari) bosimlar ayirmasi 2 MPa ni, haroratlar ayirmasi esa 6 - 7^o C ni tashkil qiladi. Demak, A nuqtadagi neftning qovushqoqligi, zichligi, siqiluvchanligi, gaz eriganligi B nuqtadagidan farq qiladi. Bu farq B nuqtadan A nuqtagacha qatlam kesimi bo'yicha sekin - asta termodinamik kattaliklarning o'zgarishiga qarab o'zgarib boradi.



13.5 – rasm. Katta qatlamda neft xossalari turli bo'lishi

Qatlam chekkalari atrofidagi neft bilan qatlam markazidagi neft orasida ham farq bo'lishi mumkin.

Qatlamning balandligi katta bo'lganda, odatda qatlam bosimining ma'lum o'rtasi yoki neft - suv tutash yuzasiga nisbatan o'lgangan qatlam bosimi qayta hisoblab chiqiladi. Bir xil yuzaga, ko'pincha neft - suv tutash yuzasiga, keltirib hisoblangan bosim shu qatlam uchun umumiy bosim deb hisoblanadi va hamma hisoblashlarda ana shu bosim ishlatiladi.

Neft xossalari qatlamdagi bir to'plam ichida o'zgarishini konni ishlatishda, albatta, hisobga olish shart. Ana shu o'zgarishlarga qarab, qaysi quduqlarni avvalroq ishga tushirish kerak, ularni qanday ishlatish kerak va shu kabi texnologik jarayonlar tanlanadi. Demak, qatlam ichidagi neft xossalari o'zgarishini o'z vaqtida aniq bilish juda muhim ahamiyatga ega ekan. Shuni ham aytish kerakki, katta qatlamli konlarni ishlatish jarayonida ham neft xossalari o'zgarib boradi.

Neft xossalari o'zgarishini aniqlashning juda ko'p usullari mavjud. Ana shu usullardan biri fotokolorimetriya usulidir.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Neft tarkibi va tasnifini o'rganish.
2. Neftning asosiy fizik xossalari.
3. Gazlarning neft va suvda erishi.
4. Neft xossalari to'plam ichida o'zgarishi.

Glossariy

Neft tabiiy aralashma bo'lib - asosan uglevodorodlardan tashkil topgan bo'ladi.

Merkaptanlar (R-SH) - to'zilishi va tarkibiga qarab spirtlarga o'xshash. Merkaptanlarning asosiysi etilmerkaptan va uning gomologlari neft tarkibida oddiy sharoitlarda suyuq holda, metilmerkaptan CH_3CH esa gaz holda bo'ladi. Qatlam suvlari tarkibidagi ishqorlar yoki oksidlar bilan merkaptanlar reaksiyaga kirishib, juda o'tkir va tez zanglatuvchi merkaptidlarni hosil qiladi.

Asfalt - mum aralashmalar - ba'zan neft tarkibining 40% ini tashkil qilishi mumkin. Kimyoviy tarkibi bo'yicha bu moddalar yuqori molekulyar organik birikmalardan iborat bo'lib, tarkibida uglerod, vodorod, kislorod, oltingugurt va azotdan tashkil topgan. Bu aralashmalar ko'proq neytral mumlardan tashkil topgan bo'lib, oddiy holatda suyuq yoki yarim suyuq holatda bo'ladi. Rangi to'q sariqdan jigarranggacha o'zgarib, zichligi $1000 - 1070 \text{ kg/m}^3$ tashkil qiladi. Rangining to'q bo'lishi asosan neytral mumlar ko'pligidan dalolat berib turadi. Neytral mumlar juda yaxshi adsorbsiyalanadi va natijada asfalten holatiga keladi.

Parafinlarga uglevodorodlarning - $\text{C}_{18}\text{H}_{38}$ dan $\text{C}_{35}\text{H}_{72}$ gacha bo'lgan qismi kiradi. Ularning erish harorati $27 - 71^\circ \text{C}$ tashkil etadi. Parafinlar neft harakatlanayotgan vaqtda, termodinamik sharoitlar o'zgarishi natijasida, mayda plastiksimon kristall holdagi tasmachalar hosil qiladi. Parafinlarga uglevodorodlarning $\text{C}_{18}\text{H}_{38}$ dan $\text{C}_{35}\text{H}_{72}$ gacha bo'lgan qismi kiradi.

Kam oltingugurtli - bunda oltingugurt miqdori (hajm bo'yicha) 0,5 % gacha bo'lishi mumkin;

Oltिंगugurtli - bunda oltिंगugurt miqdori 0,5 + 2,0 % gacha bo'lishi mumkin;
Ko'p oltिंगugurtli - bunda oltिंगugurt miqdori 2,0 % dan undagi bo'lishi mumkin.
Kam mumli - bunda mum miqdori (hajm bo'yicha) 5 % gacha bo'lishi mumkin;
Mumli - bunda mum miqdori 5 - 15 % gacha bo'lishi mumkin;
Ko'p mumli - bunda mum miqdori 15 % dan yuqori bo'lishi mumkin.
Kam parafinli - bunda parafin miqdori (hajm bo'yicha) 1,5 % gacha bo'lishi mumkin;
Parafinli - bunda parafin miqdori 1,5 - 6,0 % gacha bo'lishi mumkin;
Ko'p parafinli - bunda parafin miqdori 6 % dan yuqori bo'lishi mumkin;
Neftning bu tasnifidan tashqari davlat standartlari bo'yicha uch xil turkumi
(kategoriya) mavjud. Bu turkumlar neft tarkibida suv, mexanik aralashmalar miqdoriga qarab ajratilgan.

Neft qovushqoqligi deb - suyuqlik ichidagi bir qatlamning ikkinchi bir qatlamga nisbatan siljishiga qarshilik ko'rsatish qobiliyatiga aytiladi. Qovushqoqlikning dinamik (harakatdagi holat uchun) va kinematik (tinch holat uchun) turlari bo'ladi. Qatlamdagi neft qovushqoqligi bilan oddiy sharoitdagi neft qovushqoqligi o'rtasida katta farq mavjud bo'lib, erigan gaz miqdori ko'payishi, haroratning oshishi qovushqoqlikni keskin kamaytirsam, bosimning oshishi qovushqoqlikning biroz oshishiga olib keladi.

Nazorat savollari.

1. Neft tarkibida uglerod necha foizni tashkil qiladi.
2. Neft tarkibida vodorod necha foizni tashkil qiladi.
3. Neftning tarkibidagi uglevodorodlar nechta katta sinfga bo'linadi?
4. Neft tarkibiga kiruvchi uglevodorodlardan qaysilari suyuq holatda bo'ladi.
5. Neft tarkibiga kiruvchi uglevodorodlardan qaysilari qattiq holatda bo'ladi.
6. Qattiq holatdagi uglevodorodlarni asosan qaysi moddalar tashkil qiladi.
7. Neft tarkibidagi oltिंगugurt, mum va parafin miqdoriga qarab, necha tasnifga bo'linadi.
8. Neftning zichligi deb nimaga aytiladi.
9. Neft qovushqoqligi deb nimaga aytiladi.
10. Neftning siqiluvchanligi deb nimaga aytiladi.

14-MA'RUZA

Mavzu: Neft xossalarini o'rganishning fotokolorimetriya usuli

Reja:

1. Neft xossalarini o'rganishning fotokolorimetriya usullarini o'rganish.
2. Neftning reologik xususiyatlari.
3. Neft va gazning fizik xossalarini o'rganish uchun ishlatiladigan apparatlar.

Adabiyotlar: (1,2,4,5,7)

Tayanch iboralar: Fotokolorimetriya usuli, neftning kalorimetrik xususiyati, Ber qonuni, Buger - Lambert - Ber qonuni, neftning reologik xususiyatlari, yorug'lik oqimi intensivligi, optik zichlik, Nonyuton suyuqliklar, konsistensiya, relaksatsiya, probotbornik.

14.1. Neft xossalarini o'rganishning fotokolorimetriya usullarini o'rganish.

Fotokolorimetriya usuli, suyuqliklardan yorug'lik oqimi o'tayotganda, bu oqim suyuqlik bilan yutilishini o'lchashga asoslangan. Har xil suyuqliklarga bir xil yorug'lik nuri tushirilsa, ularning bu suyuqliklarda yutilishi (to'g'rirog'i so'nishi) har xil bo'ladi.


Neftning kalorimetrik xususiyatiga (ya'ni yorug'lik yutishiga), uning tarkibidagi asfalt - mum moddalarining miqdori juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu moddalarning miqdorini o'zgarishidan neftning qovushqoqligi, zichligi va boshqa xossalari ham o'zgaradi. Shuning uchun ham neftning yorug'lik yutishini o'zgarishiga qarab, uning asosiy fizik - kimyoviy xossalarini o'zgarishini aniqlash mumkin.

Neftni fotokolorimetrik xususiyatlarini o'rganish uchun tajribalar quyidagicha olib boriladi. Birorta idishga neft quyilib, unga yorug'lik oqimi tushiriladi va bu yorug'lik nurlarini neftdan

o'tishini har xil nuqtalarida maxsus fotoelementlar bilan o'lchanadi. Bunday tajribalarni ko'plab o'tkazgan P.Buger va I.Lambertlar suyuqlikdan yorug'lik o'tishida juda muhim bir qonuniyat borligini aniqladilar.

Bu qonuniyatga ko'ra, bir xil qalinlikdagi suyuqlikdan o'tayotgan yorug'lik oqimining yarmi yutilib, qolgan yarmi keyingi qavatiga o'tar ekan. Bu qonuniyatni o'rganish uchun quyidagi misoldan foydalanamiz.

Masalan, qandaydir qalinlikka ega bo'lgan neft to'ldirilgan idishga yorug'lik oqimini tushiraylik. Yorug'lik nuri shu idishning tubiga yetib kelganda to'liq yutilsin (14.1 - rasm). Endi shu idishning balandligi bo'yicha teng bo'laklarga bo'lib chiqaylik. U holda, birinchi bo'lakka tushayotgan boshlang'ich yorug'lik oqimining 50 % yutiladi va ikkinchi bo'lakka qolgan 50 % yutiladi va qolgan 50 % uchinchi bo'lakka o'tadi. Uchinchi bo'lakka o'tgan yorug'lik oqimi umumiy tushayotgan yorug'likni 25 % ni tashkil qiladi (14.1 - rasmdagi grafikka qarang). Shuningdek, to'rtinchi bo'lakka 6,25 % yorug'lik o'tadi, beshinchi bo'lakka esa 3,125 % va h.k.



14.1 – rasm. Yorug'lik oqimining neftdan o'tishidagi yutilishi.

- a) Neft to'latilgan idishni bir xil bo'lgan qavatlaridan yorug'lik oqimi o'tishi
- b) Yorug'lik oqimining utilishi

14.1 - rasmdagi grafikda keltirilgan egri chiziq tenglamasi Buger - Lambert tenglamasi deyilib, u quyidagicha ifodalanadi:

$$J_t = J_0 * e^{-kl} \quad (14.1)$$

Bu yerda: J_t - biror qavatdan o'tgan yorug'lik oqimi intensivligi;

J_0 - boshlang'ich tushayotgan yorug'lik oqimi intensivligi;

k - yorug'lik oqimining yutilishini xarakterlovchi koeffitsient;

l - qavatlarining qalinligi.

Ber qonuni bo'yicha yutilish koeffitsienti K yutuvchi moddalarning miqdoriga to'g'ri proporsional ekan, ya'ni

$$K = K_{\text{ёто}} * C \quad (14.1)$$

Bu yerda: $K_{\text{ёто}}$ - yorug'lik koeffitsienti;

C - yutuvchi moddalar konsentrasiyasi.

Agar 13.7 va 13.8 tenglamalarini hisobga olsak, kalorimetriyaning asosiy qonuni Buger - Lambert - Ber qonuni kelib chiqadi.

$$\mathfrak{I}_t = \mathfrak{I}_0^{-k_{\text{eto}} * c * \ell}$$

13.8-tenglamadagi qavatlardan o'tgan yorug'lik oqimi \mathfrak{I}_t va tushayotgan yorug'lik oqimi nisbatlari muhitning tiniqligini τ yoki yorug'lik o'tkazuvchanligini xarakterlar ekan

$$\tau = \frac{\mathfrak{I}_t}{\mathfrak{I}_0} = \ell^{-k_{\text{eto}} * c * \ell} \quad (14.2)$$

Qalinligi 1 sm bo'lgan qavatdan o'tgan yorug'lik, shu muhit uchun yorug'lik o'tkazish koeffitsienti deyiladi.

Yorug'lik o'tkazuvchanlikka teskari bo'lgan kattalikning logarifmi optik zichlik D deyiladi.

$$D = \lg \frac{1}{\tau} = \lg \frac{\mathfrak{I}_0}{\mathfrak{I}_t} \quad (14.3)$$

14.2. Neftning reologik xususiyatlari.

Neft tarkibidagi og'ir uglevodorodlarning miqdori, zichligi va qovushqoqligiga qarab reologik xususiyatlarga ham ega. Asfalten, mum, parafin va boshqa og'ir uglevodorodlar neft tarkibida katta miqdorda bo'lsa, bunday neftlarning qovushqoqligi keskin ortib, ketadi. Masalan, Surxondaryo viloyati konlaridagi neftning qovushqoqligi 0,2 - 0,5 Pa*s ni tashkil qiladi.

Qovushqoqlikning keskin ortib ketishi suyuqliklarda ba'zi qattiq jismlar xususiyatlarini paydo qilishi mumkin. Bu xususiyatlardan eng asosiysi suyuqliklar deformatsiyaga ega bo'lishidir. Suyuqlik maydonida kolloid zarrachalar hosil bo'lishidan deformatsiyaga xos jarayonlar yuzaga keladi.

Bu jarayonlar qatlam harorati pasayishi yoki qatlamga sovuq suv haydalishi bilan, ayniqsa, kuchayadi. Buning asosiy sababi, harorat pasayishi neft tarkibidagi parafinning kristallanishiga olib kelishidan iborat.


Parafinlardan farqli bo'lgan asfaltenlar esa o'z atrofida erigan uglevodorodlar pardasiga ega bo'lib, suyuqlik maydonida kolloid zarrachalarni hosil qilishi yuqori haroratlarda ham davom etishi mumkin. Erigan uglevodorodlar pardasini solvat qavat deb yuritiladi. Solvat qavatlarning qalinligi neft tarkibidagi mum konsentratsiyasining miqdoriga to'g'ri proporsionaldir. Solvat qavatlarning qalinlashishi (mumning miqdorini oshishi) natijasida, zarrachalar og'ir uglevodorodlar bilan suyulishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida suyuqlikning mexanik xossalari o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Reologiya - grekcha rheos - oqim, logos - o'rganish so'zlaridan olingan bo'lib, qaytmas deformatsiyasini o'rganadigan fan.

Neftning mexanik xususiyatlariga qatlamning to'zilishi ham ta'sir ko'rsatadi. Qatlamning qanday tog' jinslaridan tashkil topganligi, ularning donadorligi, o'tkazuvchanligi, to'zilishi neftning mexanik xossalarga ta'sir ko'rsatadi.

Neftda mexanik xossalarning paydo bo'lishi natijasida uning harakatiga siljish tezligi ta'sir ko'rsatadi. Suyuqliklarning harakatiga siljish tezligi ta'sir qilishi xuddi qattiq jismlarga ta'sir qilgandek ko'rinishga ega bo'ladi.

14.2 - rasmda mexanik xossalarga ega bo'lgan suyuqlikka siljish tezligining ta'siri ko'rsatilgan. Qandaydir juda kichik kanalchadan d_y harakat qilishni boshlagan (V), mexanik xossaga ega bo'lgan suyuqlikni ko'rib chiqaylik.



14.2-rasm. Suyuqlik qavatlarininig siljish kuchi ta'siridagi harakati

Harakat dy qalinlikdagi kanalchada bo'lib, unga o'qi yo'nalishida kuch ta'sir qildirsak, harakatsiz tomon to'xtab turgan holda (A nuqta), harakatli tomonda suyuqlik B nuqtadan V nuqtagacha harakatlangan bo'ladi. Agar V nuqta bilan A nuqta birlashsa mexanik xususiyatlarga ega bo'lgan suyuqlik harakati tezligining eyurasi hosil bo'ladi.

Shunday qilib, neftlarning reologik xossalari ularning alohida juda kichik qavatlaridagi konsistensiyasiga^{*)} bog'liq bo'ladi.

$$\frac{d\gamma}{dt} = f(\tau) \quad (14.4)$$

Reologik xossalarga ega bo'lgan suyuqliklarni nonyuton suyuqliklari deb ham yuritiladi. Nonyuton suyuqliklarning qovushqoqligi harorat, bosim va urinma kuchga bog'liq bo'lib, tezlik gradientiga to'g'ri proporsional ekan.

$$\tau = -\mu \frac{dV}{dy} \quad (14.5)$$

14.5 - tenglamani Gukning taranglik qonuniga binoan quyidagicha yozish mumkin

^{*)} Konsistensiya - eritma va quduq moddalarning quduq - suyuqligi, zichlik darajasi suyuqliklarga ta'sir etayotgan kuchi va siljish tezligi bilan bog'liq ekan.

$$\tau = -\mu \frac{dV}{dy} = \mu \frac{d}{dy} \left(-\frac{dx}{dy} \right) = \mu \frac{d}{dt} \left(-\frac{dx}{dy} \right) \quad (14.6)$$

Bu yerda: x - suyuqlikning tezlik yo'nalishi bo'yicha o'tgan masofasi;
 t - vaqt.

14.6 - tenglamani $\frac{dx}{dy}$ suyuqlikning qatlamlarni surilishini (deformatsiyasini)

xarakterlaydi. Bu tenglamadan suyuqliklar tezligi urinma kuchga to'g'ri va qovushqoqlikka teskari proporsional ekanligi kelib chiqadi, ya'ni

$$\frac{d\gamma}{dt} = \frac{\tau}{\mu} \quad (14.7)$$

Bu tenglamani suyuqliklar reologik tenglamasi deb yuritiladi.

Yuqorida keltirilgan tenglamalardagi $f(\tau)$ funksiyasining kattaligiga qarab suyuqliklar quyidagi uch turga bo'linadi: bingam plastikalari, psevdoplastiklar (psevido - grekchadan yolg'on degan ma'no beradi), va dilatant suyuqliklar. Bu suyuqliklarni tabiatda uchrashi, ularning xossalari va ular ustida olib borilgan tadqiqotlar haqida "Kolloid kimyo" kursida batafsil o'tiladi.

Bingam plastikalari, psevdoplastiklar, dilatant suyuqliklari va nonyuton- suyuqliklari konsistentligiga qarab har xil siljish kuchiga ega bo'lib, ularning o'zaro bog'liqliligi 14.3 - rasmda ko'rsatilgan.

14.3 - rasmda keltirilgan bog'liqliklardan bingam plastinkalariga tegishlisini ko'rib chiqaylik. Rasmdagi 1 - chiziq muvozanat holatidagi muayyan fazoviy to'zilishga va boshlang'ich siljish kuchiga τ_0 , qarshilik ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan bingam plastikiga tegishlidir. Bingam plastikiga ta'sir qilayotgan kuch boshlang'ich siljish kuchidan τ_0 oshgandan so'nggina u harakatga kelishi mumkin. Harakatlanish esa suyuqliklarning nome'yor qovushqoqligiga bog'liq bo'lib, bu qovushqoqlikni aniqlash uchun F.N.Shvedov quyidagi reologik tenglamani tavsiya qildi:

$$\eta_{\alpha} = E\lambda + \frac{\tau_1}{\upsilon} \quad (14.8)$$

Bu erda: E - Yung moduli;

τ_1 - dinamik kuch siljishi;


υ - deformatsiya tezligi;

λ - relaksatsiya¹⁾ davri.

relaksatsiya¹⁾ - moddaga tarang kuchlar ta'sirida hosil bo'lgan deformatsiyadan so'ng uni yana o'z holatiga qaytish jarayonini xarakterlovchi vaqtni bildiradi.

Quduq suyuqliklarning oqimini xarakterlash uchun Bingam tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\tau - \tau_0 = \eta_i \frac{dv}{dt} \quad (14.9)$$



14.3-rasm. Suyuqliklarning konsistentlik bog'liqligi.

1. Bingam plastikalari; 2. Psevdoplastiklar; 3. Nyuton suyuqliklari; 4. Diletant suyuqliklari.

14.3 - rasmning I chizig'iga yana bir nazar tashlasak, bingam suyuqligiga ta'sir qilayotgan urinma kuchining kattaligi τ_0 dan τ_1 gacha bo'lganda suyuqlik hali harakatsiz bo'ladi, ta'sir qiluvchi kuch τ_1 dan oshgandan so'nggina harakat kuchi ta'sir qilayotgan nuqtada boshlanishi mumkin. Urinma kuchning miqdori τ_m ga etgandan bingam plastigi to'liq harakatga keladi.

Shvedov (14.8) va Bingham (14.9) tenglamalari o'zaro o'xshash bo'lganligi uchun hisoblashlarda, ko'pincha, umumlashtirilgan Shvedov - Bingham tenglamasi ishlatiladi:

$$\tau = \tau_1 + \eta \left(\frac{dv}{dt} \right) \quad (14.10)$$

Bu yerda: τ_1 - dinamik siljish kuchi;

η - quduq suyuqlikning qovushqoqligi bo'lib, $\frac{dv}{dt} = f(\tau)$ ni (14.3 - rasmga qaralsin.)

to'g'ri chiziq qismini burchak koeffitsientiga teng bo'lgan kattalik.

14.3. Neft va gazning fizik xossalari o'rganish uchun ishlatiladigan apparatlar.

Neft va gaz konlarini ishga tushirishdan oldin, shu konlarning zaxiralari aniqlanib, konni ishlatish loyihasi to'ziladi. Bu ishlarni bajarish uchun neft va gazning hamma xossalari, kimyoviy tarkibi va fazaviy o'zgarishlari aniqlangan bo'lishi kerak. Buning uchun quduqlarga maxsus asboblardan tushirilib, neft yoki gaz namunasi olinadi va ular tajribaxonalarda tadqiqot qilinib, barcha fizik - kimyoviy xossalari aniqlanadi.


Quduqlarga tushirilib namuna oladigan asbobni namuna olgich (probootbornik) deb yuritiladi. Namuna olgichlarni turlari juda ko'p bo'lib, bir - biridan farqi konstruktiv to'zilishidadir. Shuningdek, qanday bosimgacha ishlatish mumkinligi bilan ham farq qiladi. Masalan, Moskvadagi VNIIneft instituti yaratgan namuna olgichi 30 MPa bosimgacha bo'lgan konlarda ishlatilsa, Bakudagi AzNIPIneft instituti yaratgan namunaoligich 100 MPa gacha bo'lgan bosimlarda ishlatilishi mumkin.

Namunaoligichlarni ishlatish quyidagicha amalga oshiriladi. Namunaoligichni quduqqa tushirishdan oldin maxsus soat murvatini 10 -15 daqiqadan (quduq chuqurligiga qarab) keyin ishga tushadigan qilib burab qo'yiladi. Namuna olgichning quduq tubiga tushgandan keyin, mo'ljallangan vaqt o'tgach, namuna olgichni suyuqlik kirituvchi qopqog'i ochiladi va namuna olgichning maxsus bo'lmasiga qatlam bosimi va haroratidagi suyuqlik kiradi. Bo'lma suyuqlik yoki gaz bilan to'lgandan so'ng namuna olgichni ko'tarish boshlangan zahoti bo'lmaning qopqog'i yopiladi.

Namunaoligichlar ishlash turiga qarab, asosan, ikki xil bo'ladi. Birinchi turdagi namunaoligichlarni yuqori va pastki (yoki kiruvchi va chiquvchi) qopqoqlari doimo ochiq bo'lib, bunday namunaoligich quduqqa tushirilayotganida uning ichidan suyuqlik o'tib turadi. Quduq tubiga yoki namuna olinishi kerak bo'lgan chuqurlikka yetgandan so'ng soat mexanizmi yoki mexanik ta'sir natijasida qopqoqlar yopiladi. Ikkinchi tur namunaoligichlarda qopqoqlar faqat quduq tubiga tushirilgandagina ochilib namuna olinadi va soat mexanizmi qopqoqlarni yopadi. (14.4 - rasm.)

Namunaoligichni yer ustiga neft yoki gaz namunasi bilan olib chiqilgandan keyin uning ichidagi namunani maxsus idishga (konteynerga) o'tkaziladi, konteynerda namunani uzoq masofaga olib borish mumkin (14.5 - rasm).


Namunaoligichdan namunani konteynerga o'tkazish juda katta ehtiyotkorlik talab qiladi, chunki ozgina xatolikka yo'l qo'yilsa, namunaning termodinamik (P, T) holatlari o'zgarishi mumkin. O'tkazish usulining mufassal tushintirilishi tajriba o'tkazish qo'llanmasida berilgan.



14.4 – rasm. Soat murvatli namunaolgich chizmasi

1-yuqori qopqoq; 2-yuqori qopqoq egarchasi; 3-tushirish mexanizmi richagi; 4-yuqori qopqoq to'rtkichi; 5-pastki qopqoq; 6-qulf sharchalari; 7-qulf muftasi; 8-pastki qopqoq egarchasi; 9,14-prujina; 10-soat murvati; 11-jo'va; 12-sirg'aluvchi gayka; 13-shtift; 15-yuqori qopqoq ignasi; 16-vtulka; 17-namuna to'planadigan bo'shliq.

Konteynerdagi namuna tajribaxonaga olib kelingandan keyin neft yoki gazlarni tekshiriladigan maxsus apparatlarda sinab ko'riladi.



14.5 – rasm. Namunani o'tkazish usuli.

1,5-o'tkazgichlar; 2-namunaolgich; 3-tebratgich; 4-murvat; 6-bosimo'lchagich; 7-iskanja; 8-ajratuvchi porshen; 9-konteyner; 10-ishchi suyuqlik yig'iladigan idish.

Neft ustida tajribalar olib borish uchun SAM - 300 M apparaturasi mavjud. Bu apparat ancha murakkab ishlangan bo'lib, qovushqoqlikni aniqlaydigan viskozimetr, maxsus iskanja, bir necha o'lchov asbob - uskunalari, elektryuritgich hamda gidro - va elektr sistemalaridan iborat. Bu apparatda neftning to'yinganlik bosimi, siqiluvchanlik koeffitsienti, gaz bilan to'yinganligi, zichligi, hajm koeffitsienti va kirishishi, qovushqoqligi kabi ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Bu apparatura hozir ancha mukammallashtirilib, ASM - 600 turida ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari UIPN (qatlamdagi neftni o'rganish uskunasi) apparati ham bo'lib, unda ham neftning fizik xossalari aniqlanadi.

Gaz ustida tajribalar olib borish uchun UGK - 3 apparati mavjud. Bu apparat ham ASM - 300 M apparatiga o'xshash bo'lib, unda tabiiy gaz va kondensatlarning deyarli hamma fizik xossalarini aniqlash mumkin. Shuningdek, gaz va kondensat xossalarini o'rganish uchun UFR - 2 apparati mavjud.

Neft, gaz va kondensatning fizik xossalarini o'rganish uchun gazoxromotografiya usulidan foydalaniladi. Bu usul tabiiy gaz va kondensatlar uzluksiz alohida har bir komponentni ajratib olishga asoslangan bo'lib, maxsus apparatura - xromotograflarda olib boriladi. Komponentlarning ajralishi maxsus qog'oz tasmaga avtomatik tarzda egri chiziqlar bilan chizib beriladi. Bu egri chiziqlar cho'qqisining balandligiga qarab uglevodorodlar turlarga ajratiladi.

Quduqlarga shuningdek, qatlamning bosimini, haroratini, neft, gaz va suv kelayotgan joylarini aniqlash uchun yana bir qancha maxsus asboblardan tushiriladi. Bularga bosimni va haroratni aniqlaydigan va chuqurlikda ishlaydigan bosimo'lchagich, harorato'lchagich, suyuqliklarni oqib kelish miqdorini aniqlaydigan miqdoro'lchagich kabi o'nlab har turli asboblardan ham mavjud. Bu asboblardan haqida tushunchalar "Neft konlarini ishlatish texnikasi" fanida batafsil beriladi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Neft xossalarini o'rganishning fotokolorimetriya usullarini o'rganish.
2. Neftning reologik xususiyatlari.
3. Neft va gazning fizik xossalarini o'rganish uchun ishlatiladigan apparatlar.

Glossariy

Fotokolorimetriya usuli - suyuqliklardan yorug'lik oqimi o'tayotganda, bu oqim suyuqlik bilan yutilishini o'lchashga asoslangan. Har xil suyuqliklarga bir xil yorug'lik nuri tushirilsa, ularning bu suyuqliklarda yutilishi (to'g'rirog'i so'nishi) har xil bo'ladi.

Neftning kalorimetrik xususiyatiga - (ya'ni yorug'lik yutishiga), uning tarkibidagi asfalt - mum moddalarining miqdori juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu moddalarning miqdorini o'zgarishidan neftning qovushqoqligi, zichligi va boshqa xossalari ham o'zgaradi. Shuning uchun ham neftning yorug'lik yutishini o'zgarishiga qarab, uning asosiy fizik - kimyoviy xossalarini o'zgarishini aniqlash mumkin.

Solvat qavat deb - erigan uglevodorodlar pardasini yuritiladi. Solvat qavatlarining qalinligi neft tarkibidagi mum konsentratsiyasining miqdoriga to'g'ri proporsionaldir. Solvat qavatlarining qalinlashishi (mumning miqdorini oshishi) natijasida, zarrachalar og'ir uglevodorodlar bilan suyulishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida suyuqlikning mexanik xossalari o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Reologiya - grekcha rheos - oqim, logos - o'rganish so'zlaridan olingan bo'lib, qaytmas deformatsiyasini o'rganadigan fan.

Reologik xossalarga - ega bo'lgan suyuqliklarni nonyuton suyuqliklari deb ham yuritiladi. Nonyuton suyuqliklarning qovushqoqligi harorat, bosim va urinma kuchga bog'liq bo'lib, tezlik gradientiga to'g'ri proporsional ekan.

Konsistensiya - eritma va quduq moddalarning quduq - suyuqligi, zichlik darajasi suyuqliklarga ta'sir etayotgan kuchi va siljish tezligi bilan bog'liq ekan.

Relaksatsiya - moddaga tarang kuchlar ta'sirida hosil bo'lgan deformatsiyadan so'ng uni yana o'z holatiga qaytish jarayonini xarakterlovchi vaqtni bildiradi.

Nazorat savollari.

1. Neft xossalarini o'rganishning fotokolorimetriya usulini izohlang.
2. Neftning kalorimetrik xususiyatiga (ya'ni yorug'lik yutishiga), uning tarkibidagi qanday moddalarining miqdori juda katta ta'sir ko'rsatadi.
3. Optik zichlik deb nimaga aytiladi.
4. Ber va Buger - Lambert - Ber qonunini izohlang.
5. Neftning reologik xususiyatlari deb nimaga aytiladi?
6. Yorug'lik oqimi intensivligi deb nimaga aytiladi?
7. Nonyuton suyuqliklar deb qanday suyuqliklarga aytiladi?
8. Konsistensiya nima?
9. Namunaolgichlar ishlash turiga qarab, asosan, necha xil bo'ladi.
10. Neft va gazning fizik xossalarini o'rganish uchun ishlatiladigan apparatlarning ishlash prinsipini tushuntiring.

15-MA'RUZA

Mavzu: Qatlam suvlarning fizik - kimyoviy xossalari.

Reja:

1. Qatlam suvlarning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish.
2. Kollektorlarning neft va qoldiq suvlar bilan to'yinganligini aniqlash usullari.

Adabiyotlar: (1,2,4,5,6,7)

Tayanch iboralar: Zichlik, issiqdan kengayish, siqiluvchanlik, qatlam hajm koeffitsienti, qovushqoqlik, sho'rli(rapa), erigan gaz, hajm koeffitsienti, kalsiy xlor tuzlari, magniy xlor tuzlari, natriy gidrokarbonat tuzlari, natriy sulfat tuzlari bo'lgan suvlar, Zaks S.L. asbobi.

15.1. Qatlam suvlarning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish.

Neft va gaz konlaridagi qatlam suvlarining fizik xossalarini aniq bilish konlarni eng maqbul usullar bilan ishlatish uchun kerak bo'ladi.

Qatlam suvlarning asosiy fizik xossalariga ularning zichligi, issiqdan kengayishi, siqiluvchanligi, qatlam hajm koeffitsienti, qovushqoqligi va asosiy kimyoviy xossasi - sho'rli kiradi.

Qatlam suvlarning zichligi unda erigan tuzlar miqdorining oshishi bilan ortib boradi. Shuning uchun qatlam suvining sho'rli giga qarab, zichligi juda keng ko'lamda o'zgarishi mumkin. Odatda neft va gaz konlaridagi suvlarning zichligi 1,00 dan 1,15 g/sm³ gacha o'zgarishi mumkin. Lekin ba'zan, qatlamlarda haddan tashqari juda sho'r ya'ni o'ta namakob suvlar ham uchraydi.

Masalan, 1970 yillardan boshlab G'arbiy O'zbekistondagi ba'zi bir neft va gaz konlarini burg'ilashda zichligi 1,32 - 1,36 g/sm³ gacha bo'lgan o'ta sho'r suv eritmaları (ruschada - rapa) uchraydi. Bunday suvlar quduqqa tushirilgan metall quvurlarni, shuningdek, burg'ilash asbob - uskunalarini tezlik bilan zanglash va yemirilishiga olib keladi, oqibat natijada, bunday quduqlardan foydalanish mumkin bo'lmay qoladi.

Qatlam suvlarining issiqlikdan kengayishi suvning issiqlikdan kengayishi koeffitsienti bilan xarakterlanib, u qatlam harorati o'zgarganda qatlam suvlarining qanchaga kengayishini bildiradi, ya'ni

$$E = \frac{1}{V} * \frac{\Delta V}{\Delta t} \quad (15.1)$$

Bu yerda: V - qatlam suvining oddiy sharoitdagi hajmi;

ΔV - harorat Δt ga o'zgarganda qatlam suvining o'zgargan hajmi.

Tajribalardan aniqlandiki, qatlam suvlarining issiqlikdan kengayish koeffitsienti $18 \cdot 10^{-5}$ dan $90 \cdot 10^{-5} \text{ } 1/^\circ \text{C}$ gacha o'zgarishi mumkin ekan. Odatda bu koeffitsient qatlam harorati ortib borishi bilan ortadi va bosim ortishi bilan kamayadi.

Qatlam suvining siqiluvchanligi ham siqiluvchanlik koeffitsienti bilan xarakterlanadi va qatlam bosimi o'zgarganda suvning hajmi qanday o'zgarishini bildiradi, ya'ni

$$\beta_c = \frac{1}{V} * \frac{\Delta V}{\Delta P} \quad (15.2)$$

Bu yerda: V - qatlam suvining oddiy sharoitdagi hajmi;

ΔV - bosim ΔP ga o'zgargandagi qatlam suvining o'zgargan hajmi.

Qatlam suvlarida siqiluvchanlik koeffitsienti erigan gazlar miqdori oshishi bilan ortib boradi. Qatlam sharoitda bu koeffitsient $3,7 \cdot 10^{-10}$ dan $5,0 \cdot 10^{-10} \text{ } 1/\text{Pa}$ gacha o'zgarishi mumkin. Erigan gaz miqdori ko'p bo'lsa, suvning siqiluvchanlik koeffitsienti quyidagi tenglamadan aniqlash mumkin:

$$\beta_{cr} = \beta_c (1 + 0,05S) \quad (15.3)$$

Bu yerda: β_{cr} - erigan gazi bor suvning siqiluvchanlik koeffitsienti;

β_c - chuchuk suvning siqiluvchanlik koeffitsienti;

S - suvda erigan gaz miqdori, m^3/m^3 .

Qatlam suvlarining hajm koeffitsienti, qatlam holatidagi suv hajmining standart holatdagi hajmiga bo'lgan nisbatini bildiradi,

$$b_c = \frac{V_{c.k}}{V_{c.c}} \quad (15.4)$$

Bu yerda: b_c - qatlam suvining hajm koeffitsienti;

$V_{c.k}$ - qatlam holatidagi suv hajmi;

$V_{c.c}$ - standart holatdagi suv hajmi.

Qatlam bosimining oshishi hajm koeffitsientini pasayishiga, haroratning oshishi esa bu koeffitsientning oshishiga olib keladi. Qatlam holatida hajm koeffitsienti uncha katta bo'lmagan oraliqda o'zgarishi mumkin. Odatda bu koeffitsient haroratning kattaligiga qarab 0,99 dan 1,06 gacha o'zgarishi mumkin.

Qatlam holatidagi suvlarning qovushqoqligi, asosan, harorat va erigan tuzlar miqdori bilan bog'liqdir. Haroratni ozgina oshishi ham qovushqoqlikni keskin pasaytirib yuboradi, lekin bosimning o'zgarishi qatlam suvlarining qovushqoqligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Agar qatlam suvlarida K_2CO_3 tuzlari ko'p bo'lsa, suvlarning qovushqoqligi bir muncha yuqori bo'ladi.

Qatlam suvlarining asosiy kimyoviy xossasiga undagi erigan tuzlar miqdori kiradi va shunga qarab, har xil turlarga bo'ladi. Odatda erigan tuzlarning elementiga qarab qatlam suvlarini V.A.Sulin to'rt turga ajratdi:

- kalsiy xlor tuzlari bo'lgan suvlar;

- magniy xlor tuzlari bo'lgan suvlar;
- natriy gidrokarbonat tuzlari bo'lgan suvlar;
- natriy sulfat tuzlari bo'lgan suvlar.

Neft va gaz konlarining qatlamlarida uchraydigan suvlarning 90 - 95 % ni xlor tuzlari bo'lgan suvlar tashkil qiladi, ulardan keyin keng tarqalgan suvlar gidrokarbonatli va eng kam tarqalgan sulfat suvlaridir.

Qatlamlardagi tuzlarning erigan miqdoriga qarab chuchuk, sho'r va namakobli suvlarga bo'linadi.

15.2. Kollektorlarning neft va qoldiq suvlar bilan to'yinganligini aniqlash usullari.

Kollektorlarning neft va suv bilan to'yinganligini aniq bilishga quduqlarni burg'ilash vaqtida olingan namunani (kern) loyqa eritma iflos qilganligi biroz halaqit beradi. Chunki loyqa eritmaning asosiy tarkibi suv bo'lgani uchun namunaning ichki qismiga loyqa suvning bir qismi shimilishi mumkin, bu esa namunaning haqiqiy to'yinganligini aniqlashda biroz xatoliklarga olib keladi.

Shuning uchun, namunani neft va suv ta'sir qilmagan qismidan biror to'g'ri geometrik shakl (odatda silindr) qirqib olinadi.

Namunaning suv yoki neft bilan to'yinganligini aniqlashni bevosita va bilvosita usullari mavjud.

Bevosita usulda neft yoki suv bilan to'yinganlikni aniqlash uchun namuna ichidagi suvni ajratib olib, namuna yaxshilab quritiladi va o'z og'irligini qanchalik yo'qotganligi aniqlanadi. Bu maqsadlarda Din va Stark yoki Zaks (15.1 - rasm) asboblaridan foydalaniladi.

Neft yoki suv bilan to'yinganlik odatda to'yinganlik koeffitsienti bilan xarakterlanadi. To'yinganlik koeffitsienti deb, neft yoki suv bilan to'yingan g'ovaklar hajmini umumiy g'ovaklar hajmiga bo'lgan nisbatiga aytiladi.


$$S_n = \frac{V_n}{V}; \quad S_g = \frac{V_g}{V}; \quad S_s = \frac{V_s}{V} \quad (15.5)$$

Bu yerda: S_n, S_g, S_s - mos ravishda neft, gaz va suv bilan to'yinganlik koeffitsienti;
 V_n, V_g, V_s - mos ravishda neft, gaz va suv bilan to'yingan g'ovaklar hajmi;
 V - umumiy g'ovaklar hajmi.

To'yinganlik koeffitsienti foizda yoki birlik ulushda o'lchanadi.

Suv bilan to'yinganlikni bevosita aniqlash usullaridan biri titrlash, ya'ni suv yoki neftni eritmaydigan modda bilan siqib chiqarish usulidir. Bunda namunadagi suv o'zida suv bo'lmaydigan spirtlar (metil, etil, izopropil) bilan siqib chiqariladi va to'yinganligi aniqlanadi.

Bilvosita usul bilan to'yinganlikni aniqlashning bir necha turlari mavjud.



15.1 – rasm. Tog' jinslarining neft, suv va gaz to'yinganligini aniqlash uchun ishlatiladigan Zaks S.L. asbobi

1 - sovutgich, 2 - suyuqlik yig'iladigan bo'lma, 3 - Shott voronkasi, 4 - kolba.

Ular quyidagi usullar:

- yarim o'tkazgich membrana;
- sentrifuga;
- simob haydash;
- bug'latish;
- xloridlash;
- elektro'tkazishni o'lchash;
- kapillyar shimilish;
- qoldiq kerosin bilan to'yintirish;
- fazaviy gaz o'tkazuvchanlik.

Bu usullarning deyarli hammasi qoldiq suvlarni namunadan siqib chiqarishga asoslangan bo'lib, faqat ana shu siqib chiqarishni amalga oshirish yo'llari bilan farq qiladi.

To'yinganlikni aniqlash usullari bilan amaliy tajribalarda mufassal tanishtiriladi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Qatlam suvlarning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish.
2. Kollektorlarning neft va qoldiq suvlar bilan to'yinganligini aniqlash usullari.

Glossariy

Qatlam suvlarning asosiy fizik xossalariga ularning - zichligi, issiqdan kengayishi, siqiluvchanligi, qatlam hajm koeffitsienti, qovushqoqligi va asosiy kimyoviy xossasi - sho'rliigi kiradi.

Neft va gaz konlaridagi suvlarning zichligi - 1,00 dan 1,15 g/sm³ gacha o'zgarishi mumkin. Lekin ba'zan, qatlamlarda haddan tashqari juda sho'r ya'ni o'ta namakob suvlar ham uchraydi.

Qatlam suvlarining - issiqlikdan kengayishi suvning issiqlikdan kengayishi koeffitsienti bilan xarakterlanib, u qatlam harorati o'zgarganda qatlam suvlarining qanchaga kengayishini bildiradi.

Qatlam sharoitda bu koeffitsient $3,7 * 10^{-10}$ dan $5,0 * 10^{-10}$ 1/Pa gacha o'zgarishi mumkin.

Qatlam suvlarining hajm koeffitsienti - qatlam holatidagi suv hajmining standart holatdagi hajmiga bo'lgan nisbatini bildiradi.

Odatda erigan tuzlarning elementiga qarab qatlam suvlarini V.A.Sulin to'rt turga ajratdi:

- kalsiy xlor tuzlari bo'lgan suvlar;
- magniy xlor tuzlari bo'lgan suvlar;
- natriy gidrokarbonat tuzlari bo'lgan suvlar;
- natriy sulfat tuzlari bo'lgan suvlar.

Neft va gaz konlarining qatlamlarida - uchraydigan suvlarning 90 - 95 % ni xlor tuzlari bo'lgan suvlar tashkil qiladi, ulardan keyin keng tarqalgan suvlar gidrokarbonatli va eng kam tarqalgan sulfat suvlaridir.

Qatlamlardagi tuzlarning erigan miqdoriga qarab - chuchuk, sho'r va namakobli suvlarga bo'linadi.

Bevosita usulda - neft yoki suv bilan to'yinganlikni aniqlash uchun namuna ichidagi suvni ajratib olib, namuna yaxshilab quritiladi va o'z og'irligini qanchalik yo'qotganligi aniqlanadi. Bu maqsadlarda Din va Stark yoki Zaks (15.1 - rasm) asboblaridan foydalaniladi.

Neft yoki suv bilan to'yinganlik odatda to'yinganlik koeffitsienti bilan xarakterlanadi.

To'yinganlik koeffitsienti deb - neft yoki suv bilan to'yingan g'ovaklar hajmini umumiy g'ovaklar hajmiga bo'lgan nisbatiga aytiladi.

Nazorat savollari.

1. Qatlam suvlarning fizik-kimyoviy xossalariga uning qaysi parametrlari kiradi.
2. Qatlam suvining zichligi deb . .
3. Qatlam suvining issiqlikdan kengayish koeffitsienti deb . . .
4. Qatlam suvining hajm koeffitsienti deb . . .
5. Qatlam suvining qovushqoqligi deb . . .
6. Qatlam suvlarining sho'rli (rapa) deb . . .
7. To'yinganlik koeffitsienti deb . . .
8. Odatda erigan tuzlarning elementiga qarab qatlam suvlarini V.A.Sulin necha turga ajratdi.

16-MA'RUZA

Mavzu: Qatlam suvlari tarkibini o'zgarishi.

Reja:

1. Qatlam suvlari tarkibining o'zgarishidan konlarni ishlatishda foydalanish.
2. Qatlamdagi "neft - suv", "gaz-suv" va "gaz-neft" tutash yuzalarining holati.

Adabiyotlar: (1,2,4,5,6,7)


Tayanch iboralar: Kalsiy karbonat (gips) tuzlar, Termodinamik o'zgarishlar, mikroorganizmlar, Zichlik, qovushqoqlik, quduq tashqarisida qatlam suvlarining xarakat yo'llari, qatlam suvlari sho'rli xaritalari, gravitatsion (yoki og'irlik) kuchlari.

16.1. Qatlam suvlari tarkibining o'zgarishidan konlarni ishlatishda foydalanish.

Qatlam suvlarining boshlang'ich tarkibi, konlar ishga tushgandan keyin sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. Bu o'zgarishlar, asosan, quyidagi sabablarga ko'ra bo'lishi mumkin:

1. Boshlang'ich termodinamik holatlar o'zgarishidan;
2. Konlarni ishlatish natijasida suvlarning kimyoviy tarkibi o'zgarishidan;
3. Quduqlar tubiga boshqa qatlamlarning suvlari sirqib kelishidan;
4. Konlarda issiqlik usullarini qo'llanib ishlatilishi natijasida.

Qatlam suvlarining boshlang'ich termodinamik holatlarini o'zgarishi qatlam bosimi va harorati o'zgarishidan kelib chiqadi. Bunday hollarda qatlamda kalsiy karbonat tuzlarini cho'kishga olib keladi.



Kalsiy karbonat (gips) tuzlarning cho'kishi suvlar tarkibini o'zgartirsada, lekin yana qayta erishi tufayli umumiy kalsiy tuzlarining miqdori kam o'zgaradi.


Termodinamik o'zgarishlar ko'proq bariy, kalsiy sulfat kabi tuzlar ajralib chiqishini va sho'rlanganlik darajasining oshishiga olib keladi.

Qatlam suvlarining tarkibini keskin o'zgarishiga, ayniqsa, konlarni ishlatish davridagi har xil usullar ko'p ta'sir qiladi. Masalan, qatlam bosimini saqlash maqsadida yuqoridan turib qatlamga suv haydaladi. Bu suv qatlamdagi suvlar bilan aralashib, ularning tarkibini keskin o'zgartirib yuborishi mumkin. Shuningdek, yuqoridan haydalayotgan suv tarkibida mikroorganizmlar ham mavjud bo'lib, past haroratlarda (50 °C gacha) neft bilan suv qatlam ichida tutashgandan keyin neft ichida rivojlanib, neftni oksidlanishga, uning zichligi va qovushqoqligi juda oshib ketib uni harakatsiz holga keltirib qo'yishi mumkin.

Qatlamlardagi suvlar tarkibining o'zgarishiga boshqa qatlam suvlarining aralashib ketishi ham sabab bo'lib, bu holat, asosan, quduqlarni tutib turuvchi metall quvurlar bilan sement halqa orasidan, yoki sement halqa bilan tog' jinsi orasidan sizib o'tishi natijasida bo'lishi mumkin (16.1 - rasm).

Boshqa qatlam suvlari aralashishi, ayniqsa, ko'p zarar keltirishi mumkin, chunki bu hollarda umuman tarkibi har xil bo'lgan suvlar aralashishi natijasida ko'plab tuzlar cho'kib, tog' jinsi g'ovaklari va kanalchalarini to'sib qo'yishi mumkin. Shuningdek, boshqa qatlam suvlari o'tgan yo'ldan gaz yoki neft ham boshqa qatlamlarga siljib o'tib, konning zaxiralarini ma'lum bir qismini yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

Qatlamlarni issiqlik usullarini qo'llab ishlatilganda ham qatlam suvlarining tarkibiy qismi o'zgarishi mumkin. Bu holat qatlam ichiga yuqoridan issiq suv, bug' haydalganida yoki quduq ostida maxsus isitgichlardan foydalanilganda ro'y berishi mumkin.



16.1 – rasm. Quduq tashqarisida qatlam suvlarining xarakat yo'llari.

- - Quduqni mustahkamlovchi – ajratuvchi quvur tashqi sirti bilan sement halqa orasidan o'tayotgan suv yo'li;
- ↳ - Sement halqa bilan tog' jinsi orasidan o'tayotgan suv yo'li.

Umuman qatlam suvlari tarkibining o'zgarishiga qarab, konni ishlatish jarayoni qay yo'sinda olib borilayotgani haqida so'z yuritish mumkin. Suv tarkibining o'zgarishiga qarab, maxsus qatlam suvlari sho'rligi xaritalari chiziladi. Bu xaritalardan qatlamdagi suv harakatining yo'nalishi, miqdori ortib borishini va har xil vaqtlarda chizilgan xaritalarga qarab, suv harakatini tezligini aniqlash mumkin.

Bu harakatning yo'nalishi va tezligiga qarab, quduqlarda suv yo'lini to'sish, ta'mirlash kabi ishlar olib boriladi.

16.2. Qatlamdagi "neft - suv", "gaz - suv" va "gaz - neft" tutash yuzalarining holati.

Qatlamdagi tutash yuzalarning holatini o'rganishni "neft - suv" tutash yuzasi misolida ko'rib chiqamiz.

Odatda har qanday tutash yuza yupqa parda holida bo'lmay, balki qandaydir qalinlikka ega. Agar shu tutash yuzadan bir muncha yuqori A yuzada 100 % sof neft bilan to'yingan qatlam bo'lsa, bir muncha pastroq B yuzada 100 % sof suv bilan to'yingan qatlam bo'ladi. (16.2 - rasm).

Yuqori yuzadan pastki yuzagacha bo'lgan masofada esa, yuqoridan pastga qarab sekin - asta neft bilan to'yinganlik kamayib borib, nihoyat pastki yuzaga yetganda nolga teng bo'ladi va aksincha, pastdan yuqorigi yuzagacha suv to'yinganligi sekin - asta kamayib borib nolga aylanadi.

Suv to'yinganligini yuqori yuzaga qarab kamayib borishi qatlamning to'zilishiga, uning donadorlik tarkibi, g'ovakligiga bog'liqdir. Shuningdek, suvning pastdan yuqoriga juda tor kanalchalardan ko'tarilishi shu kanalchalarning diametriga, suvning fizik - kimyoviy xossalariga, gravitatsion (yoki og'irlik) kuchlariga bog'liq ekan.



16.2 – rasm. «Neft - suv» tutash yuzasi holati sxemasi

Yuqori (A) va pastki (B) yuzalar orasini "neft - suv" tutash yuzasining (NSTU) o'tish zonasi deyiladi. Bu zonaning balandligini (pastki B yuzadan) aniqlash uchun geofizik usullar bilan bir qatorda, tajribalar orqali suv to'yinganligining kapillyar bosim bilan bog'liqligi orqali aniqlash mumkin. Bunda suvning kapillyarlardan ko'tarilishi shunday balandlikkacha bo'ladiki, bu balandlikda kapillyar bosim bilan suv balandligining gidrostatik bosimi o'zaro tenglashadi.

Ya'ni $P_k = P_{s.g}$, lekin $P_{c.r} = gh(\rho_c - \rho_H)$

bo'lgani uchun

$$P_{c.r} = gh(\rho_c - \rho_H) \quad (16.3)$$

Bu yerda: ρ_c va ρ_H - mos ravishda suv va neftning zichligi;

g - erkin tushish tezlanishi;

h - 100 % suv sathidan ko'tarilgan suv balandligi.

16.3 tenglamadan

$$h = \frac{P_b}{g(\rho_c - \rho)} \quad (16.4)$$

Ammo kapillyarlik bosimi (umumiy fizika kursida bu bosimni "Laplas bosimi" deb ham yuritiladi) suv to'yinganligi funksiyasi bo'lganidan $P_k = f(S_c)$, suvning ko'tarish balandligi ham to'yinganlik funksiyasiga bog'liq bo'ladi, ya'ni

$$h = \frac{f(S_c)}{g(\rho_c - \rho)} \quad (16.5)$$

Keltirilgan tenglamalardan ko'rinib turibdiki, suvning ko'tarilish balandligi asosan suv to'yinganligiga bog'liq ekan.

Ba'zi bir konlarda neft - suv tutash yuzasining qalinligi bir necha metrgacha yetishi mumkin. Shuning uchun ham, bu tutash yuzaning neft bilan to'yinganligi 30 % dan oshgan yuzasidan yuqoriroq qatlamini hisobga olish maqsadga muvofiq, aks holda neft zaxiralari noto'g'ri aniqlanadi va konni ishlatishda bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.

Ba'zi hollarda NSTY gorizontol holda bo'lmay, qiya holda ham bo'lishi mumkin. Bunday holat asosan qatlam suvlarining harakati, kollektorlarning o'tkazuvchanlik qobiliyati, donadorlik tarkibi va tog' jinsining qanday to'zilganligi kabi omillarga bog'liq bo'ladi. Bunday hollarda o'tish zonasi butun tutash yuza bo'yicha bir xil bo'lmasligi mumkin.

"Gaz - neft" tutash yuzasidan (GNTY) ham o'tish zonasi mavjud lekin (16.5) tenglamaning maxrajidagi zichliklar ayirmasi gaz - neft uchun ancha kattagina sonni tashkil qilgani uchun bu zona uncha katta qiymatlarga ega bo'lmaydi.

Odatda gaz - neft tutash yuzasidagi o'tish zonasi ham gravitatsion kuchlar, kapillyar bosim va neft - tog' jinsi - gaz sistemasining to'zilishi bilan bog'liq. Lekin qatlamda qoldiq suvlar ko'p bo'lsa, u holda o'tish zonasi bir muncha murakkab holda bo'lib, bu zonaning balandligini faqat taxminiy aniqlashga to'g'ri keladi. Chunki (16.5) tenglamadagi $f(S_c)$ kattalikka qoldiq suvlar ta'siri juda katta bo'lib, uni aniqlash hali mukammal o'rganilmagan.

Gaz - neft tutash yuzasidagi holatlar gaz - suv tutash yuzasida ham deyarli bir xil bo'lib, faqat kattaligi bilan farq qiladi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Qatlam suvlari tarkibining o'zgarishidan konlarni ishlatishda foydalanish.
2. Qatlamdagi "neft - suv", "gaz-suv" va "gaz-neft" tutash yuzalarining holati.

Glossariy

Termodinamik o'zgarishlar - ko'proq bariy, kalsiy sulfat kabi tuzlar ajralib chiqishini va sho'rlanganlik darajasining oshishiga olib keladi.

Qatlamlarni issiqlik usullarini - qo'llab ishlatilganda ham qatlam suvlarining tarkibiy qismi o'zgarishi mumkin. Bu holat qatlam ichiga yuqoridan issiq suv, bug' haydalganida yoki quduq ostida maxsus isitgichlardan foydalanilganda ro'y berishi mumkin.

Suv to'yinganligini - yuqori yuzaga qarab kamayib borishi qatlamning to'zilishiga, uning donadorlik tarkibi, g'ovakligiga bog'liqdir.

Suvning pastdan yuqoriga - juda tor kanalchalardan ko'tarilishi shu kanalchalarning diametriga, suvning fizik - kimyoviy xossalriga, gravitatsion (yoki og'irlik) kuchlariga bog'liq ekan.

Kapilyarlik bosimi - bu bosimni "Laplas bosimi" deb ham yuritiladi.

Nazorat savollari.

1. Qatlam suvlarining boshlang'ich tarkibi o'zgarishi qanday sabablarga ko'ra bo'lishi mumkin?
2. Qatlam suvlarining boshlang'ich termodinamik holatlari uning qaysi parametrlari o'zgarishidan kelib chiqadi?
3. Qatlamda kalsiy karbonat tuzlarini cho'kishiga nima sabab bo'ladi.
4. Termodinamik o'zgarishlar ko'proq qanday tuzlar ajralib chiqishini va sho'rlanganlik darajasining oshishiga olib keladi?
5. Kollektorlarning neft va qoldiq suvlar bilan to'yinganligini aniqlash usullarini izohlang.
6. Qatlamdagi "neft - suv", "gaz - suv" va "gaz - neft" tutash yuzalarining holati.

17-MA'RUZA

Mavzu: Uglevodorod sistemalarining fazoviy holatlari.

Reja:

1. Bir komponentli uglevodorodlarning fazoviy o'zgarishi.
2. Ikki va ko'p komponentli uglevodorodlarning fazoviy o'zgarishlari.

Adabiyotlar: (1,2,3,5,6,7)

Tayanch so'zlar: izotermik jarayon, shudring nuqtasi, kondensatsiya chizig'i, kritik nuqta, bosim, solishtirma hajm, gaz holati, aralash holati, suyuq holat, fazaviy o'tishlar chegarasi, uglevodorodlarning kritik chizig'i,

17.1. Bir komponentli uglevodorodlarning fazoviy o'zgarishi.

Neft, gaz va gazkondensat konlarini ishlatish davrida uzluksiz ravishda bosim o'zgarib turadi va buning natijasida uglevodorodlarning miqdori ham, ularning o'zaro nisbati ham o'zgarib turadi. Bu o'zgarishlarga ba'zan qatlam haroratining ham o'zgarishi sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bu o'zgarishlar faqat qatlam ichida bo'libgina qolmay, ayniqsa, quduq atrofi hamda quduq ichida bo'ladi. Uglevodorodlarning quduq ichidagi yuqoriga bo'lgan harakatida bosimning keskin o'zgarib borishi fazaviy holat o'zgarishlarini juda ham tezlatadi. Masalan, neft tarkibidagi gaz ajralib chiqib, quduq og'ziga kelganda uglevodorodlar oqimi juda ham maydalangan neft tomchilarini gaz oqimida aralashgan holda harakatlanishiga olib keladi. Xuddi shuningdek, uglevodorodlarni konda maxsus tayyorlash joyigacha quvurlarda bo'lgan harakatida ham turli fazaviy o'tishlar bo'lib turadi.

Bu fazaviy o'zgarishlar uglevodorodlarning gaz holatidan suyuq holatga yoki suyuq holatidan gaz holatiga beto'xtov o'tib turishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham bu o'zgarishlarni qay tarzda o'tib turishini aniq bilish muhim ahamiyatga egadir. Chunki bu fazaviy o'tishlarni konlarning loyiha hujjatlariga kiritish, ularning bosim va vaqt o'zgarishi bilan qanday o'zgarishi mumkinligini ko'rsatib o'tish lozim.

Uglevodorodlarning fazaviy o'tishlari bir komponentli yoki ko'p komponentlilikiga qarab, har xil jarayonlar orqali bo'lar ekan.


Bir komponentli uglevodorodlarning fazaviy o'zgarish jarayonlarini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, gazlar o'z holatini bosim va harorat o'zgarishi bilan o'zgartiradi. Bu o'zgarishlarda gaz hajmi o'zgarishi fazaviy o'zgarishlarning natijasi bo'lib hisoblanadi. Bosim o'zgarishi bilan hajm qanday o'zgarishini juda ko'plab tajribalarda tekshirilib ko'rildi. Bu tekshirishlar odatda izotermik jarayonda olib borilgan.

17.1 - rasmda bir komponentli /masalan,etan/ tabiiy gazning bosim bilan solishtirma hajm orasidagi uzviy o'zgarishlari $R=f(V)$ keltirilgan.

A nuqtada metan ma'lum bir shart-sharoitlarda $P=3,5 \text{ MPa}=12,5 \text{ m}^3/\text{kg}$, $T=15,5^\circ \text{ C}$ /bir fazali gaz holatda turgan bo'lsin.

Endi shu holatini izotermik ravishda, ya'ni haroratni o'zgartirmay turib bosimini oshiraylik. Bu holda gaz o'z hajmini kamaytirib boradi va B nuqtaga kelganda gazdan birinchi tomchi suyuqlik ajralib chiqadi. Ana shu nuqtani to'g'rirog'i shu nuqtaga to'g'ri keladigan termodinamik sharoitlarni, shudring nuqtasi deyiladi. Shudring nuqtasidan keyin fazaviy o'zgarishlar boshlanib, bosim o'zgarmagan holda faqat hajm o'zgarishi davom etadi. Bu vaqtda gaz holatidagi metan to'liq suyuq holatga o'ta boshlaydi va bu jarayon V nuqtagacha davom etadi. V nuqtada gaz holatidagi metanning suyuq holatga o'tishi tugallanadi va bundan keyingi jarayon hajm o'zgarmagan holda bosimning keskin oshib ketishi bilan yakunlanadi.



17.1.-rasm. Etanning bosim-hajm fazaviy o'zgarishini tasviri.

Endi xuddi shu jarayonni yana bir marta qaytarib ko'raylik. Faqat bu galgi fazaviy o'zgarish jarayonini boshlang'ich harorat yuqoriroq, masalan $32,2^\circ \text{ C}$ da A_1 nuqtadan boshlaylik. Bunda ham xuddi yuqoridagidek, B_1 nuqtaga yetgandan so'ng birinchi suyuq tomchi hosil bo'lib, keyingi jarayonlar bosim o'zgarmagan holda hajm kamayib borib, gaz holatdan suyuq holatga o'tish ro'y beradi. Bu jarayon V_1 nuqtada gazning to'liq suyuq holatga o'tish bilan tugallanadi. Xuddi shuningdekt, 17.1.-rasmda bu fazaviy o'zgarishlar yanada yuqoriroq haroratlar uchun keltirilgan. Keltirilgan rasmdan ko'rinib turibdiki, fazaviy uzgarishlar harorat ortib borgan sari yuqoriroq bosimdan boshlanar ekan. Gaz holatdan suyuq holatga o'tish jarayoni esa faqat hajm o'zgarishi, ya'ni kamayishi bilan davom etar ekan.

Agar shu jarayonni endi teskari yo'nalishda ko'rib chiqsak, III zonadagi suyuq holatdagi uglevodorodning sekin-asta bosimini kamaytirib borsak, $V/V_1, V_2$ va h.k./ nuqtaga kelganida suyuqlikdan birinchi gaz pufakchasi ajralib chiqadi. Shundan keyingi jarayon yana bosim o'zgarmagan holda faqat hajm o'zgarishi bilan davom etadi.

Nihoyat, B / B_1, B_2 va h.k./ nuqtalarda suyuq holatdagi uglevodorod to'liq gaz holatiga o'tishi tugallanadi.

Shunday qilib, bu jarayonlar har ikki tomonga fazaviy o'tishlar mumkinligini ko'rsatadi va bu o'tishlarda I zona gaz holati, II zona aralash holatni va III zona suyuq holatni ko'rsatar ekan.

Yuqori haroratlarga o'tgan sari gaz holatdan suyuq holatga o'tish davri qisqarib borib, oxiri faqat bir nuqtada S to'liq o'tish holatiga kelib qolishi mumkin.

Agar endi B, B₁, B₂... va V, V₁, V₂... nuqtalarini S nuqta bilan birlashtirsak VSBU egri chizig'i hosil bo'lib, bu chiziq fazaviy o'tishlar chegarasi deb aytiladi. Bunda SB egri chizig'i kondensatsiya chizig'i deyiladi. Ba'zan SB chizig'ini shudring chizig'i ham deyiladi. SV egri chizig'ini esa bug'lanish /agar jarayon suyuq holatdan gaz holatiga o'tayotgan bo'lsa/ chizig'i deb yuritiladi. S nuqtada esa shudring chizig'i bilan bug'lanish chizig'i birlashib ketadi va bu nuqta kritik nuqta deb yuritiladi.

II zonadagi suyuq va gaz holatning o'zgarish haroratda mavjud bo'lishi, bosim shu zonadagi bug'larning taranglik bosimiga teng bo'lgandagina bo'lishi mumkin.

Uglevodorodlarning bir holatdan ikkinchi bir holatga fazaviy o'tishlarini bosim bilan harorat orasidagi bog'lanishlar orqali ham ko'rib chiqish mumkin.


17.1.-rasmda uglevodorodlarning fazaviy holatini bosim va harorat o'zgarishi $R=f/T$ orqali ko'rsatilgan.

17.1.- rasmdagi OS egri chizig'i to'yingan bug' tarangligi bosimini ko'rsatib, bir vaqtning o'zida bug'lanish va shudring nuqtalari egri chizig'iga ham mos keladi. Shuning uchun OS egri chizig'i uglevodorodlarning kritik chizig'i deb yuritiladi. Bu chiziq ustidagi bosim va haroratlarda uglevodorodlar bir vaqtning o'zida ham suyuq, ham gaz holatda aralashma shaklida mavjud bo'ladi.

17.2. Ikki va ko'p komponentli uglevodorodlarning fazaviy o'zgarishlari.

Uglevodorodlarning fazaviy o'zgarishida komponentlar soni ikki yoki undan ko'p bo'lgan holda, o'ziga xos holatlar ro'y beradi. Odatda ikki komponentli fazalarni binar komponentlar deb ham yuritiladi. Binar komponentlarning fazaviy o'zgarishini batafsil ko'rib chiqamiz.

17.2.-rasmda binar komponentlarning /masalan pentan -47,6 % va heptan -52,4 %, fazaviy o'zgarish holati $R=f/V$ keltirilgan.



17.2-rasm. Ikki komponentli uglevodorodlarning fazaviy o'tish diagrammasi

a) 52,4 % heptan va 47,6 % pentandan iborat bo'lgan ikki komponentli uglevodorodning bosim-solishtirma hajm bog'liqligining har xil haroratlarda olingan diagrammasi;

b) etan va n - heptan aralashmasidan iborat bo'lgan uglevodorodlarning bosim - harorat bog'liqliligi diagrammasi. Diagrammadagi S^I, S^{II}, C^{III} chiziqlari mos ravishda etanning 90,22; 50,...25 va 9,80 % miqdordagi aralashmasiga to'g'ri keladi.

I-bug'lanish chizig'i; 2-shudring chizig'i.

Bir fazali komponentlarga nisbatan binar komponentli gazlarning fazaviy o'zgarishi shudring nuqtasidan o'tganidan keyin ham bir vaqtning o'zida hajm va bosimning o'zgarishi bilan davom etar ekan.

Ya'ni iki fazali holatda /gaz va suyuqlik/ bir fazadan ikkinchi fazaga o'tish jarayoni uzluksiz ravishda bosim va hajm o'zgarishi bilan bo'lar ekan. 17.2.- b rasmdan ko'rinib turibdiki, kondensatsiya /yoki shudring/ chizig'idan o'ng tomondagi holat bir komponentli gazlarnikiga o'xshash, shuningdek, bug'lanish chizig'idan chap tomondagi holat ham bir komponentli gazlarning fazaviy holatiga o'xshash bo'lib, faqat shu ikki kritik chiziq orasidagi o'tish holatida farq bor ekan.

Bu farqning sababi quyidagicha - agar binar komponentli gazning har bir komponentining alohida fazaviy o'tishini ko'rib chiqsak, xuddi 17.1.- rasmdagidek holda o'tadi, lekin o'tish jarayoni geptan uchun bir bosim va hajmda bo'lsa, pentan uchun boshqa bir bosim va hajm sharoitida o'tishi mumkin. Endi har ikkala komponentning fazaviy o'tish jarayonini taqqoslab, ulardan binar gaz uchun umumiy diagramma chizilsa, bu diagramma 17.2.- rasmdagi holda bo'ladi.

Shunday qilib, binar yoki ko'p komponentli gazlarda fazaviy o'tishlar yuqoriroq bosimda boshlanib, kritik nuqtalari va kritik chiziqlari bir komponentli gazlarga nisbatan yuqori bosimlarga mos kelar ekan.

Bu jarayonlar ham har ikki yo'nalishda ro'y berishi mumkin, ya'ni gaz holatdan suyuq holatga o'tishi va aksincha, bo'lishi mumkin.

17.2.- b rasmda A egri chizig'i sof etan uchun mos keladigan kritik holat chizig'i bo'lsa, V egri chizig'i sof N- geptan uchun kritik holat chizig'i. A_1V_1 , A_2V_2 va A_3V_3 egri chiziqlari esa boshlang'ich tarkibida mos ravishda 90,22, 50,25 va 9,8 % ni tashkil qilgan uglevodorodlardan iborat bo'lgan aralashmaning kritik holatini aks ettiruvchi egri chiziqlardir. Bu yerdagi S^I , S^{II} , C^{III} nuqtalari shu egri chiziqdagi mos keluvchi kritik nuqtalar bo'lib, agar endi etanni kritik nuqtasi S_2 va N- geptanni kritik nuqtasi S_7 ni shu S^I , S^{II} , C^{III} nuqtalar orqali birlashtirilsa, uglevodorodlar aralashmasining kritik holatini xarakterlovchi egri chiziqni hosil qiladi, A_1S^I , A_2S^{II} va A_3S^{III} egri chiziqlari aralashmaning qaynash chizig'ini tashkil qilib, bu chiziqlardan uqori va chap tomonda uglevodorodlar suyuq holatda bo'ladi.

V_1S^I , V_2S^{II} va V_3S^{III} egri chiziqlari aralashmaning shudring chizig'i bo'lib, bu chiziqlardan past va o'ng tomonida uglevodorodlar gaz holatda bo'ladi. Bu chiziq orasida esa ikki fazali holat mavjud bo'ladi.

Shunday qilib, aralashmalar uchun kritik holatni xarakterlovchi bosim va harorat orasidagi bog'lanish murakkab bo'lib, asosan, aralashmaning boshlang'ich tarkibiga bog'liq ekan.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Bir komponentli uglevodorodlarning fazoviy o'zgarishi.
2. Ikki va ko'p komponentli uglevodorodlarning fazaviy o'zgarishlari.

Glossariy

Izotermik ravishda - ya'ni haroratni o'zgartirmay turib bosimini oshiraylik. Bu holda gaz o'z hajmini kamaytirib boradi va B nuqtaga kelganda gazdan birinchi tomchi suyuqlik ajralib chiqadi. Ana shu nuqtani to'g'rirog'i shu nuqtaga to'g'ri keladigan termodinamik sharoitlarni, shudring nuqtasi deyiladi. Shudring nuqtasidan keyin fazaviy o'zgarishlar boshlanib, bosim o'zgarmagan holda faqat hajm o'zgarishi davom etadi. Bu vaqtda gaz holatidagi metan to'liq suyuq holatga o'ta boshlaydi va bu jarayon V nuqtagacha davom etadi. V nuqtada gaz holatidagi metanning suyuq holatga o'tishi tugallanadi va bundan keyingi jarayon hajm o'zgarmagan holda bosimning keskin oshib ketishi bilan yakunlanadi.

Ikki komponentli fazalarni - binar komponentlar deb ham yuritiladi.

Termodinamik o'zgarishlar - ko'proq bariy, kalsiy sulfat kabi tuzlar ajralib chiqishini va sho'rlanganlik darajasining oshishiga olib keladi.

Kapillaryarlik bosimi - bu bosimni "Laplas bosimi" deb ham yuritiladi.

Nazorat savollari.

1. Fazaviy o'zgarishlar uglevodorodlarning qanday holatga o'tishi bilan xarakterlanadi.
2. Shudring nuqtasi deb nimaga aytiladi?
3. Etanning bosim-hajm fazaviy o'zgarish tasvirini izohlang.
4. Fazaviy o'tishlar chegaras deb nimaga aytiladi.
5. Binar komponentlarning fazaviy o'zgarishni izohlang.
6. Ikki komponentli uglevodorodlarning fazaviy o'tish diagrammasini izohlang.

18-MA'RUZA

Mavzu: Ko'p komponentli uglevodorod aralashmalarining kritik xususiyatlari.

Reja:

1. Ko'p komponentli uglevodorod aralashmalarining kritik holatdagi xususiyatlari.
2. Gaz namligining uglevodorodli fazaviy o'zgarishlariga ta'siri.

Adabiyotlar: (1,2,3,5,6,7)

Tayanch so'zlar: Binar komponentlar, bosim - solishtirma hajm, bug'lanish chizig'i, shudring chizig'i, suyuq va gaz holat, kritik nuqta, krikondentem , retrograd hodisalari, SNVS, ikkilangan kondensasiya jarayonlari.

18.1. Ko'p komponentli uglevodorod aralashmalarining kritik holatdagi xususiyatlari.

Binar va ko'p komponentli uglevodorodlar aralashmalari kritik chiziqlari atrofida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ma'lumki, kritik chiziqda bir komponentli uglevodorodlar suyuq va gaz holda bo'lib, bu chiziq eng yuqori bosim va harorat bilan xarakterlanadi. Bundan yuqori bosim va haroratda uglevodorodning ikki xil fazada, ya'ni suyuq va gaz holatda bo'lishi mumkin emas.

Lekin binar va ko'p komponentli sistemalarda kritik nuqta faqat suyuq va gaz holatdagi fazalarni xususiyatlarini xarakterlaydi xolos. Ikki kritik chiziqlar - shudring va bug'lanish chiziqlari, kesishgan S nuqta atrofida shunday zona paydo bo'ladi, bu zonada ikki fazali holat kritik bosim va haroratdan yuqori qiymatlarida ham bo'lishi mumkin.


Aralashmadagi uglevodorodlarning fizik-kimyoviy xususiyatlariga qarab, bosim - harorat diagrammasida katta farq hosil bo'ladi.

Bu farq asosan shudring chizig'i bilan bug'lanish chizig'ining o'zaro bir-biri bilan mos kelmasligidan kelib chiqadi. Bu farqga aralashmaning boshlang'ich tarkibi ham katta ta'sir qiladi.

Aralashmalarning kritik holatini xarakterlovchi «bosim- harorat P-T va bosim solishtirma hajm P-V» bog'lanishlarining kritik chiziqlari atrofida juda murakkab jarayonlar bo'lib o'tadi.

Avval aytib o'tilganidek, 17.1.-17.2. rasmlardagi S nuqtada shudring chizig'i bilan qaynash chizig'i uchrashib, bu kritik nuqta suyuq va gaz holatidagi ikki fazali aralashmaning shiddatli xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Endi aralashmaning «bosim - solishtirma hajm» bog'lanish kritik chizig'i atrofida bo'lib o'tgan jarayonlar bilan yaqindan tanishib chiqaylik.



18.1.-rasm. Ko'p komponentli uglevodorod aralashmalarining kritik chiziq atrofidagi izotermalari sxemasi.

- I - bug'lanish egri chizig'i; 2- shudring egri chizig'i.
- P^1 - kritik chizig'idagi eng katta bosim;
- P_s - kritik nuqta bosimi;
- T - kritik chizig'idan tashqaridagi eng katta harorat;
- T^1 - kritik chizig'idagi eng katta harorat;
- T_s - kritik nuqta harorati;
- T_2 - kritik chizig'idagi eng yuqori bosimga mos keladigan harorat;
- T_1, T_3 - kritik nuqta atrofidagi zonaning haroratlari.

18.1- rasmdan ko'rinib turibdiki, S kritik nuqtadagi bosim va harorat bu nuqtada eng yuqori qiymatlarga ega bo'lishi shart emas ekan. Haqiqatan ham, agar bosim maksimal bosimdan P^1 biroz kichik lekin kritik bosimdan P_s biroz katta bo'lsa, ya'ni E va G nuqtalarga mos kelsa, bunday holda kritik holatdagi sistemada gaz fazasi paydo bo'ladi, ammo bu gaz fazasi suyuq faza bilan muvozanat holatini saqlab qoladi. Bunday holat 18.1- rasmdagi ADSA zonasiga tegishlidir. Sxemada keltirilgan haroratlarda $T > T^1 > T_s > T_z > T_2 > T_1$ munosabat mavjud.

Xuddi shuningdek, SNVS zonasida ham aynan shunday holat bo'ladi. Ya'ni harorat maksimal T_1 haroratdan biroz kichik va kritik T_s haroratdan biroz katta bo'lgan holatlarda ham kritik holatdagi aralashmada gaz fazasi paydo bo'lib, suyuq faza bilan muvozanat holatini saqlab qoladi.

Agar sistemada eng yuqori P^1 bosimda /rasmdagi D nuqta/ bir vaqtning o'zida suyuq va bug' holatdagi fazalar mavjud bo'lsa, bunday bosimni kritikondobar bosim deb ataladi. Eng yuqori haroratda T^1 /rasmda N nuqtaga tegishli/ suyuq va bug' holatdagi fazalar mavjud bo'lsa, bunday harorat kritikondenterm deb yuritiladi.

Kritik bosim va haroratlardan yuqori bo'lgan qiymatlarda ko'p komponentli aralashmalarda odatdan tashqari fazaviy o'tishlar ro'y berishi mumkin. Masalan, E nuqtadan F nuqttagacha /EG chizig'i bo'yicha/ bo'lgan fazaviy o'zgarishlar bilan yaqindan tanishib chiqaylik.

Uglevodorodlar aralashmasi E nuqtada ham suyuq, ham bug'simon bo'lib, muvozanat holatda turgan bo'ladi. Endi bosimni o'zgartirmasdan turib haroratni oshirsak, T_1 dan T_3 gacha EG' chizig'i bo'ylab, u holda avvaliga gaz fazasining hajmi orta boshlaydi, nihoyat maksimumga erishgach, yana kamaya boshlaydi. Bu vaqtni o'zida murakkab fazaviy o'tishlar jarayoni ham sodir bo'ladi. Nihoyat, haroratni T_3 ga yetkazganimizda, ya'ni G' nuqtaga yetib kelganda yana uglevodorod aralashmasi ikki fazali bir xil muvozanatdagi holga keladi. Shunday

qilib, E va G' nuqtalarda uglevodorod aralashmasining holati kritik xususiyatlar bilan xarakterlansa, EG' chizig'i ustida esa fazalar orasidagi muvozanat biroz o'zgarib, murakkab o'tishlar jarayoni bilan xarakterlanar ekan.


Kritik zonadan yuqori parametrlarda bo'ladigan bunday murakkab jarayonlar, odatda qayta bug'lanish va qayta kondensatsiyalash bilan davom etadi. Bunday jarayonlar retrograd hodisalari deb ataladi va asosan, gazkondensat konlarida ro'y berishi mumkin.

18.2. Gaz namligining uglevodorodli fazaviy o'zgarishlariga ta'siri.

Uglevodorodlar tarkibida, avval aytib o'tganimizdek, ma'lum bir miqdorda suv bug'lari bo'lib, gazlar namlangan holatda bo'lar ekan. Gazlar namligi ularning fazaviy o'tishlariga ham ta'sir ko'rsatar ekan.

Bu ta'sir qay darajada bo'lishi tajribalar orqali aniqlanadi. Masalan, 17.2-rasmda keltirilgan pentan va heptandan iborat bo'lgan aralashmaning fazaviy o'tishini, shu aralashmada suv bug'lari mavjud bo'lganda qay darajada bo'lishini ko'rib chiqaylik.

Nam holatdagi aralashma A nuqtadan B nuqtaga keltirilgan holda ham aralashmadan birinchi tomchi suyuq uglevodorod ajralib chiqmas ekan, vaholanki, agar aralashmada suv bug'lari bo'lmaganda, aynan shu nuqtadan fazaviy o'tishlar boshlangan bo'lar edi. Namlangan aralashma uglevodorodlarning fazaviy o'tishlar boshlanish nuqtasi bir muncha yuqoriroq bosimdan boshlanar ekan. (18.2-rasm)



18.2.-rasm. Namlangan uglevodorodlarning fazaviy o'tish grafigi.

1. Quruq uglevodorodning fazaviy o'tish chizig'i;
2. Namlangan uglevodorodning fazaviy o'tish chizig'i.

Birinchi tomchi ajralib chiqishi B^1 nuqtada boshlanib, V^1 nuqtada tugallanar ekan, natijada fazaviy o'tish jarayonlari, gazlar namlangan holda bo'lsa, yuqoriroq bosimda boshlanib, to'liq fazaviy o'tishi ham yuqoriroq bosimda tugallanar ekan.

Bunday xulosa o'z navbatida konlarni ishlatishda muhim ahamiyatga ega. Gazkondensat konlarini ishlatishda, agar uglevodorodlar namlangan holda bo'lsa, demak ularda fazaviy o'tishlar namlanmagan uglevodorodlarga nisbatan ancha vaqtliroq boshlanar ekan. Bu esa o'z navbatida uglevodorodlar tarkibidagi eng muhim bo'lgan kondensatlarning qatlam ichida qolib ketishiga va olib bo'lmas yo'qotishlarga olib keladi.

Shuning uchun ham uglevodorodlarning namlik miqdorini oldindan aniqlab, ularning fazaviy o'tishlari qaysi bosimda boshlanib, qachon tugashini aniq bilib olish zarur. Shundagina gazkondensat konlarini ishlatishda olib bo'lmas yo'qotishlarni kamaytirish yo'llariga oldindan tayyorgarlik ko'rib qo'yish mumkin.

Uglevodorodlar namlangan holda bo'lganida, fazaviy o'tishlar faqat uglevodorodlarning gaz holatidan suyuq holatiga o'tish bilan chegaralanib qolmay, balki suv bug'larining ham bug' holatidan suyuq holatiga aylanish jarayonlari bilan birgalikda bo'lib o'tadi. Bunday holat o'tishlarini ikkilangan kondensasiya jarayonlari deb yuritiladi.

Bu jarayonlar, asosan, gazkondensat konlarida ro'y berishi mumkin.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Ko'p komponentli uglevodorod aralashmalarining kritik holatdagi xususiyatlari.
2. Gaz namligining uglevodorodli fazaviy o'zgarishlariga ta'siri.

Glossariy

Ikki komponentli fazalarni - binar komponentlar deb ham yuritiladi.

Agar sistemada eng yuqori P^1 bosimda bir vaqtning o'zida suyuq va bug' holatdagi fazalar mavjud bo'lsa, bunday bosimni - **krikondenbar bosim deb ataladi**.

Eng yuqori haroratda T^1 suyuq va bug' holatdagi fazalar mavjud bo'lsa, bunday harorat - **krikondenterni deb yuritiladi**.

Uglevodorodlar namlangan holda bo'lganida, fazaviy o'tishlar faqat uglevodorodlarning gaz holatidan suyuq holatiga o'tish bilan chegaralanib qolmay, balki suv bug'larining ham bug' holatidan suyuq holatiga aylanish jarayonlari bilan birgalikda bo'lib o'tadi. Bunday holat o'tishlarini **ikkilangan kondensasiya jarayonlari deb yuritiladi**. Bu jarayonlar, asosan, gazkondensat konlarida ro'y berishi mumkin.

Nazorat savollari.

1. Ko'p komponentli uglevodorod aralashmalarining kritik chiziq atrofidagi izotermalari sxemasini izohlang.
2. Krikondenbar bosimi deb . . .
3. Retrograd hodisalari deb . . .
4. Ko'p komponentli uglevodorod aralashmalarining kritik chiziq atrofidagi izotermalari sxemasini izohlang.
5. Gazlar namligi ularning fazaviy o'tishlariga qanday ta'sir ko'rsatadi.

19- MA'RUZA

Mavzu: Gaz kondensat konlarining xarakteristikasi.

Reja:

1. Gaz kondensat konlarining xarakteristikasini tahlil qilish.
2. Fazaviy muvozanatning doimiy miqdori va uni aniqlash usullari.
3. Kirishadigan neftlar uchun aniqlangan fazalar muvozanatini o'zgarimas koeffitsiyentini o'rganish.

Adabiyotlar: (1,2,4,5,7)

Tayanch so'zlar: Dalton-Raul qonuni, parsial bosim, tajriba yo'li, hisoblash yo'li, kirishadigan neftlar, empirik tenglama, uchuvchanlik va aktivlik koeffitsientlari.

19.1. Gaz kondensat konlarining xarakteristikasini tahlil qilish.

Gazkondensat konlari o'zlarining murakkabligi bilan alohida o'rinni egallaydi. Chunki bunday konlarda ham gazsimon, ham suyuq holatdagi uglevodorodlar to'plami mavjud bo'lib, ularni ishlatishda nihoyatda tadbirkorlik bilan ish yuritilmasa, suyuq holatdagi eng yengil uglevodorodlar - kondensatlarning ko'p qismi yer ostida qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday konlarni ishlatish yo'llarini tanlashda, konlarni loyihasini to'zishda va keyinchalik ularni ishlatishda, konlardagi gaz va kondensatlarni tayyorlaydigan asbob-uskunalarini hamda quduqlarni ishlatishda eng maqbul ish uslublarini tanlashda gazkondensat konlariga tegishli hamma omillarni aniqlash zarur.

Shuning uchun ham gazkondensat konlarini texnologik sxemalarini ishlatish loyihalarini to'zishda va ishlatishda ana shu omillar asosiy hal qiluvchi vazifani o'taydi. Gazkondensat konlarni xarakterlovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

1. Tabiiy gaz tarkibi va undagi kondensat miqdori.
2. Uglevodorodlarning kondensatsiya boshlanishi bosimi va maksimal kondensatsiya bosimi.
3. Gazkondensat sistemasining qatlamdagi fazaviy holati.

4. Qatlam holatidagi gazning kondensasiyalanish izotermalar grafigi.

5. 1 m³ gazdan har xil bosim va haroratlarda ajralib chiqadigan kondensat miqdori va uning tarkibi.

6. Gazkondensat konini, qatlam bosimini saqlash usullarini qo'llanilmasdan ishlatilganda qancha kondensat yo'qotilishi mumkinligi bosim o'zgarishiga qarab, konni ishlatish davrini oxirgacha bo'lgan miqdori.

7. Qatlamda bosim kamayishi bilan gazdan olinishi mumkin bo'lgan kondensat miqdori va uning tarkibi.

Bu omillarni konni to'liq ishga tushirishdan oldin aniq bilish, asosan konni jihozlash asbob - uskunalarini tanlab olish uchun kerak bo'ladi. Sanoatda ishlab chiqarilayotgan gaz ajratgichlar, gaz quritgichlar, tindirgichlar va boshqa asbob-uskunalar, kon anjomlari har xil shart-sharoitlarga mo'ljallangan bo'lib, juda keng ko'rsatkichlarga ega. Shuning uchun bulardan faqat ishlatilayotgan konga to'g'ri keladigan asbob-uskuna va jihozlarni tanlab olish uchun yuqorida aytib o'tilgan omillarni aniq bilish zarur.

Bu omillardan tashqari tajribalar orqali gazkondensatining fazaviy o'tish jarayonlari aniqlanadi. Bu fazaviy o'tishlarni qatlam holatida, quduq ichida yig'uvchi quvurlarda va gaz ajratgichlarda qanday bo'lishligi aniqlanadi. Bu jarayonlarni aniqlash uchun maxsus asboblardan foydalaniladi.

19.2. Fazaviy muvozanatning doimiy miqdori va uni aniqlash usullari.

Gazkondensat konlarining xususiyatlari, asosan, tajribaxona asboblarida har xil tajribalar orqali aniqlangani tufayli juda murakkab jarayon bo'lib, asbob-uskunalarining ozgina nosozligi yoki keltirilgan namunaning sifatsizligi natijasida ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. Ayniqsa, gazkondensat tizimlarining juda katta haroratlar oralig'ida qaynashi, ular uchun birorta aniq hisoblash usullarini qo'llashga imkoniyat bermaydi. Shuning uchun ham uglevodorodlarning fazaviy o'tish jarayonlarini oldindan aytib berish uchun taqribiy usullarni qo'llash mumkin.

Odatda uglevodorodlarning murakkab fazaviy holatlari Dalton-Raul qonuniga asoslanadi, ya'ni

$$P_{y_i} = x_i Q_i \quad (19.1.)$$

Bu yerda: P-uglevodorod aralashmasining umumiy bosimi;

y_i va x_i - mos ravishda bug'simon va suyuq fazalardagi komponentlarning molyar miqdori;

Q_i - to'yingan bug' komponentlarining bosimi;

P_{ui} - komponentning bug'simon fazadagi parsial bosimi;

x_i Q_i - o'sha komponentning suyuq fazadagi parsial bosimi.

/19.1./ tenglamadagi y_i va x_i o'z navbatida komponentlar miqdoriga bog'liq, ya'ni

$$Y_i = \frac{n''_i}{\sum_{i=1}^m n_i}; x_i = \frac{n'_i}{\sum_{i=1}^m n_i} \quad (19.2.)$$

bu yerda: n''_i; n'_i - mos ravishda i - komponentning molyar miqdorini bug'simon va suyuqlik fazalaridagi soni;

m - komponentlarning umumiy soni.

Dalton - Raul qonuni /19.1./ bo'yicha, uglevodorodlarning bug'simon va suyuq fazalari, aralashma ichida ularning parsial bosimlari molyar miqdori bilan muvozanatlanib turar ekan. Agar bosim yoki harorat o'zgarsa, u holda shu muvozanat yo'qoladi va komponentlarning parsial bosimlari tenglashgunga qadar bu muvozanat tiklanmaydi. Bug' va suyuq fazalardagi komponentlarning parsial bosimlari tenglashgandan so'ng yana muvozanat qayta tiklanadi.

Bu muvozanatlar saqlangan holatda bug'simon va suyuq fazalardagi komponentlarning o'zaro nisbati o'zgarmas miqdor bo'lib qoladi. Ana shu o'zgarmas miqdorni fazaviy muvozanatning doimiy o'zgarmas miqdori deyiladi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$K_i = \frac{Y_i}{x_i} \quad (19.3.)$$

Bu erda. K_i - fazalarning muvozanat o'zgarmas koeffitsienti.

Fazalar muvozanat o'zgarmas koeffitsienti deb, bug'simon holatdagi i - komponentning molyar qismini suyuq holatdagi shu komponentning molyar qismiga bo'lgan nisbatiga aytiladi. Shuni ham aytish kerakki, 19.3-tenglamadagi fazalar muvozanat o'zgarmas koeffitsienti K_i faqat ma'lum bir bosim va harorat uchun o'zgarmas miqdor bo'lib, bosim va harorat o'zgarishi bilan bu miqdor o'zgarishi mumkin.

Fazalar muvozanat o'zgarmas koeffitsienti ikki usul bilan aniqlanishi mumkin:


1. Tajriba yo'li.
2. Hisoblash yo'li.

Tajriba yo'li bilan fazalar muvozanati o'zgarmas koeffitsientini aniqlash quyidagidan iborat. Yuqori bosimga chidash beradigan idishga boshlang'ich gazkondensat aralashma solinib, ma'lum bir bosim va haroratda fazalarning termodinamik muvozanati hosil qilinadi. Shundan so'ng o'zgarmas bosim va harorat ostida idishdan suyuq va bug' fazalarning namunasi olinib, maxsus asbob-xromatograflarda ularning tarkibiy qismi aniqlanadi. Bu aniqlashlar natijasida bug' va suyuq fazalarning molyar konsentrasiyalari topiladi, ularning nisbati esa fazalar muvozanati o'zgarmas koeffitsientini beradi.

Shu kabi tajribalar boshqa bosim va harorat uchun takrorlanib, boshqa termodinamik holatlar uchun fazalar muvozanat o'zgarmas koeffitsienti aniqlanadi.

19.3. Kirishadigan neftlar uchun aniqlangan fazalar muvozanatini o'zgarmas koeffitsiyentini o'rganish.

Tajribalar orqali aniqlangan fazalar muvozanati o'zgarmas koeffitsientining bosimga bog'liqlik munosabatini logarifmik diagrammada tasvirlanganda, bu munosabatlar barcha uglevodorodlar uchun bir nuqtaga kelib uchrashishi aniqlandi (19.1.-rasm).



19.1.-rasm. Kirishadigan neftlar uchun harorat 93,3 °C bo'lganda aniqlangan fazalar muvozanat o'zgarmas koeffitsienti.

1-metan; 2-etan; 3-propan; 4-butanlar; 5-pentanlar; 6-geksan; 7-geptan va yuqori uglevodorodlar.

19.1-rasmda tajriba yo'li bilan aniqlangan fazalar muvozanati o'zgarma koeffitsienti grafigi berilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, har bir komponentning fazaviy muvozanati o'zgarma koeffitsienti birga teng bo'lganda ikki xil bosim mavjud ekan. Birinchi bosim to'yingan bug'lar bosimiga mos kelsa, ikkinchi bosim S nuqtaga mos kelib, bu nuqta bosimlar uchrashish nuqtasi deyiladi.

Shu nuqtaga mos keluvchi bosim esa uchrashish bosimi deb yuritiladi. Kats tomonidan qilingan juda ko'plab tajribalar natijasi shuni ko'rsatadiki, uchrashish bosimi uglevodorod komponentlari uchun fazaviy muvozanat o'zgarma koeffitsienti birga teng bo'lganda 34,5-35 MPani tashkil qilgan ekan.

Ana shu tajribalar natijasida, metan uchun fazalar muvozanati o'zgarma koeffitsientini aniqlaydigan empirik tenglama keltirib chiqariladi:

$$K_{CH_4} = \frac{31.41}{PY_2} \left\{ 1 - \frac{(126.6 - t)}{316.5} \left[1 - \frac{(P - 7.13)^2}{(PY_2 - 7.13)^2} \right] \right\} \left(\frac{PY_2}{P} - 1 \right)^{0.9} + 1 \quad (19.4.)$$

Tajribalar usuli bilan fazaviy muvozanat o'zgarma koeffitsientini aniqlash ancha murakkab bo'lib olingan ma'lumotlar faqat shu aralashma uchun ishlatilishi mumkin. Qilingan bu tajribalarda, qatlamdagi bo'ladigan hodisalar to'liq aks ettirilmaydi. Masalan, tog' jinsining to'zilishi, yuqori bosimni g'ovaklarga ta'siri, sirt taranglik kuchlari va x.k. Shuning uchun ham bir tajriba natijalarini boshqa bir sharoitlar uchun ishlatib bo'lmaydi. Har bir kon uchun alohida shunday tajribalar o'tkazib, fazaviy muvozanat o'zgarma koeffitsienti aniqlanadi.

Hisoblash yo'li bilan fazaviy muvozanat o'zgarma koeffitsientini aniqlash uchun real gazlarning holat tenglamalaridan foydalanib, gazlar tarkibidagi har bir komponentning suyuq va gaz fazadagi uchuvchanlik koeffitsienti bilan aktivlik koeffitsienti aniqlanadi.

Uchuvchanlik koeffitsienti birinchi marta fanga Lyuis tomonidan kiritilgan.

Bu koeffitsientlar quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{iy} = \frac{f_{iy}}{Y_{ip}}; K_{ix} = \frac{f_{ix}}{X_{ip}}; \quad (19.5.)$$

Bu yerda: f_{iy} va f_{ix} - mos ravishda komponentlarning suyuq va bug' holatdagi uchuvchanlik xususiyatini xarakterlovchi kattaliklar;

R - shu sharoitdagi bosim.

Uchuvchanlik va aktivlik koeffitsientlari fazaviy muvozanatning miqdorini aniqlash uchun kerak bo'lganidan, bu koeffitsientlarni aniqlashning o'zi murakkab tajribalar bilan bog'liq.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Gaz kondensat konlarining xarakteristikasini tahlil qilish.
2. Fazaviy muvozanatning doimiy miqdori va uni aniqlash usullari.
3. Kirishadigan neftlar uchun aniqlangan fazalar muvozanatini o'zgarma koeffitsiyentini o'rganish.

Glossariy

Gazkondensat konlarida - ham gazsimon, ham suyuq holatdagi uglevodorodlar to'plami mavjud.

Uglevodorodlarning murakkab fazaviy holatlari - **Dalton-Raul qonuniga** asoslanadi.

Fazalar muvozanat o'zgarma koeffitsienti ikki usul bilan aniqlanishi mumkin:

3. Tajriba yo'li.
4. Hisoblash yo'li.

Tajriba yo'li - bilan fazalar muvozanati o'zgarma koeffitsientini aniqlash quyidagidan iborat. Yuqori bosimga chidash beradigan idishga boshlang'ich gazkondensat aralashma solinib, ma'lum bir bosim va haroratda fazalarning termodinamik muvozanati hosil qilinadi. Shundan so'ng o'zgarma bosim va harorat ostida idishdan suyuq va bug' fazalarning namunasi olinib, maxsus asbob-xromatograflarda ularning tarkibiy qismi aniqlanadi. Bu aniqlashlar natijasida bug' va suyuq fazalarning molyar konsentrasiyalari topiladi, ularning nisbati esa fazalar muvozanati o'zgarma koeffitsientini beradi.

Shu kabi tajribalar boshqa bosim va harorat uchun takrorlanib, boshqa termodinamik holatlar uchun fazalar muvozanat o'zgarma koeffitsienti aniqlanadi.

Hisoblash yo'li - bilan fazaviy muvozanat o'zgarma koeffitsientini aniqlash uchun real gazlarning holat tenglamalaridan foydalanib, gazlar tarkibidagi har bir komponentning suyuq va gaz fazadagi uchuvchanlik koeffitsienti bilan aktivlik koeffitsienti aniqlanadi.

Umumiy bosim deb – yuzaga berilgan bosim.

Parsial bosim deb – qandaydir nuqtaga berilgan bosim.

Birinchi bosim to'yingan bug'lar bosimiga mos kelsa, ikkinchi bosim S nuqtaga mos kelib, bu nuqta bosimlar uchrashish nuqtasi deyiladi. Shu nuqtaga mos keluvchi bosim esa **uchrashish bosimi deb yuritiladi**.

Uchuvchanlik koeffitsienti - birinchi marta fanga Lyuis tomonidan kiritilgan.

Nazorat savollari.

1. Gazkondensat konlarini xarakterlovchi asosiy omillar qaysilar.
2. Dalton-Raul qonunini izohlang.
3. Fazalar muvozanat o'zgarma koeffitsienti necha xil usul bilan aniqlanishi mumkin.
4. Kirishadigan neftlar uchun aniqlangan fazalar muvozanatini o'zgarma koeffitsiyentini o'rganishni izohlang.
5. Uchuvchanlik koeffitsienti birinchi marta fanga kim tomonidan kiritilgan.

20-MA'RUZA

Mavzu: Qatlam - suv - neft - gaz tizimining sirt - molekulyar xossalari.

Reja:

1. Neft, suv va gazning qatlam ichidagi harakatiga sirt taranglik hodisalarining ta'siri.
2. Sirt taranglik kuchi va uni bosim va haroratga bog'liqligi.

Adabiyotlar: (1,2,3,4,6,7)

Tayanch so'zlar: Kapillyar kanallar, suyuqlikning fizik xususiyatlari kovaklarining yuzasi, yopishqoq, zichlik, siqiluvchanlik, kapillyar hodisalar, sirt aktiv moddalar, sirt taranglik kuchi, Harorat koeffitsienti, sirt taranglik kuchi, polyar komponentlar.

20.1. Neft, suv va gazning qatlam ichidagi harakatiga sirt taranglik hodisalarining ta'siri.

Neft qatlami yuzasi juda katta miqdorga ega bo'lgan kapillyar kanallar va yoriqliklardan iborat. Neftga to'yingan bir kub metr tog' jinslari kovaklarining yuzasi bir necha gektarni tashkil etadi.

Shuning uchun ham qatlamda neft harakati qonuniyatlari va kovakli kanallardan neftni siqib chiqarish masalalari, suyuqlik va tog' jinsining xususiyatlari (yopishqoq, zichlik, siqiluvchanlik va h.k.) bilan birgalikda ko'p hollarda neft, suv, gaz va tog' jinslarining tutash yuzasida hosil bo'ladigan jarayonlarga ham bog'liq.

Qatlam – suv – neft - gaz tizimi maydalanganligi oshgani sari tutash yuzalardagi hodisalar kollektorlardagi suyuqlik va gaz harakatiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Bu hodisalar neft

va gaz konlarining paydo bo'lishi jarayoniga ham ta'sir etgan. Jumladan, kovak kanallarining neft bilan ho'llanish darajasi, neft - gaz va suv - neft tutash yuzalarining to'zilishi, kovakli muhitda suyuqlik va gazning o'zaro joylashishi, qoldiq neft va suvning miqdor munosabati va shu kabilar, kon paydo bo'lishida yuza va kapillyar hodisalar bilan bog'liq bo'lgan.

Qatlamlarning neft mahsuldorligini oshirish muammosi suyuqlik va tog' jinsi tutash yuzasi va shu yuzada sodir bo'ladigan hodisalarni o'rganmay hal etilmaydi.

Har xil fazalarning tutash yuzasidagi fizik - kimyoviy hodisalar quyidagi ko'rsatkichlarga bog'liq: fazalar chegarasidagi sirt taranglik kuchi, ho'llanish hodisasi, adgeziya ishi, ho'llanish issiqligi va boshqalar.


Qatlamda flyuidlar harakati sirt taranglik kuchi, adgeziya ishi, kapillyar bosim va shu kabi qarshiliklarga uchraydi. Sirt taranglik kuchi juda mayda bo'lgan qatlam zarrachalari molekularning shu zarrachalarni o'rab olgan suyuqlik molekularining o'zaro ta'sir kuchidan hosil bo'ladi. Bu kuchlar ta'siri sirt taranglik kuchi bilan to'g'ri proporsional bog'lanishda. Shuning uchun mayda zarrachalardan iborat bo'lgan qatlamlarda suyuqliklarning sirqishi murakkab hodisalar bilan bog'liq.

Sirt taranglik kuchlarini kamaytirish maqsadida sirt aktiv moddalardan (SAM) foydalaniladi.

20.2. Sirt taranglik kuchi va uni bosim va haroratga bog'liqligi.

Sirt taranglik kuchini yaqqol tasavvur qilish uchun quyidagi misolga murojaat qilamiz.

Agar ikkita oyna bo'lagini olib, ulardan biriga ozgina suv quyib, uning ustiga ikkinchi oyna bo'lagini yopishtirib qo'yib, so'ngra bir-biridan o'zaro tutash yuzaga nisbatan tik holda ajratib oladigan bo'lsak, ma'lum kuch hosil bo'ladi /20.1.-rasm/. Ana shu kuch sirt taranglik kuchi deb yuritiladi.



20.1-rasm. Sirt taranglik kuchini aniqlashga doir misol

Lekin ana shu yopishtirilgan oynalarni tutash yuzalarga parallel holda bir-biridan surib ajratadigan bo'lsak, har ikki oyna bo'lagi bir-biridan yengil ajraladi.

Bu misollardan ko'rinib turibdiki, sirt taranglik kuchlari tutash yuzalarga nisbatan tik yo'nalishda ta'sir etar ekan.

Sirt taranglik kuchi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$G = \frac{F}{l} \quad (20.1.)$$

Bu yerda: G-sirt taranglik kuchi, n/m;

F- sirt yuzasida hosil bo'lgan yuza

l - tutash yuzaning uzunligi, m.

Sirt taranglik kuchining kattaligiga quyidagi omillar ta'sir qiladi;

1. Tutash yuzalardagi sirt aktiv moddalarning (SAM) miqdori (qatronlar, naften kislotalar, ishqorlar va h.k.);

2. Suyuqlikning fizik xususiyatlari (ρ , β , μ), tarkibi (sho'rligi) va erigan gaz miqdori. Boshlang'ich bosim va harorat.

SAM miqdori tutash yuzalarda katta bo'lsa, sirt taranglik kuchlari kamayadi, chunki SAM molekullari qattiq jism (tog' jinsi) va suyuqlik /neft/ molekullarining o'zaro ta'sirini keskin kamaytiradi. Shuning uchun neft konlarini ishlatishda har xil turdagi SAM lardan keng foydalaniladi.

Suyuqliklarning fizik xossalaridan sirt taranglik kuchiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigani qovushqoqlik va zichlik bo'lib, yuqori qovushqoqlik va zichlikka ega bo'lgan suyuqliklarning sirt taranglik kuchlari biroz katta bo'ladi. Buning natijasida ularning harakatlanganligi ham sustroq bo'ladi.

Erkin yuza energiyasi paydo bo'lishining molekulyar mexanizmi hamda sirt taranglikning energetik mohiyatiga asoslanib, uning sim va haroratga bog'liqligini aniqlash mumkin. Harorat oshgan sari toza suyuqlik va suv chegarasidagi sirt taranglik kamayadi. Buning sababi, molekullar orasidagi kuchlarning harorat ta'sirida susayishidir.

Bu bog'lanish quyidagicha aniqlanadi:

$$G_t - G_o (1 - \gamma t) \quad (20.2)$$

Bu yerda: G_t va G_o - mos holda t va 0° haroratda tizimning sirt tarangligi;

γ - sirt tarangligining harorat koeffitsienti;

t - Selsiy darajalarida o'lchangan harorat.

Sirt tarangligining harorat koeffitsienti kritik haroratdan uzoqroq bo'lgan haroratlarda deyarli o'zgarmas kattalikdan iborat.

20.1. jadvalda ba'zi bir moddalar uchun harorat koeffitsienti va 20°C dagi sirt taranglik kuchi berilgan.

20.1-jadval

Moddalar	Harorat koeffitsienti, $1/^\circ\text{S}$	Sirt taranglik kuchi, 20°C da, mN/m
Simob	0,00035	465,00
Suv	0,002	72,75
Sirka kislotasi	0,0038	23,50
Etil spirti	0,0022	22,30

Bosim oshishi bilan suyuqlik va gaz tutash yuzasidagi sirt taranglik kamayadi. Gazning siqilishi va uning suyuqlikda erishi orqali erkin yuza energiyasi kamayishi bu bog'liqlikning sababchisi hisoblanadi. Sirt taranglikning bosim bilan bog'liqligi neft va gaz chegarasida yana ham murakkabroqdir. Bu holatda sirt tarangligi neft va unda erigan gazning kimyoviy tarkibiga bog'liq. Suvda eriydigan polyar komponentlarning bosim va harorat ta'sirida erishi natijasida neft va suv chegarasida sirt taranglik oshadi.

Neft gaz bilan to'yinganligi holatida sirt taranglikning bosim va harorat bilan bog'liqligi murakkab xarakterga ega.

Bosim 0 dan 26,5 MPa gacha o'zgarishi jarayonida qator konlar misolida o'lchangan sirt taranglik qiymati neftning gazga to'yinish bosimiga qarab, 3-6 mN/m ga teng bo'ladi.

Harorat oshishi natijasida gazning erishi susayadi va neftning siqiluvchanlik koeffitsienti ortadi. Shuning uchun ham harorat oshgani sari neftning suv bilan tutash yuzasidagi sirt tarangligi kamayadi. Kovakli muhitda kapillyar bosim neftning tutash yuzadagi sirt tarangligi o'zgarishiga bog'liq.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Neft, suv va gazning qatlam ichidagi harakatiga sirt taranglik hodisalarining ta'siri.
2. Sirt taranglik kuchi va uni bosim va haroratga bog'liqligi.

Glossariy

Sirt taranglik kuchlarini kamaytirish maqsadida - **sirt aktiv moddalardan (SAM)** foydalaniladi. Agar ikkita oyna bo'lagini olib, ulardan biriga ozgina suv quyib, uning ustiga ikkinchi oyna bo'lagini yopishtirib qo'yib, so'ngra bir-biridan o'zaro tutash yuzaga nisbatan tik holda ajratib oladigan bo'lsak, ma'lum kuch hosil bo'ladi. Ana shu kuch - **sirt taranglik kuchi deb yuritiladi.**

Adgeziya ishi deb - suyuqlik yuzasidan qattiq jismni ajratib olish uchun sarf bo'ladigan ishga aytiladi.

Nazorat savollari.

1. Har xil fazalarning tutash yuzasidagi fizik - kimyoviy hodisalari qanday ko'rsatkichlarga bog'liq.
2. Sirt taranglik kuchlarini kamaytirish maqsadida qanday sirt aktiv moddalardan foydalaniladi?
3. Sirt taranglik kuchi deb . . .
4. Sirt taranglik kuchini aniqlovchi ifodani izohlang.
5. Sirt taranglik kuchining kattaligiga qanday omillar ta'sir qiladi?
6. Harorat oshishi natijasida neftning siqiluvchanlik koeffitsienti qanday o'zgaradi.

21-MA'RUZA

Mavzu: Ho'llash, adgeziya ishi, ho'llash burchagi va ho'llash issiqligi.

Reja:

1. Ho'llash va polyarlikning bir-biriga bog'liqligi.
2. Ho'llash burchagi va ho'llash issiqligi.


Adabiyotlar: (1,2,3,4,6,7)

Tayanch so'zlar: polyarlik, gidrofil, gidrofob, ho'llash tarangligi, kvars, adgeziya ishi, Dyupre tenglamasi, Dyupre - yung tenglamasi, kogeziya ishi, ho'llash chetki burchagi.

21.1. Ho'llash va polyarlikning bir-biriga bog'liqligi.

Suyuqlik qattiq jism yuzasiga quyilganda, suyuqlik va qattiq jism molekullari o'zaro bir-biri bilan aralashishi natijasida ho'llash jarayoni yuzaga keladi. Ho'llash jarayoni qattiq jism bilan suyuqlik orasidagi sirt taranglik kuchlari kamroq bo'lganda kuchliroq bo'lar ekan, ya'ni suyuqlik qattiq jism yuzasini yaxshiroq ho'llashi uchun ular orasidagi polyarlik kam bo'lishi kerak ekan. Bunday holatdan shunday xulosa chiqarish mumkinki, agar suyuqlik katta polyarlikka ega bo'lsa, u holda bunday suyuqlik qattiq jism yuzasini kam ho'llar ekan, va aksincha, suyuqlik kichik polyarlikka ega bo'lsa, bunday suyuqlik qattiq jism yuzasini juda yaxshi ho'llarkan. Masalan, juda yuqori polyarlikka ega bo'lgan simob qattiq jism yuzasini deyarli ho'llamaydi, kamroq polyarlikka ega bo'lgan suv metallarni, juda ko'p minerallarni va kristall holdagi tuzlarni ho'llaydi, polyardagi juda ham kichik bo'lgan yog'lar deyarli hamma qattiq jismlarni ho'llaydi.

Suyuqlik qattiq jism ustiga quyilganda, u molekulyar kuchlar ta'sirida qattiq jism yuzasida yoyilib, suyuqlik bilan qattiq jism orasida ho'llash cheti burchagini (θ) hosil qiladi (21.1.-rasm). Ho'llash chetki burchagi tomchi bilan qattiq jism tutashgan nuqtasiga o'tkazilgan urinma orasidagi burchakdan iborat.



21.1.- rasm. Qattiq jism yuzasiga tomizilgan kam polyarli (a), polyarli (b) va yuqori polyarli /v/ suyuqlik tomchisining shakli.

I-suv; 2-uglevodorod; 3-qattiq jism.

$G_{1,3}$ -suv va qattiq jism orasidagi sirt taranglik kuchi;

$G_{1,2}$ -suv va uglevodorod /havo/ orasidagi sirt taranglik kuchi;

$G_{2,3}$ -uglevodorod /havo/ va qattiq jism orasidagi sirt taranglik kuchi;

θ - ho'llash chetki burchagi.

Ho'llovchi suyuqliklar gidrofil¹⁾ va ho'llamaydigan suyuqliklar gidrofob²⁾ suyuqliklar deyiladi. Xuddi shuningdek, ho'llanadigan qattiq jismlar gidrofil va ho'llanmaydigan qattiq jismlar gidrofob jismlar deb yuritiladi.

21.2. Ho'llash burchagi va ho'llash issiqligi.

Qattiq jismning sirt taranglik kuchini o'lchash nihoyatda murakkabdir. Shuning uchun qattiq jismning gaz bilan o'zaro ta'siri bilvosita yo'llar bilan aniqlanadi.

Ho'llanish burchagi bo'yicha sirt taranglik kuchini aniqlash uchun 21.1- rasmda keltirilgan kuchlar vektoridan foydalanib, vektorlar muvozanat tenglamasini yozamiz:

$$G_{2,3} = G_{1,3} + G_{1,2} * \cos\theta \quad (21.1.)$$

yoki bundan

¹⁾ gidrofil – grekcha hydor – suv, phibeo – sevaman so'zlaridan olingan bo'lib, «ho'llash» ma'nosini bildiradi.

²⁾ gidrofob – grekcha hydor – suv, pholos – qo'rquv so'zlaridan olingan bo'lib, «ho'llamaslik» ma'nosini bildiradi.

$$\cos\theta = \frac{G_{2,3} - G_{1,3}}{G_{1,2}} \quad (21.2.)$$

21.1.- tenglama yung tenglamasi deyiladi va uning o'ng tomonidagi $G_{1,2} * \cos\theta$ ibora ho'llash tarangligi deb ataladi.

Ho'llash burchagiga qarab suvning sifati va uning neftni yuvish qobiliyati to'g'risida ham fikr yuritish mumkin. Ho'llash burchagi qattiq jism yuzasining mexanik to'ziligiga, unda gazlarning adsorbsiyasiga, sirt aktiv moddalari elektr zaryadi mavjudligiga va boshqa bir qator omillarga bog'liq.

Kvars, ohaktosh va shu kabi neft qatlamlarini tashkil etgan minerallar tabiatan gidrofil hisoblanadi. Kondagi tog' jinslari neft bilan yaxshi ho'llanadi suv bilan yomon ho'llanadi.

Dengiz suvi va distillangan suvga nisbatan ishqorli suvlar qatlamlarni hosil qilgan kvars va boshqa minerallarni yaxshiroq ho'llaydi. Ho'llanish organik kislotalarning ishqorli suvlar ta'sirida sovunlashish hodisasi bilan bog'liq. Sovunlar neft - suv va neft, tog' jinsi - suv tutash yuzasida absorbsiyaga uchrab yuzani gidrofillashtiradi, ya'ni ho'llash burchagini kamaytiradi.

Atmosfera sharoitida ho'lash burchagining o'zgarishi neft yuzasi aktivligiga proporsional bo'lib, yuqori bosimlarda esa bu shart bo'ziladi. Ho'llash burchagining adgeziya ishini ho'llash issiqligi bilan ham aniqlash mumkin.

Adgeziya ishi $/W_a/$ deb, suyuqlik yuzasidan qattiq jismni ajratib olish uchun sarf bo'ladigan ishga aytiladi.

Dyupre tenglamasiga muvofiq adgeziya ishi quyidagicha aniqlanadi.

$$W_a = G_{2,3} + G_{1,2} - G_{1,3} \quad (21.3)$$

Bu yerda: $G_{1,2}$ - suyuqlik va havo chegarasidagi sirt tarangligi;

$G_{2,3}$ va $G_{1,3}$ - qattiq jismning havo va suyuq faza chegarasidagi sirt tarangligi.

21.3. - tenglamadagi aniqlanishi qiyin bo'lgan $G_{1,3}$ va $G_{2,3}$ larni yo'qotish uchun 21.1. - tenglamadan ularning qiymatini 21.3. - tenglamaga qo'yib, Dyupre - yung tenglamasini hosil qilamiz:

$$W_a = G_{1,2} / 1 + \cos\theta \quad (21.4)$$

Adgeziya ishidan tashqari tutash yuzalarda kogeziya ishi $/W_k/$ ham yuzaga kelishi mumkin. Kogeziya ishi, odatda tutash yuzalardagi bir faza zarrachalarining energiyasi o'zgarishini xarakterlaydi.

Kogeziya ishi 21.4. - tenglamadan $\cos\theta=1$ bo'lganda aniqlanadi, ya'ni

$$W_k = 2G_{1,2} \quad (21.5)$$

Bu tenglamaga ko'ra, agar qattiq jism yuzasi to'liq ho'llangan bo'lsa, suyuqlik tomchisini qattiq jism sirt yuzasidan ajratib olish uchun ikkita suyuq yuzani hosil qilish kerak ekan. Boshqacha aytganimizda, to'liq ho'llangan qattiq jism sirtidan suyuqlikni ajratayotganda suyuqlik to'liq ajralib chiqmay, balki o'zilar ekan.

Ho'llanadigan (gidrofil) qattiq jismlar to'liq ho'llanganida $G_{1,2} \leq G_{1,3}$ munosabat mavjud. Lekin ho'llanmaydigan qattiq jismlar uchun $G_{1,2} \geq G_{1,3}$ munosabat mavjud ekan, ya'ni bunday qattiq jismlarda suyuqlik to'liq ajralar ekan. Demak, adgeziya ishi qattiq jismlarning ho'llanish ko'rsatkichi sifatida ko'rilishi mumkin.

Yung tenglamasiga (21.1) adgeziya va kogeziya ishlari qiymatlarini qo'yib, ho'llash chetki burchagiga nisbatan yechamiz:

$$\cos\theta = \frac{2W_a - W_k}{W_k} \quad (21.6)$$

Bu tenglama qattiq jismlarning ho'llanishini, suyuqliklarning qattiq jismga tortishish kuchi orqali aniqlash imkoniyatini beradi.

Qattiq jism suyuqlik bilan ho'llanishi natijasida issiqlik ajralishi aniqlangan. Kovakli va kukunga o'xshagan jismlar uchun ho'llash maydalanganlik darajasiga bog'liq.

Tog' jinslari yuzasining gidrofil yoki gidrofobligi darajasi ho'llash issiqligini taqqoslash orqali aniqlanishi mumkin.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Ho'llash va polyarlikning bir-biriga bog'liqligi.
2. Ho'llash burchagi va ho'llash issiqligi.

Glossariy

Suyuqlik qattiq jism ustiga quyilganda, u molekulyar kuchlar ta'sirida qattiq jism yuzasida yoyilib, suyuqlik bilan qattiq jism orasida **ho'llash cheti burchagini (θ) hosil qiladi**. Ho'llash chetki burchagi tomchi bilan qattiq jism tutashgan nuqtasiga o'tkazilgan urinma orasidagi burchakdan iborat.

Gidrofil suqliklar bu - ho'llovchi suyuqliklar

Gidrofob suqliklar bu - ho'llamaydigan suyuqliklar.

Ho'llanadigan qattiq jismlar - **gidrofil**.

Ho'llanmaydigan qattiq jismlar - **gidrofob** jismlar deb yuritiladi.

Gidrofil – grekcha hydor – suv, phibeo – sevaman so'zlaridan olingan bo'lib, «ho'llash» ma'nosini bildiradi.

Gidrofob – grekcha hydor – suv, pholos – qo'rquv so'zlaridan olingan bo'lib, «ho'llamaslik» ma'nosini bildiradi.

Kvars, ohaktosh va shu kabi neft qatlamlarini tashkil etgan minerallar tabiatan gidrofil hisoblanadi. Kondagi tog' jinslari **neft** bilan yaxshi ho'llanadi **suv** bilan yomon ho'llanadi.

Adgeziya ishi deb - suyuqlik yuzasidan qattiq jismni ajratib olish uchun sarf bo'ladigan ishga aytiladi.

Kogeziya ishi - odatda tutash yuzalardagi bir faza zarrachalarining energiyasi o'zgarishini xarakterlaydi.

Nazorat savollari.

1. Ho'llash jarayoni qattiq jism bilan suyuqlik orasidagi sirt taranglik kuchlari qanday bo'lganda kuchliroq bo'lar ekan.
2. Simob qattiq jism yuzasini qanday ho'llaydi?
3. Metallarni, juda ko'p minerallarni va kristall holdagi tuzlarni qaysi modda yaxshiroq ho'llaydi.
4. Qanday jismning sirt taranglik kuchini o'lchash nihoyatda murakkab xisoblanadi.
5. Qattiq jismning gaz bilan o'zaro ta'siri qanday yo'llar bilan aniqlanadi?
6. Adgeziya ishi deb . . .
7. Dyupre tenglamasiga muvofiq adgeziya ishi qanday aniqlanadi?
8. Kogeziya ishi deb . . .
9. Yung tenglamasini izohlang.

22-MA'RUZA

Mavzu: Sirt taranglik kuchini tajribaxonada aniqlash usullari.

Reja:

1. Sirt taranglik kuchini tajribaxonada aniqlash usullarini o'rganish.
2. Ho'llash burchagining harakat davrida o'zgarishi.
3. Kapilyar bosim va ho'llash chetki burchagini aniqlash usullari.

Adabiyotlar: (1,2,3,4,6,7)

Tayanch so'zlar: halqa, lappak, gardish, stalagnometr, gravitatsiya kuchlari, kechikuvchi burchak, kinetik gisterizis, statik burchak, kapilyar bosim, fotooptik qurilma, Volkov asbobi.

22.1. Sirt taranglik kuchini tajribaxonada aniqlash usullarini o'rganish.

Sirt taranglik kuchlarini tajribaxonalarda aniqlash usullari ham mavjud bo'lib, ular asosan ikki xil yo'nalishda bajariladi.

Birinchi usulda suyuqlik sirtiga qo'yilgan halqa, lappak, gardish yoki to'g'ri to'rtburchak shaklidagi tekis qattiq jismni tutash yuza sirtiga nisbatan tik yo'nalishda ajratib olish bilan bajariladi. Suv o'ziga halqa qo'yib, sirt taranglik kuchini aniqlash usulini maktab fizika kursida batafsil tushuntirilib o'tilgan.

Ikkinchi usulda sirt taranglik kuchini aniqlash, asosan stalagnometr degan shishadan tayyorlangan maxsus idishdan oqib tushadigan suyuqliklar tomchisini aniqlashga asoslangan.

Stalagnometr 22.1- rasmda keltirilgan bo'lib, u juda ham ingichka kapillyardan (1), silliqlangan asbob tagidan (2) va ma'lum belgilar orasidagi hajmi aniq bo'lgan idish qismidan iborat. Sirt taranglik kuchining aniqlanishi kerak bo'lgan suyuqlikdan, masalan neft, i_1 i_2 belgilari orasidagi hajmga qo'yiladi. Qo'yilgan suyuqlik og'irlik kuchlari natijasida kapillyardan (1) silliq yuzaga (2) oqib tushib, ana shu yuzaga yoyiladi. Yoyilgan suyuqlik tomchi shakliga kelib, eng og'ir nuqtasidan o'tgandan so'ng u yuzadan o'ziladi. Tadqiqotlar ana shu o'zilgan tomchilar (p_1) sonini aniqlashdan iborat Bu son aniqlangandan so'ng, xuddi ana shu hajmdan, tajribalar o'tkazilayotgan haroratda suv o'tkazilib, suv tomchilari (p_s) aniqlanadi. Suv va neftning zichliklari ma'lumligidan foydalanib, quyidagi tenglamadan tadqiqot qilinayotgan suyuqlikning sirt taranglik kuchi aniqlanadi:



22.1.-rasm. Sirt taranglik kuchini aniqlash uchun ishlatiladigan stalagnometr.
1- ingichka kapillyar; 2-asbob tagi; 3- i_1 i_2 belgilari orasidagi aniq hajm.

$$G_1 = G_c \frac{n_c * \rho_1}{n_1 * \rho_c} \quad (22.1)$$


Bu yerda: G_1 -suyuqlikning sirt taranglik kuchi;
 G_s -suvning sirt taranglik kuchi;
 n_1 - i_1 va i_2 oraliqdagi suyuqlikdan oqib chiqqan tomchilar soni.

Bu usul bilan aniqlangan sirt taranglik kuchi halqali o'zish usuli bilan aniqlangan sirt taranglik kuchiga nisbatan aniqroq bo'ladi.

22.2. Ho'llash burchagining harakat davrida o'zgarishi.

Suyuqlik harakati davrida ho'llanish jarayonlari qanday bo'lishini ko'rib chiqaylik.

Masalan, biror silliq qattiq jism ustiga /shisha/ o'zgina suyuqlik qo'yib, shishani biroz qiyshaytiraylik /22.2.-rasm/.




22.2.- rasm. Harakat davrida suyuqlikning ho'llash burchagining o'zgarishiga doir misol.

Silliqlangan yuzga qiyshaytirilganda gravitatsiya kuchlari ostida suyuqlik tomchisi shu yuzga bo'ylab harakatga keladi. Harakat davrida tomchining ho'llash chetki burchaklari o'zgaradi. Harakat yo'nalishi tomonidagi burchak biroz kattaroq yoki o'tmasroq (θ_2) va teskari

tomondagi burchak biroz kichikroq yoki o'tkirroq (θ_1) bo'ladi. Bu burchaklar ildamlanuvchi (θ_2) va kechikuvchi (θ_1) burchak deb nomlanadi.

Harakat davrida ho'llash chetki burchagini o'zgarishiga ho'llashning kinetik gisterizisi¹⁾ deb yuritiladi.

Agar ho'llash chetki burchagini qatlam kanalchalaridagi bo'layotgan harakat davridagi o'zgarishini tadqiqot qiladigan bo'lsak, u holda neftning suv bilan siqib chiqarilishi yoki suvning neft bilan siqib chiqarilishiga bog'liq ekanligi ma'lum bo'ladi. Neft suv bilan siqib chiqarilganida o'lchangan ho'llash chetki burchagi ildamlanuvchi ($\theta_{2,1}$), suvni neft bilan siqib chiqarilgandagi burchagi chekinuvchi ($\theta_{1,2}$) va harakatsiz holatdagi o'lchangan burchak (θ) statik burchak bo'ladi (22.3-rasm).



22.3.-rasm. Kapillyar kanalchada neft-suv tutash yuzasidagi meniskning o'zgarishiga doir misol.

Odatda bu burchaklar orasida $\theta_{2,1} > \theta > \theta_{1,2}$ munosabat mavjud bo'lib, ba'zi bir sharoitlarda bu munosabat o'zgacha ham bo'lishi mumkin.

Ho'llash gisterizisi uch fazali chegarani harakatlanish tezligiga, ular yuzasidagi adsorbsiya jarayonlariga va qattiq jism yuzasining g'adir - budirligiga bog'liq bo'lib, hanuzgacha to'liq o'rganilmagan.

Neftni suv bilan siqib chiqarishda harakatlanish tezligi ortishi bilan gisterizis jarayonlari tufayli ildamlanuvchi burchak oshib borishi va hatto 90° dan ham katta bo'lishi mumkin.

Gisterizis jarayonlarni o'rganishda ba'zi bir tadqiqotchilar uni faqat qattiq yuzaning notekisligi va ishqalanish kuchlari bilan bog'lashsa, boshqa tadqiqotchilar gisterizis jarayonlarni asosan molekulyar nazariya bilan bog'lab, faqat turli fazalarning molekulari faolligiga bog'liq deb ko'rsatishadi.

¹⁾ Gisterizis – chekinish, orqada qolish, kechikish ma'nosini bildiradi.

Umuman olganda gisterizis jarayonlariga yuqorida ko'rsatilgan omillarning hammasi ma'lum bir miqdorda ta'sir etadi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, agar suyuqlik qattiq jism yuzasini ho'llash natijasida yopishish energiyasi suyuqlikning molekularini o'zaro tortishish energiyasidan yuqori bo'lsa, u holda neftni suv bilan siqib chiqarishda neft qattiq jism sirtida juda yupqa parda holida qolib ketishi mumkin. Bu esa konda neftni olib bo'lmas yo'qotishlarga olib kelib, juda ko'p neft qatlamda qolib ketishga sabab bo'ladi.


Qatlam holatida gisterizis jarayonlari qoldiq suvlar tufayli yana ham murakkablashadi.

22.3. Kapillyar bosim va ho'llash chetki burchagini aniqlash usullari.

Avval aytib o'tganimizdek, qatlamdagi harakat jarayonida kapillyar bosim, sirt taranglik kuchi va ho'llash chetki burchagi asosiy omillardan ekanligini bilib oldik. Bularndan sirt taranglik kuchini qanday qilib aniqlashni ham ko'rib chiqdik.

Endi kapillyar bosim va ho'llash chetki burchagini aniqlash usullari bilan tanishib chiqaylik.

Avvalo, kapillyar bosim bilan yaqindan tanishib chiqish uchun quyidagi ikki misolni ko'rib chiqaylik. (22.4.-rasm).



22.4- rasm. Kapillyar bosimni aniqlashga doir misol

22.4.-rasmni chap tomonidagi idishga ho'llovchi suyuqlik, masalan kerosin quyilgan bo'lsin. Idishga uchta turli diametrdagi kapillyar naychani tushiraylik. Kapillyar bosim natijasida bu naychalarda suyuqlik ma'lum bir balandlikka ko'tariladi. Xo'sh, qanday balandlikka ko'tariladi va bu ko'tarilish nimaga bog'liq ekan?

Bu ko'tarilish gravitatsiya kuchi bilan kapillyar kesimidagi hosil bo'ladigan yuza kuchlari o'zaro muvozanatlangunga qadar ro'y beradi.

Agar 20.1. - tenglamadan F ni topsak,

$$F = G \cdot l \quad (22.2)$$

bo'ladi. Bu yerda $l=2\pi R$ bo'lgani uchun

$$F = 2G \pi R \quad (22.3)$$

Kuchlarning muvozanatligi $\vec{F} = \vec{Q}$ ifoda bilan ifodalanadi. Bu erda \vec{Q} og'irlik kuchlari bo'lib,

$$Q = V \cdot \rho \cdot g \quad \text{ga teng} \quad (22.4)$$

V – ko'tarilgan suyuqlik hajmi;
 ρ - suyuqlik zichligi;
 g - erkin tushish tezlanishi

$V=\pi R^2 h$ ga teng bo'lgani uchun

$$Q=\pi R^2 h \rho g \quad (22.5.)$$

22.3. va 22.5 ifodalarni tenglashtirsak:

$$\pi R^2 h \rho g = 2G \pi R \quad \text{bo'ladi.}$$

Bundan


$$h = \frac{2G}{\rho Rg} \quad (22.6)$$

Oxirgi tenglama 16.4 - tenglama bilan bir xil ma'noga ega ekanligi ko'rinib turibdi. 22.6 - tenglamadan kapillyar naycha bo'yicha suyuqlikning ko'tarilishi sirt taranglik kuchiga to'g'ri va kapillyar naychani radiusi suyuqlikning zichligiga teskari proporsional ekan.

22.6.- rasmning o'ng tomonidagi idishga gidrofob suyuqlik qo'yilgan bo'lib, unga har xil diametrdagi kapil yarlar tushirilganda, suyuqlik ana shu kapillyar ichida pastga tushadi. Tushish masofasi /yoki balandligi/ ham 22.6 - tenglama orqali aniqlanadi.

Ho'llash chetki burchagini aniqlash uchun fotooptik qurilmadan (Volkov asbobi) foydalaniladi. 22.5. - rasm/.

Volkov asbobi fotoapparat bilan proyektor (1) asboblari, tomchi uchun taglik (2) va ekrandan (3) iborat. Taglikka ho'llash chetki burchagi aniqlanishi kerak bo'lgan suyuqlikdan biroz tomiziladi. U yoyilib segment shakliga kelgandan so'ng projektordan nur yuborilib, suyuqlikning soyasi ekranga tushiriladi. Ekrandagi soya fotoapparat orqali suratga olinadi va suratdan ho'llash burchagi transportir orqali o'lchanadi. Xuddi shuningdek, ekrandagi soyani o'zidan ham ho'llash burchagini o'lchash mumkin.



22.5.- rasm Ho'llash chetki burchagini aniqlovchi Volkov asbobi

Ho'llash burchagini aniqlash uchun Volkov asbobidan tashqari boshqa asboblar ham mavjud bo'lib, ular haqida «Qatlam fizikasidan tajribalar» o'quv qo'llanmasida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Sirt taranglik kuchini tajribaxonada aniqlash usullarini o'rganish.
2. Ho'llash burchagining harakat davrida o'zgarishi.
3. Kapillyar bosim va ho'llash chetki burchagini aniqlash usullari.

Glossariy

Sirt taranglik kuchlarini aniqlash - asosan stalagnometr degan shishadan tayyorlangan maxsus idishdan oqib tushadigan suyuqliklar tomchisini aniqlashga asoslangan.

Harakat davrida ho'llash chetki burchagini o'zgarishiga ho'llashning - **kinetik gisterizisi** deb yuritiladi.

Gisterizis – chekinish, orqada qolish, kechikish ma'nosini bildiradi.

Ho'llash chetki burchagini aniqlash uchun fotooptik qurilmadan - **Volkov asbobidan** foydalaniladi

Nazorat savollari.

1. Sirt taranglik kuchlarini tajribaxonalarda aniqlash usullari ham mavjud bo'lib, ular asosan necha xil yo'nalishda bajariladi.

2. Stalagnometrni izohlang.
3. Kechikuvchi burchak deb . . .
4. Statik burchak deb . . .
5. Hidrofil suyuqliklar deb . . .
6. Hidrofob suyuqliklar deb . . .

23-MA'RUZA

Mavzu: G'ovakli muhitdan neft va gazni siqib chiqarishning fizik asoslari.

Reja:

1. Chekka suvlar bosimi.
2. Gaz do'ppisida siqilgan gaz bosimi.
3. Neftda erigan gaz va uning bosimi.

Adabiyotlar: (1,2,3,4,6,7)

Tayanch so'zlar: Chekka suvlar bosimi, gaz do'ppisida siqilgan gaz bosimi, neftda erigan gaz va uning bosimi, tog' jinslarining tarangligi, gravitatsiya kuchlari, tabiiy yog'ingarchiliklar, qatlam chekka suvlari harakati, mexanizatsiyalashgan usul, so'nib borish usuli.

23.1. Qatlam bosimi energiyalarining manbalari va qatlamqa ta'sir etuvchi kuchlar


Quduqlarda neft va gazning harakati qatlam energiyasining turi va uning kuchiga bog'liq.

Qatlamlarning geologik to'zilshiga qarab quduqlarda neft, gaz va suvning harakati quyidagi kuchlar ta'sirida vujudga keladi:

1. Chekka suvlar bosimi;
2. Gaz do'ppisida siqilgan gaz bosimi;
3. Neftda erigan gaz va uning bosimi;
4. Tog' jinslarining tarangligi;
5. Gravitatsiya kuchlari;

Endi shu kuchlar ta'sirini alohida ko'rib chiqamiz.

Chekka suvlar bosimining ta'siri qatlamning yer yuzasiga chiqishiga bog'liq. Odatda neft yoki gaz joylashgan qatlamlar kondan bir necha o'n yoki yuz kilometrlar narida yer yuzasiga chiqishi mumkin.



23.1.- rasm. Qatlam chekka suvlari bosimi harakati tasviri


- 1- tabiiy yog'ingarchiliklar;
- 2- qatlam chekka suvlari harakati.

Qatlamning yer yuzasiga tutashgan qismi yog'ingarchilik ta'sirida suv bilan to'yinib, qatlam bosimini ta'minlaydi. Shu bosim ta'sirida neft quduq ostki qismiga qarab harakat qiladi.

Chekka suvlar bosimining qiymati qatlamning yer yuzasiga chiqqan joyigacha bo'lgan balandlikka (H) bog'liq. Bu bosim neft - tutash yuzasidan qatlamning yer yuzasiga chiqqan joyigacha bo'lgan tik H orqali aniqlanadi.

Qatlamni yer yuzasiga chiqqan joyidan kongacha bo'lgan masofa / yer yuzasi qismida bosim bilan ta'minlanish chegarasi R deyiladi.

Katta hajmdagi gaz do'ppili konlarda chekka suvlar bosimi yetarli bo'lmagan taqdirda gaz do'ppisidagi siqilgan gaz bosimi ta'sirida quduqlardan neft olinadi (23.2-rasm).




23.2.-rasm. Gaz do'ppisi bosim harakati tasviri

neft gaz suv

Bu hollarda quduq ostki qismi o'qli teshgich bilan otilib, qatlam bilan tutashgach, neftning quduq tomon harakati gaz do'ppisidagi bosimga bog'liq bo'ladi.

Ba'zi hollarda yuqorida ko'rib o'tilgan har ikkala kuch ham passiv ta'sir etishi yoki, umuman, bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda neftni quduq ostiga harakatlantiruvchi asosiy kuch sifatida neftda erigan gazning energiyasi xizmat qiladi. Jumladan neft quduq orqali olinayotganida undagi erigan gaz zarrachalari kengayib, o'zi bilan neftni olib chiqadi.

Quduqning ostki qismidagi bosim qatlam bosimidan past bo'lganligi natijasida bosimlar ayirmasi vujudga keladi. Natijada neft tarkibidagi ko'p miqdorda erigan gaz pufakchalari kengayib, quduq osti tomon harakat qila boshlaydi. Bu harakat davomida gaz pufakchalari o'zi bilan birga neft tomchilarini ham ergashtiradi. Bu kuchlar neftning quduq ostiga tomon harakatining asosiy omillaridan biridir. (23.3-rasm)



23.3.- rasm. Erigan gaz bosimi harakati tasviri.

neft
suv

gaz
neft tomchisi harakati

Ba'zi neft konlarida bu kuchlar neft harakati uchun yagona energiya bo'lib hisoblanadi.

Oldingi bo'limlarda aytib o'tilganidek, tog' jinsi taranglik kuchi, suyuqlik va gazlarning siqiluvchanligi ta'sirida quduqdan ma'lum miqdorda qo'shimcha mahsulot olinadi. Bu hodisaning mexanizmini quyidagicha tushunish mumkin: neft va gaz harakati uchun yo'l ochilganidan keyin bu harakat jarayonida qatlam kovaklarida neft va gaz kengayadi, kovaklarning o'zi esa qatlamdan yer yuzasigacha joylashgan tog' jinslarining og'irligi ta'sirida torayadi. Bu hodisa tog' jinsi, suyuqlik va gazning tarangligini siqiluvchanlik koeffitsienti orqali foydalanishga olib keladi.

Bu kuchlar ta'sirida olinadigan qo'shimcha neft miqdori /0/ quyidagicha aniqlanadi:

$$Q = F * h * \beta * \Delta P \quad (23.1)$$

Bu yerda: F- neft konining yuzasi;


h - neft bilan to'yingan qatlam balandligi;

β^* - taranglik sig'imi koeffitsienti;

ΔR - bosimlar ayirmasi.

Bu tarzda ishlovchi konlar taranglik usuli bilan bog'liq.

Ba'zan boshqa ta'sir etuvchi kuchlar yo'qligida, quduqlarga neft harakati asosan uning og'irlik kuchi, ya'ni gravitatsiya kuchlari ta'sirida bo'ladi. Qatlam qiyalik burchagiga qarab gravitatsiya kuchlari har xil ta'sir etadi.



23.4-rasm. Gravitatsiya kuchlari ta'siri

neft

suv

Gravitatsiya kuchlari hisobga olingan holda mahsulot olinadigan quduqlar qatlamning pastki yon bag'riga joylashtiriladi. Bu hollarda quduqning ostki qismiga neft oqishi gravitatsiya kuchlari ta'sirida ta'minlanadi. Bunday konlarda neft olish jarayoni, asosan, mexanizatsiyalashgan usulda olib boriladi.

Ta'sir etuvchi energiya kuchiga qarab neft konlarining ishlash usuli quyidagilarga bo'linadi: suv bosimi ta'siridagi usul; gaz bosimi ta'siridagi usul; erigan gaz usuli; taranglik usuli; gravitatsion usul. Birinchi va ikkinchi usullar siqib chiqarish usuli deb, qolgan uch usul esa so'nib borish usuli deb ataladi.

Konning ishlash jarayoni va uning mahsuldorligi ishlash usuliga bog'liq. Mahsuldorlikning asosiy belgisi konning neft beraolishlik koeffitsientiga bog'liq.

Konlarning neft beraolishlik koeffitsienti, kondan olinishi mumkin bo'lgan neft miqdorining shu kondagi umumiy neft zaxirasiga bo'lgan nisbati orqali aniqlanadi.

$$\eta = \frac{\sum Q_i}{Q_{zax}} \quad (23.2)$$

Bu yerda: η - neft beraolishlik koeffitsienti;

$\sum Q_n$ - olinishi mumkin bo'lgan neft miqdori;

Q_{zax} - kondagi umumiy neft zaxirasi.

Neft beraolishlik koeffitsienti foizda yoki ulush birligida o'lchanadi. Konlarning neft beraolishlik koeffitsienti ulardagi mavjud usulga bog'liq.


Chunonchi, suv bosimi usulida neft beraolishlik koeffitsienti 0,6-0,8 ga yaqinlashadi, ya'ni qatlamdagi bor mahsulotning 60-80 foizini yer yuzasiga olib chiqish mumkin.

Gaz bosimi ta'siridagi usulda neft beraolishlik koeffitsienti 0,5-0,7 ga borishi mumkin.

Qolgan uch usul uchun neft beraolishlik koeffitsienti 0,1-0,3 dan oshmaydi. Demak, konning mahsuludorligini oshirishning asosiy omillaridan biri uning neft beraolishlik qobiliyatini oshirish yo'llarini takomillashtirishdan iborat. Yuqorida aytib o'tilgan usullar asosan tabiiy usullardir. 23.5. - rasmda konning ishlash usullariga qarab undagi texnologik ko'rsatkichlarni taqqoslash mumkin.

Yuqorida ko'rib o'tilgan tabiiy usul sof holda kamdan-kam uchraydi. Ular odatda aralash usul tarzida /masalan chekka suv bosimi va erigan gaz usuli, chekka suv bosimi va taranglik usullari va h.k. / uchraydi. Konlarni ishlatish jarayonida bu usullar bir turdan ikkinchi turga o'tishi mumkin.

Kon mahsuludorligini oshirish maqsadida ba'zan tabiiy usuldan sun'iy usulga o'tiladi. Chunonchi, tegishli shart-sharoitlar mavjud bo'lgan hollarda erigan gaz usulidan sun'iy ravishda gaz bosimi ta'siridagi usulga o'tish mumkin. Buning uchun ma'lum quduqlar orqali yuqoridan gaz /yoki havo/ haydalib, sun'iy gaz do'ppisi hosil qilish yoki mavjud gaz do'ppisining energiyasini oshirish mumkin.



23.5.-rasm. Konlarning turli usullarda ishlash texnologik ko'rsatkichlari

a) - suv bosimi usuli; b-taranglik usuli; v-erigan gaz usuli (erigan gaz usuli) suv haydash bilan birgalikda/;

g- erigan gaz usuli;

Q_s - jami olingan neft miqdori;

Γ_f -gaz omili;

R_q - qatlam bosimi;

η - neft beraolishlik koeffitsienti;

T - vaqt.

Gaz konlarining ishlash jarayonida suv, gaz bosimi ta'siridagi usul va aralash usullar uchraydi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Chekka suvlar bosimi.
2. Gaz do'ppisida siqilgan gaz bosimi.
3. Neftda erigan gaz va uning bosimi.

Glossariy

Chekka suvlar - bosimining ta'siri qatlamning yer yuzasiga chiqishiga bog'liq. Odatda neft yoki gaz joylashgan qatlamlar kundan bir necha o'n yoki yuz kilometrlar narida yer yuzasiga chiqishi mumkin.

Ba'zan boshqa ta'sir etuvchi kuchlar yo'qligida, quduqlarga neft harakati asosan uning og'irlik kuchi, ya'ni **gravitatsiya kuchlari** ta'sirida bo'ladi. Qatlam qiyalik burchagiga qarab gravitatsiya kuchlari har xil ta'sir etadi.

Ta'sir etuvchi energiya kuchiga qarab neft konlarining ishlash usuli quyidagilarga bo'linadi: suv bosimi ta'siridagi usul; gaz bosimi ta'siridagi usul; erigan gaz usuli; taranglik usuli; gravitatsion usul.

Birinchi va ikkinchi usullar - **siqib chiqarish usuli deb**, qolgan uch usul esa **so'nib borish usuli deb** ataladi.

Konlarning neft beraolishlik koeffitsienti - kundan olinishi mumkin bo'lgan neft miqdorining shu kondagi umumiy neft zaxirasiga bo'lgan nisbati orqali aniqlanadi.

Suv bosimi usulida - neft beraolishlik koeffitsienti 0,6-0,8 ga yaqinlashadi, ya'ni qatlamdagi bor mahsulotning 60-80 foizini yer yuzasiga olib chiqish mumkin.

Gaz bosimi ta'siridagi usulda - neft beraolishlik koeffitsienti 0,5-0,7 ga borishi mumkin.

Qolgan uch usul uchun neft beraolishlik koeffitsienti 0,1-0,3 dan oshmaydi.

Nazorat savollari.

1. Qatlam chekka suvlari bosimi harakati tasvirini izohlang.
2. Gaz do'ppisi bosim harakati tasvirini izohlang.
3. Erigan gaz bosimi harakati tasvirini izohlang.
4. Gravitatsiya kuchlari ta'sirini izohlang.
5. Ta'sir etuvchi energiya kuchiga qarab neft konlarining ishlash usuli qanday guruhlariga bo'linadi?
6. So'nib borish usuli deb . . .

24-MA'RUZA

Mavzu: Qatlamlarning neft, gaz, kondensat beraolishlik qobilyatini har xil omillarga bog'liqligi.

Reja:

1. Qatlamlarning neft beraolishlik qobilyatini o'rganish.
2. Qatlamlarning gaz va kondensat beraolishlik qobilyatini o'rganish.

Adabiyotlar: (1,2,3,4,6,7)

Tayanch so'zlar: kapillyar kuchlar, koalesensiya, menisklar, sirt taranglik kuchi, adgeziya ishi, suvning sirqish tezligi, qatlam modeli, birlamchi usul, ikkilamchi usul, misellyar eritmalar, CO₂ gazi, polimerlar va ishqorlar.

24.1. Qatlamlarning neft beraolishlik qobilyatini o'rganish

Yuqorida aytib o'tilganidek, qatlamlarning mahsuldorligi, ularning neft beraolishlik qobilyati ko'p omillarga bog'liq. Bularga neftni suv bilan siqib chiqarilishida kapillyar hodisalar, konning ishlash usuli, qatlamdagi suyuqlik va gazlarning fizik va kimyoviy xususiyatlari, siqib chiqarish tezligi va bir qancha boshqa geologik omillarni kiritish mumkin.

Ho'llangan muhitda neft va gaz tutash yuzasidagi bosim ta'sirida kapillyar shimilish va suyuqlik taqsimoti vujudga keladi.

Bu hodisa g'ovaklar kattaligining har xilligi bilan bog'liq. G'ovaklarning kichik kesimidagi kapillyar bosim kattaroq g'ovaklar bosimiga nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Natijada,

suv kichik g'ovaklar orqali neft qismiga harakat qilsa, katta g'ovaklar orqali neft suv qismiga harakat qiladi.

Bundan tashqari, kapillyar kuchlar neftning parchalanshi va koalesensiyasiga ham ta'sir qiladi. Shuni ham ta'kidlash zarurki, bu kapillyar holatlarning intensivligi har xil fazalar tutash yuzasida menisklarning hosil bo'lish bosimiga bog'liq.

G.A.Babalyanning tadqiqotlariga muvofiq, qatlamning neft beraolishlik qobiliyati neftning tog' jinsi yuzasidagi yupqa pardaning yemirilishi, g'ovaklarda neftning parchalanishi va koalesensiyasiga, sirt taranglik kuchiga va adgeziya ishiga va qatlamning o'tkazuvchanligiga bog'liq.

Qatlamning neft beraolishlik qobiliyati, shuningdek, suyuqlik olish sur'atiga ham bog'liq. Masalan, bosimlar ayirmasi oshganda oqim geometriyasi o'zgaradi va kam o'tkazuvchan qatlamlar ham ishga tushib, qatlamdan neft olish jarayoni mukammallashadi.

Ko'rib chiqilgan omillar asosan, tabiiy omillar hisoblanadi. Bundan tashqari konlarning neft beraolishlik qobiliyatini oshirishda sun'iy omillardan ham foydalaniladi. Bularga mahsulot oluvchi quduqlarni neftli maydonda joylashish zichligi, g'ovaklarni suv bilan yuvilish koeffitsienti, tabiiy usuldan sun'iy usulga o'tish va ko'plab boshqa omillar kiradi. Bu omillarning neft beraolishlik koeffitsientiga ta'siri haqida «Konlarni ishlatish nazariyasi» fanida batafsil to'xtalib o'tiladi.

24.2. Qatlamlarning gaz, kondensat va komponent beraolishlik qobiliyati

Qatlamning gaz beraolishlik koeffitsientiga quyidagilar ta'sir qiladi:

- konning ishlatilish usuli;
- kondagi gaz olish jarayonining oxirgi davriga mos keladigan o'rtacha bosim;
- qatlamdagi tog' jinslari tarkibining har xilligi (turliligi);
- konning turi /qatlam, massiv va b./;
- har xil geologik omillar;
- gaz olish sur'ati;
- neftli maydonda quduqlarning joylashish zichligi;
- nasos-kompressor quvurlarining /NKQ/ quduqqa tushirilish chuqurligi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarning birinchi beshtasi tabiiy omillarga kiradi:


Qatlamning kondensat beraolishlik koeffitsienti quyidagi ko'rsatkichlarga bog'liq:

- konni ishlatish jarayoni /qatlamga suv yoki gaz haydash bilan yoki haydashsiz/;
- gazda kondensatning boshlang'ich potensial miqdori;
- g'ovak muhit yuzasi;
- qatlamdagi boshlang'ich bosim va harorat;
- kondensat tarkibi va uning fizik xossalari.

Qatlamning gaz beraolishlik koeffitsienti konning gaz bosimi va suv bosimi usullarida yuqori qiymatga ega bo'ladi. Qatlamning bosimini me'yorida saqlab turish uchun suv haydalganda kondensat berish koeffitsienti 75 % gacha, gaz haydalganda esa 85 % gacha yetadi.

Tog' jinslarining zarrachalari har xil bo'lgan qatlamlarda suvning tez sirqish natijasida g'ovaklarda gaz siqilib qoladi, natijada gaz berish koeffitsienti kamayadi.

Qatlamning gaz berish qobiliyatiga gaz bilan to'yingan kollektorning o'tkazuvchanligi, qatlamdagi boshlang'ich bosim va quduq mahsuldorligi ta'sir ko'rsatadi. O'tkazuvchanlik oshgan sari gaz berish qobiliyati ham oshadi. Masalan, boshlang'ich bosim $P=200 \text{ kg/sm}^2$, o'tkazuvchanlik $k=10^{-12} \text{ m}^2$ va mahsuldorlik $q=5 \text{ ming m}^3/\text{sut}$ bo'lgan sharoitda gaz beraolishlik koeffitsienti $k=99,3 \%$ bo'lsa, o'tkazuvchanlik $k=10^{-14} \text{ m}^2$ bo'lganda $K=60 \%$ ni tashkil etadi. Shuningdek gaz beraolishlik qobiliyati bosimga ham to'g'ri proporsional bog'liq (24.1-rasm).



24.1-rasm. Gaz beraolishlik koeffitsientining har xil omillarga bog'liqligi

Demak, konning gaz beraolishlik koeffitsienti qatlam o'tkazuvchanligi, boshlang'ich va oxirgi davrga mos keladigan qatlam bosimi, hamda oxirgi davr sharoitidagi quduqning mahsuldorligiga bog'liq ekan. Qatlamda suv harakatining tezligi ham gaz beraolishlik qobiliyatiga ta'sir etadi. Suvning sirqish tezligi oshgani sari gaz beraolishlik koeffitsienti shuncha kamayadi. Gaz va suv qovushqoqligi nisbati μ_s/μ_g va sirt tarangligi ham gaz beraolishlik qobiliyatiga ta'sir etadi. Chunonchi, μ_s/μ_g oshgani sari va sirt taranglik kuchi kamayishi bilan gaz beraolishlik qobiliyati shuncha oshadi (24.1.-rasm).

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Qatlamlarning neft beraolishlik qobiliyatini o'rganish.
2. Qatlamlarning gaz va kondensat beraolishlik qobiliyatini o'rganish.

Glossariy

Qatlamning neft beraolishlik qobiliyati - neftning tog' jinsi yuzasidagi yupqa pardaning yemirilishi, g'ovaklarda neftning parchalanishi va koalesensiyasiga, sirt taranglik kuchiga va adgeziya ishiga va qatlamning o'tkazuvchanligiga bog'liq. konning ishlatilish usuli,

Tabiiy omillarga - konning ishlatilish usuli, kondagi gaz olish jarayonining oxirgi davriga mos keladigan o'rtacha bosim, qatlamdagi tog' jinslari tarkibining har xilligi (turliligi), konning turi /qatlam, massiv va b./, har xil geologik omillar.

Qatlamning gaz beraolishlik koeffitsienti konning gaz bosimi va suv bosimi usullarida yuqori qiymatga ega bo'ladi. Qatlamning bosimini me'yorida saqlab turish uchun **suv haydalganda kondensat berish koeffitsienti 75 % gacha, gaz haydalganda esa 85 % gacha** yetadi.

Tog' jinslarining zarrachalari har xil bo'lgan qatlamlarda suvning tez sirqish natijasida g'ovaklarda gaz siqilib qoladi, natijada - **gaz berish koeffitsienti kamayadi.**

Qatlamda suv harakatining tezligi - ham gaz beraolishlik qobiliyatiga ta'sir etadi.

Suvning sirqish tezligi oshgani sari - **gaz beraolishlik koeffitsienti shuncha kamayadi.**

Nazorat savollari.

1. Qatlamlarning neft beraolishlik qobiliyati haqida.
2. Qatlamning gaz beraolishlik koeffitsientiga qanday omillar ta'sir qiladi?
3. Qatlamning kondensat beraolishlik koeffitsienti qanday ko'rsatkichlarga bog'liq?

4. Kapillyar kuchlar bu . . .
5. Sirt taranglik kuchi bu . . .
6. Qatlam modeli bu . . .

25-MA'RUZA

Mavzu: Neft va gazni qatlamdan siqib chiqarishni ilmiy tajribalar orqali o'rganish.

Reja:

1. Neft va gazni qatlamdan siqib chiqarishni o'rganish.
2. Qatlamlarning flyuid berish qobilyatini oshirish yo'llari.

Adabiyotlar: (1,2,3,4,6,7)

Tayanch so'zlar: Neft va gaz konlaridagi jarayonlarni o'rganish uchun qo'llaniladigan fizik model, o'tkazuvchanlik, qatlam modeli, haydovchi quduqlar; ishlatuvchi quduqlar.

25.1. Neft va gazni qatlamdan siqib chiqarishni o'rganish.

Neft va gazning qatlamdagi harakatini, ularning qatlam g'ovaklaridan siqib chiqarilishini ilmiy tajribalar orqali o'rganish mumkin. Buning uchun qatlam modeli tayyorlanadi. Model tayyorlanishining asosiy shartlaridan biri model ko'rsatkichlari g'ovaklik, o'tkazuvchanlik, tajriba o'tkaziladigan bosim va harorat qatlamning tabiiy ko'rsatkichlariga mos kelishi kerak ya'ni o'xshashlik mezoniga amal qilinishi shart.

Model tayyorlashda shisha yoki temir quvurcha olinadi va unga kvarts qumlarini joylanadi. Tajriba sharoitiga moslab marshalit minerali qo'shib va qumlar sementlanib tajriba uchun kerakli g'ovaklik hosil qilinadi. Modelning g'ovaklik koeffitsienti aniqlanadi, model orqali suv o'tkaziladi (ma'lum bosim ostida) va suv uchun o'tkazuvchanlik hisoblanadi.

Model neft bilan to'yintirilishi davomida neft uchun o'tkazuvchanlik va qatlamning neft bilan to'yinganligi koeffitsienti aniqlangandan so'ng model tajribalar o'tkazishga tayyor bo'ladi. Tajribaning asosiy maqsadi qatlamdagi neftni suv, gaz, har xil eritmalar bilan siqib chiqarish jarayonini o'rganishdan iborat.

25.1.-rasmda qatlamdan neftni suv, gaz yoki har xil eritmalar bilan siqib chiqarish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan model sxemalaridan biri keltirilgan.

Qatlam modelini (1) qum bilan to'latib va uni yaxshilab zichlagandan so'ng, model g'ovakligi aniqlanadi, suv (yoki gaz) o'tkazib, o'tkazuvchanligi hisoblab chiqiladi.


Tajribalar quyidagi asosda olib boriladi.

Model (1) suv bilan to'yintiriladi va suv neft bilan siqib chiqariladi. Ana shu holatda modelda qatlam holati hosil qilingan bo'ladi. Shundan keyin, iskanja (10) orqali model (1) ichida yuqori bosim hosil qilinadi, bu vaqtda bosim o'lchagichlarda (4,5) bir xil bosim bo'lishi kerak. Neftni suv bilan siqib chiqarish o'rganilayotgan bo'lsa, iskanja (10) orqali suvli idishdan (9) modelga suv haydaladi.

Neftni siqib chiqarish boshlangandan so'ng model ichidan neft sekin-asta yig'uvchi idishga (13) to'planadi. Tajribalar vaqtida 4- va 5- bosim o'lchagichdagi bosim, sarflangan vaqt, haydalayotgan va yig'ilgan suyuqliklar hajmi qayd qilinib boriladi.


Tajribadagi jarayonlarni tabiiy holatga yaqinlashtirish maqsadida model (1) atrofida issiq suv aylantirilib, haqiqiy qatlam harorati hosil qilinadi. Buning uchun termostatda (11) suv isitilib, nasos (12) orqali qatlam modeli atrofida (2) haydalib turiladi.

Ana shunday tajribalar bir necha marta o'tkazilgandan so'ng, modelning neft beraolishlik koeffitsientini har xil moddalar bilan siqib chiqarilgan natijalarini quyidagicha solishtirish mumkin.



25.1. - rasm. Neft va gaz konlaridagi jarayonlarni o'rganish uchun qo'llaniladigan fizik model

- 1 - qum bilan to'latilgan bo'lma - qatlam nusxasi;
- 2 - issiq suv aylanuvchi bo'lma;
- 3 - suzgichlar; 4,5-bosim o'lchagichlar;
- 6- katta bosimli inert gazli ballon;
- 7,8,9-mos holda neft, SAM, kislotasi yoki suv uchun maxsus idishlar;
- 10-iskanja;
- 11-termostat;
- 12 - issiq suv haydovchi nasos;
- 13 - suyuqliklar yig'iluvchi idish.



25.2.-rasm. Modeldan neftni turli moddalar bilan siqib chiqarilgandagi neft beraolishlik koeffitsienti.

- 1- sovuq suv bilan siqib chiqarish;
- 2- issiq suv bilan siqib chiqarish;
- 3- 0,5 %li SAM eritmasi bilan siqib chiqarish.

Bu yerda: η - qatlamning neft beraolishlik koeffitsienti;
 t - vaqt.

Model shisha naychadan yasalgan bo'lsa, siqib chiqarish jarayoni ko'z bilan kuzatilishi mumkin.

Shunday qilib, ilmiy tekshirishlar natijasida har bir muayyan sharoit uchun qatlamning mahsuldorligini oshirish yo'llarini belgilash mumkin.

25.2. Qatlamlarning flyuid berish qobiliyatlarini oshirish yo'llari

Qatlamlarning neft, gaz va kondensat beraolishlik qobiliyatini oshirish olimlar va ishlab chiqarish korxonalarini xodimlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Har xil konlarning ishlash jarayonini o'rganish natijasida unumdorlikni oshirishning nazariy va amaliy masalalarini

hal etish mumkin. Qatlamning har xil qismida joylashgan mahsulotni bir me'yorda olish maqsadida neft - suv tutash yuzi chegarasining bir xil siljishini ta'minlash orqali yaxshi natijaga erishish mumkin.

Qatlamning neft, gaz va kondensat beraolishlik qobiliyatini oshirishning quyidagi turlari mavjud:

a) Birlamchi usul - konlar ishlatilishidagi quduqlardan favvora sharoitida neft olishning tugash davrigacha mos keladi:

b) Ikkilamchi usullar - qatlamdagi qoldiq neftni olishga mo'ljallangan.

Ikkilamchi usulni quyidagicha amalga oshirish mumkin.

Qatlamni flyuid berish qobiliyatini oshirish maqsadida qatlam bosimini saqlab turish uchun qatlamga sovuq yoki issiq suv, bug' gaz haydaladi. Shuningdek, har xil misellyar eritmalar, CO₂ gazi, polimerlar va ishqorlar ham ishlatiladi.

Umumiy holda qatlamga suv haydash turlari quyidagicha:

- neft - suv tutash yuzi chegarasining tashqi qismiga suv haydash (25.3.- a rasm).

Bu holda quduqlar neft - suv tashqi chegarasidan ma'lum bir masofada (200-300m.gacha) joylashgan bo'lib, haydaladigan suv chekka yoki qatlam osti suvlarining bosimini oshiradi yoki saqlab turadi;

- neft - suv chegara yoniga suv haydash (25.3.-b rasm).

Bu holda suv haydaladigan quduqlar bevosita neft bilan suv chegarasi yonida joylashtiriladi;

- chegara ichiga suv haydash (25.3.- v rasm). Bunda neft bilan egallangan maydon suv haydaladigan quduqlar orqali bir necha alohida qismlarga bo'linadi;

- neft bilan egallangan maydonda suv haydaladigan quduqlar bir me'yorda joylashtiriladi (25.3.- g rasm). Bu holda quduqlar to'rt, besh, yetti va to'qqiz nuqtali sxema usulida joylashishi mumkin;


- shuningdek, suv haydaladigan quduqlar maydon o'qi bo'yicha joylashishi mumkin (25.3.-d rasm).

Umuman, suv haydaladigan quduqlarni joylashtirishning yana boshqa bir necha usullari bor.

Qatlam bosimini saqlash yoki uni oshirish maqsadida haydaladigan quduqlar asosan qatlam gumbaziga joylashtiriladi.

Qoldiq neftni olish maqsadida qatlamga yoki quduq ostki qismiga issiqlik orqali ta'sir etish usullari qo'llaniladi. Bularga qatlam ichidagi siljuvchi alanga o'chog'ini hosil qilish, issiqlik chiqaruvchi kislotalar orqali ta'sir ko'rsatish, elektr isitgichlar yordamida isitish kabilar kiradi.

Quduqlarning ostki qismiga kimyoviy /kislotalar bilan ishlash/ va mexanik /qatlamlarni sun'iy yorish, torpedalash/ usullari bilan ta'sir etilib, flyuid berish qobiliyatini oshirish mumkin.



25.3.- rasm. Qatlamga suv haydash usullarining turlari. ● - haydovchi quduqlar; o - ishlatuvchi quduqlar

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Neft va gazni qatlamdan siqib chiqarishni o'rganish.
2. Qatlamlarning flyuid berish qobiliyatini oshirish yo'llari.

Glossariy

Model tayyorlashda - shisha yoki temir quvurcha olinadi va unga kvars qumlari joylanadi.

Qatlamning **neft, gaz va kondensat beraolishlik** qobiliyatini oshirishning quyidagi turlari mavjud:

a) Birlamchi usul - konlar ishlatilishidagi quduqlardan favvora sharoitida neft olishning tugash davrigacha mos keladi:

b) Ikkilamchi usullar - qatlamdagi qoldiq neftni olishga mo'ljallangan.

Qatlamni flyuid berish qobiliyatini oshirish - maqsadida qatlam bosimini saqlab turish uchun qatlamga sovuq yoki issiq suv, bug' gaz haydaladi. Shuningdek, har xil misellyar eritmalar, CO₂ gazi, polimerlar va ishqorlar ham ishlatiladi.

Nazorat savollari.

1. Gaz beraolishlik koeffitsientining har xil omillarga bog'liqlik tasvirini izohlang.
2. Qatlam modeli bu . . .
3. Qatlamlarning flyuid berish qobiliyatlarini oshirish yo'llarini tahlil qilish.
4. Neft va gaz konlaridagi jarayonlarni o'rganish uchun qo'llaniladigan fizik modelni izohlang.
5. Modeldan neftni turli moddalar bilan siqib chiqarilgandagi neft beraolishlik koeffitsienti grafigini izohlang.
6. Qatlamga suv haydash usullarining turlarini izohlang.

26-MA'RUZA

Mavzu: Konlarni o'rganishda modellashtirish

Reja:

1. Modellashtirish vazifalari, usullari va turlari.
2. Neft va gaz konlaridagi jarayonlarni modellashtirish asoslari.

Adabiyotlar: (1,2,3,4,6)

Tayanch so'zlar: modellashtirish, fizik model, matematik model, geologik model, qatlam to'zilish xaritasi, bosim, harorat, gaz omili, suv sho'rligini o'zgarishi, laminar, turbulent, massa saqlanish qonuni, momentlar saqlanish qonuni, harakat saqlanish qonuni, holat tenglamalari.

26.1. Modellashtirish vazifalari, usullari va turlari

Neft va gaz konlari ishini loyihalash va ishlatish bosqichlarida ko'pdan - ko'p murakkab masalalarni yechishga to'g'ri keladi. Yechilishi kerak bo'lgan masalalarning aksariyati qatlam ichida quduq tubi va uning ichida, shuningdek yig'ish shoxobchalari, neft va gazni tayyorlash qurilmalari ichidagi jarayonlarga bog'liq. Ya'ni boshqacha qilib aytganda, bo'lib o'tayotgan jarayonlarni biz ko'zimiz bilan ko'rib, qo'limiz bilan ushlab ko'ra olmaydigan, jarayonlar yopiq tarmoqlarda bo'lib o'tadi. Demak, bunday masalalarni yechish uchun oddiy usullar to'g'ri kelmaydi.

Yuqorida aytib o'tilgan jarayonlarni to'g'ri tahlil qilish, bu jarayonlarning yo'nalishi va keyingi taraqqiyoti qay yo'sinda bo'lishi, bu o'zgarishlarni oldindan bashorat qilish uchun modellashtirish usullaridan foydalaniladi. Xo'sh model nima, modellashtirish qanday bo'ladi?

Umuman olganda, «modellashtirish» atamasi o'z ichiga juda keng ma'noni oladi. Modellashtirish deganda faqat qandaydir mashina yoki mexanizmni kichik bir nusxasini chizish va uni yasash hamda ana shu nusxada qandaydir aniq bir masalalarni yechishni tushunish kerak emas. Balki, modellashtirish asosida qandaydir bir jarayonning hosil bo'lishi, unga bo'ladigan tashqi va ichki ta'sirlar natijasida bo'ladigan o'zgarishlar va pirovardida jarayon qanday hollar bilan yakunlanishi yoki davom etishi mumkinligi hal etilib, shu jarayonlar uchun umumiy yoki xususiy qonuniyatlar keltirib chiqariladi.

Modellashtirish, asosan, hisoblash texnikasi va murakkab asboblarni yaratilishi bilan birgalikda rivojlanib bordi. Modellashtirish jarayonlarining rivojlanishi murakkab masalalarni yechishga yoki bu masalalarni alohida bir elementlarini yanada kattaroq aniqlik bilan hisoblashga olib keldi.

Umumiy holda modellarni ikki guruhga bo'lib ko'rish mumkin:

- ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab ishlatish mumkin bo'lgan modellar, ya'ni fizik model;

- qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan modellar, ya'ni matematik model.

Fizik modellar - bu haqiqiy mashina yoki mexanizmning bir necha baravar kichraytirilgan nusxasi bo'lib, bir xil yoki har xil fizik qonuniyatlarga bo'ysinishi mumkin. Masalan, tayyoraning kichik modeli /odatda 1:25 munosabatda/ aerodinamik quvur ichida tekshirilganda bir xil qonunlarga bo'ysinsa, neft qatlamining elektrolitik modeli suyuqliklarni qatlamda sirqishini elektr zanjiridagi zaryadlangan ionlarning tartibli harakatiga qiyoslanib o'rganiladi va har xil fizik qonunlarga bo'ysinishi inobatga olinadi.

Matematik modellar - bu tabiatdagi bo'ladigan hodisa yoki jarayonlarning qanday o'zgarishini matematik tenglamalar orqali ifodalashdan iborat. Neft konlaridagi bo'ladigan jarayonlarning matematik modeli murakkab diferensial tenglamalarning xususiy hosilalaridan iborat bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilgan ikki guruxdagi modellashtirish fan va texnikaning barcha sohalariga tegishlidir. Lekin alohida biror sohani olib ko'radigan bo'lsak, u holda, faqat shu sohani o'ziga xos yana boshqacha modellar bo'lishi mumkin.

Neft va gaz sanoatiga tegishli sohada quyidagi modellar mavjud:

- fizik model;

- geologik model;
- matematik model.

Bu modellarda yechiladigan masalalardan oldin modellarning to'zishini ko'rib chiqaylik.

Fizik modellar tashqi ko'rinishiga qarab turli-tumandir.

Eng oddiy ko'rinishdagi model 25.1.-rasmida keltirilgan.

Bu modelda qatlamning g'ovakligi, o'tkazuvchanligi, suyuqlik bilan to'yinganligi, harorati va bosimi, shuningdek, qatlam suyuqligini fizik omillari ma'lum bir munosabatda amalga oshirilishi mumkin.

Yechiladigan masalalarga qarab fizik modellar har xil ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, qatlamga issiqlik yoki elektr zaryadi bilan ta'sir qilish modellashtirilayotgan bo'lsa, 25.1.-rasmida ko'rsatilgan modelga mos holda issiqlik yoki elektr zaryadli ta'sir qiluvchi manbalar o'rnatilishi mumkin. Fizik modellar juda keng qo'llanilib, ilmiy tadqiqotlarning ko'p qismi ana shu modellar orqali olib boriladi.

Geologik modellar ko'rinishiga qarab, asosan, ikki turda bo'lishi mumkin: yuza va hajm holda. Yuza ko'rinishdagi geologik modellar ham ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin: tik va tekis qirqim holatidagi modellar.

Tik yuza holidagi modellarga barcha turdagi geologik kesim va qirqimlar kiradi. Bu qirqimlarda geologik davrlar, shu davrlarga mos bo'lgan yotqiziqlar, neft va gaz uyumining joylashishi, qatlamning hajm-sirqish omillari, to'yinganligi va shu kabi boshqa ko'plab ma'lumotlar keltirilishi mumkin. Ko'pincha bu turdagi modellarga geofizik ma'lumotlar ham kiritilib, nafaqat bir konni balki bir necha konlar, neft va gaz viloyat va o'lkalarini bitta modelga tushirish mumkin.

Tekis qirqim holatidagi modellarga barcha turdagi xaritalar kiradi. Bularni ichida eng asosiysi qatlam to'zish xaritasi bo'lib, bu xaritada neft, gaz va suv tutash yuzalari ko'rsatilgan bo'ladi. Quduqlar bo'yicha konning neft - suv tutash yuzasidan to kon gumbazigacha balandlik bo'yicha yuzalarning o'zgarishi, shuningdek shu xaritaga asoslangan holda kon ishlashi bosim, harorat, gaz omili, suv sho'rliqligini o'zgarishi va boshqa shu kabi xaritalar ham to'zishini mumkin.

Hajm holatidagi geologik modellar blok-diagramma ko'rinishida bo'lib, unga tik yuza qirqim holidagi modellarni x va y koordinata o'qlari bo'yicha hamda tekis qirqim holidagi modelni Z korodinatasi bo'yicha joylashtirib, konning hajm modeli to'ziladi. Odatda bunday modellar juda katta konlar uchun to'zilib, uni ishlatish davrida modelga har xil tuzatishlar va aniqliklar kiritiladi.

Geologik modellardan konlarning zaxirasini aniqlashda, ishlatuvchi quduqlarni qay tarzda joylashtirishda, konlarni ishlatishda keng foydalaniladi va ana shu xaritalar asosida kon istiqboli haqida ham fikr yuritish mumkin.

Matematik modellar bo'layotgan har qanday jarayonni chiziqli yoki chiziqsiz tenglamalar orqali ifodalaydi. Bu tenglamalar umumiy ko'rinishda yoki xususiy holda berilishi mumkin.

Matematik modellar ko'rinishidan juda turli-tuman bo'lib, bu modellar asosan qanday jarayonlarni modellashtirilayotganiga qarab - bir - biridan farq qiladi. Qatlamdagi harakat bir, ikki yoki ko'p fazali ekanligiga, harakat laminar yoki turbulentliga, qatlam yoki suyuqlikka tegishli omillarga qarab matematik modellar turli ko'rinishda bo'ladi.

Matematik modellar analitik va sonli ko'rinishlarda ham bo'lishi mumkin. Hisoblash texnikasi rivojlanishi natijasida matematik modellashtirishlar shaxsiy kompyuterlarda maxsus dasturlar asosida olib borilmoqda.

26.2. Neft va gaz konlaridagi jarayonlarni modellashtirish asoslari

Modellashtirish natijasida, tabiatan bo'layotgan jarayonlarni yanada aniqroq bilish imkoniyati yaratilishi tufayli, neft va gaz konlarini ishlatishga taalluqli bo'lgan jarayonlarni aniq yechish mumkin bo'ladi. Neft va gaz konlarini ishlatishda modellashtirish asosida quyidagi asosiy masalalar hal qilinishi mumkin:

- neft va gaz zaxirallarini aniqlash;
- neft va gaz konlarini ishlatishni va jihozlashni loyihalashtirish;
- qatlamdagi gaz va suyuqliklar harakatini hisoblash, ularning tarkibiy qismining o'zgarishini bashorat qilish;
- yer osti gaz omborlarini loyihalash;
- neft va gaz quduqlari ishlashini tadqiq va tahlil qilish;
- konlarni eng maqbul ish tartibini rejalashtirish va iqtisodiy hisoblashlar.

Ma'lumki, har qanday konni faqat bir marta ishlatish mumkin. Shuning uchun konni ishlatish jarayonida yo'l qo'yilgan xatoliklarni deyarli tuzatib bo'lmaydi. Ayniqsa, neft konlarini ishlatilishida yo'l qo'yilgan xatoliklar neft zaxirasining ko'p qismi yer ostida qolib ketishiga sabab bo'ladi. Bunday xatoliklarni oldini olish uchun konni ishlatishni bir necha usullarini har xil texnologik va iqtisodiy hisoblashlar orqali taqqoslab, eng arzon va maqbul usuli tanlab olinadi.

Konlarni ishlatishning har xil usullarini hisoblab ko'rishda «Konlarni ishlatish nazariyasi»da o'rgatiladigan quyidagi asosiy qonuniyatlardan foydalaniladi:

- massa saqlanish qonuni;
- momentlar saqlanish qonuni;
- harakat saqlanish qonuni;
- holat tenglamalari.

Bu qonuniyatlarni qo'llab, ularni kon uchun birgalikda yechib, shu kon uchun yaroqli bo'lgan umumiy yoki xususiy matematik model yaratiladi. Matematik modelning asosiy tenglamalari chegaraviy va boshlang'ich shartlar bilan birga qaraladi.

Shunga ko'ra modellashtirilmog'chi bo'lgan kon ma'lum boshlang'ich, chegaraviy va yakuniy shart-sharoitlarga ega bo'lishi kerak.

Konlarni loyihalashtirishdagi asosiy hisoblardan biri, olinadigan neft miqdorini konning ishlash davrida qay tarzda o'zgarishini boshqa texnologik omillarga /masalan, quduqlar soni, neft olish sur'ati, qatlam bosimini saqlash, va h.k./ bog'liqligini aniqlashdan iboratdir. Bu hisoblashlarni bajarish uchun yaratilgan model, u qaysi turdagi modelga kirishidan qat'iy nazar, haqiqiy kon sharoitidagi omillarni o'zida to'liq aks ettirgan yoki o'zaro o'xshash omillarga asoslangan bo'lishi shart. Bu o'xshashliklar esa modellashtirish nazariyasidagi o'xshashliklar qonuni bo'yicha olib boriladi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Modellashtirish vazifalari, usullari va turlari.
2. Neft va gaz konlaridagi jarayonlarni modellashtirish asoslari.

Glossariy

Modellarni ikki guruhga bo'lib ko'rish mumkin:

- ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab ishlatish mumkin bo'lgan modellar, ya'ni fizik model;

- qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan modellar, ya'ni matematik model.

Fizik modellar - bu haqiqiy mashina yoki mexanizmning bir necha baravar kichraytirilgan nusxasi bo'lib, bir xil yoki har xil fizik qonuniyatlarga bo'ysinishi mumkin. Masalan, tayyoraning kichik modeli /odatda 1:25 munosabatda/ aerodinamik quvur ichida tekshirilganda bir xil qonunlarga bo'ysinsa, neft qatlamining elektrolitik modeli suyuqliklarni qatlamda sirqishini elektr zanjiridagi zaryadlangan ionlarning tartibli harakatiga qiyoslanib o'rganiladi va har xil fizik qonunlarga bo'ysinishi inobatga olinadi.

Matematik modellar - bu tabiatdagi bo'ladigan hodisa yoki jarayonlarning qanday o'zgarishini matematik tenglamalar orqali ifodalashdan iborat. Neft konlaridagi bo'ladigan jarayonlarning matematik modeli murakkab diferensial tenglamalarning xususiy hosilalaridan iborat bo'lishi mumkin.

Geologik modellar - ko'rinishiga qarab, asosan, ikki turda bo'lishi mumkin: yuza va hajm holda. Yuza ko'rinishidagi geologik modellar ham ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin: tik va tekis qirqim holatidagi modellar.

Tik yuza - holidagi modellarga barcha turdagi geologik kesim va qirqimlar kiradi.

Tekis qirqim - holatidagi modellarga barcha turdagi xaritalar kiradi.

Nazorat savollari.

1. Modellashtirish qanday bo'ladi?
2. Umumiy holda modellarni necha guruhga bo'lib ko'rish mumkin.
3. Fizik modellar bu . . .
4. Matematik modellar bu . . .
5. Neft va gaz sanoatiga tegishli sohada qanday modellar mavjud?
6. Geologik model . . .
7. Tik qirqim bu . . .
8. Tekis qirqim bu . . .
9. Neft va gaz konlarini ishlatishda modellashtirish asosida qanday asosiy masalalar hal qilinishi mumkin.
10. Konlarni ishlatishning har xil usullarini hisoblab ko'rishda «Konlarni ishlatish nazariyasi»da o'rgatiladigan qanday asosiy qonuniyatlardan foydalaniladi?

27-MA'RUZA

Mavzu: Modellashtirishda o'xshashlik qonunlari.

Reja:

1. Modellashtirishda o'xshashlik qonunlari.
2. Neft va gaz konlarini modellashtirish uchun qo'llaniladigan o'xshashlik mezonlari.

Adabiyotlar: (1,2,3,4,6)

Tayanch so'zlar: modellashtirish nazariyasi, geometrik o'xshashlik, boshlang'ich shart-sharoitlarning o'xshashligi, muhitning xususiyatlari va o'ziga xos ko'rsatkichlarining o'xshashligi, chegaraviy shart-sharoitlarning o'xshashligi.

27.1. Modellashtirishdagi o'xshashlik qonunlari

Modelda bo'ladigan jarayonlar tabiiy jarayonlar bilan bir-biriga o'xshash bo'lib, faqat miqdori va kattaligi bilan farq qilishi mumkin. Modelni yaratishda tabiiy jarayonlar iloji boricha to'liq hisobga olinishi shart.

Bu jarayonlarni qay tarzda hisobga olish ularning miqdori va kattaligining qanday darajada bo'lishini modellashtirish nazariyasiga asoslangan holda hal qilinishi kerak. Modellashtirish nazariyasi - «oddiydan murakkabga» va «ma'lumdan - noma'lumga» degan falsafiy tushunchalarga asoslangan. Ana shu tushunchalarga asoslanib, modellashtirishning asosiy mezonlari - har ikki jarayonning ko'rsatkichlari o'xshashligidir.

Tabiiy va modeldagi jarayonlar o'xshashligi bir- biriga yaqin bo'lishi yoki bir - biridan juda ham kam farqli bo'lishi uchun maxsus ko'rsatkichlar, omillar tanlab olinadi. Bu tanlab olingan ko'rsatkichlar, omillar tabiiy va sun'iy jarayonlarni to'liq aks ettirib, iloji boricha o'lchov birligisiz kattaliklar bo'lishi kerak.

Bu talablarni bajarish uchun bir xillilik yoki o'xshashlik shartlariga amal qilish kerak. O'xshashlik shartlari quyidagilardan iborat:

1. Jarayonlarning geometrik o'xshashligi;
2. Tadqiqot qilinayotgan jarayonlarning boshlang'ich shart-sharoitlarining o'xshashligi;
3. Jarayonlar sodir bo'layotgan muhitning xususiyatlari va uning o'ziga xos ko'rsatkichlarining o'xshashligi;
4. Chegaraviy shart-sharoitlar o'xshashligi.

Geometrik o'xshashlik tabiiy muhit va modeldagi uzunlik, balandlik, yuza, harakatning to'g'ri chiziqli yoki radialligi kabi omillarning o'xshashligini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich shart-sharoitlarning o'xshashligi, asosan, boshlang'ich bosim, harorat, gaz eriganligi, neft va gaz bilan to'yinganligi, muhitlarning gidrofil yoki gidrofobligi kabi ko'rsatkichlarning o'xshashligini o'z ichiga oladi.

Muhitning xususiyatlari va o'ziga xos ko'rsatkichlarining o'xshashligi: qatlamning g'ovakligi, o'tkazuvchanligi, solishtirma yuzasi, mexanik xossalari; qatlamdagi suyuqliklarning zichligi, qovushqoqligi, erigan tuz va gaz miqdorlari; ularning tarkibi kabi omillarning o'xshashligini o'z ichiga oladi.

Chegaraviy shart-sharoitlarning o'xshashligi ta'minlash chegarasidagi bosim, quduqlarning ishlash ko'rsatkichlari, ularning soni kabi omillarning o'xshashligini o'z ichiga oladi.

Modellashtirish nazariyasida har ikkala jarayon ham bir xil matematik differensial tenglamalar bilan tasvirlansa va o'xshashlik shart-sharoitlari bajarilsa bu ikki jarayon o'xshash deyiladi. Bu nazariya Kirpichnikov Guxman nazariyasi deb yuritiladi.

O'xshash jarayonlar mezonlar orqali xarakterlanadi.

27.2. Neft va gaz konlarini modellashtirish uchun qo'llaniladigan o'xshashlik mezonlari

Neft-gaz konlaridagi bo'ladigan jarayonlarni modellashtirishda quyidagi 17 mezon hisobga olinadi:

- qatlamning g'ovakligi m , o'tkazuvchanligi k , to'yinganligi S_o , balandligi h , uzunligi l , og'ish burchagi α , neft siqib chiqarilayotgan yo'nalishdagi koordinatasi x , qatlamdagi suyuqliklarning zichligi ρ_s , ρ_n , μ_s , μ_n , bosimlar ayirmasi ΔR , quduqning mahsulot miqdori q , sirt taranglik kuchi G , chekka ho'llash burchagi Q , erkin tushish tezlanishi g va vaqt t . Bu mezonlar qatlamda bo'layotgan jarayonlarni deyarli to'liq aks ettiradi. Lekin hisoblashlarda bu mezonlardan shundayligicha foydalanish, ularning o'lchov birliklari har xil bo'lganligi tufayli hisoblashlarni ancha murakkablashtirib yuboradi. Shuning uchun 17 ta mezondan 13 ta o'lchov birligisiz kattalik hosil qilinadi:

$$\begin{aligned} & 1 \text{ } \% \text{ } ch/l; 2/h/l; 3/q^* t/l; 4/\alpha; 5/m; \\ & 6/ \mu_n/\mu_s; 7/S_o; 8/ \rho_n\rho_s; 9/ m^* \Delta P/g^* \mu_n \\ & 10/ \rho_1 \sqrt{k} / \mu_1 \quad 11/ G \sqrt{m} / \Delta P \sqrt{k} = \pi_1; \\ & 12/ G/k/ \text{grad}P|=\pi_2; 13/ \cos \theta. \end{aligned}$$

Bu o'lchov birligisiz kattaliklar neft va gaz qatlamlarini ishlatishda bo'ladigan barcha jarayonlarning matematik modelini yaratishga va ular bilan murakkab hisoblashlar olib borishga imkon beradi.

Mustaqil o'qish uchun tavsiya etiladigan ma'ruzalar

1. Modellashtirishda o'xshashlik qonunlari.
2. Neft va gaz konlarini modellashtirish uchun qo'llaniladigan o'xshashlik mezonlari.

Glossariy

Gidrofil suqliklar bu - ho'llovchi suyuqliklar

Gidrofob suqliklar bu - ho'llamaydigan suyuqliklar.

Ho'llanadigan qattiq jismlar - **gidrofil**.

Ho'llanmaydigan qattiq jismlar - **gidrofob** jismlar deb yuritiladi.

Neft-gaz konlaridagi bo'ladigan jarayonlarni **modellashtirishda** - 17 mezon hisobga olinadi.

Nazorat savollari.

1. Modellashtirish nazariyasi bu . . .
2. Geometrik o'xshashlik bu . . .
3. Boshlang'ich shart-sharoitlarning o'xshashligi bu . . .
4. Muhitning xususiyatlari va o'ziga xos ko'rsatkichlarining o'xshashligi bu . . .

5. Chegaraviy shart-sharoitlarning o'xshashligi bu . . .
6. Neft-gaz konlaridagi bo'ladigan jarayonlarni modellashtirishda qanday mezonlar hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гиматудинов Ш.К. Ширковский А.И. Физика нефтяного и газового пласта. –М Недра. 1982
2. Электронный учебник серии “Черное золота по дисциплине” <<Физика пласта >> Разработчик Центр Информационных Технологий. Москва 2004 й
3. <http://www.er.narod.ru>.
4. Akromov B.SH. Sidiqxujayev R.K. “Neft va gaz qatlami fizikasi” darslik -Toshkent 2006
5. Котяхонов Ф.И. “Физика нефтяных и газовых коллекторов” – М.недра.1977.
6. Sidiqxujayev R.K. Akromov B.SH. “Neft va gaz qatlami fizikasi” Darslik. Toshkent, 1994
7. Акромов Б.Ш. Мейлиев А. Методические указания по лабораторных работ по курсу “Физика нефтяного и газового пласта” Тошкент. -2006й.
8. Afanaseva A.V., Gorbunov A.T., Shuster I.N. Zavodnenie neftyanix plastov pri visokix davleniyax nagnetaniya – M.Nedra, 1975.
9. Babalyan G.A. Primenenie karbonizirovannix vod dlya uvelicheniya nefteotdachi. M.Nedra, 1970
10. Davlikanov V.V., Xabibullin Z.A. Anomalie- vyazkie nefti .Ufim.neft.ins., 1997.
11. Dostnov K.M. Razrabotki neftyanix mestorojdeniy. M. Nedra, 1975.
12. Berdin Yu.G. Proektirovanie razrabotki neftegazovix mestorojdeniy sistemami gorizontalnix skvajin. M: OOO ”Nedra-Biznestsentr”, 2001.-199s
13. Bissarigin Yu.M., Makorenka P.P., Mavromati V.D.”Remont gazovix skvajin-M:OAO Izdatelstvo “Nedra”, 1998-271s
14. Gazizov A.A.”Uvelichenie nefteotdachi neodnorodnix plastov na pozdney stadii razrabotki”-M: OOO ”Nedra-Biznestsentr”, 2002-639s
15. www.Ziyo.net.
16. www.google.uz.

